experiences of foreign countries on the formation of creative competencies of students are used. These experiments are aimed at developing students' creativity by improving educational software, teaching methods and learning environment. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) education emphasizes an interdisciplinary approach and exposes students to the creation and practical application of scientific ideas through experiential learning. In addition, the Project-Based-Learning approach engages students in practical research or project development by solving real-life problems along with subjects. This approach serves to increase the creative competence of students through group work. Design Thinking is an approach that focuses on using creativity to solve problems. This teaches students to create innovations, solve real-life problems, quickly find solutions and develop their own prototypes. If we pay attention to the methods, methods and approaches used by the countries of the world in the process of formation of creative competencies in students:Competency- based Learning

- in this approach, students are assessed quickly and thereby develop rapid response skills.

- Creative know How - this study consists of 5 strategies that teach students how to easily get out of difficulties encountered in their life.

- - Students who entered the country through immigration are supported to understand and study important issues in educational institutions.

- Finnish education actively develops students' creative thinking and problem-solving skills in the following ways:

- - Play-based learning and project-based - learning - Through the game, it is possible to study the surrounding world, gain experience, and understand the world. Cognitive, social and emotional development of students is accelerated.

- - Minimal Standardized Testing - standardized testing is not used, instead the focus is on an environment that fosters critical thinking and creativity.

- - Supportive atmosphere - Priority is given to creating a supportive and inclusive environment in education. It allows students to explore their own ideas without fear of taking risks and making decisions.

- - Lifelong Learning Mindset- By nurturing students' sense of curiosity and inquiry, students gain new knowledge and experiences throughout their lives. - Students who entered the country through immigration are supported to understand and study important issues in educational institutions.

- Finnish education actively develops students' creative thinking and problem-solving skills in the following ways:

- Play-based learning and project-based - learning - Through the game, it is possible to study the surrounding world, gain experience, and understand

the world. Cognitive, social and emotional development of students is accelerated.

- Minimal Standardized Testing - standardized testing is not used, instead the focus is on an environment that fosters critical thinking and creativity.

- Supportive atmosphere - Priority is given to creating a supportive and inclusive environment in education. It allows students to explore their own ideas without fear of taking risks and making decisions.

- Lifelong Learning Mindset- By nurturing students' sense of curiosity and inquiry, students gain new knowledge and experiences throughout their lives.

The methods used to build creative competencies in students in the Singapore education system include a wide range of approaches.

- Design Thinking - it encourages students to create innovations in any situation. This way of thinking combines divergent and convergent thinking and aims to integrate vitality.

- Harmonized approach is a harmonized approach to teaching and learning creativity, forming creativity through learning and teaching.

- Everyday creativity- every day thoughts are written by students, and their creativity is shown.

- Creativity as innovation - encourages students to create new opportunities, live in a feeling of endless inspiration.

If we pay attention to the above, the application of the experiences of foreign countries in educational institutions develops an international perspective and a broader view of the world. The effective use of technologies and the use of new pedagogical methods play an important role in education through the use of global experience and knowledge. Creativity and innovation can be fueled by learning and applying best practices.

One of the advantages of creative competence is that it helps students to learn better. Students with high creative thinking skills process information more efficiently, which allows them to learn new concepts faster. They are also more likely to remember what they have learned. Students with strong creative thinking skills are able to remember facts and figures, for example, in English lessons, students are able to remember dictionaries, leading in many areas. Encourages students to ask questions, test their theories, conduct experiments, and act to respond to the reality around them.

In short, the exchange of experiences between countries always serves the development of science. Student - helps young people to get a wide range of knowledge. Relations between the educational system of Uzbekistan and foreign countries continue to develop.

### List of used literature:

1. I.S. Khotamov, M.K. Olimov, G.R. Madrahimova, I.S. Foziljanov. Creative thinking. Study guide for the credit module-T.: "Innovative development publishing house", 2021, 192 pages.
2. Sarah Ryan, Joshua D. Cox. In collaboration with the Northeast College and Career Readiness Research Alliance. At Education Development Center, REL2016 – 165.
3. K. N. Yusupova. Improving the methodology of developing students' creativity competence. Abstract. Tashkent-2022.
4. Grace Belfiore and Dave Lash. Creative Know How: Competencies for student success in a world of change. 2018.

## I SHO‘BA. ONTOGENEZDA SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

---

### SHAXS PROFESSIONALIZMIGA TA’SIR KO‘RSATADIGAN STEREOTIPLARNING NAZARIY TALQINI (MASKULINLIK VA FEMININLIK MISOLIDA)

*Hayitov Oybek Eshboyevich*

*Oriental universiteti, Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrası,  
psixologiya fanlari doktori, professor*

*Kabulova Saboxat Baxodirovna*

*Urganch davlat universiteti, tayanch doktorant*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maskulinlik va femininlik sifatlarining professional shaxsni shakllanishidagi ta’siri xorijiy tadqiqotlar yordamida nazariy tahlil qilingan.

**Tayanch iboralar:** differensial sotsializatsiya, jinsiy dimorfizm, jinsiy belgilar, jinslararo farqlar, erkak, ayol, maskulinlik, femininlik, stereotiplar.

**Аннотация:** В данной статье с помощью зарубежных исследований теоретически анализируется влияние мужских и женских качеств на формирование профессиональной личности.

**Ключевые слова:** дифференциальная социализация, половой диморфизм, половые признаки, гендерные различия, мужчина, женщина, мужественность, женственность, стереотипы.

**Abstract:** This article, with the help of foreign research, theoretically analyzes the influence of masculinity and femininity qualities on the formation of a professional personality.

**Key words:** differential socialization, sexual dimorphism, sexual characteristics, gender differences, man, woman, masculinity, femininity, stereotypes.

Ma’lumki, inson shaxsiyati o‘zining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-madaniy hodisalar ta’sirida bo‘ladi va ijtimoiylashuv jarayonida mazkur shaxs o‘zi mavjud bo‘lgan jamiyat normalari, qoidalari va xulq-atvor xususiyatlarini o‘zlashtiradi.

Rivojlanish psixologiyasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar erkaklar va ayollarning jamiyatdan kutilgan turli xil xatti-harakatlar normalarini

o'zlashtirish jarayonini «differensial sotsializatsiya» atamasi bilan atashadi. Shawn Meghan Burnning [1] ma'lumotlariga ko'ra, «... bolalar 3-5 yoshdayoq, ishonch bilan o'zlarini erkak yoki ayol jinsiga tegishliliklarini e'tirof etadilar» [1; 320 b.]. Shunday qilib, har qanday kishidagi shaxsiyatning rivojlanishi gender identifikatsiyasining ikki yo'nalishidan biri doirasida sodir bo'ladi.

B.G. Ananyev [2] qayd etishicha, «... jinsiy dimorfizm masalalari odam haqidagi fanlarning asosiy muammolari sirasiga kiradi va bu tadqiqotlar 1960 yilda Sankt-Peterburg universitetida boshlangan» [2; 288 b.].

B.G. Ananyev – «jinsiy belgilar»ni – individning konstitutsiyaviy, neyrodinamik va bilateral xususiyatlari bilan bilan bir qatorda boshlang'ich va (yoki) birlamchi, individual-tipik xususiyatlari tarkibiga ham kiritadi. Shuningdek, jinsiy dimorfizm insonning umumiy somatik va neyropsik rivojlanishiga chuqur ta'siri haqida ilmiy xulosalarini bayon qiladi» [3; 90-bet]. Tadqiqotlar davomida psixofiziologik rivojlanishning ayol turi erkak turidan erta yetilishi va funksional darajaning barqarorlashtirilishi bilan ajralib turishi isbotlangan.

Zamonaviy tadqiqotlarda jinslar o'rtasida kuzatilgan farqlar to'g'risida kuchli dalillar mavjud bo'lsa-da, ammo ular ko'pchilik o'ylaganidek ahamiyatli emas.

Eleanor Emmons Maccoby va Carol Nagy Jacklin o'zlarining «Jinsiy farqlar psixologiyasi» nomli ilmiy ishlarida, «jinslararo farqlarning quyidagi:

1-guruh: ishonchli tarzda belgilangan genderli farqlar (verbal, matematik, fazoviy qobiliyatlar va tajovuzkorlik);

2-guruh: asossiz farqlar (ishontira olishlik, o'z-o'zini hurmat qilish, tahliliy qobiliyat, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi);

3-guruh: ochiq savol bo'lib qoluvchi gender farqlar (taktil sezgirlik, qo'rquv va tashvish, raqobatbardoshlik, murosaliilik)» [4; 615 b.] kabi uch guruhini ajratishadi.

Belgilangan jinsiy farqlar ahamiyatsiz bo'lishiga qaramay, ikki olam, ya'ni «erkak» va «ayol» olami o'rtasida mavjud farqlanishlar haqidagi tasavvurlar barqarorligicha qolmoqda. Gap shundaki, erkaklarning ayollardan farqlari bu tarbiya va gender ijtimoiylashuvining natijasidir.

Tarixan shakllangan jinsiy-rolli stereotiplarini o'zgartirish juda qiyin, chunki ular nafaqat kundalik ong tomonidan, balki mashhur psixologlar va faylasuflarning asarlari orqali ham asoslangan va ilmiy qarashlar mustahkamlanib kelinmoqda [6; 440-bet].

I.S. Klesina [7] gender stereotiplarining jamiyatda keng tarqalgan quyidagi: «1) maskulinlik-femininlik stereotiplari; 2) oilaviy va kasbiy rollarni jinsga muvofiq ravishda birlashtirish; 3) mehnat mazmunidagi tafovutlar» [7; 188–203-betlar] kabi uchta guruhini ajratadi.

T.V. Bendas [8] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, «... muvaffaqiyat borasida erkaklar ustunligi haqidagi stereotipni tasdiqlamasada, biroq bu stereotip jamiyatda kishilar ongida barqarorligicha qolib, ayollarda muvaffaqiyatga erishishga nisbatan intilishning kamayishiga olib kelgan. Jumladan, ayollar erkaklarga qaraganda o'z xatti-harakatlarini jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga ko'proq mos kelishiga harakat qilishadi» [8; 167 b.], deb qayd etilgan.

I.S. Kon [9] fikricha, «Zamonaviy ayollar, nozik, yumshoq, passiv va ojiza ekanliklari haqidagi o'rnashib qolgan tasavvurlarga qaramay, ko'proq aqlli, jismoniy baquvvat, tashabbuskor, ya'ni erkak fazilatlariga ega bo'lishga intilishadi» [9; 319 b.]. «Erkaklik stereotipi ham vaqt o'tishi bilan o'zgarishlarga uchraydi: endi aql jismoniy kuchdan yuqori baholanadi, nafasot va ruhiy noziklikning namoyon bo'lishiga ruxsat beriladi, «qo'pol» hissiyotlarning cheklanishi talab qilinadi» [10; 496 b.].

Shunday bo'lsa-da, «... erkak va ayollarning xulq-atvori va shaxsiy xususiyatlariga oid stereotiplar bolalik davridan shakllanganligi deyarli o'z isbotini topmaydi. Bunday stereotiplarga muvofiqlik kishi ulg'ayib borgan sari paydo bo'lib boraveradi» [8; 75–76-betlar].

Gerard Hendrik Hofstede [11] fikriga ko'ra, «jinsiy rollar farqlanishining kichik bir qismi biologik jihatdan determinatsiyalangan, ammo jinsiy rol namunalari barqarorligi butunlay shaxsning ijtimoiylashuvi natijasi sanaladi». «G.H. Hofstede jinsiy rol so'zining qat'iy ma'nosida faqat bola tug'ish (masalan, homiladorlik va tug'ilish) bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakat, «ayol» yoki «erkak»ka tegishli bo'lishi mumkin, deb yozadi. Shunday bo'lsa-da, har bir jamiyat ayrim xatti-harakat va (yoki) xulq namunalari ayollarga, boshqalarini esa erkaklar uchun mos kelishini tan oladi» [11; 177-bet].

Ilmiy tadqiqotlarda, maskulinlik va fimininlik sifatleri turli madaniyatlarda shaxs xatti-harakatlaridagi dominant jinsiy rolli patternlar sifatida ham namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. G.H. Hofstede fikricha, «maskulinlik normasi bu jamiyatning o'rta sinf vakillarining aksariyati tomonidan qabul qilingan umumiy qadriyatlar tizimidir. An'anaga ko'ra, erkak o'zini assertiv-qat'iy tutishi va ayolga nisbatan g'amxo'r bo'lishi talab etiladi» [11; 327 b.]. S.S. Lomakina qayd etishicha, «G.H. Hofstede o'z tadqiqotlari orqali, «maskulinlik indeksi» tushunchasini shaxsning faoliyat turini, birgalikdagi tashkilotchilikni, jinslar madaniyatlar va boshqalar o'rtasidagi farqlanishlarni baholash uchun kiritgan. Yuqoridagilarga ko'ra, maskulinlik indeksining o'lchovi bu bitta qutbi «yuqori ko'rsatkichli erkaklik»ni va qarama-qarshi qutbi «past ko'rsatkichli erkaklik», ya'ni «femininlik»ni ifodalaydigan o'qdan tashkil topgan» [12; 26-bet].

Nazariy tahlillarimizga ko'ra, ushbu muammo ilmiy psixologiyada keng o'rganilgan. XIX asrda erkak va ayol xususiyatlari qat'iy ravishda bir-birini

istisno qiladi, deb hisoblangan va me'yordan og'ishning har qanday ko'rinishi patologiya va (yoki) unga nisbatan qadam (moyillik) sifatida qabul qilingan (masalan, bilimdon ayol – «ko'k paypoq», deya tavsiflangan).

Keyinchalik bunday «qattiq me'yorlashtirish» talabi o'z o'rnini erkak-ayol xususiyatlarining doimiyligi g'oyasiga bo'shatib berdi. Shu zaylda, XX asrning 30-60 yillarida psixologlar tomonidan shaxsning «aqliy qobiliyati (IQ)», «hissiyoti (EQ)», «qiziqishi» va hokazolar kontekstida «erkaklik» va «ayollik»ni (maskulinlik va femininlik) o'lchash imkonini beradigan bir nechta maxsus diagnostik usullarni ishlab chiqishgan.

Fanda, «maskulinlik va femininlik» o'lchovining dastlabki tizimi 1936-yilda amerikalik psixologlar Lewis Madison Terman (1877–1956) va Catharine Morris Cox Miles (1890–1984) tomonidan taklif etilgan. Buning uchun ular «Munosabatlar va manfaatlar tahlili» so'rovnomasini ishlab chiqishgan va uning mazmuniga shaxsiy fazilatlar, qiziqishlar, moyilliklarni assotsiatsiyalovchi savollarni kiritishgan [13; 600 b.].

So'rov natijalariga ko'ra, tadqiqotchilar baland ovozga ega bo'lish, ov qilishni yaxshi ko'rish, bolalikdagi itoatsizlik, jismoniy og'riqlarga chidamlilik va boshqa shunga o'xshash xususiyatlarni erkaklarga xos deb tasnifladilar. Yuqoridagi ta'kidlangan fazilatlariga «to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) qarama-qarshi», shuningdek, «chaqaloq», «tarbiyalash» kabi so'zlar bilan ijobiy assotsiatsiyalar mavjudligi bilan ayollik xususiyatlari aniqlangan. Tadqiqot so'ngida unda ishtirok etgan respondentlarning javoblari mualliflar tomonidan taklif etilgan erkaklik va ayollik modellariga o'rtacha hisobda mos kelgan [13; 600 b.]. Shuningdek fanda maskulinlik va femininlikni mohiyatan muqobil xususiyatlarini aniqlovchi «Shaxs so'rovnomasining mini-mult shakli» (Minnesota Multiphasic Personality Inventory, MMPI) [14; 224 b.] va Joy Paul Guilford tomonidan taklif etilgan «Gilford testi» shkalalari ham mavjud. Bu o'lchov vositalarining barchasi yo'riqnomaga muvofiq, ma'lum bir me'yor doirasida har qanday shaxsni «maskulinlik va (yoki) femininlik» darajasida farqlash mumkin degan ishchi faraz asosida shakllantirilgan. Tadqiqotlarda maskulinlik va femininlikning xususiyatlari muqobil, bir-birini istisno qilib, «yuqori maskulinlik» darajasi «past femininlik» bilan bog'liq bo'lishi kerak va (yoki) aksinchaligi o'z isbotini topgandek tuyuldi. Bunda erkaklar uchun me'yor «yuqori maskulinlik» darajasida bo'lishi maqsadga muvofiq sanalsa, ayollar «yuqori femininlik» xosdir.

Aniqlanilishicha, dastlabki tadqiqotlarda maskulinlik va femininlik «dixotomik», ya'ni biri birini o'zaro istisno etuvchi xususiyatlar deb hisoblanilgan. Bunda har qanday og'ish eksklyuziv sanalib, «me'yor»dan og'ish hatto patologiya sifatida qabul qilingan.

Keyingi tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, barcha aqliy xususiyatlar «erkak» va «ayol»ga jinsiga qutblanmagan. Bundan tashqari, aql, hissiyot,

qiziqish va boshqa shaxs xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan turli xil o'lchov vositalar yordamida olingan natijalar prinsipial jihatdan bir-biriga to'g'ri kelmagan. Masalan, ba'zi ko'rsatkichlarda juda maskulin bo'lgan shaxs boshqalarda juda nazokatli (feminin) bo'lishi ham mumkin. Shu asosda, erkak-ayollik xususiyatlari davomiyligi (kontinuumi) g'oyasi rivojlantirildi hamda uning doirasida individlar erkaklik va ayollik darajasi bo'yicha farqlanishi farazi ilgari surildi. 1974-yilda ana shu davrning asosiy tartib-taomillariga muvofiq ravishda maskulinlik va femininlik ta'rifiga nisbatan yangicha yondashuv S. Bem [15] tomonidan ishlab chiqilgan. Erkak va ayollik fazilatlarini o'rgangan o'zidan oldingi barcha tadqiqotchilardan farqli o'laroq, S. Bem, bu xususiyatlarni aniqlash(tanlash)ni jamiyat a'zolari ixtiyoriga qoldirgan. Xususan, u o'z tadqiqotlarida ikkala jins vakillaridan tashkil topgan talabalarni ikki guruhga ajratib, zamonaviy erkak va (yoki) ayol uchun qanchalik zarurligi nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda 400 ta shaxsga xos insoniy sifatlarni baholab berishni taklif etadi. Bunday ekspert baholash natijalariga ko'ra, 20 ta erkakcha, 20 ta ayoliy va 20 ta oraliq (neytral) sifatlari (erkaklar va ayollarga teng darajada) tanlab olingan. Tanlangan sifatlarning yarmi ijobiy, qolgan yarmi esa salbiy bo'lgan [15; 176–196-betlar]. S.S. Lomakina «A. Adlarning «erkakcha norozilik» va maskulinlik nazariyasi orasidagi bog'liqlik xuddi yuqori «ijtimoiy qiziqish» va ayollik tushunchalarning yaqinligi kabi ochiq oydin ravshan», degan xulosaga kelgan. Shuningdek, u A. Anastasining «... bir jinsning boshqasidan ustunligi yoki pastligi haqida emas, balki «qobiliyatlar yoki shaxslardagi jinslararo o'ziga xos farqlar» haqida so'z yuritish kerakligi to'g'risidagi qarashiga qo'shilgan» [12; 29-bet]. Sababi, «... bu tafovutlar asosan, madaniy va boshqa empirik omillar natijasidir», [15; 652-bet] deb ta'kidlagan.

Demak, A. Anastasi va Sh.M. Burn tadqiqotlarida, erkaklar va ayollar o'rtasidagi interindividual farqlar faqatgina guruhlararo farqlarni o'rinlashtirish aniqlangan. Shu bois, erkaklar va ayollarning xatti-harakatlaridagi farqlar hech qanday tarzda genetik jihatdan oldindan belgilab qo'yilmagan, tug'ma emas, ta'lim, ishontirish, tarbiya, ijtimoiylashtirish, kattalar tomonidan ijtimoiy kutilmalar va normalarga muvofiqlik natijasidir, degan to'xtamga kelingan.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Берн Ш. Гендерная психология. – Санкт-Петербург: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2001. – 320 с.
2. Ананьев Б.Г. Избранные труды по психологии: [посвященные 100-летию со дня рождения]. Т. 1 / Б.Г. Ананьев; [науч. ред. и авт. вступ. ст. Н.А. Логинова]. – Санкт-Петербург: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2007. – 409 с.
3. Онтопсихология: Учеб. пособие / Под ред. А.А. Крылова, Е.Ф. Рыбалко. – Санкт-Петербург: Изд-во С.-Петербур. Ун-та, 2003. – 276 с.



4. Doyle J.A., Paludi M.A. Sex and gender. The human experience, McGraw-Hill, 1998. – 615 p.
5. Куницына В.Н., Казаринова П.В., Погольша В.И. Межличностное общение. Учебник для вузов. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 544 с.
6. Клецина И.С. Самореализация личности и гендерные стереотипы // Психологические проблемы самореализации и личности. Вып.2 / Под ред. А.А. Реана, Л.А. Коростылевой. - Санкт-Петербург: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 1998. – С. 188–203.
7. Бендас Т.В. Гендерная психология лидерства. Монография. – Оренбург: ИПК ОГУ, 2000. – 167 с.
8. Кон И.С. Введение в сексологию. – Москва: Медицина, 1988. – 319 с.
9. Кон И.С. Мужчина в меняющемся мире. – Москва: Время, 2009. – 496 с.
10. Hofstede G. Culture's consequences. International differences in work-related values. – Sage Publications, 1991. – 327 p.
11. Ломакина С.С. Феномен социально-психологического исследования наследования у современных руководителей: Дис. ... канд. психол. наук: 19.00.05. – Санкт-Петербург: СПб. гос. ун-т., 2006. – 211 с.
12. Terman, L.M. & Miles, C.C. (1936). Sex and Personality: Studies in Masculinity and Femininity. McGraw-Hill Publications in Psychology. McGraw-Hill, 600 p.
13. Собчик Л.Н. СМЛЛ. Стандартизированный многофакторный метод исследования личности. – Санкт-Петербург: Речь, 2009. – 224 с.
14. Sandra Bem. The Lenses of Gender. Yale University Press, 1984. P. 176–196.

## SHAXSDA DANGASALIKNI KELITIRIB CHIQRUVCHI OMILLAR

*Nishanova Zamira Taskarayevna*

*TDPU professori, psixologiya fanlari doktori*

*Raxmatullayeva Gulnoza Mamadali qizi*

*TDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada dangasalik haqida tushuncha, dangasalikning nazariy asoslari dangasalikni keltirib chiqaruvchi omillar, uning psixologik xususiyatlari va simptomlari dangasalikning irodaviy xususiyatlar bilan bog'liqligi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, dangasalik turli xil psixologik, kognitiv va biologik omillar ta'sirida murakkab xatti-harakatlar bo'lib, uni ilmiy psixologiyada asoslanganligi haqida so'z yuritilgan.

**Аннотация:** В статье рассматриваются понятие лени, теоретические основы лени, факторы, вызывающие лень, ее психологические

особенности и симптомы, а также связь лени с волевыми характеристиками. Также говорят, что лень — это сложное поведение, находящееся под воздействием различных психологических, когнитивных и биологических факторов, и оно основано на научной психологии.

**Abstract:** The article discusses the concept of laziness, the theoretical foundations of laziness, the factors that cause laziness, its psychological characteristics and symptoms, and the relationship of laziness with volitional characteristics. It is also said that laziness is a complex behavior under the influence of various psychological, cognitive and biological factors, and it is based on scientific psychology.

**Tayanch iboralar:** Dangasalikni keltiruvchi omillar, psixologik xususiyatlari va simptomlari dangasalik fenomeni, irodaviy sifatlar, kognitiv omillar, biologik omillar, jismoniy charchoq, diqqat, motivatsiya, ehtiyoj.

Dangasalik - ixtiyoriy harakatni talab qiladigan faoliyatni amalga oshirish istagi yo'qligi bilan tavsiflangan ruhiy hodisa. Buni ruhiy holat sifatida ham, shaxsiy xususiyat sifatida ham ko'rib chiqish mumkin. Dangasalikni shaxsiy xususiyat sifatida tasniflashda uning xatti-harakatlarida namoyon bo'lish chastotasi va bir vaqtning o'zida ijobiy tajribalarning intensivligi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Dangasalik shaxsiy xususiyat sifatida insonning hayot va faoliyatdan zavq olishga intilishida, uning qiziqishlari va ehtiyojlariga javob bermaydigan ishini bajarishga qarshilik ko'rsatishida namoyon bo'ladi.

Dangasalikka moyil bo'lgan va unga moyil bo'lgan odamlarda dangasalik o'xshash vaziyat o'zgaruvchilari bilan belgilanadi. Birinchisi uchun ular dangasalik holatini boshdan kechirishni qo'zg'atuvchi stimullar, ikkinchisi uchun ular tajriba bilan birga xatti-harakatlardagi dangasalikning namoyon bo'lishini amalga oshiradigan shartlardir. Dangasalik holati tajribasining tuzilishini to'rtta bipolyar omil bilan tavsiflash mumkin: "passivlik - faollik", "zavq - azoblanish", "charchoq - ishlash", "salbiy - o'ziga ijobiy munosabat".

Ilmiy psixologik bilimlarga murojaat qilish dangasalikni shaxsiy xususiyat sifatida ko'rib chiqish imkoniyatini beradi, S.Stepanov dangasalikni topshirilgan vazifalarni bajarishdan g'ayrioddiy qochish, vaqtni behuda sarflash va bekorchilikdan zavqlanish tendensiyasi bilan tavsiflaydi. K.Platonov esa ishlashga, ixtiyoriy harakatni talab qiladigan har qanday narsani qilishga, shuningdek, bekorchilikdan zavqlanish tajribasiga ega bo'lish istagi yo'qligi bilan tavsiflangan ruhiy holat sifatida ko'radi.

E.Mixaylova o'zining ilmiy tadqiqotlarida quyidagicha gipotezalarga to'xtaladi:

1. Dangasalik ruhiy holat sifatida ham, shaxsiy xususiyat sifatida ham ta'riflashga harakat qilishi mumkin.

2. Dangasalik tajribasini faollik, o'ziga munosabat va hissiy o'zgaruvchanlik kabi o'zgaruvchilar nuqtai nazaridan tavsiflash mumkin.

3. Xulq-atvorda dangasalikning namoyon bo'lishi uchun dangasalik holati tajribasining xususiyatlari muhim bo'lishi mumkin.

4. Dangasalikka moyil bo'lmagan va unga moyil bo'lgan odamlarda dangasalikning vaziyat belgilovchilari o'xshashdir.

5. Xulq-atvorda dangasalikni ko'rsatishga moyil bo'lgan odamlar, dangasalikni yengishga moyil bo'lganlarga qaraganda, psixologik himoyaning ko'proq intensivligi bilan ajralib turadi.

6. Ijtimoiy tomonidan tasdiqlangan qadriyatlarining ahamiyati, shuningdek, dangasalikka moyil odamlarda ma'lum shaxsiy xususiyatlarning namoyon bo'lishi unga moyil bo'lmagan odamlardan farq qiladi.

7. Dangasa odamlar, dangasa bo'lmaganlarga nisbatan, faoliyat samaradorligining pastligi va unga nisbatan salbiy munosabat bilan ajralib turadi.

Shuningdek uning tadqiqot natijalari dangasalikning omillarini quyidagicha ifodalaydi.

1. Zerikish -32,9%

2. Monotonlik -28,5% masalaning ahamiyati -3,7%

3. Noaniq ko'rsatmalar -28,0% muvaffaqiyat- 3,7%

4. Muntazam yuqori holat -27,2%

5. Vazifaning ma'nosizligi 26,0%, dam olish 3,3%

6. Charchoq- 24,8%

7. Past holat -24,0% hushyorlik -3,3%

8. O'ziga ishonchsizlik- 23,2% maqsadga erishish- 2,8%

9. Rozilik- 22,0% natijaning ahamiyati -2,8%

10. Ahamiyatsiz masala -21,5%

11. Kam ish haqi- 21,1%

12. Yomon kayfiyat -20,3%

Qizig'i shundaki, dangasalikning yuqori darajasi bevosita zerikish oqibatida kelib chiqishini ko'rishimiz mumkin.

Biz esa ular bilan taqqoslagan holda dangasalikni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida quyidagilarni keltirib o'tamiz.

-Motivatsiyaning pastligi, bu dangasalikka sabab bo'ladigan eng asosiy omillardan biri;

-Maqsadning aniq emasligi;

- Ma'suliyat va javobgarlikdan qo'rqish;

- Keraksiz tanlovlar;

- Mag'lub bo'lishdan qo'rqish;

- Depressiya;

- Qaror qabul qila olmaslik;

- Toliqish-yaxshi ovqatlanmaslik, kerakli vitaminlarni iste'mol qilmaslik;

- O'z o'zini qadramaslik;

- Boshqa odamlarga bog'liqlik;

- Qiladigan ishning ko'p bo'lishi ham, dangasalikka sabab bo'ladi;

- Energiya yetishmasligi kabi omillar dangasalikning shakllanishiga olib keladi.

Shunday qilib, dangasalik aniq qo'yilmagan maqsad yoki maqsadsizlik natijasida ham kelib chiqishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari kishining o'ziga bo'lgan ishonchsizligi ham sabab bo'lishi mumkin. Shu boisdan ham biz bugungi kunda bu kabi omillarga qarshi bevosita qarshi tura olishimiz va ular ustida ko'proq ishlashimiz lozim. Bu esa o'z navbatida irodaviy sifatlarni talab qiladi. Irodaviy sifatlarni esa quyidagilarni o'z ichiga oladi: Maqsadga yo'nalganlik, tashabbuskorlik, dadillik, qat'iyatlilik, intizomlilik, prinsipiiallik, mustaqillik, o'zini tuta bilish, matonatlilik. Bu kabi xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar dangasalikdan yiroq bo'lishi nazarda tutiladi.

Dangasalik muammosi va uning sabablari nuqtai nazaridan ehtiyojlarning eng muhim xususiyati shundaki, ular ham jismoniy, ham ruhiy energiya manbai hisoblanadi. Faoliyatimiz va xulq-atvorimiz hozirgi ehtiyojimizga mos keladigan bo'lsa, bizda bu faoliyatni amalga oshirishda hech qanday muammo bo'lmaydi: na dangasalik, na zerikish, na kechiktirish, na ajralishning boshqa shakllari va muqarrar kechiktirishga urinishlar kabi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, dangasalik bugungi kunning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning kelib chiqish sabablarini aniqlash simptomlarini to'g'ri analiz qilish muammoning yarim yechimini bera oladi. Xuddi shu boisdan shaxsda dangasalikning rivojlanish omillarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Михайлова Е.Л. Лень в представлениях обыденного сознания. -СПб.: СПбГУ. 2010.

2. Коростылева Е.А. Психологические проблемы самореализации личности.-СПб.: СПбГУ. 2004.С.274-282

3. Михайлова Е.Л. 2007. Ситуативные и личностные детерминанты лени. Москва. 2007.

4. Nigel Benson. The psychology book: big ideas simply explained. Columbia. Publisher DK. 2011.

5. Коростылева Е. А. Психологическая проблема самосознания личности. – СПб.:СПбГУ. 2004.

## ОРАТОРСКОЕ ИСКУССТВО У ДЕТЕЙ: РАЗВИТИЕ, ЗАДАЧИ И РЕКОМЕНДАЦИИ

**Муротмусаев К.Б.**

*Университет Ориентал Республики Узбекистан, Кафедра  
«Педагогика непрерывного образования» доцент кафедры, к.м.н.,  
Ташкент, Республика Узбекистан*

**Суюнова З.**

*Университет Ориентал Республики Узбекистан, Кафедра  
«Педагогика непрерывного образования» студентка 2 курса, Ташкент,  
Республика Узбекистан*

**Аннотация:** в статье авторами подробно анализированы значения ораторского искусства в детском возрасте. Рассмотрены задачи и польза его, даны необходимые рекомендации для освоения ораторского искусства. Описаны легкие и приемлемые техники речи для детей.

**Ключевые слова:** дети, детский возраст, речь, риторика, ораторское искусство, ораторство.

**Аннотация:** maqolada mualliflar tomonidan bolalik davridagi notiqlik san'atining ahamiyati batafsil tahlil qilingan. Uning vazifalari va afzalliklari ko'rib chiqilib, notiqlik san'atini puxta egallash uchun zarur tavsiyalar berilganligi ko'rib chiqilgan. Bolalar uchun oson va maqbul nutq texnikasi tasvirlangan.

**Ключевые слова:** bolalar, bolalik, nutq, notiqlik, ritorika, notiqlik san'ati.

Что такое ораторское искусство и его польза для детей, как развить ораторскую речь и заниматься с ребенком, упражнения для занятий риторикой. Если ребенок умеет правильно и связно говорить, успехи в учебе не заставят себя ждать. Но многие дети стесняются, замыкаются и на публике не могут «пару слов связать». Развить ораторскую речь у ребенка можно.

*Что такое риторика и зачем она детям?*

Риторика – это наука, которая включает в себя умение и способность не только красиво говорить, но и убеждать собеседника. В основу дисциплины легла психология, лингвистика и прочие смежные науки. Научиться правильно выражать свою мысль в детстве гораздо легче, нежели в зрелом возрасте. Проще предупредить возможные ошибки и оплошности, чем исправлять их в будущем.

*Задачи риторики включают в себя:*

Обучение мастерству профессионального оратора.

Воспитание морального духа для выступления на публике.

Становление коммуникативной культуры.

Чтение произведений с выражением.

Развитие способности легко и непринужденно выражать собственные мысли.

Тренировка дикции, развитие речи.

Повышение уверенности в себе.

Получение иных навыков, которые помогут ребенку в будущем.

Рекомендуется приступать к занятиям по риторике с возраста 5–6 лет, чтобы к школе уже сформировался коммуникативный навык.

*Польза ораторского искусства*

Риторика и ораторское искусство развивает у ребенка множество навыков, среди которых:

Умение правильно задавать вопросы и самостоятельно четко формулировать на них ответы.

Использовать коммуникативные навыки для более ясного и четкого выражения собственной мысли.

Проработать и улучшить дикцию.

Обрести уверенность в себе.

Усовершенствовать навык выразительного чтения.

Научиться делать публичные выступления яркими, эмоциональными и интересными.

Научиться общаться со сверстниками и посторонними людьми.

То есть, занятия по риторике способны не только раскрыть творческий потенциал ребенка, но и помогут сформировать самодостаточную и духовно развитую личность.

*Как развить ораторское мастерство у ребенка?*

Детям особенно сложно выступать перед публикой. Развить ораторскую речь можно с малых лет, и уже в школьном возрасте эти знания и умения дадут свои плоды.

Чтобы ребенку было легче пережить выступление, родителю нужно:

Определить характер ребенка и темперамент. Так, сангвиники и холерики не боятся быть в центре внимания, а флегматикам и меланхоликам внимание публики дается тяжело.

Если выступление дается ребенку тяжело, не стоит его заставлять.

Провести несколько репетиций – попросить ребенка несколько раз прочитать текст перед родителем, а потом поменяться ролями.

Перед выступлением поиграть в спокойные игры, лучше те, что развивают речь – кукольный театр, ролевые игры.

Попробовать импровизировать – дать ребенку самостоятельно (с небольшими подсказками) сочинить сказку или рассказ.

Показать пример – выразительно прочитать отрывок из произведения.

Проявить как можно больше внимание к выступлению ребенка – если малыш увидит, что родителю интересно, он сам втянется в процесс.

Сделать запись выступления, а потом показать ребенку.

Если малыш увидит, что родитель в него верит, он сам в себя поверит!

*Как заниматься риторикой?*

Дисциплину преподают не во всех школьных и дошкольных учреждениях, но это не свидетельствует о том, что предмет не важен. Проводить занятия с ребенком можно дома самостоятельно. Рекомендация преподавателей — одно занятие должно состоять из 2 блоков. Это:

*Общение.* Нужно рассказать о необходимости коммуникативных навыков, об их важности, о роли мимики и жестов, о позе для общения, темпе и речевом тоне. Рассказывать о речевых жанрах, которые тонко переплетаются с жанрами литературными. Помогают хорошо развивать речь театральные кружки. В зависимости от возраста детей, содержание занятий может быть разным:

Детки младшего школьного возраста с удовольствием отрабатывают правильность произношения букв и звуков. Для отработки навыков рекомендованы скороговорки, считалки.

Дети постарше с удовольствием увлекаются публичным выступлением перед сверстниками.

*Упражнения по технике речи*

Есть много различных упражнений, которые можно выполнять с ребенком дома, для развития навыков общения и публичного выступления. На домашних занятиях можно легко использовать следующие:

*«Объясни».* Показать обычный бытовой предмет, попросить ребенка его описать.

*«Слова по теме».* Придумать тему и попросить ученика назвать все возможные предметы.

*«Придумай рифму».* Сказать ребенку слово и дать возможность придумать рифму.

*«Повтори дословно».* Из любой детской книги читать по одному предложению и просить ребенка дословно повторить.

*«Слушаем тишину».* Нужно замолчать на некоторое время, а потом попросить ребенка рассказать о звуках, которые он слышал из окружающего мира.

*«Рассказ по картине».* Нужно попросить ребенка описать любую картину. Не стоит брать *«серьезные»* и *«взрослые»* картины, нужны детские. Для первого раза достаточно будет дать описание, глядя на картину. Потом – картину убрать, описание оставить.

Даже просто общение помогает развить у ребенка ораторскую речь и коммуникативные навыки. Можно идти домой из детского сада или школы и описывать предметы вокруг, природные явления.

*Учимся общаться*

Ребенок начинает общаться довольно рано. Еще в год или полтора он может один сидеть в песочнице и спокойно играть. Но уже с 2 лет ему требуется общение со сверстниками. На детской площадке появляются друзья и «враги», дети могут дружить или ссориться. Так происходит их общение, налаживание коммуникативных связей.

Но не всегда общение бывает успешным, могут возникнуть проблемы. Решить их поможет риторика, так как одной из задач науки является умение общаться. Эффективное общение – это соответствие речевых законов нормам литературного языка. Когда дети приходят в начальную школу, они сталкиваются с тем, что пересказывать материал нужно «как надо». Получается трафаретная речь, лишенная всякой фантазии и уникальности. Это не способствует тому, чтобы дети научились правильно общаться.

*Общение со сверстниками*

Знакомясь с законами риторики, ребенок научится правильно выстраивать общение не только со сверстниками, но и с людьми старше себя, будь-то школьники или учителя. В ходе занятий ребята учатся:

*Оценивать и анализировать* возникшую ситуацию, правильно применять нормы общения.

*Строить процесс общения,* применяя навыки речевого этикета.

*Грамотно использовать* вербальные (слова) и невербальные (мимику, жесты) способы общения.

*Подбирать интонации* в соответствии со сложившейся ситуацией.

*Ориентироваться* в различных коммуникативных ситуациях.

*Успешно контактировать.*

*Рекомендации для родителей*

Развивая ораторскую речь в любом возрасте, родители должны позаботиться о том, чтобы занятия проходили в легкой форме и непринужденной обстановке. Для получения максимально эффективного результата, стоит прислушаться к советам педагогов:

*Регулярность.* Не имеет значения, где проводятся занятия – дома, в школе или на специальных курсах. Даже если ребенок заболел и пропустил обучение, дома нужно повторять уже пройденный материал

и, по возможности, изучать новый. Педагога нужно предупредить о пропусках, чтобы он потом мог уделить время пропущенному материалу.

Теория без практики не принесет должного результата. Если ребенок хорошо знает теорию, без практики он не сможет применить полученные знания. Поэтому регулярно нужно предлагать ему практические упражнения, игры, задания.

*Развитие творческих навыков.* Уроки риторики станут максимально эффективными, если дать ребенку развиваться творчески. Пусть он сочиняет рассказы, сказки, пишет стихи, выдумывает небывшие.

В задачу родителя входит всяческое поддержание собственного чада. Инсценировка речевых ситуаций, общение на любые темы, сочинение рассказов, сказок, моделирование выступлений — все это позволит развить ораторское мастерство. И тогда ребенок научиться правильно себя вести в коллективе, не будет бояться публичных выступлений, станет уверенным в себе человеком.

#### **Литература:**

1. Murotmusaev K.B., Yuldashev Sh. E., Shovqiyev L. "Psychology of Modern Leadership as an Important Phenomenon of Effective Management". International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE), 14(1) 2022

2. Murotmusayev K.B., Abduganieva M., Shodibekova G., Nizamov B. "Psychological factors in learning and teaching languages" "Студенческий научный вестник" Научный журнал, № 3(195) часть 6, февраль 2022

3. Murotmusayev K.B., Rahimberdiyeva I. "Kitob mutolasining inson salomatligidagi psixologik o'rmi." "Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitishning muammo va yechimlari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 45-49 bet. 1 qism. Toshkent 2022 y. 13-14 dekabr

4. Муротмусаев К.Б. "Родительское влияние на лидерство детей - как психологический фактор развития""Экономика и социум" №3(106)-2 2023 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) С. 591-599

5. Erkinbayeva N., Murotmusaev K.B.; "Ёш авлодни шакллантиришда оиланинг психологик кўникмалари," "Ўзбекистонда илм-фан ва таълим: Муаммо ва истикболлар" профессор-ўқитувчилар ва талабалар ўртасидаги II – онлайн илмий-амалий конференцияси, илмий-оммабоп мақолалар тўплами",,,,2021

6. Umirzoqova N., Murotmusaev K.B.; "Нотиқлик – кучли ишончга асосланган муваффақият гарови!", "FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASIDA RAQAMLI IQTISODIYOT ISTIQBOLLARI Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami",,,,128-133,2021.

## **JAHON PSIXOLOGIYASIDA BAXT HISSINING METODOLOGIK ASOSLARI**

*Rajabova Feruza Pozilovna*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent*

Baxt muammosiga «idonik» yondashuv qadimgi hind falsafasi maktabiga xos bulib, italiyalik gumanist faylasuf Lorando Vallo uning yaqqol vakilidir. Olimning fikricha, hayotning yuksak kadriyati - bu orombaxsh qo'zg'atuvchi ta'siridan tananing rohatlanishini sezishdir. Muallif mulohazalarga ko'ra, baxtning atributlari - bu dang'inlama uy, kiyimning seroblighi, jamiyki narsalarning muhayyolighi va go'zal ayollardir.

Eramizdan avvalgi VI asrda shu soha talqiniga oid uchinchi yo'nalish vujudga keladi va u "oltin o'rtalik" degan nom bilan yuritiladi. Shu davr yirik allomati Lyas Izining yozishicha, meyorini bilgan odamda omadsizlik, muvaffaqiyatsizlik bo'lmaydi. "Oltin o'rtalik" ning ikkinchi vakili Konfutsiydir. Aristotel davridan boshlab antik dunyo falsafasida mazkur yo'nalish ustuvorlikka erishadi.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning keyingi boskich vakili I.Kant mulohazasiga ko'ra, azob tuyg'usining ildizi qurigani yo'q, tabiat uni inson faoliyatining stimuli sifatida yaratdi. Uning talqinicha, xamisha yaxshilikka yo'nalgan, turmushdan shodlik tuyg'usi harakatsiz xotirjamlik belgisidir. Bunday holat insonning turmushdagi aqliy harakati bilan mutanosib, go'yo tirik organizmda yurak faoliyati to'xtaganga o'xshaydi, agarda uning ketidan yangi turtki, qo'zg'ovchi vujudga kelmasa, u holda o'lim sodir bo'ladi.

Psixologiya fanining tasdiqlashicha, baxt bu alohida individning hissiy holati, yuksak darajadagi kishilik jamiyatining guruhlarida uzluksiz ravishda farog'at tuyg'usi hukm sursa-da, lekin ko'pchilik ro'y-rost uni uzida aks ettira olmaydi.

Psixolog I.Argayl mulohazasicha, baxt bu: a) umuman turmushdan qoniqish kechinmasi, inson tomonidan o'tmishi va hozirning umumreflektor bahosi; b) ijobiy his-tuyg'ularning chastotasi va jadalligi (intensivligi) dir. Falsafada baxt aksariyat hollarda ideal sifatida qaraladi. XX asrda falsafa psixologiyalashib borishi natijasida insonning kechinmalari, uning ruhiy dunyosi ko'proq hisobga olinmoqda. Baxt ideal sifatida insonning turmushidan doimo, to'liq, qoniqish hissiday namoyon bo'ladi, agarda sharoit vujudga kelsa, unda imkoniyatlar ro'yobga chiqishi, maqsadga erishuv istagi aks etadi.

Shuning uchun individual-psixologik baxt borliqdan va turmushdan qoniqish kechinmalari sifatida namoyon bo'ladi. Baxtning obyektiv va subyektiv fenomenida (noyob jihatida) ikki xil shartlanganlik bilan

tavsiflanadi: a) inson turmush sharoitlari, ruhiy holatlari bilan bog'liqligi obyektiv borliq, taqozasi; b) inson ruhiyati, hayotining idrok qilishi, unga munosabati, ularni ma'naviy qabul etishga aloqador subyektiv kechinmalar majmuasi ekanligi.

Chet el ijtimoiy psixologiyasida baxt muammosi turmushdan qoniqish ma'nosida tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb etadi. Amerikalik psixolog bixeviorizmning asoschilaridan biri Dj.Uotson tomonidan 20-asrning boshlarida baxt manbalarini aniqlashga mo'ljallangan anketa so'rovnomasi o'tkazilgan.

Jahon psixologlari ma'lumotlariga qaraganda, eng xotirjam va baxtli odamlar Shimoliy Amerikada, Yevropada, Avstraliyada yashaydilar. Yevropa qitasida esa Belgiya, Daniya, Gollandiya, Angliya mamlakatlari xalqlari Germaniya, Italiya, Fransiya fuqarolaridan o'zlarini baxtliroq hisoblaydilar.

Chet el psixologlaridan R.Adri, E.Fromm, Z.Rubin va boshqalar tomonidan emotsional munosabatlar yoritib berilgan. Bu hissiy munosabatlarni yoritib berishda K.Izardning "Emotsii cheloveka" asari nihoyatda ahamiyatlidir. Muallif inson his-tuyg'ularini chuqur tahlil qilib bergan xolda shaxsda namoyon bo'lish ko'rinishlarini ham asoslab bergandir, lekin muallifning bu asarida yosh davrlarida bu hissiyotlar qanday xususiyat kasb etishini yoritib berilmagan.

Amerikalik A.Maslou inson ehtiyojlarini hissiy masalalar bilan bog'liqligini asoslaydi. Insonga xos ehtiyojlar orasida yaxshi munosabatlarga intilish ehtiyoji - sevimli bo'lish, kerakli bo'lish, qandaydir jamoaga taalluqlilik, shu odamni taniydigan va tushunadigan guruxga a'zolik, shu kabilar shaxsda ishonch va qiziqish, faoliyat va hayotga nisbatan samara olib kelishini va shu borada ehtiyojlari amalga oshirishini ko'rsatib beradi.

Inson hissiyotlari, shaxslararo insoniy munosabatlardagi ahamiyati, sevgi-muhabbat va do'stlik munosabatlari to'g'risidagi ilmiy fikrlar L.Y.Gozmanning "Psixologiya emotsionalnix otnosheniy" kitobida taxlil etib berilgan. Uning fikricha, xar bir kishi uchun qadrlil bo'lgan hissiyotlar yoqtirish va yoqtirmaslik, do'stlik va sevgi, g'azab va xavas kabi hissiy munosabatlar keyingi yillarda psixologik tadqiqotlarining predmeti sifatida qaralmoqda. Muallifning bu asarida inson hissiy munosabatlarini o'rganishga oid psixometrik kuzatuv metodlari tahlili va qo'llash shartlari ko'rsatib berilgan. Lekin, hissiyotlar tahlilida yosh xususiyatlariga e'tibor berilmagan.

A.N.Lukning "Emotsii i chuvstva" kitobida emotsional xolatlarning asosiy turlari, ularning har birining ta'rifi berilgan. Muallif fikricha, inson emotsional olamida faqat yoqimli hislargina mavjud emas, ularga qarshi hissiyotlar ham borligi muxim, chunki, faqat yoqimli yoki faqat yoqimsiz hissiyotlar to'yinishga va zerikishga olib keladi.

A.N.Lukning «Эмоции и личность» asarida esa inson his-tuyg'ularining uni shaxs sifatida har tomonlama kamol topishiga tasiri ko'rsatib berilgan. Uning fikricha, pedagog hissiyotlar psixologiyasini o'rganish orqali tarbiyalanuvchi shaxsiga ta'sir etishi mumkin.

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, inson hissiy munosabatlarini o'rganish, tadqiq etish ko'proq chet el va MDX olimlari tomonidan amalga oshirilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rokeach M. Beliefs, Attitudes, and Values. - San Francisco, Josey-Bass Co, 1972. - 214 p.
2. Rokeach M. The nature of human values. - N.Y., Free Press, 1973.
3. Cattell R.B. Personality and Motivation: Structure and Measurement. - N.Y., 1957. -948 p.
4. Alimova F. Oilaning psixologik muxiti // O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari.-Resp. ilmiy amaliy anjumani ma'ruzalari qisqacha bayoni -T.,1993. - 18-19 b.

#### **PSIXOLOGIK HIMOYANING TUZILISH MODELI.**

*M.Fayziyeva*

*QarshiDU Psixologiya*

*kafedrasi professori v.b., ps.f.d.*

Ilmiy bilishning ikki asosiy fundamental shakli, yoki ilmiy bilishning tarkibiy qismlari va darajalari: empirik (kuzatish va eksperiment ma'lumotlarga suyangan holda) va nazariy jihatdan obyektiv voqelikni uning zaruriy bog'lanishlari va munosabatlarini atroflicha bilishga qaratilgan. Bu ikkala tur ilmiy bilishning to'liq strukturasi o'zaro bog'liqdir. Empirik natijalar nazariy bilim uchun yangi vazifalarni belgilaydi, va nazariy bilim esa empirik natijalarni aynanlashtiradi va yo'naltiradi. Empirik natijalar o'zining rivojlanishida kuzatish stixiyali fazasidan toki yangi berilgan tajriba fazasigacha ko'tariladi. Ushbu metodologik pozitsiyalar konstruktiv psixologik himoyani shakllantirishning tavsiya etilgan modelida uning uchta darajasini aniqlashga imkon berdi: stixiyali, empirik va nazariy:

Stixiyali daraja shaxsni psixologik himoya qilish tizimining o'z-o'zidan ishlashi bilan ifodalanadi.

Empirik daraja shaxsning o'z xatti-harakatlari ustidan refleksiv o'z-o'zini nazorat qilishi, namoyon bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni anglashi bilan xarakterlanadi.

Nazariy daraja shaxsiy xususiyatlardan xabardorlikni hisobga olgan holda psixologik himoya tizimi faoliyatini, shuningdek, psixologik himoya tizimi va uning mumkin bo'lgan ko'rinishlari haqidagi bilim va ko'nikmalar tizimini ifodalaydi.

Modelning har bir darajasidagi tarkibiy qismlarni o'rganish mumkin:

Hissiy komponent hissiyotlardan kelib chiqadigan psixologik himoya mexanizmlari bilan ifodalanadi, qiyin hayot sharoitida shaxsning xatti-harakati strategiyasini belgilaydi.

Reflektor komponent modelning stixiyali faoliyat darajasidan empirik darajaga o'tish mezonini vazifasini bajaradi. Bu komponent shaxsning o'zini-o'zi nazorat qilishni rag'batlantiradi va o'zini-o'zi bilishga, o'z harakatlari va harakatlarini tushunish va baholashga intilish istagini bildiradi.

Kognitiv komponent modelning nazariy darajada ishlashiga imkon beradi. Insonning konstruktiv faollik resurslarini belgilaydi. Komponent tarkibiy qismiga o'zi va shaxsning psixologik himoyasi haqidagi bilimlar tizimini kiritadi. Modelning bir darajasidan ikkinchisiga o'tish model elementlarining miqdoriy va sifatiiy o'zgarishlaridan kelib chiqadi.

Modelning tarkibiy qismlarini faoliyat darajalariga mos ravishda tavsiflaymiz.

Modelning stixiyali darajasi



Stixiyali darajasi elementlar bilan ifodalanadi: emotsional va xulq-atvorli. Modelning emotsional elementi modelda shaxsning psixologik himoyasi tizimi bilan ifodalanadi, bu esa o'z-o'zidan faoliyat darajasida ongsiz qo'llanishi bilan tavsiflanadi, ibtidoiy mexanizmlar yordamida yuqori umumiy keskinlik (50% dan ortiq): "inkor", "ko'chish", "o'rin almashtirish", "regressiya".


Keskinlikka sabab bo'ladigan o'zaro ta'sir holati kognitiv tahlilga tortilmaydi, sodir bo'lgan hodisalar unutiladi, e'tibordan chetda qoladi, salbiy emotsional reaksiyalar boshqalarga o'tkaziladi, infantil xatti-harakatlar namoyon bo'ladi. Xulq-atvor elementi vaziyatni hal qilish uchun shaxs tomonidan foydalaniladigan koping strategiyasini xarakterlaydi.

Stixiyali darajada, vaziyatni hal qilish uchun har qanday harakatlar oldini olishning o'zida namoyon bo'ladi.

"Kuchirish" strategiyasi qandaydir faoliyat turiga o'tish, xayol surish orqali keskinlikni vaqtincha yengillashtirish imkonini beradi, bu esa muammoli vaziyatni hal qilishni sezilarli darajada susaytiradi.

Model faoliyatining keyingi darajasi empirik bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilamiz.

Modelning empirik darajasi




Stixiyali modelning empirik darajasiga o'tish shartni kiritish bilan joriy etiladi: shaxsiy xususiyatlardan xabardorlik (shu jumladan psixologik himoya ham).

Ushbu psixologik-pedagogik shart-sharoitlar "shaxsni konstruktiv psixologik himoya qilish muammolari" maxsus kursining diagnostik va nazariy bloklarida amalga oshiriladi.

Odamlar bilan muloqot qilishda kasbiy faoliyatga bog'liq bo'lmagan shaxslar uchun bu daraja yetarli bo'lishi mumkin. Modelning empirik darajasidan nazariy darajasiga o'tish shart-sharoitlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi: shaxsiy xususiyatlarni anglash (jumladan, psixologik himoyani ham), psixologik himoya faoliyati haqidagi bilimlar tizimini o'zlashtirish bilan amalga oshiriladi. Belgilangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlar "shaxsni konstruktiv psixologik himoya qilish muammolari" maxsus kursining diagnostik, nazariy va instrumental bloklarida amalga oshiriladi.

Modelning nazariy darajasi



Element 3.1. Psixologik himoyaning yetuk mexanizmlari bilan tavsiflanadi: "kompensatsiya" va "giperkompensatsiya". Mexanizmlardan foydalanish shaxs tomonidan ongli ravishda tan olinadi, ziddiyatlarni hal qilish uchun harakatlarning sabablarini oqlashga imkon beradi.

Himoya mexanizmlarining umumiy keskinligi past (40% dan kam).

"Kompetensiya" psixologik himoya mexanizmining faoliyat ko'rsatishi talabaga o'xshash faoliyatda o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish orqali qiyinchiliklarni yengishga imkon beradi.

"Giperkompensatsiya" mexanizmi muammolarni hal qilishda o'quvchining motivatsiya tizimini qayta tiklaydi va unga tayanadi.

Element 3.2. "Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash qidiruvi" strategiyasi bilan belgilanadi.

"Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kutish" strategiyasini amalga oshirish atrofidagi ijtimoiy muhitda o'z muammolarini hal qilish jarayonida ziddiyatli vaziyatni muhokama qilish va faollashtirish uchun izlash va uni mos imkoniyatlarga tayanib tahlil qilish bilan birga keladi.

Element 3.3. O'z-o'zini baholash va o'z-o'zini nazorat qilishga asoslangan afzalliklar va kamchiliklarning kombinatsiyasi sifatida shaxsiy xususiyatlarning xabardorligini aniqlaydi.

Element 3.4. Shaxsning o'zi haqidagi bilim va ko'nikmalar tizimi, shaxsni psixologik himoya qilish tizimi, uni amalga oshirishning samarali va konstruktiv yo'llari bilan ifodalanadi. Modelning nazariy faoliyat darajasi shaxsiy xususiyatlarning xabardorligini hisobga olgan holda psixologik himoyadan foydalanish hamda psixologik himoya tizimi va uning mumkin bo'lgan ko'rinishlari haqidagi bilim va ko'nikmalar tizimi bilan tavsiflanadi. Modelning bu darajasi bo'lajak psixologlarning konstruktiv malakasini oshirish uchun zarurdir. Shunday qilib, bo'lajak psixologlarning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirish modeli o'z faoliyatining uch darajasi bilan xarakterlanadi: stixiyali, empirik va nazariy:

Stixiyali daraja shaxsni psixologik himoya qilish tizimining o'z-o'zidan ishlashi bilan ifodalanadi. Shaxs oldida tegishli shart joriy etilganda stixiyali modelning empirik darajasiga o'tish amalga oshiriladi: shaxs xususiyatlaridan xabardorlik (jumladan, psixologik himoya). Ushbu psixologik-pedagogik shart "shaxsni konstruktiv psixologik himoya qilish muammolari" maxsus kursining diagnostik va nazariy bloklarida amalga oshiriladi. Empirik daraja shaxsning o'z hatti- harakatlari ustidan reflektiv o'z-o'zini nazorat qilishi, namoyon bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni anglashi bilan xarakterlanadi. Modelning empirik darajasidan nazariy darajasiga o'tish shart-sharoitlarni joriy etish paytida amalga oshiriladi: shaxsiy xususiyatlarni anglash (jumladan, psixologik himoya), psixologik himoya faoliyati haqidagi bilimlar tizimini o'zlashtirish bilan yuzaga keladi. Ushbu psixologik-pedagogik shart-sharoit "shaxsni konstruktiv psixologik himoya qilish muammolari" fakultativ kursining diagnostik, nazariy va instrumental bloklarida amalga oshiriladi.

Nazariy daraja shaxsiy xususiyatlardan xabardorlikni hisobga olgan holda psixologik himoya tizimi faoliyatini, shuningdek, psixologik himoya tizimi va uning mumkin bo'lgan ko'rinishlari haqidagi bilim va ko'nikmalar

tizimini nazarda tutadi. Ilmiy tadqiqotlarning tahlili quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Psixologik himoya-ichki va tashqi nizolar, xavotirlanish holatlari va bezovtalik bilan bog'liq noxush shkastlovchi omillardan ongni himoya qilishga qaratilgan shaxsni barqarorlashtirishning maxsus tizimidir. Ba'zi hollarda, himoya mexanizmlari dezadaptatsion, doimiy mojaroga olib kelishi mumkin, shuning uchun biz destruktiv (buzg'inchi) va konstruktiv himoyalarni farqlash zarur deb tahmin qilamiz.

Psixologik himoya konstruktivdir, agar quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflansa: ijtimoiy qadriyatlar, meyorlar va qoidalarga rioya qilish; uning faoliyat asosini fikrlash va tasavvur qilish jarayonlari tashkil etadi;

uning faoliyati ongli ravishda amalga oshiriladi, aks ettirish orqali nazorat qilinadi;

konstruktiv psixologik himoya mudofa himoya mexanizmlaridan ancha keng foydalanishni o'z ichiga oladi; tashqi ijtimoiy-psixologik moslashuv va shaxsning hayotiy vazifalarini qoniqarli hal etilishini ta'minlaydi;

shaxslararo o'zaro munosabatlarda konstruktiv psixologik himoya shaxsning progressiv rivojlanishi va ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

Spontan darajada shaxsni psixologik himoya qilish tizimining o'z-o'zidan ishlashi kuzatiladi. Modelning stixiyali darajasidan empirik darajasiga o'tish shartni joriy etish bilan amalga oshiriladi: psixolog shaxsi xususiyatlarni anglash (shu jumladan psixologik himoyani ham). Empirik darajada shaxsning o'z xatti-harakatlari va harakatlari ustidan reflektiv o'z-o'zini nazorat qilishi va namoyon bo'lgan shaxsiy xususiyatlardan xabardorligi amalga oshadi. Modelning empirik darajasidan nazariy darajasiga o'tish shart-sharoitlarini joriy etish jarayonida : shaxsiy xususiyatlarni anglash (jumladan, psixologik himoyani ham), psixologik himoya faoliyati haqidagi bilimlar tizimini o'zlashtirish bilan amalga oshiriladi. Nazariy darajada psixologik himoya tizimining faoliyat ko'rsatishi shaxsiy xususiyatlarni anglash, hamda psixologik himoya haqidagi bilimlar tizimi va uning mumkin bo'lgan ko'rinishlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -488 b.

2.Бассин Ф.В. Проблема психологической защиты // Психол. журнал. – 1988. - №9. – С.79-86.

3.Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: дис. ... доктора психол. наук. – М., – 456 с.

4.Jabborov H.X. O'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari. Ps.f.b.fal.dok. (PhD) diss... – T., 2019, -160 b.

5.M.Fayziyeva Shaxsning psixologik himoya mexanzmlari .Monografiya.Qarshi "Nasaf" NMIU-2021 yil.144 bet.



## ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ПОНЯТИЯ ТАЛАНТА В ПСИХОЛОГИИ

*Амиркулов Жамшид Ризвонкулович  
Каршинского государственного университета  
“Преподаватель кафедры психологии*

Известно, что наблюдения, показывающие, что умственные способности людей не равны, восходят к глубокой древности. Знаменитые философы древности и их современники прекрасно осознавали, что между великими творческими людьми и обычными людьми существуют серьезные различия. Кроме того, отмечается, что эти различия часто проявляются еще в детстве. Сами исследователи и общество в целом давно размышляют о происхождении природы этих различий. По мнению А. С. Савенкова, «среди всех явлений действительности психика человека является наиболее трудным для познания объектом, поэтому первыми объяснениями о природе генетических индивидуальных различий и наличии у индивидов необычайных способностей являются их «сверхъестественные» или «божественное происхождение», что и привело к таким выводам. В древности люди верили, что одаренный человек — это один из тех, кто послан на землю, чтобы осветить путь человеческого совершенства и величия сверхъестественными силами.

Чтобы определить, как современная наука придает смысл этому понятию, кратко коснемся истории развития представлений о таланте. Поначалу необыкновенные способности людей объясняли их божественным происхождением, таких людей считали «необыкновенными». По мнению древних мудрецов, великий человек – это счастливый человек, избранный Богом. Латинское слово, обозначающее гений – дух, происходит из древней мифологии и служило для объяснения способностей до середины XIX века. Следует отметить, что термин «талант» появился в психологии лишь в начале XX века. В целом весь исторический этап формирования понятий «одаренный», «одаренный человек» и развития детского таланта условно можно разделить на пять этапов:

I этап (с древнейших времен до середины XIX века). Талант признается великим даром Творца.

II стадия (просветление). Джон Локк считал, что до соприкосновения с материальным миром душа человека не имеет никаких знаков и идей, все из которых являются результатом воспитания.

III этап (вторая половина XIX в.). Были попытки найти происхождение таланта не в божественной судьбе, а во врожденных особенностях (Френсис Гальтон).

IV этап (XX век). По мнению Е. И. Шеблановой, к этому периоду представление о таланте существенно изменилось: тесты для определения умственных способностей (разработанные А. Бином и В. Штерном); три теории о таланте и таланте (революционная, функциональная, эволюционная), теории Ф. Айялы, Дж. Кайгера и В. Н. Дружини о влиянии генотипа и среды на развитие интеллекта как попытка объяснения развития способностей у детей; Модель структуры интеллекта (конвергентное и дивергентное мышление) Дж. Гилфорда; Трехкольцевая модель таланта Д. Рензули; Д. Б. Богоявленская и В. Д. Шадриков выделяют два признака таланта (инструментальный и мотивационный).

V этап (начало XXI века). В 2003 году вышло расширенное и переработанное издание «Концепции одаренности», в котором определены понятия «Одаренность» и «одаренный ребенок», отражены достижения зарубежных и отечественных исследователь в области одаренности. Рассмотрим подробнее каждый исторический этап. По мнению С. В. Чернова, одновременно со словом гений в науку вошло другое народное слово — талант. Слово «талант» в переводе с греческого означает крупную денежную единицу, меру золота. В этот период были разделены понятия «талант» и «гений»: талант характеризовался как высокий уровень развития способностей к определенному виду (видам) деятельности, а термин гениальность трактовался как высший, максимальный уровень их. Исследователь Дж. Дж. Галлахер заявил, что, как и у любой научной идеи, у идеи божественного происхождения сверхспособностей были не только сторонники, но и противники. На протяжении тысячелетий доминировала идея божественного происхождения способностей, противники этой точки зрения появились лишь несколько столетий назад, в эпоху «Просвещения». Главным сторонником этого направления в философии был Джон Локк. Его современники и последователи последовали за ним и выдвинули теорию, согласно которой душа человека подобна чистому листу бумаги без каких-либо знаков и представлений до контакта с материальным миром. Эта идея в корне меняет представление о таланте. Немецкий учёный Лихтенберг утверждает, что «каждый может быть гением хотя бы раз в году». По его мнению, достижение гениальности – задача не невообразимо трудная, а скорее легкая. Практический вывод этой теории заключался в том, что образование имеет решающее значение в формировании личности.

Эмоциональный контакт с окружающей средой, телесные потребности и страсти, по их мнению, являются основными двигателями психического развития. Позднее эта идея получила дальнейшее развитие, и во второй половине XIX века было объяснено, что происхождение гениальности обусловлено не божественной судьбой, а, скорее, врожденными особенностями. Именно в это время наблюдения и эксперименты стали заменять абстрактные размышления о гениальности, таланте и таланте.

Ф. Гальтон, известный английский антрополог, был одним из первооткрывателей экспериментального подхода к изучению проблемы гениальности.

Ф. Гальтон начал свои исследования в 1896 году с публикации книги «Наследственный гений». Эксперты признают его ученым, который сделал первые попытки доказать, что гениальность является результатом генетических факторов. Его аргументы в поддержку предложенной теории основаны на результатах статистического анализа биографических факторов представителей английской социальной элиты. Исследование Ф. Гальтона заключалось в изучении 977 известных людей в 300 семьях. По мнению автора, данные анализы позволяют определить основную причину высоких достижений, которые присущи человеку и биологически передаются из поколения в поколение.

Теория Ф. Гальтона, несмотря на критику оппонентов, стала приоритетной в вопросе «гуманизации природы гениальности». А. В. Морозов констатировал, что по результатам экспериментальных исследований начала XX века уровень развития ИК зависит на 80% от генотипа и только на 20% от влияния окружающей среды. В 1980-е годы представление об этом соотношении несколько изменилось: доля генотипа снизилась с 70% до 65%, но, несмотря на это, генотипические факторы по-прежнему оставались доминирующими. Продолжают исследования влияния наследственности на способности человека генетики Франсиско Айяла и Дж. Кайгер. Они отмечают, что интеллект и специальные способности (арифметика, правописание и т. д.) наследуются в разной степени. Но, несмотря на это, ведущими являются генотипические факторы, влияющие на общую одаренность.

Известный российский психолог В. Н. Дружинин предлагает ряд моделей изучения проблемы таланта. В первой группе моделей определяющую роль играет общение родителей и детей: чем больше времени родитель проводит с ребенком, тем выше его интеллектуальное развитие. Вторая группа моделей (идентичности) показывает, что развитие ребенка происходит через освоение новых ролей. По мнению Дж. С. Петерсона, оно основано на приобретении ребенком моделей

поведения, характерных для его родителей, при одновременной идентификации себя с одним из них (того же пола). Однако эмпирические исследования не подтверждают эти утверждения.

Третья группа моделей подчеркивает, что интеллект ребенка напрямую зависит от количества детей в семье. Наблюдения, сделанные Ф. Дж. Монксом, показали, что старший ребенок в семье превосходит братьев и сестер по умственному развитию. Приведенные выше результаты изучения влияния окружающей среды на уровень интеллектуального и творческого развития ребенка не отражают всей палитры исследования. На наш взгляд, хотя в последнее время опубликовано много специальной литературы по этой теме, мы видим, что четких выводов, выражающих данную проблему, нет..

Исследователь А. А. Адашкина дает анализ теорий, лежащих в основе современных методов и технологий развития талантов, следующим образом: Революционная теория. Образование и воспитание, как часть окружающей среды, в полной мере влияют на развитие ребенка. При этом сторонники этой теории не отрицают существования генетических факторов, но считают, что их влияние на развитие высших психических функций невелико.

Функциональный подход (модифицированная революционная теория). Л. С. Выготский, основоположник этого подхода, утверждает, что формирование и развитие психических функций зависит от того, как часто они используются: «...чем раньше активизируется функция и чем интенсивнее она используется, тем выше уровень ее разработка."

Теория эволюции является альтернативой революционному подходу. Основная идея теории состоит в том, что развитие является результатом постепенного изменения генетически определенных способностей (тенденций) и их взаимодействия с окружающей средой.

#### **Литература:**

1. Чернов С. В. Новый взгляд на природу гениальности // Психология и психотехника. – 2015. – №. 2. – С. 159-174.
2. Щербанова Е. И. Дискуссионные аспекты концепций одаренности в XXI веке // Психология одаренности и творчества. – 2017. – С. 138-149.
3. Богоявленская Б. В. и др. Концепция одаренности // Одарована дитина. – 2000. – №. 1. – С. 11-14.
4. Чернов С. В. Идеально-смысловый критерий гениальности // Философская школа. – 2017. – №. 1. – С. 32-43.
5. Локк Д. Опыт о человеческом разуме // Избранные философские произведения. – 1960. – Т. 1. – С. 647-648.
6. Лихтенберг Д., Франк Л., Фосседж Д. Клиническое взаимодействие: Теоретические и практические аспекты концепции мотивационных систем. – Litres, 2022. – С. 54.

## KICHIK MAKTAB YOSHIDA DEZADAPTATSIYA MUAMMOSI VA UNDA PSIXOLOGIK YORDAM

**Jalilova S.X.**

*Nizomiy nomidagi TDPU,  
Psixologiya kafedrasida dotsenti, ps.f.n*

**Annotatsiya.** Maqola kichik maktab yoshida uchraydigan muammo – maktabga moslashish va dezadaptatsiya masalalariga bag'ishlangan. Unda maktabga qadam qo'yish jarayonida bolalarning ta'lim muhitiga moslashishi hamda ularning ba'zilarida uchraydigan dezadaptatsiyaning sabablari, uning namoyon bo'lish jihatlari batafsil bayon qilinadi. Shu bilan birga maqolada maktab dezadaptatsiyasida bolalarga psixologik yordam jihatlari ko'rsatib beriladi.

**Tayanch iboralar.** Ijtimoiy vaziyat, rivojlanish rezervlari, maktab adaptatsiyasi, ijtimoiy adaptatsiya, maktabga psixologik tayyorlik, anamnez.

**Аннотация.** Статья посвящена проблеме школьной адаптации и дезадаптации. В статье подробно описана адаптация детей к образовательной среде и причины дезадаптации у некоторых из них, аспекты ее проявления. В то же время в статье показаны основные направления психологического сопровождения детей со школьной дезадаптацией.

**Ключевые слова.** Социальная ситуация, резервы развития, школьная адаптация, социальная адаптация, психологическая готовность к школе, анамнез.

**Abstract.** The article is devoted to the problem of school adaptation and maladjustment. It describes in detail the adaptation of children to the educational environment and the causes of maladaptation in some of them, aspects of its manifestation. At the same time, the article shows aspects of psychological support for children with school maladjustment.

**Keywords.** Social situation, developmental reserves, school adaptation, social adaptation, psychological readiness for school, anamnesis.

Kichik maktab yosh davri ontogenezning alohida bosqichi bo'lib, o'ziga xos psixologik xususiyatlar, rivojlanishning ijtimoiy vaziyati hamda o'ziga xos qiyinchiliklari bilan ajralib turadi. Bu davrning o'ziga xos xarakterli xususiyati shundaki, maktabgacha, bog'cha yoshidagi bola endi maktab o'quvchisi. Bu davr bola uchun maktabgacha yosh davrdagi xususiyatlardan maktab o'quvchisi uchun xarakterli xususiyatlarga o'tish davri bo'lib hisoblanadi. Bu davrda shaxsning psixik xususiyatlari tarkib topadi. Shuning uchun ham olimlar o'z tadqiqotlarini hozirgi paytda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning rivojlanish rezervlarini izlab topishga qaratmoqdalar. Bu

rezervlarning qo'llanilishi natijasida bolalarni kelgusida o'qish va mehnat faoliyatiga muvaffaqiyatli tayyorlash uchun imkoniyatlar yaratiladi.

7 yoshli bola maktabga borishi bilan u maktab o'quvchisi bo'ladi. Shu vaqtdan boshlab bolaning hayotida o'yin o'zining bosh rolini yo'qota boradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining etakchi faoliyati turi – o'qish bo'lib qoladi. Bu esa uning hatti-harakatlari motivini sifat jihatdan o'zgartiradi, bolaning ahloqiy va bilish kuchlarini rivojlantirishda yangi manbalar ochib beradi.

Bolaning maktabga qadam qo'yishi bilan uning butun hayot tarzi, ijtimoiy holati, jamoa, oiladagi ahvoli keskin o'zgaradi. Maktabga kirish bilan uning asosiy vazifasi – o'qish, bilim olish bo'lib qoladi. Bu esa boladan ma'lum uyushqoqlikni, intizomni talab qiladigan mehnatdir [1;36].

Biroq maktabga qadam qo'yan bolalarning barchasi ham ushbu vazifalarni bajarishga tayyor bo'lavermaydilar. Ularning ba'zilarida muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu muammolardan eng asosiysi maktabga moslashish bilan bog'liq. Bolaning maktabga moslashishi 4-7 hafta davom etishi mumkin. Maktabga moslashish (adaptatsiya) jarayoniga bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorligi qay darajada ekanligi ta'sir etadi. Krayg G. ning ta'kidlashicha, maktabga tayyor bo'lishlik bu – yozish, o'qish va sanashni bilish emas, balki bularni egallashga bo'lgan tayyorlikdir [3;281].

Ijtimoiy adaptatsiya - individning doimiy o'zgaruvchan ijtimoiy muhit sharoitlariga faol moslashuv jarayoni bo'lib, u uzluksiz davom etadi, chunki ijtimoiy muhit sharoitlari o'zgaruvchan. 1-sinf o'quvchilari ijtimoiy adaptatsiyasining sohalaridan biri – uning maktab hayotiga moslashuvi hisoblanadi.

Maktab adaptatsiyasi bolaning o'quv jamosiga, yangi jamoadagi o'zaro munosabatlar, ijtimoiy normalarga moslashuvi, maktabga moslashuv jarayonida bolaning o'zining an'analari, hayotiy normalar, qadriyatlar orientatsiyasiga ega bo'lgan sinfdagi o'zaro munosabatlarga qo'shilishi ro'y beradi. Maktabga muvaffaqiyatli moslashuv ko'rsatkichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Uyda va maktabda bola xulqining adekvatligi
- O'qituvchi va o'quvchilar bilan aloqa o'rnatish
- Elementar o'quv malaka va ko'nikmalarini egallash [1;48].

Bolaning maktabga moslashuviga salbiy ta'sir etuvchi omillar - oiladagi noto'g'ri tarbiya usullari; noto'liq oila; oiladagi nizolar; kattalar bilan muloqotdan qoniqmaslik; o'qituvchining o'quvchilarga noto'g'ri muloqot uslubi; tengdoshlar guruhidagi o'z mavqeini noadekvat anglash va h.lar bo'lib, ular bolada muayyan qiyinchiliklar, birinchi navbatda maktab dezadaptatsiyasi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Maktab dezadaptatsiyasi - bu bolaning intizomga o'rganish, bilimlarni o'zlashtirish, tengdoshlari va o'qituvchilar bilan munosabatlardagi muammolarda namoyon bo'ladigan psixik holatdir. Maktab dezadaptatsiyasi

bolaning maktab muhitiga moslashishining adekvat mexanizmlarini buzilishi bo'lib, o'quv faoliyati samarasiga va atrofdagilar bilan munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi. Dezadaptatsiyaning asosi – bolaning yangi rollarni va yangi rivojlanish vaziyatini qabul qila olmasligi. Bunday o'quvchilarga xos xususiyatlar emotsional beqarorlik, ko'p dars qoldirish, passivlikdan aktivlikka keskin o'tish, o'zini yomon his qilishdan ko'pincha nolish, o'qishda orqada qolish.

Dezadaptatsiya sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ota-ona va o'qituvchi tomonidan kuchli bosim - omadsizlikdan cho'chish, uyat hissi, xato qilib qoyi'shdan qo'rqish;

2. Somatik ko'rinishdagi buzilishlar - immunitetning zaifligi, ichki organlar kasalliklari, jismoniy charchoq;

3. Maktabga tayyorlikning bo'shligi - muayyan bilim va malakalarning mavjud emasligi, kuchsiz motorika;

4. Ba'zi psixik funksiyalar va bilish jarayonlarining zaif shakllanganligi - o'quv dasturining murakkabligi, jadallashgan ta'lim [2;19].

Maktab dezadaptatsiyasi vaqt-makon sohasi (dars jadvaliga, maktab joylashishiga ko'nikishdagi qiyinchiliklar), dars jadvaliga, maktab joylashishiga ko'nikishdagi qiyinchiliklar (tengdoshlari hamda o'qituvchilari bilan kommunikatsiyadagi qiyinchiliklar), o'quv-bilish sohasi (predmetlarni o'zlashtira olmaslik, o'qishdagi qiyinchiliklar) kabi sohalarda namoyon bo'lishi mumkin:

Quyidagi belgilarga ko'ra qaysi sohada buzilishlar bo'layotganligini bilish mumkin:

- Doimiy charchoq va bo'shshish
- Yuqori xavotirlanish, o'ziga past baho berish, nazorat (yozma ish, doskaga chiqish) dan qo'rqish, nizolashuvchanlik
- Qoniqarsiz baholarning paydo bo'lishi, o'qishga qiziqishning yo'qolishi, dars qoldirish

Maktab dezadaptatsiyasi yuzaga kelganda psixologik yordam quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

Anamnez to'plash: bolaning ijtimoiy muhiti, rivojlanish sharoitlari haqida batafsil ma'lumot olish;

Bolaning individual xususiyatlarini, yoshini inobatga olgan holda testlashtirish o'tkazish va uning psixofizik taraqqiyot darajasini baholash;

Inqirozli vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan o'quvchining ichki nizolari xarakterini aniqlash;

Dezadaptatsiyaga sabab bo'lgan omillarni aniqlash;

Bolaning individual xususiyatlariga tayangan holda psixologik-pedagogik korreksiya dasturini tuzish.

Bu muammoni kompleks tarzda echishda korreksiya metodlarini qo'llash bilan bir qatorda profilaktika tadbirlarini olib borish samara beradi. Psixoprofilaktika psixokorreksiya ishlari ijtimoiy-psixologik terning,

pedagoglar uchun maxsus korreksion ta'lim metodikalarini qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda o'yin faoliyati o'qish faoliyati bilan endi almashinayotganligi sababli ham ular bilan ishlashda, adaptatsiyaga yordam berish shakli – o'yindir. O'zaro munosabatlardagi muammolarda guruhni jipslashtiruvchi o'yinlar; bilish jarayonlarini rivojlantirishda intellektual o'yinlar keng qo'llaniladi.

Shunday qilib, maktab psixologi faoliyatida kichik maktab yoshida maktabga moslashish bilan bog'liq muammo bilan ishlashda psixologik yordamning turli usullaridan foydalanadi va doimiy ravishda ularni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jalilova S.X. Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya.T., "Innovatsion ziyo", 2020.

2. Изотова Е. Г. Особенности школьной дезадаптации у учеников начальных классов и работа по ее коррекции. Ярославль, 2018.

3. Крайг Г. Бокум Д. Психология развития.- 9-е изд.- СПб.: Питер, 2006.- 940 с.

4. Психология человека от рождения до смерти. Под ред. А.А.Реана. М., «ОЛМА-ПРЕСС», 2002.

#### **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ С МЛАДШИМИ ШКОЛЬНИКАМИ В ПЕРВЫЙ ГОД ОБУЧЕНИЯ**

*Мирзажоннова Элеонора Топволдиевна  
старший преподаватель кафедры психологии,  
e.mirzajonov@gmail.com,*

*Аминжонов Исомиддин Зайлобиддин ўгли  
преподаватель кафедры психологии  
isomididinaminjonov@gmail.com,  
Ферганский государственный университет,  
Фергана, Узбекистан*

**Аннотация:** В статье освещаются проблемы организации учебно-воспитательной работы с младшими школьниками в первый год обучения, в котором необходим учёт индивидуально-психологических и возрастных особенностей для эффективного решения общеобразовательных задач и эмоционального комфорта учащихся

**Ключевые слова:** образовательная система, школа, личность педагога, воспитание, младший школьник, адаптация, позиция ученика, социальная ситуация развития, ведущий вид деятельности, кризис семи лет, коллектив, познавательные способности

**Abstract:** This article addresses the challenges of organizing educational and upbringing activities with young schoolchildren in their first year of schooling. It underscores the necessity of considering individual psychological and age-specific characteristics to effectively solve general educational tasks and to ensure the emotional comfort of the students

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'qishning birinchi yilida kichik maktab o'quvchilari bilan ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etish muammolari, ularni samarali hal qilishda va o'quvchilarning hissiy-emotsional farovonlini shakllanishida bolalarning individual psixologik hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurati yoritilgan

В системе образования современного Узбекистана развивающее обучение, как единство образования и воспитания, является одним из важнейших приоритетов, выступает основой для формирования личности, способной принимать активное участие в социально-экономическом и культурном развитии общества.

Необходимость и важность формирования знаний и навыков у учащихся на основе современных требований, отвечающих международным стандартам, отмечается в указе Президента РУз от 11 мая 2022 г. «Об утверждении национальной программы по развитию народного образования в 2022-2026 годах». Воспитание молодого поколения следует осуществлять в духе преданности национальным и общечеловеческим ценностям [1].

В законе Республики Узбекистана «Об образовании» от 23.09.2020г. № ЗРУ-637 отмечается необходимость формирования всесторонней культуры учащихся, развития их талантов и способностей, удовлетворения их духовных потребностей а также то, что образование призвано способствовать профессиональному, интеллектуальному, духовному и культурному развитию обучающихся [2].

Развитие образования - процесс бесконечный, целью которого является его способность своевременно и гибко отвечать на потребности общества и вызовы времени. Современная школа, как часть образовательной системы, также находится в состоянии творческого поиска, сталкиваясь с необходимостью решать проблемы как специфического характера - узкопредметные, так и общепредметные. Одной из таких проблем является проблема формирования познавательного интереса у учащихся к школьным

предметам. Существует определенное противоречие между информационно-насыщенной средой, обладающей огромным потенциалом для познавательной активности и некоторым снижением интереса к познавательной деятельности у школьников.

Прежде, чем говорить об особенностях организации учебно-воспитательной работы с первоклассниками, необходимо изучить их возрастные особенности.

Младший школьный возраст охватывает период жизни от 6 до 11 лет. В возрасте 6,5-7 лет ребенок поступает в школу, что является важнейшим обстоятельством в жизни ребенка. В этот период жизни меняется и весь психологический облик ребенка, преобразуется его личность, познавательные и умственные способности, сфера эмоций и переживаний, круг общения. Свое новое положение ребенок не всегда хорошо осознает, но обязательно переживает и чувствует его: он гордится тем, что стал взрослым, ему приятно его новое положение.

Главная особенность детей этого возраста – первичное осознание позиции школьника, прежде всего через новые обязанности, которые ребенок учится выполнять. Появляется сильное желание быть успешным в учебе. Для первоклассника это означает то же самое, что быть хорошим и любимым. Ребенок убежден в том, что у него должно все получаться, поэтому сильно переживает свои неудачи, не всегда понимает их причины [3]. Начало школьного обучения является для каждого ребенка сильным стрессом. Все дети, одновременно с переполняющими их чувствами радости, восторга или удивления по поводу всего происходящего в школе, испытывают тревогу, растерянность и напряжение. У детей резко изменяется весь уклад жизни, меняется его социальное положение в коллективе, семье и обществе. Основной, ведущей деятельностью становится учение - приобретение новых знаний, умений и навыков, накопление систематических сведений об окружающем мире, природе и обществе, важнейшей обязанностью становится обязанность учиться. С первых дней школа устанавливает перед ребенком целый ряд задач, не связанных напрямую с его предыдущим опытом, но требующих максимального привлечения физических и интеллектуальных сил. На ребенка воздействует комплекс новых факторов: изменение режима, личность педагога, классный коллектив, непривычно долгое сдерживание двигательной активности, появление новых, не всегда заманчивых обязанностей.

Школьник включается в новый для него коллектив, в котором он будет социализироваться - учиться, развиваться и взрослеть. Включение в новую социальную среду, начало освоения учебной деятельности

требуют от ребенка качественно нового уровня развития и организации всех психических процессов таких как: восприятие, внимание, память, мышление, более высокой способности к управлению своим поведением. Однако возможности первоклассников в этом плане пока еще достаточно ограничены. Это во многом связано с особенностями психофизиологического развития детей 6-7 лет. Первоклассники легко отвлекаются, неспособны к длительному сосредоточению, обладают низкой работоспособностью и быстро утомляются, возбудимы, эмоциональны, впечатлительны. [4]

Внимание учащихся 1-х классов еще слабо организовано, имеет небольшой объем, плохо распределяемо, неустойчиво. Поэтому для концентрации ребенку требуется внешняя помощь (интересные картинки, звуковые сигналы, игровые ситуации и т.п.). Внимание во многом определяется темпераментом. Отвлекаемость на занятиях довольно высока, а контролировать свои действия (например, проверить наличие ошибок в написанном тексте) малыш еще умеет плохо. У первоклассников хорошо развита произвольная память, фиксирующая яркие, эмоционально насыщенные для ребенка сведения и события его жизни.

Произвольная память, опирающаяся на применение специальных приемов и средств запоминания, в том числе приемов логической и смысловой обработки материала, для первоклассников пока еще не характерна в силу слабости развития самих мыслительных операций.

Мышление первоклассников преимущественно наглядно-образное. Это значит, что для совершения мыслительных операций сравнения, обобщения, анализа, логического вывода детям необходимо опираться на наглядный материал. Мышление начинает отражать существенные свойства и признаки предметов и явлений. Появляется возможность делать первые обобщения, первые выводы, проводить первые аналогии, строить элементарные умозаключения. На этой основе у ребенка постепенно начинают формироваться элементарные первоначальные научные понятия.

Поведение первоклассников также нередко отличается неорганизованностью, несобранностью, отсутствием дисциплины. Первоклассники, достигшие семилетнего возраста, являются более зрелыми в плане психофизиологического, психического и социального развития, чем шестилетние школьники. Поэтому семилетние дети, при прочих равных условиях, как правило, легче включаются в учебную деятельность [5].

Выдающиеся психологи двадцатого века Л.С.Выготский и Ж.Пиаже подчеркивали, что ребенок – это не маленький взрослый, что у него

другая логика, нежели у взрослых, восприятие окружающего мира. Поэтому никакие инновации и новые оригинальные предметы ничего качественно изменить не могут, если только они не ориентированы на особенности современных младших школьников. Психологи связывают решение этой проблемы с кризисом семи лет. Именно кризис семи лет как бы завершает развитие ребенка в дошкольном возрасте и открывает собой период младшего школьного возраста. Можно сказать: прошел ребенок кризис семи лет - он школьник, не прошел кризиса семи лет - он психологически является дошкольником. Младший школьник отличается от дошкольника тем, что он теряет непосредственность, что он научается предвидеть свои эмоции, и если эти эмоции носили отрицательный характер, то он научается намеренно и произвольно уходить от этих ситуаций, учится искать ситуации, которые имеют положительный характер. Изменяется социальный статус бывшего малыша – появляется новая социальная роль «ученик». Можно считать это рождением социального «Я» ребенка. Изменение внешней позиции влечет за собой изменение самосознания личности первоклассника, происходит переоценка ценностей. То, что было значимым раньше, становится второстепенным, а то, что имеет отношение к учебе, становится более ценным. Такие изменения происходят в психике ребенка при благоприятном развитии событий, его успешной адаптации к школьному обучению. О внутренней позиции школьника можно говорить только тогда, когда ребенок действительно хочет учиться, а не только ходить в школу. «У половины детей, поступающих в школу, эта позиция еще не сформирована. Особенно актуальна эта проблема для детей, которые достигли возраста 6 лет. У них чаще, затруднено формирование «чувства необходимости учения», чем у ребят семи лет. Они менее ориентированы на общепринятые формы поведения в школе. При столкновении с такими трудностями нужно помочь ребенку принять «позицию школьника». В любом случае необходимо проявлять уважение и понимание чувств ребенка, так как его эмоциональная жизнь отличается ранимостью, незащищенностью» [6,с.37].

В период 6-7 лет происходят серьезные изменения в эмоциональной сфере ребенка. В дошкольном детстве, столкнувшись с неудачами или получив нелестные отзывы о своей внешности, ребенок, конечно, испытывал обиду или досаду, но это не влияло существенно на становление его личности в целом. В период же кризиса семи лет интеллектуальное развитие, его развитая способность к обобщению влекут за собой и обобщение переживаний. Таким образом, цепь неудач, как в учебе, так и в общении может привести к формированию устойчивого комплекса неполноценности. Это самым негативным

образом влияет на развитие самооценки ребенка. Поэтому, при общении с ребенком, необходимо замечать все его малейшие достижения, оценивать не ребенка, а его поступки, беседуя о неудачах, отмечать, что все это временно, поддерживать ребенка в преодолении различных трудностей.

Рассуждая о специфике обучения детей младшего школьного возраста, Л.С.Выготский говорит о двух видах обучения – об обучении спонтанном, когда ребенок, по его словам, учится по своей собственной программе, и обучении реактивном, когда ребенок способен обучаться по программе взрослого. Для детей раннего возраста характерно спонтанное обучение, они просто не в состоянии обучаться по программе другого. По мере взросления ребенка возрастает удельный вес реактивного обучения, которое является важнейшей характеристикой школьного обучения [6, с.21].

Анализ психологической готовности к школьному обучению показал, что на рубеже дошкольного и младшего школьного возраста у ребенка качественно меняется общение с окружающими. «Оно становится контекстным, то есть ориентированным не на наглядность, а на некоторый смысл, который лежит за наглядной ситуацией. Учет возрастных особенностей – это один из основополагающих принципов так как, опираясь на него, учитель распределяет нагрузку» [7, с.43]. Возрастные особенности ребенка также обуславливают выбор форм и методов учебно-воспитательной деятельности. Особенности развития психики и познавательной деятельности младших школьников, которая происходит под влиянием обучения имеют важное значение в обучении. В психологии и педагогике утвердилась идея Л. С. Выготского «О ведущей роли обучения и воспитания в психическом развитии детей» [8]. Вот почему усилия учителя должны направляться на то, чтобы, учитывая особенности и возрастные возможности ребенка, использовать учебно-воспитательную работу для его интенсивного развития. Младший школьный возраст - это период впитывания и накопления знаний. Если ребенок в этом возрасте не обретает уверенность в своих способностях и возможностях, сделать это в дальнейшем ему будет труднее.

#### Литература:

1. Указ Президента РУз от 11 мая 2022 г. «Об утверждении национальной программы по развитию народного образования в 2022-2026 годах»
2. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» № 637 от 23.09.2020. – Ташкент, 2020

3. Кравцова Е.Е. Психологические особенности детей младшего школьного возраста, М: Педагогический университет «Первое сентября», 2008г.
4. Орехова О.А. Цветовая диагностика эмоций ребенка. СПб., 2002
5. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. СПб. 2008
6. Выготский Л.С. Развитие высших психических функций. М.:1980г, с. 37
7. Давыдов В.В. Соотношение понятий «формирование» и «развитие психики». М: Просвещение, 1996г. С. 21
8. Mirzajonova E.T. Actuality of psychological support in work with children from the risk group. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2022 51-56 E96kIAAAAJ&citation\_for\_view=r-E96kIAAAAJ:WbHhVSt
9. Mirzajonova E.T. Комплексность и психолого-педагогические особенности коррекционной работы с дошкольниками с нарушениями развития. Новости образования: исследование в XXI веке. 2022.11.01. 209-219. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&)

## NOTO‘LIQ OILALARDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI

*Baratova Dilafro‘z Olimjonovna*  
*Iqtisod va pedagogika universiteti o‘qituvchisi*

Jahonda noto‘liq oilalarning o‘sib borishi va noto‘liq oilada bola shaxsining shakllanishi dolzarb muammoga aylanmoqda.

Noto‘liq oila va undagi bola tarbiyasi ijtimoiy muammo sifatida mamlakatimiz olimlaridan, A.Munavvarov, O.Musurmanova, Y.Shaamirova, G.Yunusova, G.Yadgarovalar, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan T.Andreyeva, I.Demytyeva, A.Demidov, G.A.Kantemirova, YE.Lapshina, L.Lunyakova, Y.Nikolayeva, xorij olimlaridan M.Terblanche, C.Prince, H.Ricciuti, M.Marion, D.Monama, W.Jiumpanyarach, J.Cherry va boshqalar tomonidan noto‘liq oiladagi ayolning-onalikning hamda bolalarning ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik muammolari o‘rganilgan.

Y.K.Shaamirova tomonidan olib borilgan tadqiqotida noto‘liq oilalarda ota-onaning tarbiyachi sifatida faoliyatlaridagi kamchiliklar ko‘rsatgan.

Bular:

- ota-onaning o‘zlarini bolalarining boquvchilari sifatida anglab, tarbiyachi ekanliklarini chuqur anglamasliklari;
- oilalarda uchrovchi axloqsiz turmush tarzi;
- ota-onaning bolalarga aytgan so‘zlari, pand-nasihatlar va amaldagi xattiharakatlari orasidagi tafovut;

- farzandlariga qilgan xizmatlarini minnat qilaverishlari, farzandlar bilan asosan buyruq, hukm orqali gapirishlari;

- o'quvchi farzandlarining hayoti, qiziqishlariga e'tiborsizliklari, ularga vaqt va diqqat ajratmasliklari;

- o'quvchilarni oila yumushlariga jalb qilmaslik (ayniqsa o'smirlar o'zlariga nisbatan beparvolikdan qattiq iztirob chekadilar, natijada ota-ona va o'smir orasida sovuq munosabatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'yilmoqda).

- rag'batlantirish va jazolashda tarbiyaviy maqsaddan kelib chiqqan bilmaslik. Milliy pedagogik madaniyat darajasining pastligi;

- milliy-ma'naviy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantira bilmaslik, xafsalasizlik;

- farzandiga vada berib, bajarmaslik;

- maktab bilan ta'lim-tarbiyaviy hamkorlikdan "vaqt yo'q" degan bahona bilan o'zini chetga olish;

- bolalarni o'z ajdodlari, shajaralari bilan tanishtirmaslik va h.k.

Shu o'rinda Y.K.Shaamirova tomonidan noto'liq oiladagi 89,6% ayollarning o'z oilaviy hayotidan mamnun emasligi, buning sababi – 39,2% oilaning noto'kisligi, 50,4% ota-ona va o'smirlar o'rtasidagi muammolar yuzasidan o'stirayotgan farzandlaridan ko'ngillari to'q emasligi aniqlangan.

Tadqiqotimizda noto'liq oilalardagi onalardan olingan natijalarga ko'ra oiladagi farzandlarning axloqida, xulq-atvorida tarbiyaviy muammolar mavjudligi 47 nafar respondent e'tirof etgan. Yuqoridagi oilalarda tarbiyaviy muammolarning ba'zida uchrab turishini 39 nafar onalar ta'kidlagan. Jami 86 nafar noto'liq oilalarni tashkil qiladi. Ushbu tarbiyaviy muammolar 21 nafar noto'liq oilalarda kamdan-kam uchrasada, ularni mavjudligini o'z oilalarida inkor etganlar 19 nafardan iborat bo'ldi.

Har bir oilaning psixologik iqlimi, oila a'zolari orasidagi munosabatlarni sog'lom bo'lishi, oilada nizolarni kelib chiqishi, nizolar asosida bolalarni yoki ba'zan kattalarni ham depressiya holatiga tushishi, shu asosida ba'zi hollarda o'z joniga qasd qilish hollarini ham kuzatilishi, nosog'lom psixologik iqlimda bolalarni o'z-o'ziga baho berishining pasayishi, uning shaxsida turli negativ komplekslarni paydo bo'lishi va yuqoridagilarni barchasi oilada katta ijtimoiy-pedagogik muammolarni yuzaga keltirishi sababli biz o'z tadqiqotimizda "Rene-Jilya metodikasi"ni qo'llashni lozim topdik. Chunki ushbu metodika pedagoglar, psixologlar va sotsiologlar tomonidan keng qo'llangan bo'lib, oiladagi munosabatlar haqida yetarli ma'lumot beradi. Ushbu metodika, ishonchlik va validlik talablariga javob beradi. Noto'liq oilalarda o'rganilgan bolalar soni 126 nafarni tashkil qilib, 98 nafar ajrashgan ona tarbiyasidagi bolalar hamda 25 nafar beva ona tarbiyasidagi bolalar respondent sifatida 123 nafari qatnashdi. Noto'liq oilalardagi bola shaxsini oiladagi munosabatlarni aniqlash bo'yicha "ReneJilya metodikasi"da noto'liq

oilalardagi shaxslararo munosabatlar o'rganilganda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

Noto'liq oilalardagi bolalarda, ayniqsa bir farzandli oilalarda kommunikativ, yetakchilik xislatlari kam ifodalangan. Chunki oilada aka-uka, opa-singillarni yo'qligi kommunikativ xislatlarni yetarli shakllanishiga imkon bermagan. Noto'liq oilada 2-3 nafar farzand bo'lsa, yuqoridagi xususiyat ya'ni, kommunikativ, yetakchilik xislatlarini kam ifodalanganligi deyarlik uchramaydi. Noto'liq oiladagi bolalarda onasiga hissiy va mehr jihatdan yaqinligi ifodalandi (92%), ammo bu yaqinlik bolani yoshiga bog'liqligi, yosh psixologiyasidagi maktabgacha va boshlang'ich sinf yosh davri bilan cheklanmasdan o'smirlik davrida ham kuchli (86%) ifodalanishi kuzatildi. Bu yosh davr psixologiyasidagi ayrim xususiyatlarni o'zga davrlarda ham kuchli ifodalanishi, bizning fikrimizcha ota-onalar mulqotining "tanqisligi" bilan tushuntiriladi. Shu birga onaga hissiy emotsional yaqinlik noto'liq oilani kelib chiqish sabablari bilan bog'liqligi aniqlandi. Ajralish asosida yuzaga kelgan oilaga nisbatan bevalik sababli noto'liq oilalarda farzand va ona bilan hissiy-emotsional yaqinlik kuchliroq (98%) ifodalanishi kuzatildi. Ajralgan ota-onalar tomonidan bola uchun kurash bo'lgan oilalarda bolani ona bilan hissiy-emotsional yaqinligi zaifroq (75%) ekanligi aniqlandi. Bu, bizning fikrimizcha, bola uchun kurash davrida otaga qarshi ishlatilgan uslublar, gaplar, ota haqidagi turli salbiy tasavvurlar va stress holatlari ona obrazini bola tasavvurida qisman emotsional qadrsizlanishiga olib kelish natijasida deb, taxmin qilinadi. Bizning tadqiqotimizda aksariyat onalar o'z farzandlarini axloq-odob jihatlarida kamchiliklarini ko'ra bilmaydilar. YA'ni o'z farzandlarini ideallashtirish, yaxshi ko'rsatish, kamchiliklari yo'q sifatida ma'lumot berish holati kuzatildi. Noto'liq oilada bola shaxsini talab darajasida shakllantirishda bizning fikrimizcha quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Noto'liq oilada bola tarbiyalayotgan yosh onalarga pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish kerak. Mahalla psixologlari tomonidan pedagogik-psixologik trening, psixologik monitoring, pedagogik-psixologik tashviqot, seminar, maxsus o'quvlar (otaonalar universiteti doirasida), maxsus tayyorlangan buklet, broshyuralar va boshqa formasida bo'lishi mumkin. Bunda xar bir noto'liq oilani o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy xolatini hisobga olish zarur.

2. Noto'liq oilada o'sgan va o'z sohasida taniqli bo'lgan artist, sportchi, olim, rahbar, yozuvchi, shoir va boshqalarni maktab o'quvchilar bilan uchrashuvlarini tashkil qilib, ular hayotidagi qiyinchiliklarni qanday yengib shunday muvaffaqiyatlarga erishganligi haqida davra suhbatini qilish lozim. Bundan maqsad noto'liq oilani ideallashtirish emas, balki yoshlarda, ayniqsa, noto'liq oilada voyaga yetayotgan bolalar hayotida uchraydigan



qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga o'rgatishdir. Bunday uchrashuvlar to'liq oila bolalariga ham kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

3. Noto'liq oiladagi bolalarni tug'ma layoqatini va qiziqishini hisobga olib sport, musiqa, tasviriy san'at va boshqalarga jalb qilish lozim.

4. Noto'liq oilalar bilan mahalla hamda maktab psixologi muntazam ishlashi va psixologo-pedagogik monitoringini olib borishi lozim.

5. Noto'liq oiladagi bolalarni ta'til davrida dam olishini tashkil etish, qo'shimcha ta'lim olishda mahalla, ta'lim muassasa, NNT va boshqa davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda yordam berish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Дементьева И.Ф. Негативные факторы воспитания детей в неполной семье // Журнал "Социс". 2001. № 1. - с.15-21.

2. Каменева Т.Н. Материнство в неполной семье: личностные и социальные проблемы. Диссертация и автореферат на соискание учёной степени кандидата социологических наук. – г. Курск. 2003. 159 стр.

3. Мусурмонова О. Оила – жамият таянчи. Т. 2019 й. 252 бет.

4. Шаамирова Ю.К. "Нотўлик оилаларда ўсмирларни миллий-маънавий тарбиялаш" Дисс., п.ф.н. Т.2006 й. 33-34-б.

5.М.Файзиёва Оила психологияси. Қарши-2019 й.138 б.

## **ONTOGENEZDA SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Otamuratov Rustam Uskanovich*

*O'zMU Jizzax filiali*

*Oila psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

*Toshbekov Husniddin Orifjon o'g'li,*

*O'zMU Jizzax filiali talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada shaxs shakllanishi nazariyalaridan biri bo'lgan biogenetik yo'nalishi haqida fikrlar bildirilgan.*

**Аннотация:** *В данной статье высказаны мнения о биогенетическом направлении, которое является одной из теорий формирования личности.*

**Abstract:** *In this article, opinions are expressed about the biogenetic direction, which is one of the theories of personality formation.*

**Tayanch iboralar:** *psixologiya, shaxs, xatti-harakatlari, xulqi, emosiya, mayl, psixodinamika, namoyondalar, g intellekt nazariyasi.*

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi Zigmund Freydni shaxsning barcha xatti- harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar

yoki instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa, birinchi navbatda u jinsiy maylga (libidoga) bog'liqdir [1; 5].

Ontogenez (yunoncha: ontos — borliq va genesis - rivojlanish) organizmning individual rivojlanishi, uning shakllana boshlashidan hayotning oxirigacha sodir bo'ladigan ketma-ket o'zgarishlar majmui. "Ontogenez" terminini nemis olimi E. Gekkel (1866) fanga kiritgan. Ontogenez urug'langan tuxum hujayra, ya'ni zigotadan boshlanadi [; 124]. Jinssiz ko'payadigan orga-nizmlarda yangi organizm ona hujay-raning bo'linishidan (bir hujayralilarda), kurtaklanishdan yoki tugunak, ildizpoya va boshqa vegetativ organlardan (vegetativ ko'payishda) vujudga keladi.

Ontogenez organizmning xususiy rivojlanishi davomida ro'y beradigan barcha morfologik, fiziologik va funksional jarayonlarni qamrab oladigan, o'zaro uzviy bog'langan miqdor va sifat o'zgarishlari orqali amalga oshadi [3; 133]. Ontogenez ketma-ket keladigan bosqichlar rivojlanish davrlaridan iborat. Jinsiy ko'payadigan organizmlarda bu bos-qichlar murtak (embrional), murtakdan keyingi, ya'ni postembrional va balog'atga yetish davrlarini o'z ichiga oladi.

Ontogenez davomida rivojlanayotgan organizmning alohida qismlari o'sadi, ixtisoslashadi va o'zaro muvofiqlashadi. 18-asrda Ontogenezni tushuntirishda ikki konsepsiya kurash olib bordi. Ulardan biri preformizm Ontogenezni individual o'sishdan iborat deb tushuntirsa, ikkinchisi — epigenez esa uni strukturasi murtakdan boshlanadigan yangi hosilaning rivojlanish jarayoni sifatida tushuntiradi.

Zamonaviy tushunchalarga binoan, Ontogenez boshlanayotgan hujayrada irsiy axborot kodi holatida organizmning bundan keyingi rivojlanishi programmasi joylashgan. Ontogenez davomida bu programma yadro bilan sitoplazmaning o'zaro ta'siri jarayonida murtakning har bir hujayrasida, uning har xil hujayralari va hujayra komplekslari o'rtasida amalga oshadi [4; 5]. Irsiy apparat maxsus oqsil molekularining sintezini kodlash orqali morfogenetik jarayonlarning umumiy yo'nalishini belgilab beradi. Bu jarayonlarning amalga oshishi ozmi-ko'pmi (irsiy belgilangan reaksiya normasi chegarasida) tashqi muhit ta'siri bilan bog'liq.

Biologik nazariyaga qarama-qarshi bo'lgan nazariya sosiogenetik nazariya hisoblanadi. Sosiogenetik yondashuvga binoan shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi ijtimoiylashish usullari va uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shartsharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

G'arbiy Evropaning eng muhim nufuzli nazariyalaridan biri bu rollar nazariyasidir [5; 18]. Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o'zining

The creation of a favourable educational environment in the classroom is a precondition for the successful education of the child at school. In order to ensure a favourable educational environment in the classroom, it is important to adapt the physical environment to the child's needs and to create a favourable psychosocial environment in the class community by creating and

maintaining positive teacher-child, mutual children's and mutual class parents' relationships.

#### List of used literature:

1. Newschaffer C.J., Croen L.A., Daniels J. et al. (2007) The epidemiology of autism spectrum disorders // *Ann. Rev. Public Health*. vol. 28: 235-258.
2. Эксперты: в Казахстане детей с аутизмом в 15 раз больше, чем показывает статистика (2020) [https://forbes.kz/life/ekspertyi\\_v\\_kazahstane\\_detey\\_s\\_autizmom\\_v\\_15\\_raz\\_bolshe\\_chem\\_pokazyivaet\\_statistika/](https://forbes.kz/life/ekspertyi_v_kazahstane_detey_s_autizmom_v_15_raz_bolshe_chem_pokazyivaet_statistika/) Дата обращения: 20.11. 2021 г.
3. American Psychiatric Association. (2013). *Diagnostic and statistical manual of mental disorders (DSM-5)*. Washington, DC: American Psychiatric Association. [https://doi.org/10.1007/springerreference\\_179660](https://doi.org/10.1007/springerreference_179660)
4. Brodzeller, K. L., Ottley, J. R., Jung, J., & Coogler, C. G. (2018). Interventions and Adaptations for Children with Autism Spectrum Disorder in Inclusive Early Childhood Settings. *Early Childhood Education Journal*, 46, 277-286. <https://doi.org/10.1007/s10643-017-0859-5>
5. Ruškus, J. (2020). Klausimai ir iššūkiai dėl negalią turinčių vaikų teisės mokytis įtraukiojo ugdymo sąlygomis Lietuvoje [Right to inclusive education for children with disabilities at stake in Lithuania]. *Specialusis ugdymas [Special Education]*, 1(41), 10-52. <https://doi.org/10.21277/se.v1i41.526>
6. Creswell, J. W. (2014). *Research design: Qualitative, Quantitative and mixed methods approaches*. London: Sage.

### PSIXOLOG OLIMLARNING YIGITLARNI MUSTAQIL OILAVIY HAYOTGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH HAQIDAGI NAZARIYALARI

*ps.f.b.f.d.(PhD) Norbekova Barno Shavkatovna*  
*O'zMU Jizzax filiali Yoshlar psixologiyasi kafedrasida dotsenti v/b.*  
*Burxonova Umida Inomovna,*  
*O'zMU Jizzax filiali 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yigitlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash borasida, jamiyatda oila haqidagi qarashlarning naqadar ahamiyatligi to'g'risida batafsil yoritilgan. Taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, globalashuv, psixologik nazariya, nikoh, shaxs, hissiy, jismoniy, iqtisodiy tayyorgarlik, oilaviy hayot, ijtimoiy-iqtisodiy muhit.

Hozirgi globalashuv davrida jamiyatimizda yigitlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Hattoki, ushbu masala davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgani bejiz emas. Bu borada

Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020-yildagi “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-son qarori qabul qilindi. Hujjat Prezidentning 18.02.2020 yildagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hujjat hisoblanadi.<sup>4</sup>

Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash bolalikdan boshlanadigan va o‘spirinlik davrida ham davom etadigan muhim jarayon hisoblanadi. Ushbu davrda yoshlar jamiyatdagi hayotga muvaffaqiyatli moslashishga va o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan zarur ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘ladilar.

Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash bo‘yicha ko‘plab qarashlar mavjud. Ba‘zilar buni ota - onalarning vazifasi, yana bir toifa esa bu maktabning vazifasi, boshqalari esa ota-onalar, maktab va jamiyatning birgalikdagi vazifasi deb hisoblashadi.

Bizning fikrimizcha ham bu yo‘nalishdan uchinchi eng haq va to‘g‘ri fikr hisoblanadi. Sababi yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashda yuqoridagi barcha ijtimoiy institutlar hamkorlikda ish olib borsalargina biz yigitlarni mustaqil hayotga to‘g‘ri yo‘naltira olishimiz mumkin. Globallashuv davrida oila tushunchasi ba‘zi xalqlarda o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Shu sababli ham o‘spirin yigitlarimizga bu haqida psixologik oilaviy hayotga tayyorlashimiz zarur deb hisoblayman. Mustaqillikka qadar oilaviy hayotga tayyorlash muammosiga yetarli e‘tibor berilmay, maktab, oliy o‘quv yurtlari o‘quv rejalarida o‘spirin yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, kelajakda o‘zlari ota-ona sifatida farzand tarbiyalashlari, oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish, sog‘lom turmush tarzini barpo etish kabi juda ko‘plab masalalar psixolog professor olimlarning nazarlaridan chetga qolgan.

Yosh yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosiga respublikamizda mustaqillik yillaridagina har tomonlama e‘tibor berilib, bunga oila bilan bir qatorda ijtimoiy institutlardan maktab, mahalla, o‘quv yurtlari, jamoat tashkilotlari tomonidan har bir fuqaroning mas‘ulligiga e‘tibor qaratildi va oila muammosiga davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ma‘lumki, sog‘lom oilaning asoslariga oilada er-xotinning o‘zaro munosabati, ularning farzandlariga, farzandlarining ota-onalari, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlari, jamiyatga nisbatan burch va mas‘uliyatlari kiradi.

Har bir psixolog yoshlar psixologik holati naqadar murakkabligi va o‘zgaruvchanligini mas‘uliyat bilan tushunish kerak ekanligini his etmoqda. Shuning uchun ular bilan ishlashda psixologik manbalardan foydalanish zaruriyatini davr taqozo etmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar va o‘tkazilgan

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs>

anketa so‘rovlari natijasida hozirgi kunda ota-onalar o‘z farzandlarini quyidagi yo‘llar bilan tarbiyalashga harakat qilayotganliklari aniqlandi:

- ibrat bo‘la oladigan shaxslar namunasida tarbiyalash uchun ularga biriktirib qo‘yish;

- donolar fikrlari, o‘g‘itlari, asarlarini o‘rganishga da‘vat etib, kundalik hayotda ularni qo‘llashga o‘rgatish orqali;

- jamiyat hayotida ro‘y berayotgan voqealar, insonlar xatti-harakatlarini kuzatib, tegishli xulosalar chiqarish orqali;

- insonning o‘zini tutishini o‘rganish, uni qiyoslash, taqqoslash va xulosa chiqarishga o‘rgatish orqali. Ushbu tarbiyalash ta‘sirida bo‘lgan yoshlar jamiyat hurmatiga sazovor bo‘lishi, o‘z vataniga foyda keltirishi mumkin deb o‘ylaymiz.

Bugungi kun talabi ham inson bolasi eng qudratli kuchga - o‘z tafakkuriga ega bo‘lishi lozimligi ko‘rsatmoqda. Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Jumladan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Rizouddin Ibn Faxriddin kabi allomalar bu masala yuzasidan o‘zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgacha o‘zining ahamiyatini yo‘qotgan emas. Chunki boshqa asarlardan farqli o‘laroq bu asarlar “Nasihatnoma”, “Pandnoma”, “Hikmatnoma” tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbaalarda yigitlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi, oila muqaddas, uni avaylab asrash faqat qizlarga emas balki yigitlarga bog‘liq ekanligi haqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalar hikoya qilinadi.<sup>5</sup>

Kaykovus Unsurulmaoni – 63 yoshida o‘g‘liga atab “Qobusnoma” asarini yozib, unda o‘zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi. “Qobusnoma” asarining 26-bobi “Xotin olmoq zikrida” deb nomlanadi. Unda Ey farzand, agar xotin ol. tilasang, o‘z hurmatingni yaxshi saqlag‘il. Garchi mol aziz bo‘lsa ham, xotin va farzandingdin darig‘ tutmagil. Ammo xotinni pok dil, farzandni farmonbardor va mehribon tutg‘il, bu ish sening qo‘lingdadur. Xotin talab qilsang, xotinning molini talab qilmag‘il. Nihoyatda xushruy xotin olmag‘ilki, uni ma‘shuq tutarlars. Xotin pok nihod va pok dil bo‘lsun: kadbону" eriga do‘st bo‘lg‘ay. Hayolig‘, taqvodor, tili qisqa, molni yaxshi saqlaguvchi bo‘lsun. Deb durlarki, yaxshi xotin erning va umrning rohati bo‘lur. Agar Xotining xo‘bruy, mehribon va maqbul bo‘lsa ham ixtiyoringni butkul unga bermag‘il va uning hukmi ostiga kirmagil. Nedinkim, Iskandarga deb durlar: “Doroning qizin nima uchun olib xotin qilmassan, bag‘oyat xushruydu”. Iskandar dedi: “Jahon xalqiga g‘olibman, endi bir xotinga mag‘lub bo‘lsam, ko‘p yomon ko‘rinur”. Bas, o‘zingdin muhtashamroq xotinni olmag‘il, qiz topilsa, eridin

<sup>5</sup> Malika Umedjanova “Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash” - Monografiya Toshkent 2022



qolg'on xotinni talab qilmag'il. Nedinkim uning (qiz bolaning) ko'nglida sening mehringdin o'zga kishining mehri bo'lmagay, hamma kishi birdek bo'lg'ay deb gumon etg'ay va o'zga kishidin, ta'ma qilmagay. Ammo do'st bo'lmagon va kadbonu bo'lmagon xotindin qochg'il, nedinkim, debdurlar: "Kadbonu bo'lmag'on tezroq band bo'lur, ammo ul masobada ermak. Buningdek xotin sening molingni qo'lingdin olib, so'ngra seni unga molik bo'lurg'a qo'ymag'ay, undin so'ng sen uning xotini bo'lursan, lekin ul senga xotin bo'lmas"<sup>6</sup> kabi fikrlar berilgan.

Bu pandnoma XI asrda otaning farzandiga nasihatnoma tarzida yozilgan bo'lsa ham, XXI asrga kelib ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Hozirgi kunda yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashimizda o'ziga xos dastur bo'lib xizmat qiladi.

Vasila Karimova "Oila ma'rifati" nomli ilk risolasida bevosita oilaviy hayot bosag'asida turgan yoshlar hamda endigina nikoh qurib, yaxshi niyatlar bilan turmush yo'llarini bog'lagan yosh kelin-kuyovlarga o'z tavsiya va maslahatlarini berib o'tkan.

A. Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir", degan fikri o'zbek millati uchun asosiy masalaridan biri bo'lishi lozim deb o'ylaymiz. Nazarimizda, avvalgidek keksalar yoshlarni odob axloqqa chaqirib yoshlar esa ularni hurmatlab, ularning o'gitlariga amal qilish an'anasini yo'qolib bormoqda.

N. Volkovanning fikricha, nikohga psixologik tayyorgarlikda asosiy rolni nikohdagi sheriklarning rol umidlari va da'volaridan xabardor bo'lish o'ynaydi. Umidlar bu turmush o'rtoq qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligi va oilada qanday funksiyalarni bajarishi haqidagi g'oyalar, rolli da'volar bu turmush o'rtog'ining oilaviy munosabatlardagi muayyan turdagi rollarni va ushbu rolga mos keladigan tadbirlarni bajarishga shaxsiy tayyorligi ahamiyat kasb etishi borasida o'z qarashlari yozgan<sup>7</sup>. Ushbu fikrlar hozirgi vaqtdagi oiladagi kutuvlarga qiyoslasak bo'ladi. Ijtimoiy rollar ya'ni oila qurganda er-xotinning oilada roli haqida ham fikrlar bayon etilgan.

Yoshlarning ko'pchiligi aynan talabalik yillarida yoki uning yakunida oila qurganlari sababli ham oila-nikoh munosabatlarida, oila a'zolari bilan muloqotda yuqori darajadagi ma'naviy-axloqiy va pedagogik, psixologik tayyorgarlik, turmush madaniyatiga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Ko'pchilik turmush qurish yoshidagi talaba yigitlarimiz bunday munosabatga kirishishga hali tayyor emas. Oilaviy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi<sup>8</sup>da belgilab qo'yilgan. Bular nikoh, er-xotin, ota-ona, farzandlar va oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi munosabatlar. Shuning uchun ham oila qurishda yoshlar dastlab oila va nikoh tushunchasini,

uning mohiyatini anglab yetishlari zarur. Olib brogan kichik o'rganishlarimizga asosan quyidagi tavsiyalarni berishni maqsadga muvofiq deb bildik:

➤ Eskicha dunyoqarash asosidagi stereotiplar oilaviy hayotga yigitlarni tayyorlashga yetarlicha e'tibor qaratmasligi natijasida ajrimlar soni ko'payotganligini hisobga olib, asosan yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashda kompleks ishlar amalga oshirilsa;

➤ Xronologik yosh bu oila qurayotgan yigitlarni oilaviy hayotga to'la tayyor ekanligini ko'rsatmaganligi sababli, ularni psixologik jihatdan oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari shakllantirilsa;

➤ Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash haqidagi, ayrim yo'qolib borayotgan milliy an'analarimiz va qadriyatlarimizni yoshlar ta'lim-tarbiyasiga qo'llasak va boshqalar.

Darhaqiqat, nikoh qurayotgan yigitlar dastlab oila haqidagi tushunchani to'laqonli anglab yetishsagina qurilgan oila totuv bo'lib aksariyat ajrimlar oldi olingan bo'lardi. Bu yigitlarga mustaqil turmush qurishga olib keladigan kelajakdagi majburiyatlarga hissiy tayyorligini tushunishga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs>
2. Malika Umedjanova "Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash" - Monografiya Toshkent 2022
3. Kaykovus "Qobusnoma" Toshkent- 1994 84 b.
4. Volkova A. N., Trapeznikova T. M. oila psixologiyasi: 2007 yil. 745 b.

## КОНФЛИКТЫ ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ И ИХ РАЗРЕШЕНИЕ

*Рейхан Мирзагаева Мирзага гызы*

*Докторант по программе доктор философии,  
Бакинского Государственного Университета,*

*Баку, Азербайджан*

*E-mail: [reyhan.mirzagayeva@gmail.com](mailto:reyhan.mirzagayeva@gmail.com)*

**Аннотация:** В статье раскрыты результаты эмпирического исследования копинг-стратегий с конфликтной ситуацией подростков, склонных к девиантному поведению. В статье выявлены средние и стандартные отклонения копинг-стратегий поведения подростков, склонных к девиантному поведению между группами мальчиков и девочек. Подростки одинаково использовали все стратегии выхода из

<sup>6</sup>Kaykovus "Qobusnoma" Toshkent- 1994 84b

<sup>7</sup> Volkova A. N., Trapeznikova T. M. oila psixologiyasi: 2007 yil. 745 b.

конфликтных ситуаций. Определены копинг-стратегии снижения поведения подростков и повышения способности формировать свое девиантное поведение.

**Ключевые слова:** подросток, девиант, поведение, борьба, стратегия, конфликт, решения, копинг, издевательства, воспитание детей.

**Izoh:** Ushbu maqolada deviant xulq-atvorga moyil bo'lgan o'smirlarning konflikt holati bilan kurashish strategiyalari bo'yicha empirik tadqiqotlar natijalari ochib berilgan. Ushbu maqolada o'g'il bolalar va qizlar guruhlari o'rtasidagi deviant xulq-atvorga moyil bo'lgan o'smirlarning xatti-harakatlarini engish strategiyalari uchun vositalar va standart og'ishlar aniqlangan. O'smirlar ziddiyatli vaziyatlarni engish uchun barcha strategiyalardan teng ravishda foydalanganlar. O'smirlarning xatti-harakatlarini kamaytirish va ularning deviant xatti-harakatlarini shakllantirish qobiliyatini oshirish strategiyalari aniqlandi.

**Asosiy iboralar:** o'smir, deviant, xulq-atvor, kurash, strategiya, mojaro, qarorlar, engish, bezorilik, bolalarni tarbiyalash.

**Annotation:** This article reveals the results of empirical research on conflict coping strategies of adolescents prone to deviant behavior. This article determined the means and standard deviations for the coping strategies of adolescents prone to deviant behavior between groups of boys and girls. Adolescents used all strategies equally to cope with conflict situations. Strategies to reduce the behavior of adolescents and increase their ability to form deviant behavior were identified.

**Keywords:** teenager, deviant, behavior, struggle, strategy, conflict, decisions, coping, bullying, raising children.

Исследования проблем девиантного поведения подростков всегда актуальны, как в рамках педагогической психологии, так и во многих смежных областях.

Копинг играет очень важную роль в подростковом возрасте, помогая справиться с рядом стрессоров и неприятностей в повседневной жизни. Наиболее распространенные из них связаны со школой (например, издевательства со стороны сверстников, проблемы с учителями и трудности в учебе) и межличностными отношениями (например, конфликты или проблемы с родителями, братьями, сестрами и сверстниками) [6, 12].

Копинг — важная конструкция для понимания того, как подростки реагируют на стрессоры и изменения, которые они испытывают в своей жизни. На разных этапах жизни оно может быть разным. В

подростковом возрасте девочки и мальчики сталкиваются со сложными задачами развития, такими как приспособление к группе сверстников, отличие от семьи и содействие формированию идентичности. Бедность, разведенные родители, девиантное окружение и другие факторы являются дополнительными факторами стресса для развития. Подросткам необходимо конструктивно бороться со стрессорами в их жизни [4, 83]. Достижение положительных результатов зависит от понимания реальных факторов стресса, с которыми сталкиваются подростки, того, как они понимают стрессовые события, а также того, как подростки реагируют на проблемы и справляются с ними. В этом исследовании мы изучили стратегии совладания, которые подростки с девиантным поведением и без него используют для управления стрессором. Понимание того, как подростки переживают стрессовые события и справляются с ними, обеспечивает основу для услуг по профилактическому вмешательству, независимо от того, направлены ли они на то, чтобы помочь подросткам изменить свою оценку стресса, указать и использовать социальные ресурсы или улучшить свою собственную способность адаптивно справляться со стрессом [2, 60].

Факторов, которые прямо или косвенно влияют на девиантное поведение подростков, немного. Этими факторами являются семья подростка, сообщество и сверстники. Семьи девиантных подростков живут за чертой бедности. Для них характерны насилие, карательное воспитание и межродительские конфликты.

Исходя из цели исследования, следующей целью проекта было исследование копинг-стратегий поведения подростков, склонных к девиантному поведению в конфликтных ситуациях.

Использовались следующие методы и методики исследования:

1) обсуждение;

2) следующие анкеты:

- «Склонность к девиантному поведению» (Орел, А.Н.);

- «Диагностика личностной склонности к конфликтному поведению» (Томас, К.);

- копинг-тест (Лазарус Р. и Фолкман С.);

3) статистические методы анализа данных: t-тесты, корреляции Пирсона.

Участниками стали подростки 13-14 лет (N=50, 25 девочек, 25 мальчиков). В табл. 1 представлены результаты оценки склонности подростков к девиантному поведению.

Таблица 1

**Значения склонности к девиантному поведению  
(по методике Орла)**

Значения	Группа.1 (мальчики)	Группа.2 (девочки)	t-тест
Склонность к противодействию нормам и значениям	5.74	5.37	0.94
Склонность к аддиктивному поведению	6.74	5.88	<b>2.15*</b>
Склонность к саморазрушительному и самоповреждающему поведению	8.92	9.2	-0.55
Склонность к агрессивному поведению	7.84	5.02	<b>5.29*</b>
Саморегуляция контроля эмоциональных реакций	7.22	7.26	-0.07
Склонность к делинквентному поведению	5.28	5.04	-0.51

**Примечания:** \* значимый t при  $\alpha=0,05$

Таким образом, между группой девочек и мальчиков имеются существенные различия по «Склонности к аддиктивному поведению» (2,15), «Склонности к агрессивному поведению» (5,29).

Это позволяет сделать вывод, что мальчики в большей степени, чем девочки, склонны к аддиктивному поведению, т.е. бегству от реальности посредством изменения сознания, и у них выше распространенность «чувственной жажды».

Также мальчики чаще, чем девочки, проявляют агрессию в личных отношениях с окружающими, склонны решать проблемы посредством насилия и издевательств со стороны партнера для повышения своей самооценки.

Поэтому и девочки, и мальчики склонны в равной степени регулировать свои конфликты, используя следующие методы: «Конкуренция», «Сотрудничество», «Соглашение», «Побег» и «Адаптация». Исследование копинг-стратегий у подростков проводилось с использованием метода «Копинг-тест» Лазаруса.

Таким образом, результаты для следующих копинг-стратегий, таких как «Конфронтация», «Отказ», «Самоконтроль», «Поиск социальной поддержки», «Принятие ответственности», «Бегство», «Планирование», «Позитивное изменение самооценки» имеют существенные различия в группе девушек и юношей по всем шкалам.

Полученные результаты позволяют сделать вывод, что девочкам-подросткам свойственно не совершать конкретные, направленные действия, а преодолевать негативные переживания за счет снижения их ценности для себя.

Также девочки чаще, чем мальчики, используют интеллектуальные способности к рационализации, чувству юмора, абстракции и переключению внимания.

Они склонны искать социальной поддержки (совета, соболезнования) и часто реагируют по принципу избегания, неприятия проблемы и абстрагирования. При этом девочка, а не мальчик, будет преодолевать проблемы посредством целенаправленного анализа ситуации и всех доступных способов поведения.

Кроме того, девочки склонны преодолевать негативные переживания за счет более позитивной оценки ситуации, чем мальчики, и рассматривая ее как фактор личностного роста.

Мальчики-подростки вместо девочек берут на себя ответственность в конфликтной ситуации и принимают свою роль в возникновении проблемы. Также они склонны к самокритике и самообвинениям.

У девочек адаптация как способ совладания с конфликтной ситуацией имеет большее значение, что снижает их склонность к самоповреждающему поведению и вероятность уклонения от использования копинг-стратегии.

Кроме того, планирование как стратегия преодоления становится более значимым, что снижает адаптационную стратегию выхода из конфликтной ситуации, следовательно, увеличивает склонность к самоповреждающему поведению, однако при этом снижается склонность к преодолению норм и правил, склонность к аддиктивному поведению [1, 125].

У мальчиков адаптация как способ выхода из конфликтной ситуации снижает способность к аутоагрессивному поведению, однако при этом повышает склонность к аддиктивному поведению.

Адаптивная стратегия может служить такой копинг-стратегией, как конкуренция, которая снижает склонность к аддиктивному поведению, однако увеличивает вероятность использования копинг-стратегии побега.

Таким образом, у девочек адаптивные копинг-стратегии выхода из конфликтной ситуации и копинг-стратегии планирования снижают распространенность девиантного поведения.

У мальчиков копинг-стратегии выхода из конфликтной ситуации существенно различаются. В целом мальчики склонны к конкуренции и бегству.

Полученные результаты могут быть использованы в психолого-педагогической практике: консультировании, психологической помощи подросткам и их семьям при копировании с девиантным поведением, организации воспитательной работы, воспитания и профилактической работы в условиях школ и высших учебных заведений.

#### **Литература:**

1. Дольто Ф. На стороне подростка / Франсуаза Дольто; пер. с фр. А.К. Борисовой; предисл. М.М. Безруких. - Екатеринбург: Рама Паблишинг, 2010.- 423 с.
2. Иванова И. А., Богуславская В. Г. Внутриличностный конфликт и способы его разрешения // Вестник Донбасской национальной академии строительства и архитектуры, выпуск 2009\_3(77), с. 59-62.
3. Терехина Н.В. Ведущая деятельность подросткового возраста с точки зрения основных задач развития. // Психологическая наука и образование, 2010, №5.
4. Фомиченко А. С. Причины проявления агрессии в детском возрасте // Культурно-историческая психология, №2, 2010, с. 83-86.
5. Damron-Bell J. The development of deviant behavior in adolescents: the influence of student characteristics and school climate // Electronic Theses and Dissertations. 2011. DOI: 10.18297/etd/309.
6. Wadsworth, M., & Compas, B. Coping with family conflict and economic strain: The adolescent perspective. Journal of Research on Adolescence, 12, 243–274, 2002.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

*Абдуллаева Насиба Абдусоломовна*  
Ферганский государственный университет,  
преподаватель кафедры педагогики  
*Богдан Анна Михайловна*  
Ферганский государственный университет,  
студентка

**Аннотация.** В данной статье мы рассмотрим педагогические вызовы, с которыми сталкиваются учителя и воспитатели при формировании исследовательских навыков у подрастающего поколения в Узбекистане. Мы также обсудим возможные пути решения этих проблем и способы содействия развитию исследовательской культуры среди молодежи.

**Аннотация.** Ushbu maqolada biz O'zbekistonda yosh avlodning tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchilar va o'qituvchilar duch keladigan pedagogik muammolarni ko'rib chiqamiz. Shuningdek, biz ushbu muammolarni hal qilishning mumkin bo'lgan yo'llari va yoshlar o'rtasida tadqiqot madaniyatini rivojlantirishga ko'maklashish yo'llarini muhokama qilamiz.

**Annotation.** In this article, we will consider the pedagogical challenges faced by teachers and educators in the formation of research skills among the younger generation in Uzbekistan. We will also discuss possible solutions to these problems and ways to promote the development of a research culture among young people.

**Ключевые слова:** педагогическая система, научно-исследовательская компетенция, педагогическая и научная эрудированность, процесс формирования, современное общество, мотивация.

**Kalit so'zlar:** pedagogik tizim, ilmiy-tadqiqot kompetentsiyasi, pedagogik va ilmiy bilim, shakllanish jarayoni, zamonaviy jamiyat, motivatsiya.

**Keywords:** pedagogical system, research competence, pedagogical and scientific erudition, formation process, modern society, motivation.

В современном мире, где знания и навыки постоянно обновляются и развиваются, ключевым фактором успешности образования является способность учащихся к самостоятельному приобретению новых знаний и исследовательской деятельности. Модернизация образования направлена на создание условий для развития исследовательских навыков учащихся, что является одним из приоритетных направлений в системе образования многих стран[1].

Исследовательские навыки, включающие в себя умение ставить вопросы, анализировать информацию, разрабатывать гипотезы, проводить эксперименты и интерпретировать результаты, являются фундаментом для любой профессиональной деятельности, особенно в науке, технике и инновационной сфере. Они позволяют молодым людям не только усваивать существующие знания, но и создавать новые, что является ключевым фактором развития общества.

Однако, несмотря на осознание важности исследовательских навыков, в педагогической практике Узбекистана все еще существуют проблемы, препятствующие их эффективному формированию. Эти проблемы проистекают из исторического наследия, традиционных образовательных подходов, отсутствия современных учебных материалов и методик, а также из недостаточного уровня подготовки педагогических кадров [2].

В связи с этим ряд указов и постановлений подписал президент республики Узбекистана Ш.М.Мирзиёев. В частности, 20 апреля 2017 года в Постановлении НС № 2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» [3] подчеркнута необходимость широкого привлечения талантливых студентов высших учебных заведений к научной деятельности. Постановлением ПФ № 5712 от 8 октября 2019 года в «Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»[4] основное внимание уделяется повышению эффективности научно-исследовательской работы в высших учебных заведениях, широкому привлечению молодежи в научной деятельности, формированию инновационной инфраструктуры науки.

Целью данного исследования является анализ и выявление педагогических проблем, связанных с формированием исследовательских навыков у молодежи в контексте развития образования в Новом Узбекистане. Для достижения этой цели были поставлены следующие задачи:

➤ Анализ современных тенденций в образовании Узбекистана: изучение преобразований в системе образования, направленных на создание условий для развития исследовательских навыков у студентов.

➤ Оценка уровня развития исследовательских навыков: исследование состояния формирования исследовательских навыков у молодежи, включая способность к анализу, синтезу и критическому мышлению.

➤ Выявление педагогических проблем: определение существующих проблем в процессе обучения, которые препятствуют эффективному формированию исследовательских навыков.

➤ Разработка рекомендаций для улучшения образовательной практики: предложение стратегий и методов, направленных на устранение выявленных проблем и содействие развитию исследовательских навыков у студентов.

➤ Анализ возможностей внедрения инновационных методов обучения: изучение потенциала использования новых технологий и подходов в образовании для стимулирования исследовательской активности молодежи.

➤ Оценка влияния социально-экономических факторов: исследование роли социально-экономического контекста в формировании исследовательских навыков, включая доступ к ресурсам, культурные особенности и политику в области образования.

Решение этих задач позволит не только выявить и понять проблемы, стоящие перед системой образования Узбекистана в контексте формирования исследовательских навыков, но и разработать

действенные меры по их устранению, что в свою очередь будет способствовать развитию интеллектуального потенциала молодежи и созданию условий для ее успешного вхождения в современный интеллектуальный и научно-технологический рынок. Для достижения поставленной цели нужно найти решение к следующим проблемам исследовательской деятельности молодежи.

➤ Недостаточная методологическая подготовка учителей.

Одной из основных проблем является недостаточная методологическая подготовка педагогов. Многие учителя не имеют должного опыта и знаний в области исследовательской деятельности, что затрудняет их способность организовать и направлять исследовательские проекты учащихся.

➤ Слабая интеграция исследовательской деятельности в учебный процесс.

Исследовательская деятельность часто остается на периферии учебного процесса. Она не является органичной частью образовательной программы, что не способствует формированию устойчивых исследовательских навыков у учащихся.

➤ Низкий уровень мотивации учащихся.

Учащиеся часто не видят практической пользы от исследовательской деятельности, что снижает их мотивацию к участию в таких проектах. Недостаточное понимание значимости исследовательских навыков для будущей профессиональной деятельности также является проблемой.

Наши исследования показали следующие пути решения вышеуказанных проблем:

➤ Повышение квалификации педагогов.

Необходимо организовать систему непрерывного педагогического образования, направленную на повышение квалификации учителей в области исследовательской деятельности. Это может быть достигнуто путем проведения семинаров, тренингов и курсов, а также путем создания сообществ учителей-экспертов.

➤ Интеграция исследовательской деятельности в учебный процесс.

Исследовательская деятельность должна стать неотъемлемой частью учебных программ. Это может быть достигнуто путем разработки и внедрения специальных учебных модулей, которые будут включать в себя исследовательские задания и проекты.

➤ Мотивация учащихся.

Для повышения мотивации учащихся к участию в исследовательских проектах необходимо проводить информационные кампании, демонстрирующие практическую значимость

исследовательских навыков. Также следует организовывать конкурсы и олимпиады, результаты которых могут быть учтены при поступлении в высшие учебные заведения.

➤ Создание системы оценки и стимулирования.

Необходимо разработать и внедрить систему оценки и стимулирования успешных исследовательских проектов. Это может включать в себя выделение грантов, премий и других форм поощрения для учащихся и педагогов, активно участвующих в исследовательской деятельности.

Формирование исследовательских навыков у молодежи является ключевым фактором в создании конкурентоспособного и инновационного общества. В Узбекистане, как и в других странах, существуют проблемы, связанные с этим процессом. Однако, с помощью целенаправленных мер, таких как повышение квалификации педагогов, интеграция исследовательской деятельности в учебный процесс, мотивация учащихся и создание системы оценки и стимулирования, эти проблемы могут быть успешно решены. В результате, молодежь Нового Узбекистана сможет стать активным участником инновационных процессов, способным к самостоятельному приобретению знаний и решению сложных задач.

#### Использованная литература:

1. А.Абдуллаева "Формирование исследовательских навыков учащихся в условиях модернизации образования" – 2018, Научный журнал «Молодой ученый.»
2. Л.Юлдашева "Особенности формирования исследовательских навыков у учащихся средней школы" -2019, Научный журнал «Молодой ученый.»
3. Постановление ПК № 2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» (пункт 1), Ташкент-2017.
4. «Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» в Постановлении ОФ №5712 от 8 октября 2019 года (Глава 3, Пункт 3), Ташкент-2019.
5. Б.К.Рахимов «Социально-педагогические основы направленности студентов на научно-исследовательскую работу» автореферат (DcS), Ташкент-2009.
6. Abdullayeva, N. A. (2022). The Role of Project Education in Developing Students' Restraint Skills. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(5), 58-62.
7. Abdullayeva, N. (2023). MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI

SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(28), 366-370.

8. Abdullayeva, N. (2023). MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(28), 366-370.

## TALABALARDA OILAVIY XAYOT TO'G'RISIDAGI TASAVVURLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Turobova Maxbuba Alisherovna*  
*Iqtisodiyot va pedagogika*  
*universiteti o'qituvchisi*

Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdodlarimizda kuzatilgan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqlarning yuzaga ke-lishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Yoshlarimizda bu masala bo'yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun, bundan 90—100 yillar oldingi ularning tendosh-lari va bugungi kunlarimizdagi 15—16 yoshli yigit-qizlar o'rtasidagi tafovutlarni solishtirib o'tamiz. Maxsus adabiyotlarda yozilishi va o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko'ra ularning jinsiy, fmologik balog'atga yetishi 2—3 yilga ilgari ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog'atga yetish davri 15—16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12—13 yoshlarga to'g'ri keladi.

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi shaxsning madaniy takomillashuviga, u esa shaxslarni bir-birlariga qo'yadigan ta-lablari oshishiga va shaxslararo munosabatning noziklashuviga olib keladi. Buning yorqin dalili sifatida ajralishlar miqdori oliy ma'lumotlilar ichida umumiy o'rta ma'lumotlilarga nisbatan yuqoriroq ekanligini e'tirof etish mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuqori saviyada bo'lmagan jamiyatdagi oila a'zolari o'zlarining oilaviy yumushlarining ak-sariyatini qo'lda bajaradilar. Unga oilaning barcha a'zolari va birinchi navbatda farzandlar mumkin qadar ko'p jalb qilinadi. Oila ishlarini bajarishdagi umumiy faoliyat yoshlarda ma'lum malakalarni, shu jumladan oiladagi tegishli rollarni bajarishni, oilada bir-

birlari bilan qanday muloqotda bo'lish malakalarini, oilada har bir shaxsning iyerarxik mavqeyiga ko'ra o'z huquq va vazifalarini aniqlab olishga imkon beradi.

Moddiy ta'minot, yuqori madaniy saviya esa shaxsning boshqa shaxsga qo'ygan talabini, shu jumladan oilada yanada kuchaytiradi. Oila a'zolarining o'zaro muloqotda bo'lish vaqti miqdorini qisqartiradi. Bu esa ko'pgina yoshlar uchun ota-ona oilasi shaxsiy oilasiga namuna vazifasini bajara olmasligiga olib keladi. Shulardan ko'rinib turibdiki, bundan 100 yillar oldingi yoshlar 16—18 yoshida oila qursalar, ular shu vaqtga kelib oilaviy hayot uchun, muvaffaqiyatli turmush kechirib ketishlari uchun zarur bo'lgan yetuklik darajalarining barchasiga erishganlar, bu esa ularning oilaviy hayotlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning bartaraf etilishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi yoshlarimiz esa yuqorida bayon etilganidek, 12—13 yoshlarida jinsiy balog'atga yetadilar va aksariyat hol-larda oradan 7—8 yil o'tgandan so'ng, ya'ni qizlar 19—20 yoshda, yigitlar esa 21—22 yoshda oila quradilar. Bu vaqtda esa ular na iqtisodiy jihatdan, na ijtimoiy jihatdan va na psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyor bo'ladilar. Bunday holatlar shubhasiz, ularning oilaviy hayotlarida oldingi teng-doshlari hayotida kuzatilmagan muammolarni keltirib chiqara-di. Bundan tashqari, jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy vazifalarni ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lishligini taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham so'nggi 15—20 yil davomida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, bizning respublikamizda mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillaridanoq, oila masalalariga, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilalarda komil shaxsni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Umuman insoniyat jamiyati tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligi ham shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo'lgan e'tibor ham kecha va bugunga qaraganda ertaga yanada yuqoriroq bo'ladi. Chunki oila jamiyatning kichik bir ko'rinishi bo'lib, u qancha inoq, ahil va mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik qudratli bo'ladi.

Xulosa shuki, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga, nafaqat shaxsning o'z-o'zini yaxshi his etishi, atrofda odamlar bilan bo'ladigan shaxslararo munosabatlarda zo'riqmay, o'zini erkin his qilishiga yordam beradigan psixologik bilimlarni berish balki, yigit-qizlarimizga «tabiatning shoh asari bo'lmish – oila»ning o'ziga xos qonun-qoida, sir-sinoatlarini ham o'rgatishimiz zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi: Psixol. fan. dok. dis.: 19.00.05. – T.: FarDU, 1994. –324-b.

2. Lutfullayeva N.X. Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. nom. dis. avtoreferati:19.00.05. – T.: O'zMU, 2006. –25-b.

3. Oila psixologiyasi. // Shoumarov G'.B. tahriri ostida. – T.: 2000. –272-b.

4. Saifnazarova F. O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar. Monografiya. – T.: «Yurist-media markazi», 2007. –128-b.

5. Sog'inov N.A. O'zbek oilalarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari. «O'zbekiston mustaqilligi – uning fani va texnologiyalarini rivojlantirish kafolati» II Respublika ilmiy kollokviumi materiallari. – T.,1998. –98-101-b.

6.М.Файзиева Оилавий муносабатлар психологияси. Қўлланма “Насаф” нашриёти 2020 й.

7.М.Файзиева Оила психологияси.Монография .Қарши – 2021 й.

#### **IJTIMOY TARMOQLARNING O'SMIRLAR PSIXOLOGIASIGA TA'SIRI**

*Ibragimova Zarnigor Orifjon qizi.*

*Turon universiteti o'qituvchisi*

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarning soni ko'paygandan ko'payib bormoqda, bu o'z navbatida jamiyatga katta ta'sirini berib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar shunday kuchga ega bo'ldiki uzoqdagi do'stingni yaqinlashtirib, yaqindagi do'stingni uzoqlashtirishga olib keldi. Bu o'z navbatida jamiyat a'zolari orasida sarosima va betartiblikni keltirib chiqarmoqda. Lekin ijtimoiy tarmoqlar hozirgi kunda yoshlarga keng imkoniyatlarni ham yaratib bermoqda. Jumladan, turli davlat yoshlari birbirlari bilan fikr almashib savollariga javob topishda, katta yutuqlarga erishishda ijtimoiy tarmoqlarning beqiyos yordamlari foyda berib kelmoqda. Shu sababli yoshlarning ongini va niyatini to'g'ri yo'naltira olishni o'rgatsak ijtimoiy tarmoqlardan ham kerakli natijalarni olsak bo'ladi. Darhaqiqat, bugungi kunda hamma YouTube, Facebook, Instagram, Telegram, Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlarni biladi, hech bo'lmaganda bittasidan foydalanadi. Ayniqsa, yoshlar bu masalada faoldir va aynan shuning o'zi muammodir. Nima uchun? Sababi bitta: ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar har doim ham to'g'ri va obyektiv emas. Tabiiyki, uning ma'naviyatiga, ruhiyatiga, axloqiga tahdid solmaydi degan kafolatlar yo'q. Shuni tan olish kerakki, ijobiy tomonlari bilan bir qatorda uning salbiy tomonlari ham mavjud. Chunki ommaviy aloqa vositalari orqali ongni va

aqlni egallash tahdidi mavjud ekan, jiddiy qo'rquv uchun asoslar mavjud. Muammoni, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda salbiy ma'lumotlar oqimining ko'payishi kuchaytirmoqda. Sababi, yoshlar o'zlarining tajribasizliklari sababli kelgan ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilishga qodir emaslar. Ehtimol, yolg'on va xolis ma'lumotlar uni osonlikcha yo'ldan ozdirishi mumkin. Shu o'rinda savol tug'iladi, Nega ijtimoiy tarmoqlarda asossiz yangiliklar va g'iybat tarqatilmog'unda? Nima uchun aholi, asosan yoshlar, ularga ishonishadi? Bunda davlat organlari, muassasa va tashkilotlarning matbuot xizmatlari ham aybdor. Agar biror joyda biror narsa yuz bersa, bu jarayon haqidagi ma'lumotlar guvohlar, kuzatuvchilar tomonidan Internet orqali tarqatiladi. Aslida, bunday vaziyatlarda aynan matbuot xizmatlari ma'lumot berishlari kerak. Ular tunu kun faol ishlashlari kerak. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarning odamlar hayotiga ta'siri juda katta, ko'pchilik bu hodisaning ko'lamini to'liq anglamaydilar va axir ijtimoiy tarmoqlar allaqachon Internetdagi eng ommabop faoliyatdir. Bugungi kunda dunyodagi eng ko'p tashrif buyuriladigan 100 ta saytdan 20 tasi klassik ijtimoiy tarmoqlar, yana 60 tasi u yoki bu darajada ijtimoiylashmoqda. Dunyo bo'ylab kompaniyalarning 80% dan ortig'i o'z ishlarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar. Odamlarning 78 foizga yaqini ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarga ishonadi. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviyati va tafakkuriga ko'rsatayotgan ham ijobiy ham salbiy jihatlarni ta'kidlash lozim. Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishga ta'sir etadigan ijobiy xususiyatlariga xayriya tadbirlari tashkil etish, yoshlarni uyushtirish, imkoniyati bor kishilarni shu ishga jalb etish, do'stlar orttirish, yoshlar o'zlarining faoliyatlariga tegishli ma'lumotlarni olish, uzatish kabilarni kiritish mumkin. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishga ta'sir etadigan salbiy xususiyatlariga axloqsizlik, fahsh, buzqlikni targ'ib qiluvchi saytlar va ularning sahifalari keng yoyilgani; mish-mish, yolg'on, uydirmalar, buzg'unchi g'oyalar, soxtalastirish, tarafkashlikning yoyilgani; e'lon qilingan ayrim maqolalarda ishonchli manbalarning yo'qligi, qaysi kitob yoki saytdan olinganligi, kim yozganligi haqida ma'lumotning yo'qligi, birovlarning haqlarini poymol etish, ularning yozgan maqolalarini o'zlashtirib olib, ma'naviy, intellektual huquqlarning buzilishi sodir bo'lishi; ushbu tarmoqlarda insoniy aloqalar zaiflashadi, yuzma-yuz ko'rishish bo'lmagani uchun o'zaro mehr kamayadi, voqelikdan uzilib qolish yuz beradi, oilaviy ahillikka salbiy ta'sir qilishi; yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan noto'g'ri foydalanishi vaqtning isrof bo'lishiga, keragidan ortiq foydalanish esa, unga o'rganib qolishi; maqtanchoqlikning yoyilgani, ya'ni ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari kiygan kiyimlari, yegan ovqatlarini o'z sahifalariga joylashtirishlari oqibatida maqtanchoqlik, barchaning e'tiborida, diqqat markazida bo'lish xohishi

kuchayib, kambag'al, nochor ahvolda yashayotganlarning his-tuyg'ulari e'tiborga olinmaydigan kayfiyat yuzaga keladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar quyidagi xavfli ta'sirlarga ega: internet tarmog'iga bog'lanib qolish; o'qish va bilim olishga yengiltaklik bilan munosabatda bo'lish (Internetdan tayyor dars ishlanmalari, matematik masalalar yechimlarini osongina topish hisobiga dars topshiriqlarini mustaqil bajarmaslik); jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir xavfi, ya'ni bolaning faol harakatda bo'lmay, uzoq vaqt monitor ro'parasida o'tirishiga to'g'ri kelishi va boshqalar. Albatta, ijtimoiy tarmoq manbalarida bolalarga haqiqiy hayotdagi kabi virtual olamda ham tartib-intizom qoidalari mavjudligini tushuntirib borish eng birinchi navbatdagi vazifadir. Shu bilan birga ijtimoiy tarmoqlar hozirgi kunda yoshlar tafakkuriga ijobiy ta'sir etishi bilan birga juda ko'plab yoshlarni ijtimoiy tarmoqlar vaqtini o'g'irlamoqda, internetklublarda, mobil telefonlarda yoshlar ayni o'qib ilm hosil qiladigan paytlarida vaqtlarini bekorchi o'yinlarga, axloqiy buzuq xarakterli, estetik jihatdan saviyasi ancha past bo'lgan foto suratlar va video fayllarni ko'rish bilan umrini xazon qilmoqda. Shunday qilib, Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ma'naviyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, ya'ni shaxsiy manfaatlar yoshlar uchun ustuvor ahamiyat kasb yetadi va shu bilan birga jamiyat, ijobiy shaxslararo muloqot, hamkorlik va o'zaro yordam hamda ijtimoiy me'yorlar va asosiy umuminsoniy qadriyatlarga befarq munosabat shakllantiradi [6]. Shu sababli yoshlar orasida to'liq jonli aloqa asta-sekin qadrsizlanib bormoqda, o'zining bevosita hissiyotlari bilan haqiqiy kommunikativ harakat o'rni sezilmaydigan quruq xabarlar, kitoblarni o'qish - qidiruv saytlaridan shubhali ma'lumotlar, psixologik salomatlik - IT-texnologiyalarga, gadjetlar va shaxsiy kompyuterlardagi virtual axborot maydoniga bog'liqlik egallamoqda. Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda amalga oshiriladigan barcha demokratik islohotlar jarayonida ham yoshlar masalasiga hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish, yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimiga alohida e'tibor beriladi.

Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari: yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash; yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash; yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash; iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish; yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish,



shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy- maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish [1] kabilardan iborat.

Albatta, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda mutloqa notanish shaxslar bilan tanishishga urinayotgani tashvishli xolat. Bu esa jamiyatda ilmsizlik johillikning, axloqsizlikni tomir yoyilishiga hamda yoshlar ongi va madaniyatiga salbiy ta'sir qiladi. Bularning oldini olish uchun, yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, ta'lim muassasalarida yoshlarni o'qishdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun sport to'garaklari, musiqa to'garaklari, fan to'garaklari davomiy tarzda va eng asosiysi yoshlarni qiziqitira oladigan darajada tashkil etish, shu bilan birga yoshlarni iqtidorlisini topish va ularni tarbiyalash zarur. Buning uchun —Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar birgalikda, xususan nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan yoshlarni qiziqishi va yosh xususiyatidan kelib chiqib turli xil formalar tashkil etish lozim. Shuningdek, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. —Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 24 avgust // <http://www.lex.uz/>.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4 jild. – Toshkent: «O'zbekiston», 2020. – 453 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar forumida so'zlagan ma'ruzasi Toshkent 2020 y. 4. Belinskaya YE.P. Yazik Internet-kommunikatsii i sotsiologicheskiye situatsiya sovremennosti // Sovremennaya sotsialnaya psixologiya: teoreticheskiye podxodi i prikladniye issledovaniya. – T., 2011. № 10. – S.6.
5. Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli – Beruniy Alimov <http://beruniyalimov.uz/archives/705>
6. Patrikeyeva E.G. Vliyaniye virtualnogo prostranstva seti Internet na jiznenniye sennosti sovremennoy molodeji // Molodoy ucheniy. — 2015. — № 10 (90). — S. 1342-1346. — URL: <https://moluch.ru/archive/90/18990/> (data obrasheniya: 19.04.2021).

## REABILITATSIYA MARKAZLARIDA XOTIN-QIZLARGA IJTIMOIY XIZMAT KO'RSATISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

*Ungboeva Umida Sayfullayevna*  
*Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi*

Ma‘lumki, yaqin kelajakda buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy meros, qolaversa, mamlakatimizda aholining ko‘pchiligi e‘tiqod qiladigan islom dini ham yuqorida tilga olingan tahdidlardan tashqari hujumga uchramoqda. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida bu tahdidlar juda yaqqol namoyon bo‘ldi. Buzg‘unchi tushunchalar, birinchidan, yetarlicha diniy va dunyoviy tushunchaga ega bo‘lmagan, hayotda o‘z yo‘lini aniqlash imkoniga ega bo‘lmagan yoshlarni chalg‘itishga harakat qildi. Ikkinchidan, avlodlar o‘rtasida yot g‘oyalarni yurtimiz aholisiga olib kirishga, ijtimoiy-siyosiy to‘ntarishlarga sabab bo‘lishga, ular o‘rgangan va amal qilgan aqida, kalom, fiqh, fiqh kabi diniy matnlarni shubha ostiga qo‘yishga urinishlar bo‘lib kelmoqda. mistik masalalar. Xalqimizning yuqori malakali olimlari va mutasaddilari yuqorida tilga olingan stsenariylarga barham bera olgani va hozir ham keltira olgani uchun Yaratganga shukronalar aytishimiz kerak. “Bugungi kunda dunyoning turli hududlarida, xususan Yaqin Sharq mintaqasida ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to‘qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko‘rinishdagi tahdidlarga qarshi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda kishilik jamiyati oldida bir qator kompleks vazifalarni hal etish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov 2013 yil 31

avgustda <<Shahidlar xotirasi>> xiyobonida o‘tkazilgan marosimda ulamolar, jamoatchilik vakillari bilan suhbat chog‘ida ushbu masalaga alohida to‘xtalib shunday degan edi “Bunday g‘arazli kuchlarning asosiy niyati - hali hayotiy tajribasi, siyosiy-ijtimoiy saviyasi yetarli bo‘lmagan, sodda va g‘o‘r yoshlarni yo‘ldan urish, o‘zining qabih niyatlari yo‘lida foydalanish ekanini hech qachon unutmasligimiz kerak. Faqatgina mustaqil fikrlaydigan, imon-e‘tiqodi mustahkam, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan ezgu qadriyatlarga sadoqatli bo‘lgan insongina bunday qutqularga uchmasligi, to‘g‘ri yo‘ldan adashmasligi mumkin. Buning uchun, albatda, birinchi navbatda farzandlarimizni yuksak bilim va ma‘naviy fazilatlar bilan qurollantirishimiz lozim. Ularga biz uchun muqaddas bo‘lgan islom dinining chinikam insoniy mohiyatini, uning tinchlik, yaxshilik, mehr - shavqat, hamjihatlik dini ekanini to‘g‘ri tushuntirib berishimiz kerak. Bizga yot va begona bo‘lgan turli zararli oqimlardan himoyalani uchun odamlarga bu boradagi bor haqiqatni yetkazish zarur. Ta‘bir joiz bo‘lsa, bunday xavf-xatarlardan odamlarni, avvalambor, yosh avlodni haqiqat bilan himoya qilish kerak” [5;177]. Shu maqsadda, diniy mutaassiblik, ekstremizmning kelib chiqishi, ularga moliyaviy, ruhiy ko‘mak beruvchi radikal diniy-siyosiy tashkilotlarning faoliyati, g‘oyalari va g‘arazli maqsadlarining tahliliga bag‘ishlangan tizimli tadqiqot yaratish hamda keng jamoatchilikka yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi” [1; 4-5].

Barkamol avlodni tarbiyalashda diniy qadriyatlarimizdan foydalanishimiz bizga faqatgina foyda beradi, xolos. Muqaddas dinimiz haqida Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov o‘zining «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch» asarida shunday degan: «Din azaldan inson ma‘naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning mustahkam bir tizimidir” [2;176].

Shuningdek, muayyan tarixiy davrlarda xalq bilan yonma-yon turgan ulug‘ o‘tmishdoshlarimiz haqiqiy odamiylik timsoliga aylanib qolishgani sir emas. Misol, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimiz mardlik, jasorat, rahbarlik borasida, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abdulholiq G‘ijduvoni, Bohouddin Naqshband singari aziz avliyolarimiz hadis, aqid, tasavvuf kabi ilmlar rivojiga, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Behbudiy kabi bir qancha ulkan istedod egalari donishmandlik, ilm-ma‘rifat borasida barchamiz uchun o‘rnak timsoliga aylanib ulguragan.

## PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHDA MUOMALA MADANIYATINING O'RNI

*O'tkurova Xadicha To'liq qizi*

*Alfraganus Universiteti Pedagogika fakulteti*

*2-bosqich talabasi*

*otkurovaxadicha04@gmail.com*

*Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Alfraganus universiteti "Pedagogika va psixologiya"*

*kafedrasida dotsent v.b.*

***Annotatsiya:** Inson tirik ekan uni o'rab turgan borliq o'rtasida o'zaro ichki va tashqi nizolar bo'lib turadi. Bular esa uning ongi va xarakteriga o'z ta'sirini sezdirmay o'tmaydi. Nizolar bor ekan shaxs shakllanib, jamiyatga moslashib boradi. Ushbu maqolada pedagogik konfliktlarni oldini olishda muomalaning o'rni, ziddiyatlarni yuzaga keltiruvchi omillar va ularni oqilona hal etish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Xushmuomalalik, til, tafakkur, tajovuz, ziddiyat, omil, hamkorlik.*

***Аннотация:** Пока человек жив, между существами, которые его окружают, существуют внутренние и внешние конфликты. И они не проходят без ощущения их влияния на его ум и характер. Пока существуют конфликты, личность формируется и адаптируется к социуму. В данной статье представлена информация о роли общения в профилактике педагогических конфликтов, факторах, вызывающих конфликты, и способах их рационального разрешения.*

***Ключевые слова:** Вежливость, язык, мышление, агрессия, конфликт, фактор, сотрудничество.*

***Abstract:** As long as a person is alive, there are internal and external conflicts between the beings that surround him. And these do not pass without feeling their influence on his mind and character. As long as there are conflicts, the person is formed and adapts to the society. This article provides information about the role of communication in the prevention of pedagogical conflicts, the factors that cause conflicts, and ways to resolve them rationally.*

***Keywords:** Politeness, language, thinking, aggression, conflict, factor, cooperation.*

Til – inson tafakkuri mahsuli. U inson madaniyati fikriy go'zalligini yaxshi, ibratli, havas qilsa arziydigan fazilatlarini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Muomala esa insonlarni bir-biriga bog'lovchi, yaqinlashtiruvchi, katta-kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Insonning go'zal hayot

Shu o'rinda Abu nasr Forobiyning odamlar o'zaro hamjixat bo'lib, do'stlik-birodarlikda yashashi ularning asl maqsad-muddaolariga mos ekanini ta'kidlab "Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos – insoniylikdir. Binobarin, odamlar insoniyat qavmiga mansubligi tufayli o'zaro tinchlikda yashamog'i zarur" [3;186].

Darhaqiqat inson deb atalmish odamzodning xar tomonlama mukammal shaxs sifatida jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishida ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyosdir.

Xulosa o'rnida Abdulla Avloniyning tarbiya xususidagi qarashlari keltirib o'tmoqchimiz.

Tarbiya-pedagogika, yani bola tarbiyasi fani demakdir. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq tabiblardek kabiturki, tabib hastaning badanidagi kasaliga davo qilg'oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berib katta qilmog'i lozimdir. "Nazokat deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asbob-uskunalarimizni pok va toza tutmoqni aytilur. Poklik zehn va idrokni keng va o'tkir qilur. Xalq orasida e'tibor va shuhratga sabab bo'lur.

Poklik ila har xil kasalliklardan qutulib, jonimizning qadrini bilgan bo'lurmiz. Pok bo'lmak salomatligimiz, saodatimiz uchun yeng kerakli narsadur. Pok bo'lmagan kishi Alloh hamda xalq qoshida sevimsizdur. Yirtiq, eski kiyimlar kiyimak ayb emas, yangi kiyimlarni kir qilib, yog'ini chiqarib yurmak zo'r ayb va gunohdur" [4; 19].

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Hasanov Diniy mutaassiblik: Mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari / va boshq. – Toshkent: <<Movarounnahr>> , 2013. – B. 4-5.

2. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat". – T.: 2008. 176-bet.

3. Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri". Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993 yil, 186 bet.

4. Abdulla Avloniy. "Turkiy Guliston yohud axloq". Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1992 yil, 19-20 bet.

5. Ajdodlar xotirasi muqaddas // <<Toshkent oqshomi>> gazetasi. 2013 yil 1 sentabr, 177-son.

kechirishida, jamiyat orasida o'z o'rnini topa olishida, boshqalarning hurmat extiromiga erishishida muomalaning o'rne kattadir. Insonning shirinso'zligi kishining tarbiyalanganligidan guvohlik bersa, so'zga boyligi, chechanligi, ma'nodorligi uning o'qimishli, bilimdonligini ko'rsatadi[4].

Muomala insonning axloqiy tarbiyasi ko'zgusi hisoblanadi. Inson yashamog'ida havo va suvning ahamiyati qanchalik muhim bo'lgani kabi jamiyat orasida o'z o'rnini topishida ham muomalaning o'rne beqiyos. Biz kundalik hayotimiz davomida turli konfliktlarga duch kelamiz va afsuski ularni hal etishda ko'pincha o'rinli muomala qilishni unutib qo'yamiz. Xalqimizda "Muomala zo'r bo'lsa, tuya ham cho'kar" deb bejiz aytishmagan. Insonning kim ekanligini uning fikrlariga qarab bilib olishimiz mumkin. Chunki biz ko'rib turgan tashqi ko'rinish aldamchi bo'lib qalb go'zalligini namoyon etmaydi.

Amerikalik psixolog B.Vul aytganidek, "Hayot cheksiz ziddiyatlarni hal etish jarayonidir. Inson ularni chetlab o'ta olmaydi, faqatgina ularni hal etishi yoki uni bartaraf qilishning o'zgacha usulini tanlaydi". Afsuski, ko'pchilik odamlar mazkur holatlarda odilona yo'l topa olmaydilar, ziddiyatlarni chetlab o'tishga harakat qiladilar. Ziddiyatlarni chetlab o'tish ziddiyatni bartaraf qilish degani emas. Bundan tashqari, ziddiyatli vaziyatning vujudga kelishi jamiyat va inson uchun ham moddiy ham ma'naviy zararni olib keladi. Shuning uchun har bir rahbar ularning paydo bo'lishi va hal etish yo'llarini bilishi lozim [1].

Ta'lim sohasining har bir xodimida muomala madaniyati shakllangan bo'lishi uning har qanday pedagogik konfliktni oqilona hal etishida qo'l keladi. U pedagoglarda o'zidan o'zi shakllanib qolmaydi, bu uchun har kim o'z ustida ko'plab ishlashi zarur. Ziyoli pedagog qarshisidagi kishi boymi, kambag'almi, o'zidan yuqori mansab egasi yoki oddiy kishiligidan qat'iy nazar ularga to'g'ri munosabat ko'rsata oladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ziddiyatli vaziyatlar asosida alohida shaxslar va guruhlarining qarama-qarshi fikrlari, maqsadlari hamda shu maqsadlarga erishishning vositalari yotadi. Ijtimoiy psixologiya ziddiyatlarning manbaiga qarab, uning bir necha turlarga ajratadi. Masalan, ziddiyat ichki-shaxsiy (rahbar bilan xodim o'rtasida) shaxs-tashkilot (shaxslar, guruhlar va tashkilot o'rtasida) bo'lishi mumkin. Shuningdek, ziddiyatlarning gorizontal tasnifi ham mavjud (bir—biriga bo'ysinmaydigan xodimlar o'rtasida), vertikal (bir-biriga bo'ysinuvchi xodimlar o'rtasida) va aralash turdagi ziddiyatlar ham mavjud. Kundalik hayotda vertikal va aralash turdagi ziddiyatlar uchrab turadi.[1.28-b]. Shuningdek, ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarning xususiyatlariga qarab tavsiflash mumkin. R.L.Krichevskiy o'zining "Agar siz rahbarsiz" kitobida ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni 3 guruhga bo'ladi:

Birinchi guruh — mehnat jarayonidagi ziddiyatlar;

Ikkinchi guruh — insonlararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari, ya'ni simpatiya va antipatiya, madaniy-etnik xilma-xillik, rahbar xatti-harakatlari, psixologik moslasha olmaslik va hokazo;

Uchinchi guruh — jamoa a'zolarining o'ziga xosligi. Masalan, o'zini boshqara olmaslik, ehtirosarga berilish, tajovuz, do'q-po'pisa, haqoratlash-so'kinish, munosabatga kirisha olmaslik [2].

Hayotda, ko'pincha odamlar orasidagi muloqotda ularning rasmiy, xushomadgoy, kibr-havoli munosabatlari shohidi bo'lamiz. Ba'zan inson yuqori martabaga erishsa, u o'zini boshqalardan ustunligini ko'rsatish uchun, ko'pchilik bilan salom-alik ham qilmay qo'yadi. Asl madaniyatda esa aksincha, insonning qanchalik martabasi ko'tarilsa, shunchalik oddiy insonlarga o'zining yaqinligini ko'rsatish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, muloyimlik, xalimlik, ochiqlik, samimiylik, to'g'rilik va boshqa bir necha tamoyillar ulug'lanadi va targ'ib qilinadi [3. 304-b].

Muomala jarayonidagi qiyinchiliklarni inobatga olib, E.Melburd, V.Zigert va L.Longe tomonidan insonning ziddiyatli vaziyatlarda xatti-harakatlarini psixologik standart bilan mos ravishdagi modeli ishlab chiqildi. Bu borada ziddiyatni konstruktiv hal etish quyidagi omillarga bog'liq:

- ziddiyatni adekvat tarzda idrok etish, ya'ni shaxsiy kechinmalarsiz ikkala tomonni ham to'g'ri baholay olish;

- muomalaning samimiyligi va samaradorligi, muammoni har tomonlama yechimini topish, ziddiyatlarda xolislikka amal qilish;

- o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratish. Rahbarning ziddiyatlarni vujudga keltiruvchi individual xususiyatlarni bilishi muhim ahamiyatga ega.

Jaxl chiqsa aql ketadi deganlaridek kishilar asabiylashgani sari fikrlari chalkashib o'z fikrlarini bayon etishda qarshi tarafdin ustunlik qilishga yoki o'z fikrlarini to'liq bayon eta olmay qiynalishga olib keladi. Psixologlarning bu boradagi tadqiqotlarini umumlashtirib siddiyatli holatlarda quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaslik, mazkur holatda atrofdegilarning

  - to'g'ri fikrlariga zid kelib, ziddiyat uchun zamin yaratiladi;

  - ustunlik qilishga intilish;

  - o'z fikriga sodiqlik tufayli yangiliklardan voz kechish;

  - fikrlarni bayon etishda ortiqcha to'g'rilik, haqiqatni ayta olish;

  - qat'iylik;

  - shaxs emotsional yig'indisi - bezovtalik, darg'azablik, qaysarlik.

Tadqiqotchilar ziddiyatlarda o'zini boshqarishning quyidagi usullarini ko'rsatadilar: raqobatchilik; hamkorlik; murosa (kompromiss); moslashish; chekinish.

Rahbar ziddiyatlarni boshqara olish qodiliyatini nafaqat ish sohasi, balki shaxsiy emotsional sohada ham ishlata olishi zarur. Xo'sh, ziddiyatli shaxs bilan ishlash jarayonida o'zini qanday tutish lozim:

Birinchi - bunday odamlarda ichki o'tkinchi kechinmalar bilan bog'liq ehtiyojlar mavjud bo'lib, ular shu orqali ehtiyojlarni qondiradi. Masalan, tajovuzkor o'zining tajovuzi orqali qo'rqoqligini yashirishi mumkin. Tajovuzkorlik manaviy qashshoq kishining yo'lidir.

Ikkinchi - o'z hissiyotlarini jilovlab, boshqaning hissiyotlarini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishi kerak. Bunda pedogog yaxshi tinglovchiga aylanishi qarshi tarafdin keluvchi salbiy xis tuyg'uni yumshatadi.

Uchinchi - odamlarning qilayotgan harakatlarini jiddiy qabul qilmaslik.

To'rtinchi - ziddiyatli holatlarda muvofiq keluvchi usulni tanlash uchun bunday usullar qaysi toifa odamlarga mos kelishini ajrata olishingiz zarur.

Ziddiyatli holatlar yuzaga kelganda, uning oldini olish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

-Ziddiyatli holatlarda insonning xatti-harakatini aql emas, balki hissiyotlar boshqarishini unutmang. Zero, aql yon bergan paytda, inson o'zining so'zi va xatti-harakatiga javob bera olmaydi.

-Muomalaning ko'plab muqobil usullaridan foydalaning, suhbatda doshingizni "jerkib" tashlamang, o'zingizga "Men ham yanglishishim mumkin!" degan savolni bering.

-Ziddiyatning mohiyatini to'laqonli tushunishga harakat qiling va «Mabodo ziddiyat hal etilmaschi?» degan xavotirdan yiroq bo'ling.

-Agar suhbatdoshingiz qattiq hayajonda yoki g'azablanayotgan bo'lsa, uni «sovutishga» intiling, zinhor undan baland kelishga urinmang: o'zingiz jim bo'lingda undan buni talab qilmang.

-Suhbatdoshingizga o'zini sizning o'rningizga qo'yib ko'rishini so'rang, ya'ni «Agar siz mening o'rnimda bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?» - degan savolni berib ko'ring.

-Qilgan xizmatdoshingizni haddan ziyod maqtayvermang va minnat qilmang.

-Ziddiyatni yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan hamkoringizni hadeb ayblayvermang. [1]

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muomala madaniyati. Oliy o'quv yurtlari talabarlari uchun darslik / O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. O'zbekiston Milliy universiteti. — T.: «Ta'lim nashriyoti», «Iqtisod-moliya». 2009. -156 b. (25-bet)

2. Кричевский Р.И. Если вы — руководитель. М.: Дело, 1993

3. Pedagogik konfliktologiya [Matnl: ukuv kullanma / Ahmedova M. - Toshkent: «Donishmand ziyosi» MCHJ, 2020. - 304-b

4. <https://azkurs.org/islom-karimov-nomidagi-toshkent-davlat-texnika-universiteti-no.html?page=66>

## YOSHLAR AHLOQIY TARBIYASI SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY TARMOQNING O'RNI

**Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li**  
Oriental universiteti Pedagogika fakulteti  
Uzluksiz ta'lim kafedrasida o'qituvchisi  
[Uchqunmamanazarov@gmail.com](mailto:Uchqunmamanazarov@gmail.com)  
**Berdiyeva Nargiza Ravshan qizi**  
Oriental universiteti talabasi  
**Bahodirova Mushtariy Bahtiyor qizi**  
Oriental universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada o'smirlar tarbiyasining psixologik jihatlari, ularning ma'naviy-xulqiy dunyoqarashini shakllantiruvchi omillardan biri bo'lmish ijtimoiy tarmoqning psixologik jihatlari haqida so'z yuritildi.

**Аннотация:** В статье говорится о психологических аспектах воспитания подростков, психологических аспектах социальной сети, которая является одним из факторов, формирующих их нравственно-нравственное мировоззрение.

**Annotation:** The article talks about the psychological aspects of the upbringing of teenagers, the psychological aspects of the social network, which is one of the factors that shape their moral and moral worldview.

**Kalit so'zlar:** O'smirlar davri, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy tarmoq.

**Ключевые слова:** Подростковый возраст, духовное воспитание, социальная сеть.

**Key words:** Adolescence, spiritual education, social network.

Bugungi axborot asrida dunyoning bir nuqtasida yuz berayotgan voqea va hodisalar to'g'risida boshqa bir nuqtada turib xabardor bo'lish mumkinligi hech kimga sir emas. Bu esa dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlarning yanada globallashtirishga imkon yaratib bermoqda. Axborot asrida yoshlar ongiga o'z ta'sirini o'tkazuvchi bu kabi tashqi va ichki omillar oqibatida, hali o'z imkoniyatlarini to'liq anglab yetmagan yosh avlod o'rtasida noxush xolatlarning bo'lib turganligi to'g'risida ma'lumotlarni uchratamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021 - yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor

yo'nalishi bo'yicha " Harakatlar strategiyasi " da keltirib o'tilgan qator yo'nalishlari doirasining to'rtinchi ya'ni " Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari " ning to'rtinchi bandida ham ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Chunonchi, komputer texnikasi va o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish kabi muhim ko'rsatmalar berilgan. Bunga yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surildi. Ushbu besh tashabbusning uchinchi aholi va yoshlar o'rtasida komputer texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi fikrini keltirib o'tmoqchimiz: " Tarbiya – Pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdir".

Shunday ekan ma'naviy tarbiyasi yuzasidan taklif etuvchi muayyan axloqiy fazilatlar yoshlarda kelajakka nisbatan ishonch hislarini to'g'ri shakllanishida va ularning barkamol bo'lib unib-o'sishida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. O'sib borayotgan shaxsning ma'naviy tarbiyasini shakllantirish muammosi ko'p qirrali bo'lganligi uchun, ushbu tushunchani din psixologiyasi, pedagogik psixologiya, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya kabi psixologiyaning turli tarmoqlari o'rganib kelmoqda.

Yoshlar o'zi yashayotgan jamiyat o'zgarishlarining faol ishtirokchisi ekan, uning faoliyatini muayyan g'oyalarga asoslangan ma'naviy tarbiya va ishonch boshqaradi. Shu sababli xulqiy tarbiyani shaxs hayotining bolalik chog'idan boshlangani maqsadga muvofiq. Agar biz ma'naviyat — inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida „ma'no“ so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'ybasti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy ozuqa va qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviyat odamlarda tap-tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi,

muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima — bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. Qisqasi, ma'naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanpar-varlik inson ma'naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma'naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste'dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g'ururi, obro'-e'tibori hisoblanadi. Ma'naviyatli jamiyatda aql, sog'lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo'ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi. Millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiymadaniy rivojlanishsiz ma'naviyatni tasavvur qilish qi-yin. „ma'naviyat — insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxtsaodat bo'lmaydi“, degan edi O'zbekistonning ilk prezidenti Islom Karimov.

“Shaxsning ichki ma'naviy dunyosi ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy qiziqish va faoliyat, ma'naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iboratdir.” Ko'pgina psixologlar inson ma'naviy tarbiyaning asosini hissiyot, iroda, hayol, motivlar, bilimlar va shu kabi bir qator xususiyatlaridan iborat deb bilishadi. Shu o'rinda yoshlar hayotida yuqoridagi barcha xususiyatlarni birlashtirib turadigan yetakchi va sog'lom tarbiyaning asosi nimada degan savolga javob berish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Shu sababli bizda o'g'il va qizlarni 10–11 dan 14–15 yoshigacha o'smirlilik yoshida deb hisoblanadi. O'smirlilik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda o'quvchi bilan o'qituvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. Ota-onalarning o'smirlar ruhiyatini yaxshi bilmasligi oilada o'z farzandlarini erkatlab o'stirishlari hamda ularni haddan tashqari asrab avaylab ardoqlashi oilada bola hulqini buzilishiga olib keladigan omillardandir.

Bunday tarbiyalangan bolalar va o'smirlarda xulq o'zgarishi ko'rinishlari tez shakllanib mustaqil fikr yuritish va moslanuvchanlik

qobiliyatlari yaxshi rivojlanmaganligi tufayli ular unchalik murakkab bo'lmagan oddiy nizoli vaziyatlardayoq o'zlarini yo'qotib qo'yadi.

Ko'pincha kuzatamizki hayotiy shart-sharoitlarda insonni, ayniqsa yoshlarni ko'pincha umid va orzular boshqaradi. Shu sababli ular faoliyatida hayotga munosabat, dunyoqarash yoki yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiluvchi, aql, idrok, iroda asosida anglangan bilimlar, g'oya hamda tasavvurlar ifodasi bo'lgan tushunchalar va shu asosda anglangan bilim, maqsadlar majmui hamda ularning to'g'riligiga bo'lgan ishonch yetakchilik qiladi. Xulqiy tarbiya yoshlarning voyaga yetishi jarayonida shakllanadi. Bilim va g'oyalar insonning ham aqli, ham qalbi bilan o'zlashtirib olgandagina ishonchga aylanadi. Ammo umid va orzular ham shunga munosib ravishda ulg'ayib boradi. Shunga ko'ra ma'naviyat tarbiyasi ijtimoiy jihatdan insonning faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Zero, tarbiya amaliy jarayonlarda o'zini kengroq namoyon qiladi. Agar o'smirlardagi xarakter xususiyatlari mutaassib, irqiy, millatchilik va tor siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlar bilan cheklangan bo'lsa, bunday holda u buzg'unchilik va beqarorlikka xizmat qiladi. Bunday hol oqibatida jamiyat va davlatning rivojlanishdan ortda qolishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu sababli, taraqqiyot va hurlikka xizmat qiluvchi ishonch bilan buzg'unchilik va yomonlikka yetaklovchi umid va orzularni bir-biridan farqlash g'oyatda muhim masaladir. Bundan shu narsa ko'rinadiki sog'lom avlodni shakllantirishda ishonch bilan hayotiy umid va orzularni uyg'unlashtirishning shaxs dunyoqarashi tizimidagi o'rni yuqori ekan. Uning ahamiyati birinchidan, shaxs dunyoqarashida barqarorlikni belgilovchi omil sifatida, ikkinchidan, mavjud yoki yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan qiyinchiliklardan cho'chimaslikka, ularga qarshi tura olishga va bartaraf etishning oqilona yo'llarini izlashga, uchinchidan, xulqidaga sobitlik va faollikni ta'minlashga xizmat qilishida ko'rinadi. Xulqiy tarbiya bir tomondan diniy bilimlarni egallashni hamda, dunyoviy ilmlardan ham xabardor bo'lishni talab etmoqda.

Bizning diyorda istiqomat qiluvchi ko'pchilik aholining hayot tarzi, urf-odatlarini, milliy tarbiya tizimida islom dini, ta'limoti va ruknlari asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Xususan, qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarda e'tiqodiy masalalar bilan bir qatorda ota-ona, farzandlik burchi, odob-axloq mavzusidagi masalalarda ko'plab psixologik ahamiyatga ega jihatlarni uchratamiz. Zero, prezidentimiz shavkat mirziyoev ta'kidlaganlaridek " islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi".

Yoshlarning diniy yoki dunyoviylikidan qat'iy nazar tafakkurining shakllanishi va mustahkamlashishiga chuqur ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri ma'naviyatdir. O'rta, maxsus va oliy ta'lim tizimida "ma'naviyat"ga oid fanlar tarkibida o'tiladigan mavzular qiyosiy o'rganilganda shu narsa ma'lum

bo'ladi, predmetlar bo'yicha yoshlarga asosan umumiy, tarixiy va nazariy ma'lumotlarga taqdim etiladi. Mazkur ma'lumotlar har qanday kuchli mutaxassis, yangi texnika va pedtexnologiyalar vositasida taqdim etilmasin, baribir umumiy hamda tarixiy va nazariy ma'lumotlar bo'lib qolaveradi. Bu fandan maqsad yoshlarda yuksak ma'naviyatni, uning vositasida mustahkam vatanparvarlik dunyoqarashi va kengfikrlilikni shakllantirish bo'lsa unda fan mavzulari tarkibi va ularni shaxsda amaliy shakllantirish yondashuvlari zamon talablari asosida yangilanishi kerak bo'ladi. Ta'limni amalga oshirishda umumiy fikrlardan ko'ra aniq yaxshi va yomon ta'sirga ega atama va tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berish yo'lidan borish ko'proq samara berishi mumkin. Buning uchun inson ma'naviyatining rivojlanishida eng chuqur ta'sir kuchiga ega atama va tushunchalar hamda ularni qanday ketma-ketlikda o'qitish va ishonchga aylantirish tartibi va mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim bo'ladi. Tarbiyaning nazariy asoslari, asosiy sohalar va yo'nalishlari haqidagi umumiy tushunchalar o'rniga yaxshilik va yomonlik, poklik va nopoklik, to'g'rilik va egrilik, bag'rikenglik va xudbinlik, tinchlik va urush, mehnatsevarlik va boqimandalik kabi dunyoqarashning shakllanishiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan tushuncha va atamalar mohiyati amaliy misollar yordamida o'rgatilishi yanada yaxshi samara berishi mumkin.

Bugun psixologik dunyoqarashni shakllantirishda amaliyotda foydalanib kelinayotgan kutubxona, kino, konsert, teatr, muzey, ekskursiya va anjumanlar tashkil etish kabi tadbirlarning ta'siri yetarli bo'lmayotgani sezilarli darajaga chiqdi. Buning sababi birinchidan, bu amaliyot ob'ektlari yoshlar uchun yangilik emas, ikkinchidan, ularning aksariyati hordiq chiqarishga mo'ljallangan, uchinchidan, bunday ob'ektlar juda ko'p va ular haqida ma'lumot beruvchi axborot manbalarining ham xilma-xilligidir. Inson esa o'z tabiatiga ko'ra ko'p narsaga loqayd qaraydi va kam narsaga intilib yashaydi. Shuning uchun bugun psixologik yetuk dunyoqarash ko'nikmalarini amaliy hosil qilish jarayonida yoshlarga tinglovchi va kuzatuvchi emas, balki tashkilotchi ishtirokchilik imkonini ko'proq berish kerak bo'ladi. Yoshlar kitobxonlik klublari, kinotaqdimot va konsert studiyalari, teatr jamoalari va ularning mahsulotlari, yoshlar muzeyi va ularning eksponatlari, yoshlar ekskursiya va anjumanlari kengashi kabi yoshlar o'zlari qaror chiqaruvchi jamoaviy tuzilmalari faoliyatini tashkil etish kelajak avlod ijtimoiy psixologiyasi, ma'naviyat va dunyoqarashning shakllanishida ijobiy iz qoldirgan, qolaversa noyob iqtidorlarning namoyon bo'lishi, yoshlarning o'z kelajagini ko'rish imkoniyatlarini oshirishi, yoshlik davridan yorqin tarixiy xotiralar qolishi va hayotdan ilhomlanib yashashiga sabab bo'lar edi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamiyatimizning katta va kichik a'zolarida ayniqsa, yoshlar ongida ma'naviy tarbiyani shakllantirishda milliy



va ma'naviy qadriyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiyoti keng dunyoqarashli, qobiliyatli, iste'dodli kadrlar orqali yuz beradi. Yoshlar dunyoqarashining yuksalishi natijasida ularning o'z kuchi, imkoniyati bilan ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot, demokratik, fuqarolik jamiyati qurishga bo'lgan ishonchi kuchayadi. Har bir mamlakat o'z milliy taraqqiyotida yetishib kelayotgan avlodining ko'plab fazilatlarni qamrab olgan ijtimoiy psixologiyasiga tayanadi. Qadimgi sharq va g'arbda, o'rta asrlar davrida, fanlar klassifikatsiyalanishining taraqqiyot bosqichlarida, industrial va bugungi postindustrial, axborotlashgan jamiyatlarda ham o'rinbosar avlod ishonchi, e'tiqodi, psixologiyasi va dunyoqarashi masalasini to'g'ri hal qilishga bosh masala sifatida qaralgan. Yetuk, bilimdon avlodni yetishtirish uchun ularning dunyoqarashi va tafakkur tarzini shakllantirishga, o'rta, maxsus va oliy o'quv yurtlaridagi tahsilga e'tibor berilgan. Bugungi davr ham shunday talabdan holi emas. Faqat uni o'z vaqtida ko'ra bilish, davr imkoniyatlariga muvofiqlashtirib borish katta muvaffaqiyatlarga olib keladi. Ijtimoiy tarmoq yutuqlaridan foydalanish barobarida yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantiruvchi tarbiya metodlaridan foydalanish lozimligi begungi kunning ham e'tiborga molik jabhalaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Beshinchi jild - t.: " o'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2008.- 592 b.
2. A. Avloniy. "Turkiy Guliston yohud ahloq". O'qituvchi nashriyoti, Toshkent-1992. B-2.
3. E. G'oziev. Ontogenez psixologiyasi-Nazariy-eksperimental tahlil. Monografiya-Toshkent: Ўз.Мил. Универ., 2010.-Б 222
4. E. G'oziev. Umumiy psixologiya-Toshkent: Ўз.Мил. Универ., 2012.-Б 312
5. T.S.Safarov va boshq. "Informatika va axborot texnologiyalari"-O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2006. B-37.
6. G'. B. Shumarov. "Muhabbat va oila". T. Ibn Sino. 1994 yil 47-bet.
7. P. I. Ivanov "Umumiy psixologiya"-Toshkent, "O'qituvchi".
8. O. Sodiqova, S. Madaliyeva-"Psixologiya"-Toshkent-2010. B.248.
7. B. Valiev [ va boshq.]-Din psixologiyasi: o'quv qo'llanma.- Toshkent: Movarounnahr, 2014.-B.90.
8. M. Mamatov- Din psixologiyasi: ma'ruzalar matni.-Toshkent. Islom Universiteti, 2014.- B.93.
9. X. Yo'ldoshxo'jaev [ va boshq.]-Dinshunoslik ma'ruzalar matni: o'quv dasturi. Toshkent. FTDK, DITAF, 2000.-B.130.
10. B. Umarov. Suitsidologiya: o'quv qo'llanma. Toshkent. O'zXIA, 2019-B

## **ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА ИЖТИМОЙ ПЕДАГОГИК ҲАМКОРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

*Абирова Умида Назаровна,*

*"Oriental" Университети "Ўзлуксиз таълим педагогикаси"  
кафедраси ўқитувчиси,*

#### **Аннотация**

Мақолада Ўзбекистонда ёшларни тарбиялашда оила, маҳалла ва коллеж ижтимоий ҳамкорлигини такомиллаштириш йўллари ва тавсиялари берилган.

**Таянч тушунчалар:** *Таълим, тарбия, оила, маҳалла, ижтимоий, маънавият, маърифат.*

Ижтимоий педагогика ўсмирнинг ижтимоийлашувини ижтимоий тарбия объекти сифатида тадқиқ қилар экан, юқорида қайд этганимиздек, "ижтимоийлашув" атамаси мазмунига махсус тўхталиб ўтиш жоиз бўлади. Ижтимоийлашув – ўсиб келаётган авлоднинг мавжуд қадриятлар тизими ва ахлоқ меъёрларини фаол ўзлаштириш ва ривожлантириш йўли билан мазкур жамиятнинг ижтимоий роллар тизимига қўшилиш жараёнидир.

Ижтимоий педагогиканинг профилактик функцияси тарбия жараёни йўналишларидан бири сифатида тадқиқ этади. У нафақат жамиятнинг тарбиявий салоҳиятини, балки тарбиявий кучларни мувофиқлаштиришнинг турли шакллари асосида унинг самарадорлигини ошириш йўллари ўрганади.

"Ижтимоий педагогика" атамасининг илмий қўлланила бошланиши ўз тарихига эга жараёндир. У XIX аср охирида А. Дистервег томонидан тақлиф этилган. Немис олими В. Вернернинг таъкидлашича, 1910 йилдан 1920 йилгача "Ижтимоий педагогика" икки хил маънода тушунилиб ўзига хос тадқиқотлар йўналишига эга бўлган.

Булар аввало халқнинг маданий савиясини юксалтириш мақсадида жамият тарбиявий кучларини бирлаштириш (П. Наторп); иккинчидан, ночор болаларга ижтимоий ёрдам кўрсатиш, ғамхўрлик қилиш, вояга етмаганлар орасида ҳуқуқбузарликнинг олдини олишни (Г. Боймер) кўзда тутган.

Кузатишларимиз ижтимоий-педагогиканинг бугун амалда бўлган усуллари сифатида:

- оиладаги тарбиявий жараён;
- маҳалладаги тадбирлар, маросимлар, давра суҳбатлари, кўриктанловлар;

- таълим муассасаларида олиб борилувчи узлуксиз маънавий тарбия;
- оммавий ахборот воситалари (ижтимоий тармоқлар, газета-журналлар, телекўрсатув, радиоэшиттиришлар);
- ахборот ресурс марказлари, кутубхоналар билан доимий алоқада бўлиш;
- театр, истироҳат боғлари;
- қадимий шаҳарларга сайёҳатлар уюштириш;
- болалар ижодиёти уйларидаги тўгаракларда иштирок этиш;
- спорт мажмуаларидаги машғулотларга қатнашиш ва бошқалар амалга оширилмоқда.

Болалар ва ўсмирларнинг жамиятда анъанага кирган ахлоқий меъёр ва қоидаларга мос келадиган фазилатлари рағбатлантирилса, мос келмайдиган хулқларни ифодалашда психологик-педагогик адабиётларда “хуқуқбузарлик”, “номақбул ҳаракат”, “ахлоқсизлик”, “девиант хулқ” сингари тушунчалардан фойдаланилади. Ушбу тушунчалар эса ўз навбатида ижтимоий тарбия субъектларини ҳаракатга келтирувчи механизмнинг ишга тушишига сабаб бўлади.

Маълумки, “Механизм” сўзи турли манбаларда турлича таърифланади. Шулар жумласидан механизм (грек тилидан олинган бўлиб, μηχανή — мосланма, қурилма) — машина, усқунани ҳаракатга келтирувчи ички тузилишини англатади<sup>9</sup>. Ижтимоий педагогик ҳамкорликнинг механизми маҳалла, оила ва таълим муассасаларининг айна вақтда амалда бўлган ҳуқуқий меъёрий асослар, қадриятлар, урф одатлар, анъаналар билан белгиланувчи функциялари мажмуидан иборатдир. Бунда ижтимоий педагогиканинг профилактик функцияси яққол намоён бўлади.

турли психологик-педагогик тадбирлардан фойдаланиш;

- ўсмирларга маънавий-маърифий ёрдам кўрсатиш;

· ўсмирларни ота-онанинг эътиборсизлиги ва шубҳали шахслар билан

мулоқотнинг салбий таъсиридан асраш кабиларни кўзда тутати.

Ижтимоий педагогик ҳамкорлик ишлари ўқув, оила, ахборот ресурс марказлари Ёшлар иттифоқи, турли ижтимоий институтлар ва жамоатчилик ташкилотлари билан ҳамкорликда амалга оширилади. Ҳуқуқий-профилактик тажрибалар шуни кўрсатадики, кескин чоралар (ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилиш, ўсмирни ахлоқ тузатиш муассасасига юбориш ва бошқалар) ҳамиша ҳам ижобий натижа беравермайди, балки муаммони бартараф этмай, уни чуқурлаштириб

<sup>9</sup> Артоблевский И. И. (общ.пед.) Машина, её прошлое настоящее и будущее. Круг чтения по технике для молодежи, Молодая гвардия, 1959, 510 с.

юборади. Шунга кўра ўсмирлар билан мафқуравий-педагогик профилактика фаолиятини ташкил этиш уларнинг салбий хулқи ижтимоий-педагогик моҳиятини тузатиш, шахсга муҳит, оила, мактабнинг таъсир кучини ҳисобга олиш, тенгдошлар билан шахсий мулоқот кабилардан келиб чиқишни тақозо қилади.

Болани бузғунчи ғояларга асосланган ижтимоий хавфли хулқдан асраш, уни ижтимоий фойдали фаолиятга жалб этиш – ижтимоий педагогик ҳамкорликнинг бош вазифаси ҳисобланади. Айниқса яхши хулқни гуруҳий шаклда ташкил этиш катта аҳамиятга эга. Бузғунчи ғоялар таъсирига қарши туришга ожиз гуруҳни аниқлаш (хуқуқбузарлик ва жиноятга мойил ўсмирлар, психологик ривождан ортда қолганлар, ўзини кўрсатишга интилувчилар, нобоп оилада ўсган болалар, тан олинмаган “босс”, камситилган ўсмирлар кабилар) – мақсадга йўналтирилган профилактика ишларининг объектлари бўлишлари талаб этилади.

Тадқиқотимиз нуктаи назаридан педагогика фанлари доктори М.Қуронов томонидан ишлаб чиқилган, ўқувчиларнинг миллий тарбияланганлик мезонлари, кўрсаткичлари, даражалари ва фазилатларини ўлчашнинг уч қатламли ўлчам системаси алоҳида аҳамиятга эга. Зеро Ўзбекистон ватанпарварлиги, миллий ғурурлик, миллатлараро мулоқат маданияти, виждонийлик, миллий одоб ва миллий мафқуравий онглиликни уйғун шакллантиришда илмий ва халқ педагогикасининг амалий бирлигидан келиб чиқиб ёндашиш ривожланаётган шахснинг миллий туйғусига бевосита ва билвосита боғланувчи фазилатлар ҳисобланади.

Ушбу ёндашувда ахлоқий, маънавий, миллий, мафқуравий, сиёсий, ижтимоий тарбия йўналишларининг ўзаро алоқадорлиги таъкидланади.

Оила, маҳалла ва таълим муассасасалари ижтимоий педагогик ҳамкорликнинг мазмуни ва методикаси, шакл ва воситаларини ишлаб чиқишда дунё микёсидаги жараёнларнинг таҳлили билан ҳамоҳанг тарзда унинг тарихий хусусиятлари, анъана ва тажрибалари киёсий-педагогик ёндашув асосида амалга оширилиши лозим.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Артоблевский И. И. (общ.пед.) Машина, её прошлое настоящее и будущее. Круг чтения по технике для молодежи Молодая гвардия, 1959, 510 с.

2.Қуронов М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори ... ёзилган диссертация. – Т.: 1998. – 363 б.

3. Убайдуллаева Р. Ата-Мирзаев О. Қуронов М. Оила ва баркамол авлод тарбияси. – Т., “Ижтимоий фикр”, 2012, 114-115 бет.

## ТАРБИЯДА “ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ИЖТИМОЙ ҲАМКОРЛИГИ”НИНГ УСТУВОР ВАЗИФАЛАРИ

*Абирова Умида Назаровна,  
“Oriental” Университети “Педагогика ва психология”  
кафедраси ўқитувчиси,*

**Аннотация.** Мақолада Янги Ўзбекистонда ёшларни тарбиялашда оила, маҳалла ва таълим муассасалари ижтимоий ҳамкорлигини такомиллаштириш йўллари ва тавсиялари берилган. Истиқболдаги вазифалар белгилаб олинган.

**Таянч нушунчалар:** Таълим, тарбия, оила, маҳалла, ижтимоий, маънавият, маърифат, ҳамкорлик.

**Аннотация.** В статье представлены пути и рекомендации по совершенствованию социального сотрудничества семей, сообществ и образовательных учреждений в обучении молодежи в новом Узбекистане.

**Ключевые понятия:** Образование, воспитание, семья, сообщество, общественность, духовность, просвещение, сотрудничество.

**Annotation.** The article presents the ways and recommendations for improving the social cooperation of families, communities and educational institutions in teaching young people in the new Uzbekistan.

**Key concepts:** Education, upbringing, family, community, community, spirituality, enlightenment, cooperation.

Ўзбекистонда шиддат билан тобора глобаллашиб бораётган бугунги давр баркамол авлодни тарбиялашда оила, маҳалла ва таълим муассасаларига бир неча талаб ва вазифаларни бажаради. Оила, маҳалла ва таълим муассасалари ҳамкорлигини такомиллаштиришда энг аввало шахс манфаатлари устуворлиги, унинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, масалалардан бири ҳисобланади. Шу боис таълим муассасалари, маҳалла фаоллари, оилалар мамлакатда ёшларнинг ҳар жиҳатдан етук инсон бўлиб етишишлари учун бевосита ва билвосита масъулдирлар. Бироқ, “Оила, маҳалла ва таълим муассасаларида ёшлар тарбияси, чекка ҳудудлар ва маҳаллаларда уюшмаган ёшлар билан мақсадли ғоявий-тарбиявий ишларнинг юзаки тарзда олиб борилаётгани, жиноятчилик, диний экстремизм ва террористик ҳаракатларга адашиб қўшилиб қолиш, миллий кадриятларга эътиборсизлик, эрта турмуш қуриш, оилавий ажралишлар каби салбий ҳолатларнинг олдини олишга қаратилган

тарғибот ишларининг аксарият ҳолларда қутилган натижани бермаётгани бу масалаларга жиддий эътиборни талаб этмоқда”<sup>10</sup>.

Юқоридаги муаммоларнинг юзага келишида ҳам, бартараф этилишида ҳам, ҳар бир ўсмирнинг шахс сифатида шаклланишида, ижтимоий ҳаётда, меҳнат бозорида ўз ўрнини топишда маҳалла педагогик инфраструктурасининг ўрни ниҳоятда катта ҳисобланади. Ҳар бир бола ўзи яшаётган маҳаллада ўсиб улғаяди. Бу эса маҳалла, таълим муассасалари ва оилалар ижтимоий педагогик ҳамкорлиги ва мавжуд педагогик ресурслар ҳолатини ўрганишни тақозо қилади. Шу мақсадда Республика Маънавият ва маърифат маркази “Миллий ғоя ва маънавий маърифий тадқиқотлар бўлими” томонидан “Ҳудудлардаги маънавий маърифий муҳитни ўрганиш харитаси” ишлаб чиқилди. Харита асосида республикамизнинг ҳар бир ҳудудидан бир нафар туман, танлаб олиниб, социопедагогик тадқиқотлар амалга оширилди.

Тадқиқот мақсади сифатида ҳудудлар (туман, шаҳар) кесимида аҳоли, айниқса, ёшлар онги ва қалбига салбий таъсир кўрсатаётган, миллий ва умуминсоний маънавий мезонларга зид бўлган ички ва ташқи таҳдидларнинг тури, мақсади, мазмуни ва таъсири ҳақида маълумотларни тўплаш ва визуаллаштириш; ёшлар маънавиятига зарар етказаётган таҳдидларнинг олдини олиш, таъсирсизлантириш ва бартараф этишга қаратилган таҳлиллар, халқаро тажриба ва илмий хулосаларга таянган “Йўл хариталари”ни ишлаб чиқиш; мамлакатимизда маънавий-маърифий муҳитнинг тизимли мониторингини амалга ошириш ва аҳолининг педагогик маданиятини оширишнинг инновацион самарали методларини ишлаб чиқиш белгиланди.

- Тадқиқот вазифалари этиб маънавий-маърифий, тарбиявий ишлар самарадорлигининг илмий асосланган мониторингини таъминлаш;
- миллий тарбия, ҳаёт тарзимизга зид бўлган маънавий таҳдидларнинг аҳоли турли қатламларига таъсирини кўрсатиш;
- ҳудудларда аниқланган ижтимоий педагогик натижалар асосида “Маърифат” тарғибот жамиятининг мақсадли ва манзилли ижтимоий педагогик тарғибот ишларини режалаштириш;
- Халқимизнинг кўп асрлик миллий тарбиявий кадриятлари, диний ва дунёвий қарашлари, ҳаётий удумларини тарғиб қилиш хусусиятига эга бўлган илмий-амалий дастурларни ишлаб чиқиш кўзда тутилди.

Ўрганиш натижаларидан келиб чиқиб, маҳаллаларда комплекс чоратadbирларни амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти Девонининг Жамоат ва диний ташкилотлар билан

<sup>10</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришнинг янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги 2017 йил 28 июль ПҚ-3160 сонли Қарори.

ҳамкорлик қилиш хизмати томонидан Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бўйича республика кенгаши билан ҳамкорликда Қорақолпоғистон Республикаси ва худудларда ўқув семинарлари ташкил этилди<sup>11</sup>. Ҳамкорликдаги ўтказилган ўқув семинарлари ушбу комплекс тадқиқот доирасига кирган маҳалла, оила ва коллежлар ҳамкорлигидаги мавжуд муаммоларни имкон қадар бартараф этишга қаратилди.

Вазирлар Маҳкамасининг 371-сонли Қарори ижроси амалиётга тадбиқ этилган бўлсада, нега бугунги кунга қадар таълим муассасаларида ўқувчилар давомати кўрсатгичи паст. Ўқувчилар сабабсиз ва мунтазам равишда дарсларга қатнашмайди. Бунга асосий сабаб 371, 175-сонли Қарорларнинг ижро интизоми ҳаққоний ташкил этилмаганлиги эканлиги аниқланди. Касб-хунар коллежлари педагоглари бириктирилган ўқувчиларнинг уйларига, маҳалла фуқаролари йиғинларига ўзлари эмас, ўқувчилардан махсус юритилувчи дафтарларини бериб юборади. Натижада ўқувчиларнинг ўзлари дафтарга муҳр ва имзо қўйдириб келишади. Бу эса ижро интизомининг ўз вақтида ҳаққоний таъминланмаслигига, давомат пастлигига, оила, маҳалла ва таълим муассасалари ҳамкорлигидаги салбий камчиликларга олиб келмоқда.

- Таълим муассасаларида ота-оналар йиғилишлари режаси ишлаб чиқилиб педагогик кенгаш қарори билан тасдиқланмаган, айрим худудларда. Ота-оналар йиғилишлари режаси асосида ташкил этилмайди.

- Таълим муассасаларида ярим йиллик семестр якунларидаги ташкил қилинадиган ота-оналар йиғилишларига гуруҳдаги ўттиз нафар ўқувчилардан 15-20 нафарининг ота-оналар келишади. Улар ҳам аълочи, яхши ўқийдиган, тарбияли ўқувчиларнинг ота-оналари. Ўзлаштиришлари паст, тарбияси муаммоли, носоғлом оила фарзанд оилалардаги ота-оналар йиғилишларига келишмайди.

- Таълим муассасалари битирувчилар бандлигини таъминлаш масаласи ҳам оила, маҳалла ва таълим муассаси ҳамкорлигининг устувор йўналишларидан биридир. Бугунги кунда таълим муассасаларида ўқувчилар ўз мутахассисликлари бўйича бандлиги тўлиқ таъминланмай келмоқда. Сабаб касб-хунар коллежларининг битирувчиларига мутахассисликларда ташкилотларда вақант иш ўринларининг йўқлиги. Шу туфайли битирувчилар номуахассис иш ўринларида ишлашга мажбур бўлмоқда.

<sup>11</sup>Ахмедов Х. Маҳаллаларда маънавий-маърифий ишларни ошириш йўлида. Халқ сўзи. 2017 йил 8 ноябрь, № 225 (6919) 3-бет.

- Айрим ҳолатларда бандлиги таъминланмаган ёшлар иш излаб хорижга ишга кетишларига сабаб бўлмоқда.

Айрим ҳолларда ота-она фарзандини яхши едириш, кийинтириш билан чегараланиб, тарбиявийишлар, болаларни ҳаётга ғоявий тайёрлашларига кам эътибор бермоқда. Натижада нафақат тарбияси оғир, ҳуқуқбузар, худбин болалар, балки ётғояларни ўз муносабатларига асос қилиб олган айрим ёшлар пайдо бўлмоқда. Бунга асосий сабаб оила, мактаб ва маҳалладаги ноқулай, салбий муҳит ва иллатларга лоқайдлик билан муносабатда бўлишдир.

Оилаларда ўсмирларни вайронкор ғоялардан ҳимоя қилиш маҳалла, оила, коллежнинг ўзаро ҳамкорлигини яхши йўлга қўйиш асосида муваффақиятли ҳал этилади. Бунинг учун ушбу уч омил фаолияти мақсадга йўналтирилган, режа асосида педагогик ҳамкорликда иш фаолиятни ташкил этилиши шарт.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришнинг янги bosқичга кўтариш тўғрисида”ги 2017 йил 28 июль ПҚ-3160 сонли Қарори.

2. Ш.Мирзиёев. Тартиб-интизом ва маъсулятни кучайтириш, жиноятчиликнинг олдини олиш муҳитини мустаҳкамлаш – ҳуқуқбузарлик пофиллактикаси самарадорлигининг асосий омилдир. Халқ сўзи. 2017 йил 16 ноябрь, № 231 (6925) . 1-бет.

3. Аҳмедов Х. Маҳаллаларда маънавий-маърифий ишларни ошириш йўлида. Халқ сўзи. 2017 йил 8 ноябрь, № 225 (6919) 3-бет.

### **ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК – АЁЛЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ОШИРИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ**

*Абировва Умида Назаровна,  
“Oriental” Университети  
“Ўзлуксиз таълим педагогикаси”  
кафедраси ўқитувчиси,*

#### **Аннотация**

*Мазкур мақолада мустақиллик йилларида Ўзбекистонда хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрни, маънавий-маърифий, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ислоҳотлардаги фаол иштироки. Жамиятдаги гендер тенглик масалалари ёритилган.*

**Калит сўзлар:** *Хотин, қизлар, гендер, тенглик, шахс, инсон, инсон омили, олима, маънавий, маърифий, ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, ислоҳотлар, бунёдкорлик, тараққиёт.*

### **Аннотация**

*В данной статье роль женщин в обществе, их активное участие в духовно-просветительских, социально-экономических и политических реформах в Узбекистане за годы независимости. Освещаются вопросы гендерного равенства в обществе.*

**Ключевые слова:** *Женщина, девочки, пол, равенство, ученый, духовный, образовательный, социальный, экономический, политический, реформы.*

Барчамизга маълумки Ўзбекистон мустақилликка эришгач, давлатимиз томонидан хотин-қизларнинг маънавий-маърифий, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ислохотларда фаол иштирок этиши учун имкониятлар яратиб берилди ва ҳаёт фаровонлигини оширишга катта эътибор берилди.

Ўзбекистон Республикаси Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 1979 йил 18 декабрдаги 34/180-сонли Резолюцияси билан қабул қилинган “Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шакллариغا барҳам бериш тўғрисида”ги (CEDAW) халқаро Конвенциясига 1995 йил 6 майда қўшилиш орқали жамият ҳаётининг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий соҳаларида аёллар ва эркаклар тенг ҳуқуқлигини таъминлаш мажбуриятларини ўз зиммасига олган. Бугунги кунга келиб 185 давлат Конвенция иштирокчилари ҳисобланади.

Мамлакатимизда хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб қуватлаш, уларнинг оила ва жамият ҳаётидаги ролини ошириш, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий фаоллигини ҳамда мавқеини янада ошириш мақсадида қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари, Ҳукумат қарорлари, Давлат дастурлари бунинг яққол мисолидир:

– Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ( 2023йил, 5 августь).

- Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат Кодекси (1996 йил, 1 апрель).

- Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси (1997 йил, 1 март).

- Ўзбекистон Республикаси Оила Кодекси ( 1998 йил, 1 сентябрь).

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодекси( 1995 йил, 1апрель).

- Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодекси (1995 йил, 1апрель).

- “Хотин қизларга қўшимча имтиёзлари бериш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 14 апрелдаги 760-1сонли Қонуни;

- Ўзбекистон Республикасининг давлат ва ижтимоий қурилишида хотин-қизларнинг ролини ошириш чора тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1995 йил, 2 мартдаги ПФ-1084 сонли Фармони;

- “Зулфия номидаги Давлат мукофатини таъсис этиш бўйича тақлифларни қўллаб қуватлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 10 июндаги ПФ-2326 сонли Фармонлари бунга яққол мисол бўла олади.

1995 йил Пекинда бўлиб ўтган Тўртинчи Бутунжаҳон хотин-қизлар конференциясида аёллар аҳволини яхшилаш борасида устувор йўналиш ва асосий воситалар белгилаб олинди. Мамлакатимиз Пекин декларациясига қўшилиб 1999 йили Миллий ҳаракат дастурини қабул қилди.

Мамлакатимиз мустақилликка қўлга киритган йиллариданоқ хотин-қизларнинг оила ва жамиятдаги мавқеини юксалтириш, уларни ҳар томонлама қўллаб қуватлаш, уларнинг давлатимизнинг ижтимоий сиёсий ҳаётидаги ролини кучайтиришга эътибор берилди. Муҳтарам Президентимиз томонидан йилларга махсус ном берилиши ва давлат дастурларининг ишлаб чиқилиши ҳам бунинг яққол мисолидир.

Мустақиллик йилларида давлатимизда хотин-қизларнинг ўз қобилияти ва имкониятларини кўрсатиш учун барча шарт-шароитлар яратилмоқда. Тадбиркорлик, ташкилотчилик, ишбилармонлик қобилиятига эга бўлган хотин-қизлар учун давлат ва жамият қурилишида ўзининг қонуний муносиб ўрнини эгалламоқдалар.Мамлакатимизда аёлларнинг ҳақ ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларнинг ўз фаолиятини амалга ошириш ва давлатимиз ижтимоий сиёсий ва иқтисодий ҳаётидаги ролини ошириш, ҳокимият вакиллик органларида гендер тенгликка эришиш йўлида 2004 йилда “Сайловлар тўғрисида”ги қонунга ўзгартириш киритилди. Шу жумладан, сиёсий партиялардан номзодлар кўрсатишда аёллар учун 30 % квота жорий қилинди. Фаолият натижаларига эътибор қаратсак, сайловлар яқунларига кўра депутат-аёлларнинг сони эътирофли даражада ошди. Глобаллашаётган бугунги шиддатли давирда ижтимоий муносабатларни ривожлантириш бутун дунёда гендер тенглиги ва тенг ҳуқуқлилик масалаларига нисбатдан эътибор кучайиб бораётгалиги билан эътирофлидир.

“Гендер” сўзи термин сифатида юридик макоми 1995 йил Пекин конференциясидан сўнг, эркак ва аёл ижтимоий тенглик ҳолати бутун жаҳон вакиллари томонидан тасдиқланди.

### Гендер тенглик тамоиллари:

1. Тенг ҳуқуқликлик.
2. Тенг жавобгарлик.
3. Тенг имконият.
4. Ўзаро ҳамкорлик (шерикчилик).

Гендер деганда ҳар хил жамиятларда яшовчи эркак ва аёллар ҳуқуқини белгилаб берувчи ижтимоий ва маданий вазифалар меъёрлари йиғиндиси тушинилади.<sup>12</sup>

Бугунги кунда ҳам айрим мамлакатларда ҳозиргача кузатиладиган эркак ва аёллар имкониятлари ўртасидаги фарк, яъни гендер тенгсизлиги асосий муаммолардан бири ҳисобланади. Бу эса инсонларнинг ўз имкониятларидан оқилона фойдаланишни чегаралайди. Жамиятда аёлларга заифа деб қараб, уларнинг ўз иқтидорлари ва қобилиятларининг очилишига тўсқинлик қилади.

Ўзбекистонда эркаклар ва аёлларнинг тутган ўрни

Хотин-қизлар умумий аҳолининг 50,1 фоизини ташкил этади;

Кучли билимли, юқори малакага эга раҳбар хотин-қизларнинг давлат ва жамият қурилишидаги иштирокини ошириш мақсадида, 1996-2010 йилларда 100дан ортиқ раҳбар аёллар Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиш академиясини таъсис қилган бўлса, уларнинг 25 нафарини хотин-қизлар кўмиталари ва 2 нафари ҳокимликларнинг Котибият мудирлари, 11 нафарини раҳбарлик лавозимига захирага олинган хотин-қизлар ташкил этади.<sup>13</sup>

Гендер тенглигига эришиш узок жараён ҳисобланади, жамиятимизнинг барча жабҳаларини қамраб олганлар. У давлат ва нодавлат ташкилотлар ва одамларнинг ижтимоий ҳамкорлигига (шерикчилигига) ҳам боғлиқдир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида эркак ва аёллар ҳуқуқларининг тенглиги кафолатланган.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 18-модда. Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликка эга бўлиб жинси, ирқи, миллати, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоий мавқеидан қатъий назар, қонун олдида тенгдирлар.<sup>14</sup> Фуқароларни камситишнинг ҳар қандай шакллари тақиқланади. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 46-модда. Хотин-қизлар ва эркаклар тенг ҳуқуқлидирлар.<sup>15</sup> Қуйидаги моддада аёллар ва эркаклар

<sup>12</sup> Э.И.Баситханова, Н.С. Атабеков, А.Д. Хасанова, ... "Соғлом оила-соғлом авлод-соғлом келажак" амалий қўлланма. Тошкент - 2012 йил. 48 – бет

<sup>13</sup> Э.И.Баситханова, Н.С. Атабеков, А.Д. Хасанова, ... "Соғлом оила-соғлом авлод-соғлом келажак" амалий қўлланма. Тошкент - 2012 йил. 49 - 50 – бет.

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. "Ўзбекистон": Тошкент – 2001 йил. 9- бет.

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. "Ўзбекистон": Тошкент – 2001 йил. 14- бет.

тенг ҳуқуқга эга эканликлари белгиланган бўлиб, бу гендер тенглик тушунчасининг асосий мазмун моҳияти ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда оиладаги эркак ва аёл ўртасидаги бази муаммолар, вояга етмаган қизларнинг эрта никоҳлари, оилада ажримларнинг олдини олишда маҳаллаларимизда, таълим муассасаларида соҳанинг мутахассис ҳуқуқшунослари, тиббиёт ходимлари, педагоглар, актёрлар ва маҳалла хотин-қизлар кенгашларининг раислари, маҳалланинг диний маърифат ва маънавий ахлоқий тарбия масалалари бўйича маслаҳатчилари, маҳалладаги оқсоқоллар, катта ҳаёт тажрибасига эга бўлган онахонларимиз ижтимоий ҳамкорликда давра суҳбатлари, кечалар, учрашувлар, семинар – тренингларни ташкил қилиниши самарали натижа беради. Глобаллашаётган шиддали бунунги даврда гендер тенглигига эришган аёллар нафақат уй бекаси бўлиб чегараланмасликлар и лозим. Уларда миллий маданиятимиз ва замонавийлик уйғунлашган **“ўзбек аёллари”** бўлишлари бугунги давт талабидир. Чунки улар миллат тарбиячиларидир.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. “Ўзбекистон”: Тошкент – 2023 йил. 9-14 бет.

2. Э.И.Баситханова, Н.С. Атабеков, А.Д. Хасанова, ... “Соғлом оила-соғлом авлод-соғлом келажак” амалий қўлланма. Тошкент - 2012 йил. 48 – бет

3. Э.И.Баситханова, Н.С. Атабеков, А.Д. Хасанова, ... “Соғлом оила-соғлом авлод-соғлом келажак” амалий қўлланма. Тошкент - 2012 йил. 49 - 50 – бет.

### ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА ИЖТимоий-ПЕДАГОГИК ҲАМКОРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МЕХАНИЗИМЛАРИ

*Абировва Умида Назаровна,*

*“Oriental” Университети “Педагогика ва психология” кафедраси ўқитувчиси,*

#### **Аннотация**

*Мақолада Янги Ўзбекистонда ёшларни тарбиялашда оила, маҳалла ва коллеж ижтимоий ҳамкорлигини такомиллаштириш йўллари ва тавсиялари берилган, ҳамда ҳамкорликнинг ўрганилганлик ҳолати ёритилган.*

**Таянч тушунчалар: Таълим, тарбия, оила, маҳалла, ижтимоий, маънавият, маърифат, ҳамкорлик.**

### **Аннотация**

*В статье представлены пути и рекомендации по совершенствованию социального партнерства семьи, общины и вуза в обучении молодежи Нового Узбекистана, а также состояние сотрудничества.*

**Основные понятия:** образование, воспитание, семья, сообщество, социальное, духовное, просвещение, сотрудничество.

### **Annotation**

*The article provides ways and recommendations for improving the social partnership of the family, community and college in educating young people in New Uzbekistan, as well as the state of cooperation.*

**Basic concepts:** Education, upbringing, family, community, social, spirituality, enlightenment, cooperation.

Мамлакатимизда бугунги кунда барча соҳаларда улкан ислохатлар олиб борилмоқда. Олиб борилаётган ислохатларнинг бош омили инсон, инсон манфаатлари учун ҳисобланади. Шу жумладан таълим–тарбия соҳасида ҳам туб ислохотлар олиб борилмоқда. Шу боис дунё мамлакатлари томонидан Янги Ўзбекистонда ёшларнинг ақлий, маънавий-маърифий ва жисмоний камолоти тараққиёти, уларнинг замон талабларига мос билим олишлари, касб-хунар эгаллашлари, иқтидори ва қобилиятларини намоён қилиши ва янада ривожлантириши учун яратилган имкониятлар эътироф этилмоқда.

Юртбошимиз Шавкат Мирзиёевнинг замонавий давлатчилигимизнинг тарихида тараққийпарвар ўзгаришлар яратаётган Олий Мажлисга Мурожаатномаларида илгари сурилган инновацион ғоялар мамлакатимизда баркамол авлодни тарбиялашда оила, маҳалла ва таълим муассасалари ҳамкорлигини такомиллаштиришда муҳим аҳамиятга эга бўлди. Ёшларни ҳамкорликда миллий ва замонавий руҳда тарбиялаб уларга инновацион ғояларни сингдириш бугунги куннинг талаби ҳисобланади.

Ёш авлодни ҳар томонлама соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш борасидаги ишларимизни янги босқичга кўтариш мақсадида “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонунни янги таҳрирда қабул қилинди. Шу аснода янгича ёндошувлар ҳаётга фаол жорий этилмоқда.

Оила, маҳалла ва таълим муассасалари ижтимоий-педагогик ҳамкорлигида маънавий-маърифий ишларнинг назарий ўрганилганлиги ёритиш жараёнида аввало баркамол авлодни тарбиялашдаги уч омилининг ижтимоий ҳамкорлиги муҳим аҳамиятга эга. Шу боисдан ҳам муаммони ўрганиш жараёнида аввало ижтимоий ҳамкорлик тушинчасининг мазмун моҳиятини ёритиш мақсадга мувофиқ

Ижтимоий ҳамкорликнинг - мазмун моҳиятини ёритишда муаммонинг ижтимоий педагогик жиҳатларини ёритиш зарурати туғилади. Бу соҳани ўрганган ижтимоий –тарихий, тахлилий манбалардан ҳам кўринадики, ижтимоий ҳамкорлик замирида мураккаб тарзда намоён бўладиган шахс манфаатлари, шахслараро муносабатлар ва ҳар бир инсон фаолиятининг мазмуни ҳамда давлат ва нодавлат ташкилотлари яъни оила, маҳалла ва таълим муассасаларининг биргаликдаги фаолиятини шакллантирувчи, ривожлантирувчи механизм ҳисобланади.

Маънавий тарбиянинг гендер хусусияти ислом маърифатида ҳам ўз аксини топган. Бу ҳақда Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий Усмонхон Алимов шундай ёзади. “Аёллар ифбатли кийиниши ва ўзларини яхши тутиши лозим. Бу шундан далolat берадики, ўзбек кизларининг миллий тарбия асосида кийинишлари, ўзларини тутишлари ва уларда маънавий ахлоқий фазилатлар шакллантирилса, улар ғарбдан кириб келаётган “оммавий маданият” хуружлари исканжасида қолмайди”.

Сиёсий фанлар доктори, профессор Қ.Қуранбаев ўз тадқиқоти натижаларидан келиб чиқиб, талаба–ёшларда маънавий фазилатларни шакллантиришнинг моҳияти уларда халқ, Ватан мафаатлари йўлида фидойилик кўрсатиш кўникмаларини қарор топтириш, ўз имкониятлари ва қобилиятларини рўёбга чиқаришлари учун шарт-шароит яратиш ҳамда энг муҳими ёшларда ижтимоий фаолликни ривожлантиришдан иборат эканлигини таъкидлайди. Бу эса юқоридаги фазилатларни шакллантиришни ижтимоий педагогик ҳамкорлик вазибаларига айлантиришда қимматли аҳамиятга эга.

Бундай мураккаб шароитда ёшлар ўртасида олиб бориладиган маънавий-маърифий ишларимиз самарадорлигини оширишдан ҳам муҳимроқ иш йўқ. Бунинг учун, энг аввало, ёшларимизда ўз маънавий қиёфасини бойитишга имкон берадиган соғлом эҳтиёжни шакллантириш ўта зарурдир деб такидлайди А. Маврулов “Маънавий баркамол инсон тарбияси” асарида. Дарҳақиқат бугунги глобаллашиб бораётган даврда ёшларимизнинг онги ва қалбини ёд, ташқи бузғунчи мафкуравий жараёнлардан асраш учун уларда соғлом мафкуравий иммунитетни айнан оила, маҳалла ва таълим муассасалари ижтимоий ҳамкорлигида маънавий-маърифий ишлар жараёнида шакллантиришимиз муҳим аҳамиятга молик ҳисобланади.

Тадқиқотимиз нуктаи назаридан педагогика фанлари доктори М.Қурунов томонидан ишлаб чиқилган, ўқувчиларнинг миллий тарбияланганлик мезонлари, кўрсаткичлари, даражалари ва фазилатларини ўлчашнинг уч қатламли ўлчам системаси алоҳида



аҳамиятга эга. Зеро Ўзбекистон ватанпарварлиги, миллий ғурурлик, миллатлараро мулоқат маданияти, виждонийлик, миллий одоб ва миллий мафкуравий онглиликни уйғун шакллантиришда илмий ва халқ педагогикасининг амалий бирлигидан келиб чиқиб ёндашиш ривожланаётган шахсининг миллий туйғусига бевосита ва билвосита боғланувчи фазилатлар ҳисобланади.

Тарбия – шахсда муайян жисмоний, руҳий, ахлоқий, маънавий сифатларни шакллантиришга қаратилган амалий педагогик жараён; инсоннинг жамиятда яшаши учун зарур бўлган ҳиссиётларига эга бўлишини таъминлаш йўлида кўриладиган чора-тадбирлар йиғиндиси. Демак, тарбия ижтимоий ҳамкорлик асосида амалга ошадиган ҳодиса бўлиб, инсоннинг шахс бўлиб, шаклланишини таъминлайдиган энг қадимий ва абадий маънавий қадриятдир.

Оила, маҳалла ва таълим муассасалари ижтимоий ҳамкорлигини такомиллаштиришда олиб борилган илмий тадқиқотларни ўрганиш, ҳамда бу борада хорижий мамлакатларда ташкил этилган илмий марказлар фаолиятини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Оила, маҳалла ва таълим муассасалари ижтимоий ҳамкорлигини такомиллаштиришда ишчи режа тузиш, режани узвийлик ва изчиллик асосида ижрога йўналтириш самарали натижадорликни таъминлайди.

#### ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. // 2017 йил 23 декабрь, № 258 (6952) 5-бет.

Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат.-Т., “Шарк”, 1998. 320 б. 115-бет.

Иномова М. О. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари: Пед. фанл. докт. ...дисс. – Т.: 1998. - 34 бет.

Ҳ.Умаров, Қ.Ҳайдаров, М.Холиқов. Халқ расм-русумлари.- Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг Самарқанд бўлими, 1991, - 8-бет.

Алимов У. Фазилатли авлод. Тошкент, “Муҳаррир”, 2019. 42 б.

Қ.Қ.Қуранбаев. Талабаларнинг маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари. Тошкент. 2000. 4 бет.

Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Т.: “ О‘zbekiston”, 2008. – 11-12 бет.

Қурунов М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори ... ёзилган диссертация . – Т.: 1998. – 363 б.

### III SHO‘BA. BO‘LAJAK MUTAXASSISLAR KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

#### BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA REFLEKSIY TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*M. Mirqosimova,*

*pedagogika fanlari doktori, professor;*

*“Turon” FA Akademigi*

#### АННОТАЦИЯ

Мақоллада бо‘лажак педагоглари tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari; bu borada refleksiv ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan. Bo‘lg‘usi pedagoglarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetarlicha bilimga ega bo‘lishi bilan birga mulohazakorligi, pedagoglik va psixologlik mahorati, tadqiqot va izlanishlar asosida o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishi barobarida milliy ta‘lim tizimiga tadbir etilayotgan innovatsiyalarning natijakorligi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash, refleksiv ta‘lim texnologiyalari, mulohazakorlik, pedagoglik va psixologlik mahorat, tadqiqot va izlanishlar, o‘zini o‘zi boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish.

#### ANNOTATION

The development of students' motivation to study social sciences is associated with the organization of the educational process in the context of the integration of traditional and mixed education and the introduction of methods that activate students in educational practice. An integrated lesson model, its stages and criteria for evaluating the results are recommended.

**Key words:** world education, digitalization process, education system, teaching staff, communicative and professional competences, integration requirements, principles, stages of an integration lesson, recommendations.

#### АННОТАЦИЯ

Развитие современной личности, а также будущих педагогов связано с организацией учебного процесса в условиях интеграции традиционного и смешанного образования и внедрением методов, активирующих студентов в учебной практике. Также особенностям педагогика-психологической развитие. Рекомендуется механизмы



педагогико-психологической развитие будущих педагогов при помощи рефлексивных технологий.

**Ключевые слова:** образования, коммуникативные и профессиональные компетенции, интеграция традиционного и смешанного образования, инновационные технологии, рефлексивная технология, интеграционные требования, принципы, рекомендации.

**Mavzuning dolzarbligi.** Jamiyatdagi ilm-fan taraqqiyoti, axborotlar oqimining kengayishi, globallasuv jarayonlari o'z navbatida ta'lim sohasida ham o'ziga xos islohotlarni taqozo etmoqda. Jumladan, ta'lim jarayoni tashkilotchilari bo'lmish o'qituvchilar faoliyatida ham muntazam izlanishlar olib borish, kreativlik davr talabiga aylanib bormoqda. Bo'lg'usi pedagoglarning o'z mutaxassisligi bo'yicha yetarlicha bilimga ega bo'lishi bilan birga mulohazakorligi, pedagoglik va psixologlik mahorati, tadqiqot va izlanishlar asosida o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi barobarida milliy ta'lim tizimiga tadbiiq etilayotgan innovatsiyalar, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini o'zlashtirgan bo'lishlari qatorida refleksiv mahoratga ham ega bo'lmoqlari talab etiladi. Xo'sh, refleksiya, refleksiv mahorat va refleksivlik nima o'zi? Refleksiya lotincha "reflexio" so'zidan olingan bo'lib, "sirdan nazar", "orqaga nazar" kabi ma'nolarni anglatadi. Refleksiya shaxsning o'z-o'zini anglashiga qaratilgan fikrlash jarayoni bo'lib, o'z his-tuyg'ulari, ichki imkoniyatlari, ongli ravishda sodir etiladigan xatti-harakatlarini to'g'ri baholash, natijada esa keyingi harakatlarning maqbul strategiyasini qabul qilishi uchun zamin vazifasini o'taydigan xulosalar chiqarish hodisasidir.

Refleksiv mahoratga ega bo'lish natijasida o'qituvchi:

-bajarishi lozim bo'lgan barcha o'quv, tarbiyaviy, ijtimoiy vazifalarining ko'lamini va darajasini bilib oladi; o'zi uchun o'quvchilarga, ota-onalarga ijobiy ma'noda ta'sir etuvchi faoliyat mexanizmini shakllantiradi; dars jarayonlarini tashkil etishda o'quvchilarning talablari asosida shakllana boradigan ish tajribasiga ega bo'ladi.

Demak, aytishimiz mumkinki, refleksiya — bu o'qituvchining o'z faoliyati va sodir etadigan o'quv, tarbiyaviy va ijtimoiy xatti-harakatlariga baho berishigina emas, balki o'zini boshqalar (o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar) qanday qabul qilayotganlarini aniqlab olish imkonini beruvchi xususiyatdir. O'z-o'zini refleksiv tahlil eta oladigan o'qituvchi-pedagog ongli ravishda takomillashib boradi, o'zi tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni ham mukammallashtirib boradi.

**Mavzu tahlili.** Refleksiya muammosi bir vaqtning o'zida ham falsafa, ham pedagogika, ham psixologiya sohasida keng tadqiq etiladi. Ushbu sohalar turlicha bo'lishiga qaramasdan, refleksiyadan foydalanishning mohiyati har

birida deyarli bir xil izoxlangan . Emmanuel Kant qarashlariga ko'ra, "refleksiya shaxsning o'z bilish va anglash qobiliyatini muntazam tadqiq qilishi natijasida shakllanib boradigan xususiyati bo'lib, uning darajasi insonning anglash qobiliyati va intellekt darajasiga bog'liq jarayondir". Gegel falsafasida esa refleksiya shunday talqin etiladi: "fikrdan fikr tug'ilsa va inson bu hodisani ongli ravishda idrok etsagina o'ziga nisbatan tanqidiy va tahliliy munosabatda bo'la oladi". Faylasufning fikricha, aynan shu hodisa refleksiyani tug'diradi va xuddi shu taxlit hosil bo'lgan refleksiya ikki turga bo'linadi. Bu:

1. Nazariy refleksiya. 2. Amaliy refleksiyadir.

Nazariy refleksiya insonga o'z hayotida, faoliyatida va botiniy his-tuyg'ularida paydo bo'lgan muammolarga mulohazalar yordamida yondashuvni anglatadi. Mazkur mulohazalar yordamida inson tasavvurdagi muammolarning haqiqatga qay darajada yaqinligini aniqlab oladi va shu asosda qarorlar qabul qiladi. Gegel fikricha, "nazariy refleksiya shaxsni o'zlikni anglash tushunchasiga yaqinlashtiradi va bu esa o'z navbatida hayotda uzoq muddatli strategiyani belgilashda katta ahamiyat kasb etadi".

Amaliy refleksiya – insonning mukammal sari intilishidir. Inson fikrlayotganini idrok etsagina fikrlayotgan bo'ladi. Hayotdagi har qanday orzu, maqsad, mukammallikka intilishning zamirida qiziqish (motivatsiya) yotadi. Inson motivatsiyaga ega bo'lishi uchun fikrlashi va ushbu fikrlarining o'z holatiga qanchalik yaqin ekanligini mulohaza qilishi lozim bo'ladi. Xuddi shu mulohaza insonga o'z botini va amaliy faoliyatiga "sirdan qarash" uchun sharoit yaratadi. Refleksiya ongni tahlil qiladi: inson tasavvuridagi mukammal hayotda erishish mumkin bo'lgan mukammal bilan farqlimi yoki tafovutsiz ekanligini mulohazalar yordamida aniqlab oladi.

Zamonaviy falsafa fani refleksiv mahoratning ikki xil ko'rinishini e'tirof etadi. Bular: 1. Ekstrovert refleksiya. 2. Introvert refleksiya.

Ekstrovertlik insonning tashqi muhit bilan muloqotga kirishishga intilishini va o'zini tashqi muhitning bir qismi deb bilgani holda hayotini tashqi muhit omillariz tasavvur qila olmaslik holatini anglatadi. Insonda ekstrovert refleksiya hodisasi kechganda u o'z hayotidagi muammolarga obyektiv qaraydi, har bir vaziyatni muayyan bir sababning oqibati deb hisoblaydi. Shuning uchun bunday refleksiv mahoratni o'zida shakllantirgan inson o'z muammolarini juda jiddiy hisoblamaydi.

Introvert refleksiya esa bunga butunlay teskari ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bunda inson tashqi muhit omilini unutadi. O'ziga "sirdan nazar solar" ekan, yo'l qo'yan xatolari, faoliyatidagi kamchilik va nuqsonlar faqat xarakteridagi ojizliklar va zaifliklar tufayli kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Introvert refleksiyaga ega bo'lgan inson o'zini subyekt sifatida yagona deb faraz qiladi, o'z fikri va faoliyatining ahamiyati jamiyat uchun albatta kerak

degan tasavvurda yuradi. Shuningdek, o'zidagi har bir nuqson jamiyatning qaysidir kamchiligining rivojlanib ketishiga sabab bo'ladi, deb hisoblaydi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa fani talqinidagi refleksiya insonning ertangi kunini yaxshiroq qurish maqsadida o'zini, his-tuyg'ularini, faoliyatini ongli ravishda tahlil etib borishi va shu asosda uzoq muddatli strategiyani o'z ichiga olgan rejalar qurishini ta'min etadigan hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanida refleksiya insonning o'z ichki imkoniyatlarini o'rganishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Refleksiya insonning psixologik imkoniyatlarini, ichki ehtiyojlarini hamda o'z faoliyatini amalga oshirish muhimligini, tashqi muhit bilan o'zaro aloqadorlikdagi o'rni to'g'ri baholay olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kunda refleksiyaga insonning o'z-o'zini rivojlantirish usuli sifatida qaralib, psixologik tadqiqotlarda ham yetakchilik qiladi. Refleksiv ko'nikmalarga ega bo'lgan inson o'z xatti-harakatini, o'z faoliyatini boshqara oladi, o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qila oladi hamda o'z-o'ziga obyektiv baho bera oladi. Shu nuqtai nazardan psixologiyada refleksiya muammosi uch yo'nalishda o'rganiladi:

1. Refleksiv psixologik tadqiqotlar sohasida. 2. Shaxs intellektual rivojlanish tizimida refleksiyaning o'rni aniqlash metodikasi. 3. Shaxs fikrlash jarayoni hamda kommunikativ faoliyatida refleksiyaning o'rni aniqlash. Insonning muloqotga kirishuvi kommunikativ aloqa o'rnatishi, har taraflama manfaatli munosabatlar shakllanishi uchun mazkur aloqalar hamda munosabatlar ishtirokchilari yetarli darajada refleksiv mahoratga ega bo'lishlari lozim. Shu bois psixologik refleksiyaning pedagogik o'ziga xosliklarini va ushbu hodisaning ta'lim jarayonidagi rolini o'rganish yetakchi soha hisoblanadi. Psixologik refleksiyaning pedagogik ahamiyatini o'rganish insonda refleksiv xususiyatlarning rivojlanish qonuniyatlari va shart-sharoitlarini, refleksiv mahoratni shakllantirib borish usullarini, ko'p o'lchamli va keng qamrovli ongni shakllantirish va jamiyat taraqqiyotida o'z o'rni aniqlab olish kabi bilimlarni o'rganib borishning izchil hamda davomli jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Pedagogik faoliyatni tashkil etish hamda pedagogning kasbiy rivojlanish tizimida refleksiyaning o'rni muhim ekanligi ko'plab tadqiqotlarda bayon qilingan.

Ko'p hollarda inson o'z-o'zini refleksiv tahlilga tortar ekan, u o'zining yangi imkoniyatlari va qirralarini kashf etib boradi. Ammo zaruriy shart-sharoitlar mavjud bo'lmagani uchun mazkur imkoniyatlar yuzaga chiqmaganligini angelaydi. Inson o'z tafakkuri va tasavvurining yangi tashkil etuvchilarini anglab oladi. Bunday tashkil etuvchilarga hal etilishi ko'zda tutilgan, ammo hal etilmagan vazifalarni saralash, fikrlashda nomuhimdan muhimga intilish, atrofda narsa va hodisalarning yangi qirralarini anglash,

mulo hazalarni ramzlar vositasida olib borish kabi psixologik xususiyatlar kiradi. Xususan, P.Y. Galperin, V.L.Danilov, B.D. Elkonin kabi olimlar insondagi refleksiya hodisasida ishtirok etadigan barcha fikriy va psixologik xatti-harakatlar orasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini ta'kidlashadi. Mazkur farazning isboti sifatida o'tkazilgan so'rovlarda inson o'z-o'zini tahlil etar ekan, o'rganish, tanish, bilish, anglash, idrok etish, fikrlash, mulohaza yuritish, xulosa yasash va baho berish kabi psixologik va intellektual hodisalarning hammasi doimiy ketma-ketlikda kechishini, shuningdek, ushbu intellektual jarayonlardan bittasining yetarli darajada shakllanmaganligi boshqa psixologik xususiyatlar rivojiga to'sqinlik qilishi mumkinligi ta'kidlanadi. (2.3. 65-69-b.)

S.V.Dmitriyev refleksiv qobiliyatning shakllanishini asosan quyidagi bosqichlarda kechadi deb hisoblaydi:

-mavjud vaziyatni baholash bosqichi (ushbu bosqich deyarli barcha hollarda sodir bo'lib turgan hayotiy vaziyatning inson ongida aks etishi bilan kechadi: bu bosqichda inson o'zi sodir etayotgan xatti-harakatlar zaruriy natijaga erishish uchun yetarli emasligini angelaydi; navbatdagi bosqichda o'zining ishtirokida vujudga kelgan hayotiy (ba'zan ziddiyatlar) vaziyatga sabab bo'ladigan omillarni ongli ravishda izlab boshlaydi (bunda inson ushbu vaziyatning kelib chiqishiga zamin yaratgan voqea-hodisalar, o'z ruhiy holati va tashqi muhit faktorlarini tahlil qiladi); keyingi bosqichni shartli ravishda "vaziyatdan chiqib ketish bosqichi" deb atash mumkin (unda inson yuzaga kelgan vaziyatni yumshatish uchun o'z oldiga vazifa qo'yadi); so'nggi bosqich rejalar belgilash bosqichidir (ushbu bosqichda o'z-o'zini izchil va to'liq tanqidiy tahlil qilgan inson o'z oldiga qisqa muddatli reja qo'yadi va mazkur reja asosida o'z faoliyatini qayta yo'lga qo'yadi). (1.95-b.)

Har bir bosqich muayyan bir qaror chiqarish va uni amalga oshirish bo'yicha vazifa belgilash bilan kechadi. Bunda subyekt o'z imkoniyatlarini, qo'yilgan vazifalarni bajarishda intellektual va jismoniy resurslari yetish-yetmasligining tahlili mulohaza qilinadi va refleksiya ichida refleksiya hodisasini sodir etadi. Xulosa qilish mumkinki, refleksiya – bu shaxsning intellektual rivojlanishi bilan ham bog'liq jarayon bo'lib, psixologik ahamiyatga ega bo'lgan aniq izchil harakatlar ketma-ketligidan iborat pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan hodisadir.

Refleksiya tushunchasining pedagogika fani nuqtai nazaridan talqin etilishi. Demak, pedagogik nuqtai nazardan qaraganda "refleksiya bu – subyektning o'z amaliy faoliyatini tahlil etishi va mazkur tahlil natijalari asosida o'z kasbiy iqtidorini baholashidir". S.X.Assadulina, A.A. Bodalevalarning fikriga ko'ra, refleksiya "o'qituvchi-pedagogning o'z qobiliyati, his-tuyg'ulari va ta'lim jarayoni ishtirokchilariga munosabatlarining ijobiy va salbiy jihatlari ko'rsatib beruvchi mezonlar majmua bo'lib, bu

qobiliyatning yuqori darajada bo'lishi subyektning kasbiy jihatdan mukammallikka erishishini ta'min etadi". Demak, refleksiya o'z faoliyatini yaqin kelajak va uzoq muddatli istiqbolni nazarda tutgan rejalar asosida qurishga intilgan har bir shaxs uchun zarur bo'lgan xususiyatdir. (3.83-b.)

Refleksiv qobiliyatning inson zakovati, tushunchasi, voqea-hodisalarni idrok etish darajasiga bog'liq ekanligini o'tgan asr psixologlari ham o'z tadqiqotlarida isbotlab bergan. Inson o'zi bilgan, anglagan va idrok etgan instansiya va subyektlar doirasida fikr yuritadi, binobarin, refleksiv qobiliyat (bizning tadqiqotlarda refleksiv mahorat) o'sha anglagan, idrok etilgan subyektlar doirasining qanchalik kengligi inson refleksiv mahoratining darajasini belgilab beradi; "pedagog-talaba" munosabatlarining samarali tarzda davom etishini ta'minlab beradigan pedagogik refleksiya (psixologik refleksiyadan farqli ravishda) olingan bilim, orttirilgan ko'nikma va tajribaning darajasiga bog'liqdir; pedagog refleksiv tarzda fikrlar ekan, shundagina kasbiy mahoratining yo'naltirilgan obyekt, ya'ni talabaning bilimi, ko'nikmasi, anglash va idrok etish darajasiga qarab o'z shaxsiy va kasbiy faoliyatining darajasini baholaydi; "pedagog-talaba" munosabatlaridagi refleksiya o'rganilayotgan dars mavzulari, dars turi va fanning mazmun jihatdan murakkablashib borishiga bog'liq ravishda o'zgaruvchandir".

"Pedagogikadagi ushbu ko'rinishli refleksiya, ya'ni refleksiya harakatini sodir etayotgan subyekt ongida boshqa insonlarning (tadqiqotimizda talabalarning) baholovchi omil sifatida namoyon bo'lishi o'qituvchi-pedagogdan mustahkam shaxsiy pozitsiyaga ega bo'lishni, intellekti va faoliyatining mohiyati yo'naltirilgan o'quvchilarning bilimi, idrok etish qobiliyati hisoblanadi". Mulohazakorligi xolis va shaffof holda tahlil etilishini talab etadi. Shunday bo'lgan taqdiridagina biz o'qituvchi-pedagogdagi sodir bo'ladigan refleksiya hodisasi to'g'ri natija beradi, deb ayta olamiz.

B.D.Elkoninning ta'kidlashicha, "pedagogning pozitsiyasi quyidagilarga asoslangan bo'ladi:

-o'qituvchining talaba shaxsiga mutaxassis va inson sifatida yondashuvi (ya'ni tarbiyaviy va o'quv jarayonlarida o'qituvchi uchun talabaning to'liq bilim va metodikaga ega bo'lmagan mutaxassis sifatidagi huquqlari, bilim oluvchi sifatida manfaatlar hamda alohida xarakterga ega bo'lgan shaxs sifatidagi zaruriy tarbiya usullariga muhtojligi); o'qituvchining refleksiv xatti-harakatni sodir etishi uchun o'zini shaxs va mutaxassis sifatida to'liq anglashi (ya'ni o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoniga shaxs va mutaxassis sifatida yondashuvi, har bir o'quvchi ta'limi va tarbiyasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga tayyor turishi)". Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogikada refleksiyaning namoyon bo'lish turlari ikkita ya'ni jarayonli va shaxsiy mazmundagi refleksiya. (2.79-b.)

Jarayonli mazmundagi refleksiya dars jarayonlari uchun qabul qilingan o'quv materiallari va o'rganilayotgan fanlar mundariyasi ta'lim oluvchining imkoniyatlariga muvofiq kelishi hamda uning ko'nikib borishini nazarda tutadi. Mazkur refleksiyada talabada paydo bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni hisobga olishi, uning bu qiyinchiliklarni yengish yo'lidagi xatti-harakatlarini rag'batlantirib turishi lozimligi ko'zda tutiladi.

Refleksiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda bo'lajak o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati natijasini tahlil qilishi, o'z faoliyatiga chetdan nazar solishi, ayniqsa, o'quvchi ko'zi bilan o'z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi.

Pedagogika fani sohasida refleksiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning muhimligi quyidagilarda ko'rinadi:

birinchidan, pedagogika sohasida refleksiya o'qituvchi amaliy ko'nikmalari shakllanganlik darajasini aniqlash mezonini jamlagan muhim omil sifatida qaraladi; ikkinchidan, refleksiya bir tomonlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish asosida o'z faoliyatini o'quvchi ko'zi bilan qarab tahlil qiladi;

uchinchidan, o'quvchilar jamoasidagi muhit, amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatidagi faollik darajasi o'qituvchilar refleksivlik ko'rsatkichlarini belgilab beruvchi mezon bo'ladi; to'rtinchidan, refleksivlikni zamonaviy ta'lim tizimining har bir bosqichida qo'llash mumkin va ilg'or pedagogik texnologiyalar, uslubiy innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirish natijasida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin; beshinchidan, refleksiv ko'nikmalar o'qituvchining shaxsiy tavsifga ega bo'lgan faoliyati hisoblangani tufayli o'zining dunyoqarashi va pedagogik fikrlaridan kelib chiqib o'z-o'zini tahlil qilish uchun imkon beradi.

Refleksiv ta'lim texnologiyalari o'ziga xos bo'lib, uni amalga oshirish quyidagi algoritmik harakatlar tarzida tashkil etiladi:

I. Refleksiya obyekt va dars mashg'ulotining refleksiya amalga oshiriladigan vaqtini aniqlash. Shu o'rinda refleksiya obyekt sifatida:

ta'lim jarayonining umumiy va juz'iy maqsadlari; o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy tushunchalar va ta'lim mazmuni; foydalaniladigan ta'lim metodlari; egallanadigan ko'nikmalar, bilimlarning hayot bilan bog'liqligi; shaxsning ichki olami va kasbiy sifatleri sohasida o'zgarishlarni idrok etishi va shu kabilar belgilanishi mumkin.

II. O'z bilish sohasini tahlil etish va kuzatib borishning individual mexanizmiga ega bo'lish.

III. Kelgusidagi pedagogik munosabatlarning samarali tashkil etilishi uchun refleksiyaning natijalari muhimligiga asosiy urg'u berish .

**XULOSA** : refleksiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayoni ishtirokchilaridan umumiy xarakterda bo'lgan pedagogik va shaxsiy

sifatlarini talab etadi: ya'ni refleksiya ikkiyoqlama bo'lgandagina ijobiy natija beradi; refleksiv texnologiyalardan foydalanish jarayoni ishtirokchilardan obyektivlikni, xolislikni va shaffof munosabatlarni talab etadi: bu esa baholash va nazorat tizimini ochiq olib borishni, binobarin, ta'lim oluvchilar orasida sog'lom raqobat muhitining yaratilishini ta'minlaydi; dars jarayonida o'ziga xos "qaytarma aloqa"ning yo'lga qo'yilishi ta'lim oluvchi orasida kommunikativ bahs-munozaralarning tashkil etilishiga xizmat qiladi; refleksiv ta'lim texnologiyalarida dars jarayonida o'qituvchining monologik pozitsiyadan muloqot qilish pozitsiyasiga o'tishi hodisasi sodir bo'ladi.

Refleksiv ta'lim texnologiyalari o'zaro uyg'unligiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'ziga xoslik refleksiv ta'lim texnologiyalarining turli mezonlar va xususiyatlar bo'yicha tasniflana olishi bilan bog'liqdir. Bu hol bizni refleksiv ta'lim texnologiyalarining shakl va turlari haqida mulohaza yuritishga undaydi. Refleksiv texnologiyalardan foydalanish davomiyligiga ko'ra turlari; refleksiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanuvchilariga ko'ra; refleksiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsadlariga ko'ra; refleksiv ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish shakliga ko'ra turlari farqlanadi.

Shunday qilib, refleksiv ta'lim texnologiyalari vaqt davomiyligiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi: situativ (muayyan vaqtning o'zidagi) ta'lim texnologiyalari; retrospektiv ta'lim texnologiyalari; perspektiv ta'lim texnologiyalari.

Vaziyatli (situativ) ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarni, muammolarini ijobiy hal etishni nazarda tutadi. Garchi o'qituvchi-pedagog zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda talabalarning qisman yoki to'liq mustaqil ta'lim olishlariga erishsa-da, ayrim vaziyatlarda uning vaziyatga aralashuvi shart bo'lib qoladi. Shu sababdan OTM talabalari dars jarayonlarida situativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanishlari uchun bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikka ega bo'lgan quyidagi harakatlarni amalga oshirishlari talab etiladi:

1. Pedagogik masalani keltirib chiqargan faktni anglab olishi.
2. Mazkur masala negizida paydo bo'lgan pedagogik vaziyatni chuqur his qilishi va uning har bir detallarini tasavvur qila olishi.
3. Pedagogik masalaning xarakteri, kelib chiqish sabablarini, uning tub negizini aniqlash orqali pedagogik vaziyatni tahlil etish.
4. Mazkur pedagogik vaziyat barqarorlashtirilmasa, yana kelib chiqishi mumkin bo'lgan boshqa pedagogik masalalarni to'liq tasavvur etish va ularga tayyor turish.
5. Pedagogik vaziyatni barqarorlashtirishning usuli bo'yicha qaror qabul qilish.
6. Qabul qilingan qarorni refleksiv tahlil etish.

Retrospektiv ta'lim texnologiyasi retrospektiv refleksiyaga asoslanadi. Retrospektivlik fransuzcha "retro" (o'tmish) va "spektiv" (qarash) so'zlarining umumlashmasidan hosil bo'lgan bo'lib, uning mohiyati atalishidan ham ma'lum. Retrospektiv ta'lim talabani kechagi kunni (ta'limiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, o'tgan mavzularni) konstruktiv tahlil etishini va bugungi kun bilan bog'lay olishini nazarda tutadi.

Retrospektiv ta'lim texnologiyasi talabani shaxs sifatidagi sifatlariga, eng birinchi galda xotirasiga bog'liq, qolaversa, retrospektiv ta'limning mavjud vaziyatning ijobiy tomonga o'zgarishdagi ahamiyati yuksakdir. Unutmaslik lozimki, retrospektiv refleksiv ta'lim mexanik tarzda orqaga qarash emas, mavjud voqelik, vaziyat, ta'limiy va nota'limiy masalalarning yechimini izlash maqsadida, kechagi kunning intensional obyektlarini umumlashtirish va birlashtirish natijasida muhim qarorni qabul qilishni ta'minlovchi hodisadir.

Retrospektiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchiga bugungi o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar doirasini uzviylik tamoyiliga ko'ra o'tgan darslarda o'zlashtirilgan bilimlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Ushbu ta'lim texnologiyasidan darsning turli qismlarida turli xildagi ta'lim vositalari, ta'lim metodlari bilan uyg'un holda qo'llash imkoniyati mavjuddir. Bunday uyg'unlik talabalar bilim doirasini ularning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq holda amalga oshirish imkonini beradi.

Perspektiv ta'lim texnologiyalari. Refleksiyaning reproduktiv xususiyatlari talaba nafaqat "kechagi kun"ning ta'limiy va nota'limiy muammolarini tahlil qilishi asnosida, balki kutilayotgan vaziyatdagi reproduktiv muammolarni hal etishda ham namoyon bo'ladi. Ya'ni talabani shaxs sifatidagi e'tibori "o'tgan kun", "hozir" va "ayni daqiqada"gi emas, ertangi kunga ham qaratilgan bo'lishi lozim. Refleksiv nazar va refleksiv tasavvur vositasida hosil qilingan virtual manzara aynan perspektiv refleksiya natijasida amalga oshiriladi.

Jamoaviy refleksiya davomida o'quv guruhi (yoki sinf) ta'lim oluvchilari darsda qo'yilgan maqsadlarga qanchalik darajada erishilganligini kommunikativ tarzda muhokama qiladilar. Bu refleksiv texnologiyaning ahamiyati guruhda (yoki sinfdagi) ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatlarini shaffoflashtiradi va kommunikativ aloqalarning mustahkamligini ta'minlaydi. Jamoaviy refleksiyadan ko'zlangan asosiy maqsad guruhdagi (sinfdagi) har bir ta'lim oluvchining faollik darajasini oshirish, darsni tashkil etish va o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsadga erishishda har bir ta'lim oluvchi o'z hissasini ongli ravishda anglab olishini ta'minlashdan iboratdir. Yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, refleksiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonining asosiy maqsadi pedagoglarning o'z faoliyatini muntazam taftish qilish asosida yangiliklar bilan boyitishi, yangi faoliyat

turlariga nisbatan motivatsiya hosil qilishi, o'z faoliyatini chetdan tahlil qilishi hamda obyektiv baholashiga erishishdan iboratdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Donayeva Sh.A "Refleksiya, refleksivlik, refleksiv mahorat tushunchalari pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarining o'rganish ob'ekti sifatida". "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida talim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish muammolari. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya 2022.-B-371-373.

2. Гальперин П.Я., В.Д.Елконин. Введение в психологию: Учебное пособие для вузов. - М.: Книжный дом "Университет", 1999. - 332 с.

3. А.А.Бодалева. Педагогические условия формирования рефлексивной позиции старшеклассников в учреждении дополнительного образования детей: дис. канд. пед. наук / Е.Л. Ерина. – Магнитогорск, 2002. – 199 с.

4. Mirqosimova M. Talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish omillari.T.:2024.

"Ma'rifatparvar ajdodlarimiz merosi – milliy ta'lim-tarbiya asosi" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plamida. 87-90-b.

#### **ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ПРОЦЕССЕ ПРАКТИКО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*Халилова Шахноза Тургуновна*

*Доктор педагогических наук, профессор  
кафедры "Педагогика непрерывного  
образования" Университета "Ориентал"*

#### **Аннотация**

*В статье выделены способы формирования профессиональных компетенций будущих специалистов в процессе практико-ориентированного образования, которые рассматриваются в контексте формирования профессиональной компетентности личности обучающихся в современной высшей школе. Подходы, принципы, педагогические условия эффективной учебно-познавательной и учебно-профессиональной деятельности обучающихся определены в качестве методологической основы личностного и профессионального развития будущего специалиста.*

**Ключевые слова:** *практико-ориентированное образование, компетентностный подход, учебно-познавательная деятельность,*

*рефлексивно-акмеологическая модель, творческие задачи, профессиональные компетенции.*

#### **Аннотация**

*Мақоллада zamonaviy oliy ta'limda talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish kontekstida ko'rib chiqiladigan amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish yo'llari yoritilgan. Talabalarning samarali o'quv-kognitiv va tarbiyaviy-kasbiy faoliyatining yondashuvlari, tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari, bo'lajak mutaxassisning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini uslubiy asosi ishlab chiqilgan.*

#### **Калит so'zlar:**

*amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv, ta'lim va kognitiv faoliyat, refleksiv-akmeologik model, ijodiy vazifalar, kasbiy kompetensiyalar.*

#### **Annotation**

*The article highlights ways of forming the professional competencies of future specialists in the process of practice-oriented education, which are considered in the context of forming the professional competence of students in modern higher education. Approaches, principles, pedagogical conditions for effective educational-cognitive and educational-professional activities of students are defined as the methodological basis for the personal and professional development of a future specialist.*

#### **Keywords:**

*practice-oriented education, competency-based approach, educational and cognitive activity, reflective-acmeological model, creative tasks, professional competencies.*

В период реформирования образования все актуальнее становятся проблемы процесса адаптации студентов к новым формам и условиям жизнедеятельности, что вызывает потребность совершенствования обеспечения учебного процесса. Традиционные технологии обучения, построенные на представлении материалов дисциплины на лекции и последующем их закреплении в процессе практических занятий, являющиеся в настоящее время преобладающей формой преподавания, не в полной мере обеспечивают не только передачу нарастающего объема научных и практических знаний по дисциплине, но и формирование у будущих специалистов компетенций, отвечающих требованиям современной профессиональной деятельности. Для обеспечения конкурентоспособности выпускника вуза должен быть сформирован комплекс личностных, профессиональных и исследовательских умений. Подобные требования определяют переход

от предметно-центрического образования к практико-ориентированной подготовке специалиста с приоритетом профессионально-личностного развития обучающихся.

Раскрывая факторы эффективной подготовки выпускника вуза, она становится возможной в том случае, если при разработке практико-ориентированного образования как системы формирования и развития компетенций студентов вуза будет учитываться и обеспечиваться комплексное решение задач:

**информационная** – приращение общих и специальных знаний, овладение теорией на современном уровне по каждой компетенции и всему комплексу компетенций;

**деятельностная** – формирование приемов и операций профессиональной деятельности, навыков и умений по использованию знаний в практической работе по каждой компетенции и всему комплексу компетенций;

**личностная** – профессионально-личностное развитие обучающихся, выпускников вузов по каждой компетенции и всему комплексу компетенций» [1, 9].

Компетентностный подход предполагает, что основной акцент делается не просто на получение обучающимися некоторой суммы знаний, умений и навыков, но и на формирование системного набора профессиональных компетенций. Практико-ориентированное образование как система высшего образования помогает сформировать в качестве основных результатов обучения профессиональные компетенции (*специальные, социальные, менеджерские, лидерские, администраторские*). Реализация задач практико-ориентированного образования обеспечивает успешную профессиональную деятельность личности в современном мире, являясь основой формирования творческой, неординарной, конкурентоспособной личности выпускника.

Концепция практико-ориентированного образования подразумевает взаимосвязь учебно-познавательной и учебно-профессиональной деятельности студентов, в которой значимую роль играют преподаватели и представители профессиональной практики.

Практико-ориентированное образование определяет процесс изучения учебного материала и предполагает реализацию субъект-субъектной модели (активное межличностное взаимодействие обучающего и обучаемого) в педагогическом процессе, становясь определяющим фактором эффективной подготовки обучающихся. Такой подход к обучению позволяет создать положительный эмоциональный фон, создает условия для удовлетворения потребностей в интеллектуальном, эмоциональном и нравственном развитии,

способствует профессиональной ориентации, формирует мотивационный аспект учебной деятельности.

Оптимизация процесса развития профессиональной компетентности в практико-ориентированной образовательной среде зависит от комплекса условий, необходимых для решения акмеологических задач самореализации личности специалиста. Особого внимания заслуживает комплекс организационно-педагогических условий практико-ориентированного образования и профессионального развития студентов, поскольку он способствует формированию особых личностных качеств будущего специалиста. Наиболее значимыми с точки зрения формирования профессиональных компетенций являются следующие условия:

1) содержание процесса подготовки будущих бакалавров и магистров носит практико-ориентированный характер и обеспечивается в единстве теоретической, методической, практической и рефлексивной подготовки;

2) процесс практико-ориентированного образования студентов осуществляется на основе преемственности и взаимодополнительности учебно-познавательной, учебно-профессиональной и профессиональной деятельности;

3) система учебно-познавательной и учебно-профессиональной деятельности студентов в вузе осуществляется на принципах интегративно-акмеологического подхода, актуализирующих их субъектную нацеленность на достижение максимально возможного уровня развития профессиональных компетенций;

4) практико-ориентированное образование студентов предполагает разработку и реализацию педагогических технологий и индивидуальных образовательных маршрутов, построенных на основе межпредметных связей и индивидуальных возможностей студентов, сопровождающихся контролем и коррекцией аудиторной и внеаудиторной самостоятельной работой студентов, отражающей взаимосвязанную деятельность преподавателя и студента [2, 29].

Реализация данных условий в образовательном процессе позволяет формировать профессиональную компетентность будущих специалистов не только на уровне освоения профессиональных знаний (**специальных компетенций**). Также формируются такие **социальные компетенции** (личностные, надпредметные), как понимание сущности профессии, осознание ответственности за принятые решения; способность эффективно работать индивидуально и как член команды; умение использовать различные методы эффективной коммуникации в профессиональной среде и социуме; творческий поиск в рамках

профессии, осознание необходимости самостоятельного обучения в течение всей жизни.

Наиболее эффективным для формирования профессиональных компетенций, на наш взгляд, является применение современных деятельностных технологий обучения, способствующих формированию у обучающихся значимых для будущей профессиональной деятельности качеств личности, а также знаний, умений, навыков, обеспечивающих качественное выполнение функциональных обязанностей по избранной специальности:

- сетевое взаимодействие;
- кластерное образование;
- социальное партнерство;
- проектные методы;
- различного рода практики;
- групповые дискуссии, междисциплинарные семинары;
- технологии исследовательской деятельности.

Таким образом, формированию и развитию профессиональной компетентности будущих специалистов способствует выработка навыков научного, профессионального осмысления передаваемых знаний.

#### **Список литературы:**

**Kognitiv so'zi** "Pedagogika" ensiklopediyasida "lotincha cognitio – idrok etish, bilish ma'nolarini ifodalab, insonning mustaqil bilish va ijodiy fikrlash jarayonini ifodalovchi atama" [1;180-b.] tarzida talqin etilgan.

**Kognitiv ta'lim** – 1. atrof olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differensiyalovchi tafakkurni shakllantirish, bilish ehtiyojlarni rivojlantirish ta'limi. 2. psixologik tadqiqot sohalaridan hamda pedagogikaning yo'nalishlaridan biri. K.t. ning asosiy maqsadi sifatida individning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. O'quvchining yangi bilimlarni o'zlashtirishga moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ta'limiy strategiyalar majmuiga asoslangan o'qitish [1, 180-b.] tarzida talqin etilgan.

O'quvchilarning mahsuldor ijodiy faoliyatlari o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlashdan iborat emas balki, ular aniq faoliyat usullaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Mazkur faoliyatdan boshqa o'quv vaziyatlarda ham foydalanish ko'nikmasi shakllanadi. Shuningdek ijodiy faoliyatni ta'minlovchi yangi xarakat usullarini egallashga ko'maklashadi. Natijada o'quv predmeti mazmunida yo'naltiruvchi asos mavjud bo'lmagan holatlarda ham o'quvchilar ijodiy layoqatlarini ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi.

Yangi bilimlarning vujudga kelish jarayoni badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallari bilan bevosita bog'lanadi. Natijada o'quvchilar estetik olamga chuqurroq singib, nimani bilib olish lozimligini anglab yetadilar. Ularning idroklari o'zlashtiriladigan bilimlarni egallash tamon yo'naltiriladi. Kognitiv metodlarning mohiyati o'quvchilarning idrok etish jarayonlarini tahlil qilish va umumlashtirish natijalarini oydinlashtirishdan iborat. Ushbu omillar kognitiv omillar sifatida baholanadi. Eng oddiy topshiriqlar ham o'quvchilar tomonidan kognitiv texnologiyalar vositasida chuqur idrok etilib, katta samaradorlikka erishish imkonini berishi mumkin.



O'quvchilarda muayyan kognitiv omillar yordamida fikr vujudga keladi. Bu fikrni ba'zi hollarda shaxs qabul qilgan yangi axborotlar ham o'zgartira olmaydi. Kognitiv omillarni aniq va to'g'ri shakllantirish orqaligina o'quvchilarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatish mumkin. O'quvchilar ongiga ta'sir ko'rsatadigan an'anaviy metodlar mavjud. Bunday metodlar sirasiga badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallar targ'iboti, o'quvchilar qabul qilayotgan musiqaga oid axborotlarni nazorat qilish, o'quvchilar tomonidan salbiy axborotlarni o'zlashtirilishiga to'sqinlik qilish kabilardir. Kognitiv metodlar axborotlarni o'zgartirmaydi, balki ularni chuqur o'zlashtirilishi uchun sharoit yaratadi. Ular faqat ma'lumotlarga o'zgacha mazmun baxsh etib, boshqacha ko'rinishda taqdim etilishiga zamin yaratishi mumkin.

Kognitiv omillarning muayyan turlari mavjud. Biz quyida ularni ko'rsatib o'tamiz:

- o'quv materiallarini tizimli o'zlashtirish;
- kognitiv topshiriqlarni mazmunli bajarish,
- o'quvchilarni badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarini tahlil qilishga, o'quvchilarni matn mazmunini anglashga, idrok etishga undash kabilardan iborat.

O'quvchilarning badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallari kognitiv qabul qilish layoqatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

o'quvchilarni badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallari bilan to'liq tanishtirish;

o'quv materiallarini ularning o'zlashtirishi uchun qulay shaklda taqdim etish; o'quvchilarni o'quv materiallarini kognitiv o'zlashtirishlari uchun ijodiy muhit yaratish;

o'quv materiallarini tanlash va taqdim etish; va darslarda kognitiv texnologiyalardan tizimli foydalanish; o'quvchilarning ijodiy faoliyat ko'rsatishi uchun qulay didaktik shart-sharoit yaratish kabilar.

Ma'lumki, o'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida fikrlash va muloqot qilish ko'lamini kengaytirishga ham erishadilar. Bu jarayonda ularning fikrlash faoliyatlari bosqichma-bosqich takomillashadi. O'quvchilarda kuzatiladigan kognitiv fikrlash faolligi o'ziga xos jarayon bo'lib, unda fikrlashning barcha ko'rinishlari rivojlanadi. Jumladan: o'quvchilarning mantiqiy fikrlash faoliyati, intellekti, diqqat-e'tibori, idroki, xotirasi, muammolarning echimlarini izlab topish ko'nikmalari, yaratuvchanligi va tushunish darajasi. Badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarini kognitiv qabul qilish natijasida dastlab o'quvchilarda kognitiv tafakkur rivojlanadi. Kognitiv tafakkurning asosini esa hissiy intellekt tashkil etadi. Bu o'quvchilarning o'z his-tuyg'ularini anglashlari va uni boshqara olishlarida namoyon bo'ladi. Mazkur ko'nikmalar o'quvchilarga o'z oldilariga

qo'yilgan topshiriqlarga echim topish va hayotiy muammolarni hal qilish kompetensiyasini shakllantirishga ko'maklashadi. Kognitiv intellektning darajasi o'quvchilarning kognitiv ko'nikmalar va individual xususiyatlariga bog'liq. Kognitiv tafakkuri rivojlangan o'quvchi shaxsi quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- ijodiy faoliyat ko'rsatish;
- voqe'likni anglash;
- badiiy-estetik mazmundagi axborotlarni eslab qolish;
- diqqatini bir nuqtaga jamlash;
- g'oyalarni muvofiqlashtirish;
- keng tasavvurga ega bo'lish;
- maqbul qarorlar qabul qilish;
- mantiqiy fikrlash;

Badiiy-estetik mazmundagi bilimlar o'quvchi ongi va hissiyotlariga ta'sir ko'rsatadigan muhim vositalardan biri bo'lib, undagi badiiylik, nafasatga undash, ohanglar jozibasi o'quvchilarning hissiy olamiga ta'sir ko'rsatib, ahloqiy sifatleri, estetik didi, madaniy dunyoqarashini rivojlantiruvchi asosiy didaktik vosita sifatida xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Педагогика: энциклопедия. II жилд / тузувчилар: жамоа.//Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2015. – 376 Б.
2. Сергеев Н.К. Педагогическая деятельность и педагогическое образование в инновационном обществе. монография – Москва, Логос, 2013. - 363 С.
3. Сергеева Г.П. Практикум по методике музыкального воспитания в начальной школе: Учеб. пособие для студ. средн. пед. учеб. заведений. М.: Академия, 1998. - 136 С.
4. Хайруллаев М.М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти - Тошкент: ФАН 1994. - 77 Б.

#### **TALABALARNI AXBOROT XURUJLARIDAN PSIXOLOGIK HIMOYALASHNING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**X. Karimov**  
*QarshiDu Psixologiya  
kafedrasida dotsenti.*

Ma'lumki, axborot xavfsizligi fenomeni keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning mazmunini tahlil etish psixologiya, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi fanlardagi o'zaro aloqadorlik tamoyiliga asoslanadi.

Tarixan har qanday davlatning shakllanishi va jamiyatda, siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy manfaatlari va ularning mafkuraviy jabhada ifodalanishi bilan vujudga keladi. Zotan, ayni vaqtdan barqarorlik, rivojlanish bilan birga, muayyan xarakterdagi axborot-psixologik xavf-xatar, ma'naviy tahdidlar ham paydo bo'ladi. Ularga asoslangan holda, milliy xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqish hamda amalga oshirish axborot xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Axborot xavfsizligi – aslida jamiyatning obyektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo'lishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni nazarda tutadi. Albatta, bunga mustaqil axborot vositalari orqali aholiga yetib keladigan ma'lumotlar oqimi ham kiradi. Bu vositalar aynan mustaqil bo'lganliklari uchun ham birinchi navbatda moliyaviy, qolaversa, siyosiy va boshqa tomonlardan hech bir siyosiy kuch, alohida davlat yoki ijtimoiy qatlarning manfaatlariga xizmat qilmasliklari kerak. Chunki mustaqil OAV aslida odamlarda sodir bo'layotgan turfa xil jarayonlarga nisbatan xolis fikrning shakllanishiga imkon berishi lozim. Lekin amaliyotda ming afsuski, har doim ham shunday bo'lavermaydi va jamiyat o'z a'zolarini, ayniqsa yosh avlodni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga majbur bo'ladi [2; 139].

Axborot termini bugungi kunda global ahamiyat kasb etmoqda. Chunki u tafakkurimizga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi, hayot va undagi minglab taqdirni u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli qurolga aylandi. Hozirgi vaqtda axborotlarni hosil qilish, qayta ishlash, saqlash, ko'paytirish va tarqatish alohida ilmiy soha – informatikani tashkil etadi. Umuman olganda, axborot – moddiy dunyoning organizmda yoki organizmlar jamoasida aks etgan hamda ular tomonidan atrof-muhit o'zgarishlariga moslashish uchun foydalaniladigan moddiy dunyo obyektlarining aksidir.

Ma'lumki, axborot tafakkurning mahsuli hisoblanib, aqliy faoliyat asosida mujassamlashadi. Fanda, turli sohaga talluqli bo'lganligi jihatidan axborot (masalan, maishiy, ilmiy va boshq.) sohaviy xossalarga ajratiladi. Axborot o'z maqsadiga ega bo'lib, inson faoliyatida uning tutgan o'rnini belgilab olish uchun, axborotga oid ilmiy nazariyalarning g'oyalarini belgilashda lozim bo'ladi. N.Vinerning ta'limoti bo'yicha, axborot tashqi dunyodan olingan va unga moslashish jarayonida mazmunning belgilanishi hisoblanadi [3; 343]. K.E. Shennon esa, axborot, bu kommunikatsiya va aloqa jarayonida bartaraf etiladigan noaniqliklarni belgilash, deb ta'kidlaydi [4; 379–423]. I.M.Yaglom, axborotga tanlovning ehtimoligini ta'minlovchi vosita sifatida qaragan [5; 512]. Ko'rinib turibdiki, axborot va uning xavfsizligini shaxs xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'minlash fanda o'z tarixiga ega ekanligini namoyon etadi. Qachonlardir ilohiy ma'no kasb etgan so'z, uning qudrati bugungi kunga kelib, dunyo taqdirini hal qilishda eng

asosiy rol o'ynaydigan kuchli vosita maqomiga ko'tarildi. Fan-texnika inqilobidan keyin kommunikatsion texnologiyalar hamda axborot infratuzilmalarining katta tezlikdagi taraqqiyoti, xususan, televideniya va internetning paydo bo'lishi hamda uning qisqa vaqt ichida ijtimoiy hayot tarziga chuqur kirib borishi axborotni eng qimmat tovarga aylantirdi.

Darhaqiqat, globallashuv va integratsiyalashuv sharoitida oltin, platina, javohirdan ko'ra ko'proq qiymatga ega bo'lgan axborot jahon bozoridan munosib joy oldi. "Kim axborotga egalik qilsa, u dunyoni boshqaradi" qabilidagi fikrlarning bot-bot esga oлина yotgani ham bejiz emas. Bundan 4-5 asr oldin jahonda yetakchilik qilish uchun qo'sh insoni, qurol-yarog' arsenalini, hatto dengizdagi kemalar, umuman, harbiy salohiyatning ahamiyatli edi. Globallashuv jarayonining yirik namoyondalaridan biri Jorj Modelskining ta'biri bilan aytganda, moziyda moddiy-materialistik mezonlar bo'yicha gegemonlik darajasi ayni shu mamlakatning qudratini belgilaydi.

V.G. Grachevning so'zlariga ko'ra, dunyo bozorida axborotning eng qimmat tovarga aylanishida oynaijahon va "o'rgimchakto'ri" – internet roli juda katta hisoblanadi [6; 177].

Aslini olganda, axborot tushunchasi dunyoqarashni ifodalovchi barcha bilimlar sohasi qadimdan mavjud bo'lgan. Uning jadallik bilan o'sishi hamda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi esa, o'zi shundoq ham tezkorlik bilan o'sib borayotgan tig'iz axborotlashgan jamiyat nazariyasini maydonga keltirdi. Shunday qilib, yalpi axborotlashirilgan tizimni dunyoga kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga uzviy bog'ladi.

O'z navbatida, axborot olish, uni ishlash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo'lmaydigan darajadagi taraqqiyoti bugun jiddiy tashvish tug'dirayotganini ham alohida ta'kidlash joiz. Zero, eng so'nggi avlod kompyuterlari har soniyada ikki milliardgacha vazifani bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo'jizasi tufayli kishi er yuzining xohlagan nuqtasidagi odam bilan soniyalar ichida aloqa o'rnatishi, o'zini qiziqtirgan savollarga bir zumda javob topishi mumkin. Ana shu holatning o'zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, axloq meyorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, XXI asr sivilizatsiyasi axborot huruji, axborot-psixologik urushi qiyofasida o'zini namoyon etmoqda.

Ma'lumki, har bir fuqaro o'z shaxsiy nuqtai nazari, qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi, o'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli doirasida munosabat bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib, o'ziga mos axborotni qabul qiladi, tahlil etadi. Mushohada va tahlillar asosida shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada mazkur shaxs u yoki bu tarzda nuqtai nazarini shakllantiradi.

Demak, har qanday axborotning mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan shaxs, jamiyat, davlat mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda, o'smirlarni axborot xurujlaridan arashishlarida psixologik xavfsizlikning roli yana ham oshadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mo'minov A. G. O'zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. – T.: “Turon zamin ziyo”. 2013. 95-97-betlar.
2. Лисичкин В.А. Третья мировая информационно–психологическая война. - Москва: “Букар”, 246 с.
3. Роцин С.К., Соснин В.А. Психологическая безопасность: новый подход к безопасности человека, общества и государства // Российский монитор. 1995. № 6. – 36 с.
4. Грачёв Г. Личность и общество: информационно-психологическая безопасность и психологической защиты. – Москва: Изд-во РГНФ. 2003. – 223 с.
5. Доценко Е.Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. – М:Изд-во МГУ. 1997. – 344 с.
6. Щерба Н.Н. Безопасность человека. Безопасность общества. –СПб. Terra Fantastica. 1995. – 110 с.
7. М.Файзиёва Шахс психологик химоя механизмлари .Монография “Насаф” нашриёти 2021 й

### **TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH MUHITIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

*Isaqulov To'liq Mahmud o'g'li*

*Oriental universiteti Pedagogika fakulteti v.b dotsenti*

*Mirpo'latova Iroda, G'afurova Sabrina*

*Oriental universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

*2-kurs talabalari*

*Maqolada bo'lajak informatika o'qituvchilarining axborot kompetentligi, uning texnologik fikrlashi, pedagogik faoliyatida axborotlarni tahlil qila bilishi, loyihalay olishi, umumiy pedagogik, maxsus bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:** axborot kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, amaliyotga yo'naltirilganlik yondashuv, tizimli-faoliyatli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.*

*В статье рассматриваются информационные компетенции будущего учителя информатики для развития его технологического мышления, умения анализировать и конструировать информацию в педагогической деятельности, общепедагогических, специальных знаний и умений.*

***Ключевые слова:** информационная компетентность, компетентностный подход, практико-ориентированный подход, системно-действенный подход, личностно-ориентированный подход.*

*The article discusses the informational competencies of a future computer science teacher for the development of his technological thinking, the ability to analyze and design information in pedagogical activities, general pedagogical, special knowledge and skills.*

***Keywords:** information competence, competency approach, practice-oriented approach, system-action approach, person-centered approach.*

Xozirgi kunda jamiyatda ta'lim xizmati bozori tushunchasi qaror topgan bo'lib, unga ko'ra, muqobil ta'lim, uyda ta'lim olish; ta'lim oluvchining individual psixo-fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'qitish va dam olishni navbatlashtirish; o'qitishda internet va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash; ta'lim oluvchining kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishiga e'tibor qaratish kabilar muhim o'rin tutmoqda. Shunga ko'ra, ta'lim xizmati bozori amal qilayotgan hozirgi sharoitda informatika o'qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy kompetentligini oshirish bilan bir qatorda ta'lim jarayonini metodik ta'minlashga katta e'tibor qaratish zarur.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini(AKT) joriy etish sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchilarining bilish faolligi mazmuni muayyan o'zgarishlarga uchraydi, shunga ko'ra, uning konstruktiv, gnostik, loyihali, tashkiliy, kommunikativ shart-sharoitlar mazmuni muayyan ahamiyat kasb etadi. Quyida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika o'qituvchilarining tayyorgarligiga qo'yiladigan asosiy talablarga to'xtalamiz.

Informatikani o'qitish metodikasiga ko'ra, so'nggi yillarda quyidagi qator shart-sharoit va vositalarga tegishli o'zgartirish kiritish borasida muayyan talablar ilgari surilmoqda:

- ♦ informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida muhit tushunchasi va o'qitishning metodik ma'nosi;

- ♦ maktabda informatika ta'limi metodik tizimi asosiy komponentlarining bilish faoliyati bilan uyg'unlashuvi;

- ♦ mazkur yo'nalishda ishlab chiqilgan dastur va darsliklar, informatika fanini o'qitishning asosiy texnologiyasini bilish;

- ♦ ta'lim standartining belgilanishi va uning ma'nosini bilish, informatika standarti mazmunini bilish;

◆ maktab kursi savollari va alohida mavzularni o'qitish metodikasini egallash;

◆ metodik usullar butunligini maqsadli baholash va kursning dasturiy yordamini qo'llashni tanlay bilish;

◆ yuqori sinfda informatikani o'qitishga tabaqali yondashuv tamoyillarini bilish, informatika kursi kasbiy metodikasini egallash;

◆ informatika o'quv jarayonini rejalashtira olish, o'rganuvchi materialning mazmuniga tashkiliy shakl va metodlarni adekvat tanlash;

◆ o'qitishning nazorat turlari va natijalarini baholash funksiyasini bilish, tekshirish vositalarini ishlab chiqish va qo'llay bilish;

◆ o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini ob'yektiv baholash, nazorat natijalariga ko'ra informatika o'qitish metodikasini takomillashtirish kabilar.

Axborot-ta'lim muhiti o'quvchi shaxsiga yo'naltirilib, yaxlit ta'lim muhitini tarkib toptirish tamoyiliga tayanadi. Ta'limning yangi maqsad va yutuqlarga erishishda ta'lim oluvchi shaxsining o'quv muhiti sharoitida ko'p o'lchamli harakatlanishi uchun zarur imkoniyatni vujudga keltirib, unga mos optimal sharoitlarni ta'minlash zarur. Bunda ta'lim tizimi shaxsni rivojlantirishga qaratiladi, shu sababli ta'lim oluvchida asosiy kompetensiyalarni shakllantirish, qobiliyat va layoqatlar hamda o'qib-o'rganishga nisabatan motivatsiyani rivojlantirish zarur. Aynan shunday sharoitda ta'limda AKT vositalaridan samarali foydalanish mumkin. Chunki mazkur vositalarni qo'llashning moslashuvchanlik, interfaollik, o'quv faoliyati turlarini kengaytirish kabi vazifalarini amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlar yuzaga keladi. Bugungi kunda ta'lim maqsadi va vazifalari bilan birga, o'qituvchi funksiyasi ham o'zgarimoqda. U "bilim beruvchi"dan "bilim tarqatuvchi"ga, yangi AKT vositalari bilan ta'minlangan axborot-ta'lim muhitida o'quvchining bilish faoliyatini (ma'lum darajada mustaqil) tashkillashtiruvchiga aylanmoqda. Bunday muhitda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga mustaqil bilim olish imkonini yaratib berishdan iborat bo'lib, o'quv jarayonida "o'qituvchi-o'quvchi" hamkorligiga asoslangan sub'yekt-sub'yekt munosabati amalga oshadi. Bularning barchasi ta'lim jarayonida AKT vositalarini qo'llashni taqozo etishi bilan birga, o'qituvchilar tayyorlash tizimiga yangi vazifalar yuklaydi. O'qituvchidan o'quvchilarga bilim berish bilan birga, takomillashtirilgan dastur asosida o'qitish sharoitida AKT bilan ishlash, kasbiy faoliyatida yangi kompetensiyalarni egallash, ta'lim jarayonida o'z o'rnini topish talab etiladi. Bu bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik mazmunini, psixologik-pedagogik va pedagogik (didaktik) tayyorgarligini o'zgartirishni taqozo qiladi. Xulosa qilib aytganda, informatika o'qituvchilarini tayyorlash mazmunini takomillashtirishga kompleks yondashiladi.

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mazmunining kengayishi, axborot hajmining ortishi, iqtisodiyot, siyosat, ilm va ta'limning aniqlovchi omili hisoblangan yuqori texnologiyalarning yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Shunga ko'ra, pedagoglarning yangi texnikani

o'zlashtirishi – bu faqatgina yangi axborot texnologiyalari bilan tanishishigina emas, balki ulardan o'z pedagogik xizmatida savodli foydalana bilishi demakdir. Ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan amerikalik olim M. Sh. Noulzning fikricha [4], oliy mutaxassislik ta'limi sohasining asosiy masalasi – bu yuqori kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlash, o'z bilimlaridan har qanday sharoitda foydalana oladigan, asosiy kompetensiyasi "umri davomida mustaqil o'qish-o'rganish"dan iborat bo'lgan kadrlarni yetishtirishdir.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarini axborot kompetentligini shakllantirishda ilmiy-metodik yondashuvlarning mohiyati quyidagilardan iborat [2, 3, 5]:

-kompetensiyaviy yondashuv – o'quvchilarda mustaqil tafakkur, faol fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik, mediaresurslardan o'z faoliyatida oqilona foydalanish, sog'lom raqobat hamda tolerantlikni shakllantiradi hamda ma'naviy-ahloqiy, jismoniy, aqliy hislatlarni kamol toptirishga, jumladan, ezigulikni himoya qilish, tez o'zgaruvchan, murakkab dunyoda o'z o'rnini topish, altruizm, dunyoviy muammolarni anglash, to'g'ri qarorlar qabul qila olish, zaruriy hayotiy ko'nikmalarni egallash, o'z xatti-harakatlari, qarorlari uchun javobgarlik hissi, shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, axborotlarni qabul qilish va ajrata olish, abstrakt, ijodiy, mantiqiy tasavvurni kengaytirishga hizmat qiladi;

-amaliyotga yo'naltirilganlik yondashuv – informatika o'qitish jarayonini amaliyot bilan bog'lab olib borish, darslar mavzusi bo'yicha hayotiy misollar, faktlardan keng foydalanish, o'qituvchilarning o'rganayotgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda amalda qo'llay oladigan bo'lishlarini ta'minlab borishga xizmat qiladigan yondashuv hisoblanadi;

-tizimli-faoliyatli yondashuv – ta'lim jarayonida u yoki bu hodisani izohlashga uning sabablarini topishga, u tanlagan ob'yekt to'g'risida olingan bilimlardagi kamchiliklarni belgilab berish, nomutanosiblikni aniqlash, ilmiy tadqiqot vazifalarini belgilash, interpolyasiya va ekstrapolyasiya yo'llari bilan mazkur ta'rifning kamchiliklari prognozini amalga oshirishga ko'maklashadi. O'qituvchi uchun ta'lim tizimining chegaralari, tarkibiy qismlari, vazifasi, uni tashkil etish va rivojlantirish xususiyatlariga daxldor bo'lgan sub'yektiv farazlarni ilgari surish uchun ham qulaydir. U o'qituvchining mustaqil tarzda ijodiy faoliyatini amalga oshirishga ta'sir ko'rsatib, ta'lim sifatining kelgusi bosqichiga erishishini ta'minlaydi. Buning boisi, tizimli-faoliyatli yondashuvning izohlovchi vazifasi barqaror, mohiyatli va tasodifiy bo'lmagan omillarni belgilashdan iborat. Bu, o'z navbatida, pedagog uchun bajarilishi lozim bo'lgan istiqboldagi vazifalarni aniqlash imkonini beradi. Tizimli yondashuv faoliyat samaradorligini ta'minlash imkoniga ham ega bo'lib, uni ta'lim tizimida tizimli yondashuvning takomillashtirish vazifasi deb ko'rsatish mumkin;

-shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rsatkichlarini belgilashda 3ta sohani inobatga olish lozim: shaxs, faoliyat bo'yicha

va reflektiv. Shaxs sifatida tayyorgarlik – bu pedagogik tafakkur (gnostik, ya'ni aqliy qobiliyatlar - ilmiy ma'lumotlarni farqlash malakalari, amaliy faoliyatda ilmiy bilimlarni to'g'ri qo'llash, pedagogik vazifalarni malakali xal etish); pedagogik maqsadni belgilash (tashkilotchilik qobiliyatlari - o'qitish va takrorlash uchun optimal sharoit yaratish malakalari, mashg'ulotning kerakli shakllarini tanlash, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'quv jarayonini kerakli inventar jixozlari bilan ta'minlash; o'z mehnatini tashkil etish, har qanday tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazish (ertaliklar, adabiy kechalar va boshqalar); pedagogik yo'naltirilganlik (kommunikativ qobiliyatlar: ma'lum bir ta'lim olayotganlar kategoriyasi uchun hammabop shaklda ma'lumotni taqdim etish qobiliyati, vaziyatga qarab ma'lumotni berish usul va uslublarini to'g'rilash, birovni ishonтира olish qobiliyati, "pedagog-pedagog", "pedagog-ota-ona", "pedagog-menedjer", "pedagog-bola" darajalarida kasbiy muloqotni savodli tuzish; bolalar jamoasida ijobiy psixologik mikroklimatni yaratish va boshqalar). Kasbiy tayyorgarlik: pedagogik takt (intellektual mehnat bo'yicha loyihalaviy qobiliyatlar: oddiy standartlar va qaror uslublarini olib tashlab, yangi, ajoyiblarini izlash; ushbu va o'z o'zidan ma'lum narsadan yuqorilarini ko'ra bilish; odatdagi muammolarni asosiy bog'liqliklarini qamrab olish; qaror qabul qilishning bir nechta turli yo'llarini aniqlik ko'ra bilish va hayolan eng samaraligini tanlash; g'oyaviy hosildorlik; bolaning individual rivojlanish o'quv jarayonini, innovasion o'quv rejasini, dasturni, o'z faoliyatini loyihalashtirish va boshqalar).

Refleksiv tayyorgarlik: pedagogik refleksiya (refleksiv qobiliyatlar sezgirlikning 3 turini o'z ichiga oladi: ob'yektni his etish: real haqiqat bolalarda qanday aks-sado berayotganiga, bunda qay darajada bolalarning qiziqish va ehtiyojlari namoyon bo'lishiga, "ularni pedagogik tizimning talablariga mos kelishiga" pedagogning alohida sezgirligi; me'yorni his etish va takt turli pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari ta'sirida bola shaxsida va faoliyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar o'lchoviga alohida sezgirlikda namoyon bo'ladi, umuman qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda, ular ijobiy yoki salbiy, qaysi belgilarga ko'ra ular haqida so'zlash mumkin; dahldorlik hissi pedagogning shaxsiy faoliyati kamchiliklariga, tanqidiyligi va o'quv jarayoniga javobgarlik sezgirligi bilan ta'riflanadi). Yuqoridagilar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni tadbiq etishda bola va pedagog shaxsining alohida rivojlanishi emas, balki ta'lim jarayoni yaxlit sub'yektning rivojlanishi amalga oshirilishi lozimligidan dalolat beradi. Mazmun-ma'nolar tizimi yaxlit sub'yektning rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi: bola ongida shaxsiy mazmun-mohiyatlar tizimi, pedagogning shaxsiy, hayotiy mazmun-mohiyati va ma'naviy tarkibi.

-evristik yondashuv – yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan o'qitish tizimi, topqirlik, faollikni rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim metodi hisoblannib o'quv izlanishli ta'lim jarayonidan iborat bo'lgan optimallashtirilgan tafakkurni rivojlantiradi.

O'qituvchining axborot kompetentligi uning texnologik fikrlashi, pedagogik xizmatda axborotlarni tahlil qila bilishi, loyihalay olishi, prognostik va reflektiv qobiliyatga ega bo'lishi demakdir. Bundan tashqari, axborot kompetentligi o'qituvchilarning axborot va texnologik madaniyatga ega bo'lishini talab qilib, muayyan ma'noda, integrativ rol o'ynaydi, unda umumiy pedagogik, maxsus bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ta'kidlash joizki, "Axborot kompetentligi" atamasi aksariyat hollarda "axborot-kompyuter texnologiyasidan foydalanish" deb talqin etiladi. P.V.Bespalov axborot kompetentligini "shaxsning integral xarakteristikasi, motivatsiyaga mos bilimlarni o'zlashtirish, kompyuter texnikasi yordamida o'quv va kasbiy faoliyat hamda kompyuter tafakkuri usullariga ega bo'lishi" deb tavsiflaydi[1].

Bo'lajak informatika o'qituvchilarida axborot kompetentligining shakllanishi ularning istiqboldagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Talabning axborot kompetentligi haqida tizimli va to'laqonli tushunchaga ega bo'lishi, uning tuzilmasini bilishi, tayaniladigan me'yorlarni asoslay olishi, shakllanish bosqichlari va funksiyalarini qayd etishi, ta'limiy faoliyatda o'quv jarayonini maqsadga muvofiq va samarali tashkillashtirishi ixtisoslikka oid fanlardan bilim darajasining ortishiga, o'quv ishlarida samarali yechimlar qabul qilishiga, istiqboldagi pedagogik faoliyatida o'quv-biluv va ularning axborot asosida tafakkurini maqsadga muvofiq va tizimli rivojlantirishiga imkon yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bespalov P. V. Kompyuternaya kompetentnost v kontekste lichnostno-oriyentirovannogo obucheniya // Pedagogika.- 2003, №4.-St. 45-50.
2. Boronenko T.A. Teoreticheskaya model sistema metodicheskoy podgotovki uchitelya informatiki // Avtoref. dis. dokt. ped. nauk. - SPb. Peterburg, 1997. - 45 s.
3. Ishmuxammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar // O'quv qo'llanma // Toshkent, 2017. – 369 b.
4. Noulz M.Sh. Sovremennaya praktika obrazovaniya vzroslykh. Andragogika protiv pedagogiki // M.: Izdatelskiy otdel NMS SPO, 1998. s. 248.
5. Xolikov A. Pedagogik mahorat: Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik // T.: 2011. – 424 b.

## ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДОШКОЛЬНИКОВ

*Муротмусаев Комилжон Бурибаевич*

*Университет Ориентал Республики Узбекистан,  
Кафедра «Педагогика непрерывного образования» доцент,  
кандидат медицинских наук, Ташкент, Узбекистан*

**Аннотация:** в статье раскрывается специфика развития детского интеллекта, который во взаимосвязи с эмоциональной сферой может обеспечить большие достижения в любой сфере деятельности. Анализируются позитивные практики формирования готовности к развитию эмоционального интеллекта в условиях колледжа, раскрываются пути и особенности подготовки к развитию эмоционального интеллекта дошкольников.

**Ключевые слова:** студенты, профессиональная подготовка, эмоциональный интеллект дошкольников, система профессионального педагогического образования.

**Abstract:** the article reveals the specificity of children's intelligence development, which in interrelation with the emotional sphere can provide great achievements in any sphere of activity. Positive practices of formation of readiness for the development of emotional intelligence in college conditions are analysed, ways and features of preparation for the development of emotional intelligence of preschool children are revealed.

**Key words:** students, professional training, emotional intelligence of preschoolers, system of professional pedagogical education.

В современную эпоху перемен и инноваций в нашей стране меняется не только технологическая стратегия, но и система образования. В сфере дошкольного профессионального образования особую значимость приобретает подготовка специалистов, способных творчески применять свои знания и навыки в меняющемся мире. Исследователи и преподаватели уделяют все больше внимания формированию профессиональной готовности будущих педагогов к работе в новых условиях.

Одним из ключевых компонентов профессиональной готовности является владение современными педагогическими методами и технологиями, которые позволяют вовлекать детей в активный процесс обучения и развивать их творческие способности. Будущие педагоги должны быть знакомы с передовыми методиками, такими как игровое обучение, проектная деятельность и использование цифровых

инструментов в образовании. Однако практика показывает, что в профессиональной деятельности значимыми являются и теоретические и практические составляющие структуры профессиональной деятельности педагога, а также их психологическое сопровождение. Особенно важно формирование готовности к профессиональной деятельности в такой сфере деятельности педагога как дошкольное образование, так как дошкольное детство является наиболее чувствительным периодом, когда происходит активное развитие эмоциональной сферы ребенка, в том числе и развитие эмоционального интеллекта.

В исследованиях А.В. Ньюбауэра подчеркивается, что для повышения эффективности воспитания социального общения необходимо выстраивать отношения взрослый - ребенок в образовательном процессе дошкольной организации. Для этого необходимо организовать педагогическое взаимодействие с детьми, направленное на полноценное эмоциональное развитие и позитивную социализацию дошкольников [4, с. 256]. Дети дошкольного возраста очень эмоциональны и интенсивно выражают эмоции, возникающие при общении со взрослыми и сверстниками. Способность правильно выражать свои мысли является залогом его эмоционального благополучия. Способность выражать эмоции и управлять ими имеет решающее значение для эмоционального благополучия, уверенности и безопасности ребенка [2, с. 36].

Цель воспитательной работы по развитию эмоционального интеллекта заключается в том, чтобы дать детям возможность определять свои чувства и переживания в конкретных терминах, определять эмоциональные состояния других людей и реагировать на них соответствующим образом, а также действовать надлежащим образом в ситуациях морального выбора. Эмоциональный интеллект развивается поэтапно. Сначала дети узнают об основных эмоциях (гнев, печаль, страх, радость, удивление и отвращение), учатся понимать свои и чужие эмоции, приобретают навыки саморегуляции, навыки взаимодействия со взрослыми и сверстниками в конкретных ситуациях и навыки общения в конфликтных ситуациях [9, с. 11]. Ориентация на мир людей помогает повысить осознанность своих эмоциональных проявлений и взаимоотношений с окружающими, преодолеть негативные эмоции и чувства и гармонизировать развитие личности в целом. Проведенное нами исследование показало недостаточную готовность студентов педагогического колледжа к развитию эмоционального интеллекта, в связи с чем был апробирован комплекс педагогических условий, включающий в том числе и практическую составляющую, в ходе которой будущие воспитатели имели

возможность развивать у детей опыт эмоционального реагирования, дифференциацию и интерпретацию эмоций при использовании когнитивных схем, где дети могли вариативно представить весь спектр эмоциональных состояний человека. Педагогическая практика является неотъемлемой частью учебного процесса и выступает важнейшим средством формирования у студентов профессиональных умений и навыков, активно вовлекает будущих педагогов дошкольного образования в профессиональную деятельность [147].

Педагогическая практика проводится с целью включения студента в учебно-воспитательный процесс, в ходе которого приобретаются педагогические умения и навыки, формируется рефлексия, совершенствуются навыки самостоятельных психолого-педагогических исследований. В контексте нашего исследования, где результатом профессиональной подготовки должна стать готовность к развитию эмоционального интеллекта дошкольников, основными задачами педагогической практики являлись:

- закрепить теоретические знания, научить студентов-практикантов применять их в ходе развития эмоциональной сферы дошкольников в воспитательно-образовательной работе;

- закрепить знания об особенностях индивидуального развития детей дошкольного возраста, влияния определенных видов деятельности на эмоциональную и интеллектуальную сферу дошкольника;

- закрепить знания о целях и задачах развития эмоциональной сферы дошкольника, значимости и педагогической целесообразности различных методов развития эмоциональной сферы дошкольника, особенностях организации и планирования различных форм работы по развитию эмоциональной сферы детей, технических средствах, применяемых в процессе работы;

- закрепить знания о специфике осуществления научного исследования, особенностях проектирования воспитательно-образовательного процесса, обеспечивающего эмоциональное развитие;

- формировать умения, полученные в процессе осуществления профессиональной деятельности, научно и доступно объяснять детям специфику проявления и управления как негативными, так и позитивными эмоциями;

- формировать умение работать с профессиональной литературой, отбирать дидактический материал, позволяющий обеспечить эмоциональное развитие ребенка, организовывать самостоятельную деятельность ребенка, позволяющую ему осмыслить свои чувства и эмоции, распознавать различные собственные эмоциональные состояния;

- формировать профессионально-педагогическую направленность студентов, которая предполагает воспитание устойчивого интереса к профессии и любви к детям, развитие потребности в углублении и совершенствовании навыков и умений, позволяющих эффективно развивать эмоциональную сферу дошкольников;

- развивать умение организовывать экспрессивно-эмоциональное общение с дошкольниками, владение детской аудиторией, умение увлеченно и образно доносить эмоции и чувства, целенаправленно формировать у детей чувство коллективизма, радости общения, сопереживания, удовольствия от общения;

- развивать умение организовывать различные формы деятельности детей, составлять план занятий, игр, развлечений, направленных на развитие эмоциональной сферы дошкольников;

- развивать умение проектировать структуру собственных педагогических действий и действий дошкольников, связанных с усвоением знаний, умений и навыков; создавать проблемные ситуации и разрабатывать вопросы для вовлечения детей в деятельность с целью развития их эмоциональной сферы;

- развивать профессионально значимые качества личности, необходимые для развития эмоциональной сферы дошкольников (потребность в педагогической деятельности, педагогическая зоркость и наблюдательность,

- педагогический такт, педагогическое воображение, общительность, требовательность, настойчивость, целеустремленность, организаторские способности, уравновешенность, выдержка, профессиональная работоспособность и др.);

- формировать профессионально-педагогические умения, соответствующие квалификационным требованиям к воспитателю дошкольного учреждения.

- осуществлять мониторинг собственных мотивов профессиональной деятельности;

- закреплять знания об особенностях развития мотивационной сферы дошкольника, мотивах активного участия дошкольника в различных видах деятельности, особенностях поведения, проявлениях его эмоций;

- формировать умения распознавать мотивы участия ребенка в предлагаемых воспитателем видах деятельности, широко использовать моральные и материальные стимулы, соответствующие возрасту дошкольника, организовывать деятельность дошкольников, используя относительно устойчивые мотивы ребенка, применять выработанную и

апробированную на практике систему поощрений и наказаний дошкольников;

– закреплять знания об особенностях развития чувств ребенка и их значение в психоэмоциональном развитии, эмоционально-волевой сферы дошкольника;

– закрепить знания и формировать умения применять на практике психологические средства, методы и приемы, соответствующие возрасту дошкольника, позволяющие организовывать различные формы деятельности дошкольника, способствующие развитию его эмоций и чувств.

– формировать умения различать и понимать свои собственные эмоции и чувства (эмоциональная осведомленность);

– формировать умения управлять своими эмоциями (эмоциональная отходчивость, эмоциональная неригидность);

– развивать качества личности, которые будут примером для подражания дошкольников (эмпатия, эмоциональная отзывчивость на переживания ребенка, чуткость, заботливость, верности своим обещаниям, доброта, способность к сочувствию и сопереживанию, человечность, терпеливость, порядочность, честность, ответственность, справедливость, обязательность, объективность, уважение к людям, высокая нравственность, эмоциональная уравновешенность, потребность к общению, интерес к жизни воспитанников, доброжелательность, самокритичность, дружелюбие, сдержанность, достоинство, патриотизм, принципиальность, отзывчивость, эмоциональная культура, трудолюбие, работоспособность, дисциплинированность, ответственность и т. п.).

Таким образом, необходимость фундаментализации образования, усиления интегративных связей дисциплин психолого-педагогического цикла, повышения уровня профессиональной подготовки, привела к ряду изменений в государственный образовательный стандарт среднего профессионального образования по специальности «Дошкольное образование: к усилению внимания вопросов содержания и объемов самостоятельной работы студентов; к перестройке курса психологии; к усилению профессионально-практической подготовки по педагогике; к стремлению обеспечения интегрированных курсов (например: «Основы педагогического мастерства», «Психолого-педагогический практикум»), предусматривающие применение в своей практической части комплекса знаний по психологии, педагогике и частным методикам; дополнительным заданиям на период педагогической практики; к реализации принципа концентризма таким образом, чтобы студенты вынуждены были неоднократно возвращаться к ранее изученному содержанию.

## Список литературы

1. Андреева И.Н. Понятие и структура эмоционального интеллекта / И.Н. Андреева // Социально-психологические проблемы ментальности. – Смоленск: СГПУ, 2004. – С. 22–26. – EDN XMSCBV
2. Божович Л.И. О некоторых проблемах и методах изучения личности дошкольника / Л.И. Божович // Вопросы психологии личности дошкольника. – 1968. – №3. – С. 36–43.
3. Газман О.С. Педагогика свободы: путь в гуманистическую цивилизацию XXI века. Забота, поддержка, консультирование / О.С. Газман // Новые ценности образования / под ред. Н.Б. Крыловой. – Вып. 6. – М.: Инноватор, 2009. – С. 11–38.
4. Ежкова Н.С. Дошкольное образование и мир детских эмоций: теоретико-методические основы взаимодействия: монография / Н.С. Ежкова. – Тула: ТГПУ им. Л.Н. Толстого, 2014. – 159 с. EDN SZCVPD
5. Ежкова Н.С. Педагогическая поддержка эмоционального развития детей дошкольного возраста: монография / Н.С. Ежкова. – Тула: Тул. гос. пед. ун-та им. Л.Н. Толстого, 2015. – 134 с. EDN UHJHQF
6. Зеньковский В.В. Психология детства / В.В. Зеньковский. – М.: Академия, 1996. – 346 с.
7. Лисина М.И. Общение, личность и психика ребенка / М.И. Лисина. СПб.: Питер, 2010. 410 с.
8. Лэнгле А. Введение в экзистенциально-аналитическую теорию эмоций: прикосновение к ценности // Вопросы психологии. – 2004. – №4. С. 3–21.
9. Федеральный государственный образовательный стандарт дошкольного образования: утв. 17 окт. 2013 г. Мин-во образования и науки РФ.

## ПОНИМАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТАНОВЛЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

*Э.Ж.Нурымбетова*

*доктор философии по психологическим наукам(PhD)  
Нукусский государственный педагогический институт*

***Аннотация:** В представленной статье раскрыто психологическое содержание понятия «профессиональное становление», дан анализ теоретического обзора литературы по заявленной теме.*

***Ключевые слова:** профессия, профессиональное становление, труд, навык, развитие, формирование.*

Сегодня в современном мире особое внимание обращено проблемам, нацеленные на развитие и реализации потенциала молодежи, создание условий и возможностей для успешной самореализации



личности. Одним из этих приоритетных направлений на рынке труда является вовлечение молодёжи в профессиональную деятельность. Постепенно на рынок труда выходят все более компетентные кадры. В докладе ООН, приуроченному Всемирному дню «навыков молодёжи» было отмечено, что «При наличии надлежащих навыков молодые люди представляют собой как раз ту силу, в которой мы нуждаемся для достижения прогресса и построения более инклюзивных и жизнеспособных обществ»<sup>1</sup>. Эта проблема неразрывна связана с последовательными изменениями и качеством подготовки кадров, происходящие в каждой сфере.

Идеи о важности и значимости труда в жизни человека, любви к своему делу и трудолюбию, как показателей преданности обществу получили свое философское обоснование еще в работах ученых - энциклопедистов средневекового Ближнего и Среднего Востока. Ибн Сина утверждал, что «человек выше всего должен ставить: любовь к труду, нравственные качества и честность». По мнению, Абу Райхон Беруни выбор профессии должен осуществляться по способностям человека, поскольку интерес к своей профессии ведет к профессиональному становлению, «важная задача и долг человека - это труд». О том, что эффективность своего труда, достигается только при действии самого человека, писал Алишер Навои.

Основные положения, сформулированные мыслителями Востока остаются актуальными и сегодня, как с научной, так и с практической точек зрения.

Исследуемая тема рассматривалась в психологии дальнего зарубежья как «психология карьеры» в трудах Э.Роу, Д.Сьюпера, Дж. Холланда и др.

Оригинальным подходом являются разработки концепции Шадрикова В.Д.<sup>16</sup> («концепция системогенеза профессиональной деятельности») и концепция опирающаяся на личностный подход Ю.П.Поваренкова<sup>17</sup>.

В психологии, общепринятым является положение о том, что деятельность играет важную роль в развитии личности. Становление профессионала определяется ролью и значимостью труда в жизни личности. Именно, труд создаёт условия для самореализации и самовыражения, для материального обеспечения и существования

человека, также для формирования духовных ценностей и смысла жизни.

Потому в нашем исследовании, посвященном изучению динамики психологических особенностей профессионального становления, прежде всего, акцент делается на изучении собственно процесса профессионального становления личности. Мы придерживаемся динамического подхода развития личности в целом. Как отмечает, Л.И.Анциферова: «Адекватнее вести речь о действующем индивиде, о личности находящейся в состоянии деятельности... С этой точки зрения, деятельность может быть понята как динамическое многофазное развёртывание личности, как особый тип последовательности личностных преобразований, как закономерная смена её функциональных состояний» [1].

Как полагает автор «...личность существует в процессе выхода за пределы. Даже для того, чтобы сохранить устойчивость определенных своих параметров, особо важных для её существования именно как личности – жизненных целей, ценностей, принципов, морально-нравственных качеств,- она в условиях быстро и многообразно меняющейся социальной действительности менять свои психологические качества» [1].

Как отмечается в психологической литературе, в профессиональной деятельности возникают противоречия между личностными образованиями и деятельностью факторами, т.е. требованиями к личности, которые могут послужить неким стимулом развития личности, формирования тех профессионально-важных качеств, которые присущи определенному виду деятельности. В то же время вхождение личности в профессиональную деятельность, установка на реализацию ее целей и выполнение задач обуславливают стремление личности преломить и адаптировать содержание и способы обеспечения труда, к структуре личности.

Изучение проблемы профессионального становления в специальной литературе опирается на психологическое содержание понятия «профессия», так как феномены «профессия» и «профессиональное становление» взаимозависимы. В определении профессии с одной стороны рассматривается личностный аспект (самореализация в соответствии с собственными интересами «способ самовыражения, самосознания»). С другой стороны отражается общественный характер: историчность профессиональных функций и обязанностей, социальная востребованность, престиж, статус, культурный аспект[5,6,7].

Понятие становление, проанализированное как с позиции философии, так и с позиции психологии в основном определяется через

<sup>1</sup> The World Youth Report on Youth Civic Engagement. – NY: United Nations, 15 July 2015.

<sup>16</sup> Шадриков В.Д. Проблема системогенеза профессиональной деятельности. – М.: Наука, 1982.- 185с.

<sup>17</sup> Поваренков Ю.П. Психологические основы целостного подхода к процессу профессионализации личности // Психологические исследования проблемы формирования личности профессионала / Под ред. В.А. Бодрова. М.: 1991. С. 67-83.

категорию развитие и формирование. К его основным характеристикам, которые относят: непрерывность; спонтанность; изменчивость; переход вещей, явлений в качественно иное образование; необратимость при этом рассматривают как философская категория[3].

В психологическом анализе профессиональное становление, рассматривается через конструкт личности (овладение той или иной формой поведения), реализация потенциальных, врожденных свойств личности.

Уровень профессионального развития определяется совокупностью профессионально-значимых качеств личности, а также необходимым комплексом, связанными деловыми и нравственными качествами, которые порождаются социальными требованиями профессии и совершенствуются в ходе длительного процесса профессионального становления и оказывают на него существенное влияние. Воздействие этих профессионально-значимых качеств обеспечивает в конечном итоге поведение индивида в различных ситуациях в ходе профессиональной деятельности[2,6,7].

O'quv predmetlari bo'yicha yaratilgan Davlat ta'lim standartlari yo'nalishlarga muvofiq umumta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan har bir o'quv predmeti bo'yicha o'quvchilarda muayyan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar darajasining hosil bo'lishi zarurligini nazarda tutadi. O'quvchilarning psixologik xususiyatlari hamda individual imkoniyatlari ularning esa talab etiluvchi bilim, ko'nikma va malakalar darajalarini yetarlicha o'zlashtirishlariga imkon bermaydi. Mazkur muammoni hal etishda ilg'or g'oyalarga asoslanuvchi zamonaviy o'qitish texnologiyalari muhim o'rin tutadi.

Rossiyalik mashhur pedagog-olim B.S.Gershunskiy XXI asrga xos bo'lishi nazarda tutiluvchi ustuvor xususiyatlarni aniqlar ekan, pedagogik jarayon samaradorligini oshirish yo'llarini belgilashda quyidagilarga e'tiborni qaratish kerakligini ta'kidlaydi:

1) o'quv jarayonining barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilar faoliyatida ijodiy izlanish elementlarining ustunligi;

2) tarbiya, ta'lim va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini qat'iy bir xillashtirilishini inkor etgan holda ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini individuallashtirish va tabaqalashtirish;

3) ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarining yagona g'oyaga bo'ysundirilishiga barham bergan holda fikrlar xilma-xilligi, ijtimoiy borliqni tushunish, o'zaro ishonchni qaror toptirish, ma'naviy shakllanish va rivojlanish yo'llarini erkin tanlashga erishishni qaror toptirish;

4) texnokratik va insonparvar yo'nalishlarning nomutanosib tizimiga barham bergan holda tabiiy ravishda pedagoglar va ta'lim oluvchilarning ta'lim va o'quv-bilish faoliyatining o'zaro birligini ta'minlash.

Bildirilgan fikrlardan anglanadiki, zamonaviy sharoitda har qanday jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu shaxsda turli sohalarga oid bilimlarni mustaqil egallash ko'nikma va malakalarini hosil qilish orqali uni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishdan iborat. Ushbu yo'nalishda ta'limni rivojlantirishda quyidagi uch asosiy vazifani hal etish dolzarb ahamiyatga ega deya e'tirof etilgan:

1) ta'lim tizimini qayta qurish;

2) ta'lim-tarbiya jarayonida eng ustuvor tamoyillar sifatida – ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyat ko'rsatishlari va erkin fikrlashlariga erishish;

3) ta'lim jarayonida ilg'or axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Mustaqillik yillarida qisqa vaqt ichida ta'lim tizimini qayta qurish hamda ta'lim jarayonida ilg'or axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratildi. Ya'ni: har bir o'quvchining bilimlarni sust o'zlashtiruvchi sub'ekt bo'lishi inkor etilib, u mustaqil ta'lim

olish, o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda faol qo'llash, shuningdek, tashkil etayotgan faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishish chora-tadbirlarini belgilashda mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'lishiga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, o'quvchilarni hamkorlikda ishlash, ularda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish, ularning ma'lum bir muammo yuzasidan nafaqat o'zi yashayotgan mintaqa, shu bilan birga boshqa mamlakatlarning yoshlari bilan o'zaro fikr almashishlari, hal etilayotgan masala yuzasidan shaxsiy fikrlarni ilgari surish, ularni dalillar asosida asosli bayon etishlariga erishish, ana shu maqsadda axborot texnologiyalarida mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun sharoit yaratishi lozim.

Bu kabi masalalarni hal etishda umumta'lim muassasalarigina emas, balki respublika uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan ta'lim muassasalarining barchasi birdek faollik ko'rsatishlari talab etiladi. Ana shundagina ta'lim olishni takomillashtirish borasidagi ijtimoiy ehtiyojni qondirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu o'rinda yangi axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha, yangi axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalarni bir-biridan ajratish to'g'ri emas. Binobarin, ilg'or pedagogik texnologiyalardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish ta'lim mazmunini takomillashtirish, sifatini oshirish va samaradorligini ta'minlashga yordam beradi, yangi axborot texnologiyalari esa pedagogik texnologiyalar imkoniyatlarining oshirilishini ta'minlaydi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish natijasida o'quvchilarda ta'lim dasturlarini mustaqil ravishda loyihalashtira olish va ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Zero, mutaxassisning kasbiy salohiyati u tomonidan to'plangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashdangina iborat bo'lib, qolmay, balki mavjud bilimlaridan o'qitishning maqbul yo'l va samarali metodlarini tanlashda foydalana olishi muhim sanaladi.

Ta'lim faoliyati shaxs ijtimoiy faoliyatining asosiy turlaridan biri sifatida moddiy borliqni idrok qilish, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonlariga xos intellektual, hissiy va jismoniy kuch sarflanishi hisobiga yo'lga qo'yiladi. Muntazam tashkil etiluvchi mashg'ulotlar natijasida ongli faoliyat jarayonlari muvofiqlashtiriladi va o'quvchilarning muhim psixologik xususiyatlari, umumiy qobiliyatlari, mustaqilliklari, ijtimoiy faolliklari, mas'uliyatlari va boshqa muhim sifatleri rivojlantiriladi. O'quvchilarda yuzaga kelayotgan yangi ehtiyojlar ta'lim faoliyatining o'zgaruvchanligini ta'minlaydi, ehtiyojlarning qondirilishi esa individual ijodiy imkoniyatlarini ochib berishda muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat negizida modellashtirish metodining qo'llanilishi o'quvchilarning kasbiy yo'nalganligini faollashtiradi, ularni nazariy va amaliy

bilimlar bilan puxta qurollantirilishiga yordam beradi. Ushbu metod yordamida o'quvchilarning pedagogik nutqi takomillashtiriladi, pedagogik ta'sir ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi, mavjud vaziyatlarni chuqur tahlil qilish, kuzatish va to'g'ri, oqilona baholay olish malakasi oshadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Metinboeva N.K. Formirovanie professionalnoy kompetentnosti budushogo uchitelya na osnove ispolzovaniya kommunikativnykh igr (na materiale fakultetov inostrannykh yazykov): avtoref. dis....kand. ped. nauk: 13.00.01, 2019. – 24 s.
2. Okulov, S. M. Kognitivnaya informatika: monografiya/ S. M. Okulov. - Kirov: Izd-vo VyatGGU, 2003. - 224 s.
3. Orlova S.V. Perspektivnoe planirovanie razvitiya shkolы // Jurnal direktor shkolы. – SPb., 2009. – S. 34.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000.
5. Piaje, J. Teoriya, eksperimenty, diskussii / J. Piaje. - M.: Direktmedia Publishing, 2008. - 123 s.
6. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. –T.: RTM, 2000.
7. Sayfulina N.A. Formirovanie prognosticheskoy kompetentnosti studentov pedagogicheskoy magistratury: avtoref. diss. kand. ped. nauk: 13.00.01, 2021. – 23.
8. Gershunskiy B. S. Prognosticheskie metody v pedagogike. M., Prosvetnenie. 2001
9. Razumovskiy V.G. «Innovatsii v prepodavanii fiziki v shkolax za rubejom». Novosibirsk: RID NGU. 2005

### **BO'LAJAK TARBİYACHILARDA KASBIY KO'NIKMALARNING PSIXOLOGIK MOXIYATI**

*Turopova Ma'mura Safar qizi*  
*Qarshi Davlat universiteti tayanch doktoranti*

Kreativlik tarbiyachilarda o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. U tarbiyachining yangiliklarga bo'lgan intilishi, ularni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida foydalana olish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni yengib o'tish, innovatsion yangiliklarni o'zining faoliyatida faol, ijodkorlik bilan qo'llay olish, o'zining mualliflik g'oyalariga ega bo'lish hamda turli pedagogik vaziyatlarda ijobiy yechimlarni evristik yo'l topa olish qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lgan kreativ kompetentlikga ega bo'lishni talab etadi. YA'ni barcha pedagoglar ham o'zining pedagogik faoliyatida ma'lum kreativlik kompetentlik ko'rsatkichlariga egadir. Bu ularning real kreativlik

kompetentligi hisoblanadi. Lekin uni ideal darajasiga ko'tarish ishlari ma'lum sa'i harakatlarni, shart-sharoitlarni talab etadi. Kreativ potensialni ko'tarish ideal kreativ kompetentlikga erishishning ilk qadami hisoblanadi. Olimlarning fikricha, kreativlik potensial o'zgarib turatug'in jarayon hisoblanadi.

Bo'lajak tarbiyachilarning ham kreativlik potensialini rivojlantirib borish davrning ijtimoiy talabi bo'lib boraveradi. Chunki faoliyatni samarali tashkil etish jamiyat taraqqiyoti bilan xamnafas tarzda pedagoglardan o'z ustida ishlashini, o'zini kreativ boyitib borishini, ilm-fanning yutuqlaridan boxabar bo'lib, ularni o'z faoliyatiga singdirib borishini talab etadi.

Tarbiyachining o'z pedagogik faoliyatini yuksaltirishga doir kreativ potensialini rivojlantirish: Birinchidan tarbiyachining shaxsiy ehtiyoji, maqsadi, niyatlari, irodaviy sifatleri hamda «Men» konsepsiyasi bilan, ya'ni pedagog shaxsining bevosita o'ziga bog'liqdir.

Bunda tarbiyachi ongli ravishda: - o'zining kasbiy bilimini doimo oshirib borishi; - o'zining pedagogik tajribalarini doimo boyitib borishi; - o'z sohasidagi so'nggi innovatsion yangiliklarni bilishi va ularni o'zining faoliyatida o'rinni va unumli qo'llay olishi; - ma'lumotlarni ijodiy qayta ishlash malakalariga ega bo'lish; - pedagogik faoliyat jarayonida bolalarning yosh, individual va psixologik o'ziga xos jihatlari mos tarzda ish tutishi, - novatorlik xususiyatlarga ega bo'lishi muhim.

Ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarimiz jarayonida bir qator psixolog, pedagog, faylasuf va sotsiolog olimlarimizning mazkur sohaga oid ilmiy izlanishlari to'g'risidagi fikrlarini mushohada qildik va bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmunini: ta'lim-tarbiya jarayoniga didaktik yondashadigan bo'lsak, bu jarayonning asosiy komponentlari (ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'qitish metodi, o'qitish vositasi, ta'lim natijasi) asosida quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

- ta'lim maqsadi bilan bog'liq innovatsion ta'lim integratsiyasi;
- ta'lim mazmuni bilan bog'liq pedagogik innovatsiyalar: yangi dastur, dasturni takomillashtiruvchi, o'quv materialini to'ldiruvchi;
- ta'lim mazmunini loyihalashga ko'ra
  - meyoriy hujjatlar o'zgarishi asosida rejali, oldindan o'ylangan, ichki va tashqi;
  - o'qitish metodi bilan bog'liq pedagogik innovatsion muhit;
  - oliy ta'lim tizimida o'quv mashg'uloti shakli va turida: darajasiga ko'ra takomillashtirish, ko'rinishini o'zgartirish, ma'lum uslubiyot elementlarini yangicha talqinda ishlab chiqish;
  - o'qitish vositasi bilan bog'liq ta'lim mazmuni;
  - ta'lim natijasi bilan bog'liq ta'lim mazmuni;

Fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish didaktik imkoniyatlarini takomillashtirishda ta'lim mazmuniga mos, shuningdek ta'lim jarayonining boshlang'ich bosqichida talab etilgan zamonaviy kreativ kompetensiyalarga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish shart - sharoitlarini to'g'ri tashkil etish muhim deb hisoblaymiz.

Kompetentlikning bu turi tarbiyachining yangilik yaratish, ijodkorlik va tashkil etish singari ko'nikmalarga ega bo'lishi bilan bog'liq. Kreativlik faqatgina yangi g'oyalarni yaratish uchunгина emas, balki shaxsning turmush tarzi va ma'naviyatini yuksaltirish uchun ham katta ahamiyatga ega. Kreativlik - (lot. «creare»; ingl. creativity- «yaratish», «bunyod qilish») – bu ijodiy qobiliyatlik darajasi, shaxsning barqaror sifati hisoblanadigan ijod qilishga bo'lgan qobiliyati bo'lib, u kreativ tafakkur bilan bog'liq.

Bu esa, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida har bir pedagog belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'lini tanlaydi degan ilmiy xulosaga kelishimizga sabab bo'ladi. Masalan an'anaviy metodlar (Uning asosida falsafiy va pedagogik tizimlar tashkil etadi), ko'rgazmali metodlar, aks ettiruvchi metodlar, kitob bilan ishlash metodi, video metodlar.

Bu borada maqsadga ko'ra metodlarning turlarini tahlil etar ekanmiz ularni ikki toifaga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- didaktik maqsadi bo'yicha metodlarning turlari;
- qabul qilish
- bilish faoliyati xarakteri bo'yicha metodlarning klassifikatsiyasi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlanishining didaktik imkoniyatlarini takomillashtirishda mazkur metodlar o'ziga xos vazifalarni bajaradi ya'ni: motivlashtiruvchi, tashkillashtiruvchi, rivojlantiruvchi, bilim beruvchi (ta'lim beruvchi), tarbiyaviy. Demak, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda ta'lim metodlarini ham maqsadga muvofiq tanlash va o'z o'rnida qo'llash talab etiladi. Shuningdek ta'lim (o'qitish) vositalari (didaktik vositalar): tarbiyachilar va talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish uchun qo'llaniladigan moddiy va ideal obyektlar ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni hal etishga yordam beradi; ikkinchidan tarbiyachi va talaba tomonidan ta'lim jarayonida qo'llanadigan turli obyektlari; qo'yidagilarni ta'minlaydigan jihozlar, yordamchi ta'lim vositalari va o'quv-kreativ materiallar: - o'quv materialini namoyish etish va vizualizatsiyalash, uni tushunish va eslab qolish; - o'quv materialini mustaqil tarzda mustahkamlash va qo'lash uchun imkoniyat yaratadi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda rivojlantirishda o'quv - metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik

ishlanmalar, o'quv dasturlari, o'quv rejasi, ma'ruza matnidan oqilona foydalanish muhim pedagogik omil bo'lib hisoblanadi. Alohida ta'kidlash o'rinliki, yana bir muhim omil bo'lajak tarbiyachilarning kreativ tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablari DTS va namunaviy fan va ishchi dasturlari talablariga mos kelish darajasi. Bu borada tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarining tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, oliy ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim yo'nalishida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlanishiga, ya'ni tarbiyachilar o'rtasida kompetensiyalar tizimini baholashda asosiy e'tiborni kreativlik, ijodiy tafakkurni shakllantirish bilan bog'liq kompetensiyalarga alohida e'tibor qaratilganligi ahamiyatlidir. Bu esa, o'z navbatida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlanish mazmuni, bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablarida mazkur jihatlarni alohida e'tiborga olish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlanishiga qo'yilayotgan talablar va ta'lim konyunkturasi tez o'zgarayotgan sharoitda maktabgacha ta'lim sohasidagi bakalavriat yunalishlari bo'yicha ta'lim dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlanishi zarur. M.T.Mirsoliyevaning ta'kidlashicha, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi innovatsion faoliyat muhitida ta'limning integratsiyasida ulardan faqat o'z ijtimoiy-madaniy vazifasini bajarishnigina talab qilmay, balki ularni ilmiy-ta'lim xalqaro markazlariga aylantirishni taqozo etadi.

Oliy ta'limda ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini integratsiya qilishning maqsadlari ilmiy tadqiqotlarni kadrlar bilan ta'minlash, oliy ta'lim o'quv dasturlari bo'yicha ta'lim oluvchilarni tayyorlash sifatini oshirish, tahsil oluvchilarni ilmiy xodimlar rahbarligida ilmiy tadqiqotlar olib borishga jalb qilish, ta'lim faoliyatida fan va texnika sohasidagi yangiliklar va yutuqlardan foydalanishdan iboratdir. Olimaning fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, ta'limni modernizatsiyalash sharoitida innovatsiya faoliyat muhitini amalga oshirish mexanizmi va tashkil etishning istiqbolli texnologiyasi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, innovatsion jarayonning muvaffaqiyatli borishi bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlanishiga bevosita bog'liq. Bilamizki, ta'lim tizimidagi har qanday yangilik, g'oya, fikr, innovatsiya bo'la olmaydi. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lamasi asos bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlanish texnologiyasi bevosita innovatsiya asosida amalga oshiriladi, ya'ni metodlar yangilanadi, tizimli va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yo'nalishlari ochiladi, zamonaviy

texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat samaralariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Мирзиёев Ш.М. Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида қарор. 9.09.2017 й., ПҚ-3261, «Халқ сўзи» газетаси. 2017 й., 11 сентябрь. 181 (6875)-сон.
2. Мирзиёев Ш.М. Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида фармон. 30.09. 2017 й., ПФ-5198.
3. Абатуров И.А. Исследование профессиональной мотивации у студентов педагогических специальностей. Вестник ТГПУ(TSPU Bulletin). 2014. №3
4. Давлетшин М.Г ва бошқ. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма-Т.: 2004.-129 б.
5. Ҳайдаров Ф., Абдукаримов Х., Алимова Ф., Ботиров Б. Талабаларнинг ўқув мотивларини шакллантириш.Т.:2009-131 б.
6. Тешабаева З.С. Олий таълим жараёнида бўлажак тарбиячиларни инновацион фаолиятга тайёрлаш. Журнал. Замоновий таълим.№1-сон. 2020 й. Б. 30-35 .
7. Teshabaeva Z. THE use of modern information technologies in the process of training future preschool educators. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 09, 2020.y. P. 440-446. ISSN: 1475-7192

### **ICHKI ISHLAR XODIMLARI KASBIY FAOLIYATINING PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIGI**

*Mustafayev Bexro'z Baxodir o'g'li.  
Qashqadaryo viloyat Yakkabog' tuman  
IIB boshlig'ining birinchi o'rinbosari mayor*

Shaxs moslashuvi potentsiali konsepsiyasining nazariy asosi inson organizmi va psixikasi ishlashi barcha darajalariga tegishli jismoniy va ijtimoiy muhit sharoitlariga faol doimiy moslashuv jarayonidek moslashuv haqidagi tasavvurdir. Moslashuv samaradorligi asab tizimi xususiyatlari genetik shartlanganligi, tarbiya sharoitlaridan tortib, odam o'ziga va ijtimoiy aloqalarni qanchalik adekvat qabul qilishiga bog'liq, mavjud imkoniyatlar bilan o'zining ehtiyojlarini o'lchab ko'radi va o'z xulq atvori motivlarini anglaydi. O'zi haqidagi xato yoki yetarli rivojlanmagan tasavvur moslashuvning buzilishiga olib keladi, bu esa yuqori ziddiyat, o'zining ijtimoiy rolini tushunmaslik, ish qobiliyatining tushib ketishi, sog'ligi holatining yomonlashuvi bilan kuzatiladi. Moslashuvning buzilishining ko'pligi kasallik, kasbiy faoliyatning sifati tushib

ketishi, ijtimoiylikka zid xulq-atvorlar bo'lishiga olib keladi. Moslashuv jarayoni favqulodda rivojlanuvchi. Uning muvaffaqiyati ko'pincha bir qator obektiv va subektiv sharoitlar, funksional holat, ijtimoiy tajriba, hayotiy ustanovkalar va ko'p narsalarga bog'liq. Biroq nisbatan barqarorligi va ko'pincha faoliyatning eng xilma-xil sharoitlariga moslashuv muvaffaqiyatini belgilashi bilan ajralib turadigan bir qator shaxs xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bunday xarakteristikalar qatoriga shaxsning asab-psixik barqarorligi, o'z-o'zini baholashi, atrofdagilar uchun o'zining ahamiyatliligi, ziddiyatga borish darajasi, odamlar bilan aloqaga kirishish tajribasi mavjudligi. Jamiyatning axloqiy meyorlariga bo'lgan xabardorligi, harbiy jamoa guruhiy meyorlarini qabul qilishi kiradi. Asab-psixik barqarorlik ahamiyatli faoliyat sharoitlarini kardinal almashinuvi davrlari uchun xarakterli va bevosita moslashuv jarayoni bilan bog'liq psixik va jismoniy zo'riqishlar bo'lganda asab tizimi buzilishiga moyillikni baholaydi. Asab-psixik barqarorlik – o'ta keng tushuncha [2, 137-b]. U latent (aniq ifodalalmagan, yashirin), psixik faoliyatning yengil o'zgarishi (patologiyasi), simptomatik (simptomlar o'zgarishi) bo'yicha bir xil bo'lmagani kabi dinamikasi(rivojlanishi) bo'yicha ham bir xil bo'lmagan, o'zgarishdan avvalgi holatni mavjudligini aks ettiradi. Asab-psixik barqaror bo'lmagan shaxslar qobiliyati past, ijtimoiy xulq-atvor meyorlarini buzilishi va asab-psixik buzilishlarga moyil bo'ladi. Ular uchun emotsionallik, emotiv va kognitiv(aql-idrok) beqarorlik, impulsivlik, yuqori bezovtalik xarakterli. Odatda, bu guruhga kiruvchi harbiy xizmatchilarga shaxs aksentuatsiyasi belgilari, psixopatiya va turli asab-psixik buzilishlar chegaralanganligi xarakterlidir. Moslashuv muvaffaqiyatini ta'minlashda shaxsning o'z-o'zini baholashi muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, o'z-o'zini baholash odamning o'z-o'zini boshqarish tizimini yadrosi hisoblanadi va ko'pincha asosiy psixik jarayonlarning sifatlari ishlashi unga bog'liq.

O'z-o'zini past baholash salbiy psixik holat hisoblanadi. O'zini o'zi past baholovchi shaxslar bezovta, beqaror, behafsala, ko'p charchaydilar, ko'pincha hayotga bo'lgan qiziqishi yo'q, kelajak hayotini ko'rmaydi va ko'pincha suitsidal harakatlar sodir qiladi. Aksincha, yuqori, adekvat(bir xil) o'z-o'zini baholash psixik sog'lomlikdan darak beradi. Harbiy-kasbiy faoliyatga moslashuv jarayonini belgilovchi xarakteristika shaxsning muloqotmandlik (kommunikativ) sifatidir.

Odam qanchalik odamlar ichida ko'p bo'lsa, uning faoliyatini muvaffaqiyati munosabatlar o'rnatilgan holda odamlarga tez qo'shiladi. Muloqotmandlik imkoniyatlari (yoki atrofdagilar bilan o'zaro bir-birini tushuna olish) har kimda har xil.

Ular tajriba va muloqotdagi ehtiyojlar, shuningdek psixologik xususiyatlar bilan belgilanadi. Odamlarning o'zaro hamkorligida o'zaro aloqalar o'rnatish prinsipi katta ahamiyatga ega. Bu prinsip odamlarning

## BEMOR PSIXOLOGIYASI KELIB CHIQISHI VA ILK QARASHLARI

*Rustam Uskanovich Otamuratov*

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali,*

*Oila psixologiyasi kafedrası o'qituvchisi*

*Tugalova Zebo Xudoyberdi qizi*

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi*

*Аnnotatsiya: Ushbu maqolada shifokor va bemor o'rtasidagi muloqot madaniyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek shifokor bemor bilan muloqot jarayonida qanday psixologik yondashish kerakligi maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi.*

*Abstract: This article talks about the culture of communication between a doctor and a patient. Also, the main content of the article is how to approach psychologically during communication between the doctor and the patient.*

*Аннотация: В данной статье говорится о культуре общения врача и пациента. Также основное содержание статьи - как психологически подойти во время общения врача и пациента.*

*Tayanch iboralar: Kasallik, norma, sezgirlik, intellektual, so'zlash odobi, deontologiya, parvarish, etika, estetika, gozpitalizm.*

**Kirish.** Hozirgi kundagi shiddatli zamonamizda har bir sohada tubdan o'zgarishlar bo'lmoqda. Qaysi sohaga qaramaylik shu sohada zamonaviy innovatsion yangiliklar kirib kelmoqda. Xususan ta'lim tizimidagi sohalarda psixologik xizmat ko'rsatish yo'nalishlarining tobora kuchayib borayotganligi ham gapimizning asosi hisoblanadi. Vatanimizda yoshlarga berilayotgan ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar orasida psixologik xizmatning ham borligi bizni quvontiradi albatta. XXI asr inson omiliga e'tiborning kuchayishi bilan tavsiflanadi [4; 102]. Bemor muammolarni hal qilish uchun asosiy muloqot qobiliyatlari va ko'nikmalariga ega bo'lish muhimdir. Shifokor va uning bemori o'rtasidagi munosabatlar ishonch, muloqot va o'zaro hurmatga asoslanadi [1; 6]. Ular, birinchi navbatda, bemor bilan suhbatlashish, uning ichki dunyosiga kirib borish, bemorning individual psixologik xususiyatlarini yetarli darajada tushunish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Har bir tibbiyot xodimi har daqiqada duch keladigan ushbu va boshqa ko'plab qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyati shifokor va bemor o'rtasidagi muloqot psixologiyasining asosiy xususiyatidir [4; 17]. Shaxsning har doim individual xususiyatlarini, intellektual qayta ishlash darajasini va asab barqarorliging tipologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. [2; 19]. Ular o'rtasidagi muloqotlarning maqsadi, muloqot ishtirokchilaridan biri tomonidan

boshqalarga bo'lgan munosabatini aks ettiradi: bittasi o'zini boshqalarga qarshi qo'yadi, boshqalari aksincha, nisbatan yaxshi munosabatda; ba'zilari tajovuzkor, boshqalari dilkash. Tajovuzkor, o'zining adovatligi va egaistligi bilan ajralib turadigan odamlar, odatda yuqori ziddiyatligi bilan xarakterlanadi, bu esa qandaydir darajada moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi, mehnatsevar odam esa, odatda, bir-birini o'zaro tez tushunadi, yangi vaziyatga tez ko'nikadi va shu bilan birga tez moslashadi [3, 178-b].

Aniq bir harbiy xizmatchining muvaffaqiyatli moslashuvi uchun, uni atrofdagilarning munosabati ham ahamiyatlidir. Atrofdagilarning ijobiy munosabati moslashuvga yordam beradi, salbiy munosabati esa, aksincha, moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi.

Atrofdagilar tomonidan o'zini ahamiyatligini his qilishning qo'llab-quvvatlanishi faolligni oshiradi va ba'zi bir salbiy xarakteristikalarini yopib ketadi (masalan, emotsional-irodaviy o'zgaruvchanlik, o'z-o'zini baholashning oshishiga ta'sir qiladi va shunga o'xshash), bu esa yangi sharoitga muvaffaqiyatli moslashish imkoniyatini beradi, bunday ma'lumotning yo'qligi yoki o'zini kerak emasdek his qilish moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi, salbiy xarakteristikalar, shuningdek, asab-psixik beqarorlik namoyon bo'lishini kuchaytiradi. Shaxs moslashuvi potentsiali konsepsiyasi doirasida ijtimoiylashuv masalasining ikki jihati ko'rib chiqiladi: ma'naviy-axloqiy meyorlarni adekvat idrok qilish va bevosita ijtimoiy muhit talablariga bo'lgan munosabat.

Mehnat, harbiy, ijodiy va boshqa jamoalarning ko'pchiligi ijobiy tashkil etilganligini izohlab o'tish mumkin, ya'ni ular umuminsoniy axloq prinsiplari, umumiy qabul qilingan xulq-atvor asosida tashkil topadilar.

Shuning uchun harbiy-kasbiy faoliyat sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashish uchun umumiy qabul qilingan ijtimoiy meyorlarga bo'lgan munosabatning xarakteri o'ta muhim. Shunday qilib, shaxsning moslashuv qobiliyatlari kasbiy faoliyat muvaffaqiyati uchun katta ahamiyatga ega. Aynan ular har xil odamlarning turli funksional holatlarga ega bo'lishi omilini shart qilib qo'yadi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. G'oziev Э.Г'. Умумий психология.-Т.: "Университет", 2002.
2. Асмолов А.Г. Психология личности. –М.: МГУ, 1990.
3. Военная психология. Учебник. / А.Г. Маклаков. - Санкт-Петербург: Питер, 2005. - 464 б.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. –М.: "Политиздат", 1975.



boshqasiga nisbatan ko'rsatiladigan tibbiy yordamdir. Shifokor bilan yaxshi muloqotda bo'lgan holda, qo'llaniladigan davolash yaxshi ta'sirga ega, yon ta'siri va asoratlari ancha kam [3; 5]. Bemor bilan muomalaga kirishishning o'ziga yarasha shartlari bor, albatta. Shifokor bemor xastaligining taxminiy diagnozini, shaxsini, kasbini, ijtimoiy sharoitini, saviyasini, dunyoqarashini, bilim darajasini, tashqi psixik belgilarini o'rganganidan so'ng, o'zini ham bu muloqotga ruhan tayyorlaganidan keyingina u bilan muloqot qilish uchun ma'naviy haqqi paydo bo'ladi. Bemor va shifokor muloqoti (shartli ravishda) ikki doirada kechadi:

- Birinchi, tashqi doira zanjirida yuqorida aytilgandek, shifokorning bemor bilan muloqotga tayyorlanish bosqichidagi amallar kiradi.

- Ikkinchi, ichki doirani esa bemor shaxsini, uning kasallik sabablarini begilovchi dalillar zanjiri tashkil etadi Birinchi doira sohibining mahorat darajasi qay darajada yuksakligi uning ikkinchi doiraga «ko'prik» sola olish san'ati bilan belgilanadi. Aynan shu «ko'prik» solinganidan so'ng bemor shifokorga ishonch va umid ko'zi bilan qaray boshlaydi [5; 522].

Shifokor, bemor bilan muloqotga kirishar ekan, uning ko'z o'ngida ma'lum ma'noda kamchiliklardan holi, yuksak axloqli inson sifatida gavdalanishi zarur [6, 7; 5, 6]. O'z axloq normalarini to'g'ri belgilay olmagan shifokor bemor ko'z o'ngida obro'sizlanadi. Obro'sini yo'qotgan shifokorning esa, tabiiyki, o'z bemori bilan talab qilingan saviyada muloqot qilishga ma'naviy haqqi bo'lmaydi. Shifokor ma'naviyati deganda, ma'nili fikrlashi, so'zlashi, shuningdek shaxsiyatidagi, tarbiya va odobidagi hamda amaliyotidagi barcha ijobiy xatti-harakatlar majmuasi tushuniladi. Allomalar aytadilar-ku, yer yuzida uzoq muddat qamal qo'yishga eng muhtoj narsa tildir, deb. Shifokor aynan shu qoidadan holi sub'ekt bo'lmog'i kerak. Shuningdek, bemor bilan muloqotda uning diqqati va ixtiyorini shifokor suiste'mol qilmasligi, ya'ni so'zda me'yorni saqlay bilishi muhim. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt, deydilar. Oilada esa ayol bu ishni yaxshi amalga oshirishi oilaning stabil muhitini saqlab turishga yordamlashadi. [8; 73]

Bemorning his-tuyg'ularini, uning kasalligi haqidagi kechinmalarini va g'oyalarini tasvirlab bergan A. Goldsheider (1926). U ularni kasallikning avtoplastik rasmi deb atadi. Goldscheider kasallik rasmining ikki darajasini aniqladi: - "sezgir", sezgilarga asoslangan, - "intellektual" - bemorning jismoniy holati haqidagi fikrlari natijasi. Kognitiv kasallik haqidagi bilimlarni, uning xabardorligini, uning roli va bemorning hayotiy faoliyatiga ta'sirini tushunish, kutilayotgan prognozni o'z ichiga oladi; hissiy - kasallikni va u bilan bog'liq barcha vaziyatni his qilish va boshdan kechirish; xulq-atvor kasallik bilan bog'liq reaksiyalar, unga moslashish yoki moslashishga va kasallik bilan bog'liq hayotiy vaziyatlarda xatti-harakatlarning o'ziga xos strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi (bemorning rolini qabul qilish, kasallik bilan faol

kurashish, e'tibor bermaslik, pessimistik munosabat, va boshqalar). Boshqa mualliflar kasallikning ichki ko'rinishi ikki darajani o'z ichiga oladi.

1-daraja - sezgir. Bu kasallik sabab bo'lgan barcha his-tuyg'ularning yig'indisidir.

2-daraja - intellektual. Bu bemorning kasalligi va u bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalar haqidagi fikrlaridan iborat.

Shuning uchun KXTni to'g'ri baholash va bemorga malakali yordam ko'rsatish uchun ICDni aniqlaydigan asosiy omillarni bilish kerak. Ushbu omillarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) premorbid biologik va shaxsiy omillar;

2) kasallikning tabiati va uning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlari;

3) bemorning ijtimoiy holati va atrof-muhitning ta'siri;

4) tibbiy omillar (tashxis va davolash shartlari).

"Kasallikning ichki (yoki "avtoplastik") rasmi bemorning kasalligi bilan bog'liq bo'lgan tajribalarining butun doirasini qamrab oladi. Bunga kasallikning birinchi, erta namoyon bo'lishining ahamiyati, buzilishlarning asorati tufayli farovonlikdagi o'zgarishlarning xususiyatlari haqidagi g'oyalar kiradi; kasallikning balandligida davlat va uning mumkin bo'lgan oqibatlarini boshdan kechirish; kasallikning teskari rivojlanish bosqichida farovonlikning boshlanishi va uni tugatgandan keyin sog'lig'ining tiklanishi, kasallikning o'zi uchun mumkin bo'lgan oqibatlarini haqida g'oya oila, kelgusida samarali kasbiy faoliyat uchun, oila a'zolarining, ish joyidagi xodimlarning, tibbiyot xodimlarining kasallik davrida unga bo'lgan munosabati haqida fikr.

Maqolani xulosasi shundan iboratki: Shifokor bemor bilan ma'lum mantiqiy ketma-ketlikda savol-javob qilishi kerak. Bu suhbat (dialog)da fikrning tushunarli bo'lishi uchun marom, urg'u va takror to'g'ri belgilanishi, mazmun va ohangdorlikning uyg'unlashuvi, so'zlaraniq hamda to'g'ri talaffuz qilinishi muhimdir, bu yerda bemor o'ziga savol beradi: uning kasalligi uchun kim aybdor o'zi yoki boshqasi: kasallikning ichki ko'rinishini belgilovchi omil, sifatida premorbid shaxsning xususiyatlari, bu birinchi navbatda, bemorning yoshi, bemorning shaxsiy xususiyatlarining o'zaro ta'siri va uning tanasidagi somatik o'zgarishlar, bir tomondan, shaxsning somatik kasallikka reaksiyasi va kasallik bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy o'zgarishlar sifatida namoyon bo'lish mumkin. Shaxsning o'zi somatik kasallikning kechishiga ta'siri sifatida, shaxsning kasallikka bo'lgan munosabatiga bog'liq.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Otamuratov, R., & Muhammadiyev, A. . (2024). YATROGENIYA KELIB CHIQISH TARIXI VA ILK QARASHLAR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 3-9.

2. Otamuratov, R., & Toshbekov, H. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT SOHASIDAGI MAUMMOLAR VA YECHIMLAR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 16-22.

3. Психосоматические заболевания. Полный справочник. Под ред. Ю.Ю.Елисеева. Москва. «Эксмо», 2003.

4. Психические расстройства в практике терапевта. Москва «Медпресс – информ» 2005.

5. Отамуратов, Р., & Тургунбаева, Г. (2023). Insonning emotsional psixologik xususiyatlari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 520–527.

6. Нарметова, Ю. (2014). Депрессия-психосоматик касалликларнинг предиктори сифатида. Scienceweb academic papers collection.

7. Нарметова, Ю. (2016). Тиббиёт муассасаларида психологик диагностика ишларини ташкил этишга тизимли ёндашув. Scienceweb academic papers collection.

## BO‘LAJAK MUTAXASISLARNI KASBIY BILISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA‘LIMNING O‘RNI

*Nurmuxamedova D.X.*

*Oriental Universiteti Kengash kotibi*

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada muammoli ta‘lim bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlar va tajribalar, muammoli o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va talabalarning hamkorligi hamda muammoli vaziyatlarni yaratish masalalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** Muammo, metod, muammoli o‘qitish, muammoli vaziyat, talaba, ta‘lim, ma‘lumot, ko‘nikma, oliy ta‘lim.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье представлена информация об исследованиях и опыте проблемного обучения, сотрудничестве учителей и учащихся в процессе проблемного обучения, а также вопросах создания проблемных ситуаций.*

**Ключевые слова:** Проблема, метод, проблемное обучение, проблемная ситуация, студент, образование, информация, навыки, высшее образование.

### **ANNOTATION**

*This article provides information about research and experience in problem-based learning, collaboration between teachers and students in the process of problem-based learning, and issues of creating problem situations.*

**Key words:** Problem, method, problem-based learning, problem situation, student, education, information, skills, higher education.

Muammoli ta‘lim XX asrning 70-80 yillarida olib borilgan izlanishlar va tajribalarning ijobiy yakuni sifatida vujudga kelgan ta‘lim shaklidir. Muammoli ta‘lim bu-talabaga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo‘l bilan berish muammosini samarali xal qilishga qaratilgan o‘qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta‘lim darsda bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi harakati bo‘lib, u talaba shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Muammoli ta‘lim hozirgi kunda talabalarni haqiqiy muammolarni hal qilishda tanqidiy fikrlash va tahliliy ko‘nikmalarini mashq qilishlarini ta‘minlash uchun keng qo‘llaniladi. Muammoli ta‘lim haqida to‘plangan ma‘lumotlarga asoslanib, shuni ta‘kidlash lozimki, bu ta‘lim turini ilmiy-uslubiy jihatdan 3 ta bosqichga ajratish mumkin:

1. **Isbotlash** – bu muammoning ilgari to‘g‘ri deb tan olingan sabablar bilan bog‘liqliklarini topish asosida amalga oshiriladi.

2. **Tekshirish** – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo‘lishi to‘g‘riligini asoslash bilan amalga oshiriladi.

3. **Tushuntirish** – bu muammoning yechimi nima uchun to‘g‘riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari muammoli ta‘lim- talabalarni erkin fikrlashlariga, o‘zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta‘sir etishdir.

**Muammoli ta‘limning asosiy xususiyatlari beshqismdan iborat:**

1. *Muammoli ta‘lim;*

2. *Haqiqiy muammolar;*

3. *Faol o‘rganish;*

4. *O‘z-o‘zini boshqarish;*

5. *Fanlararo yondashuv.*

**Muammoli ta‘lim** - bu talabalardan hozirgi kunda ko‘plab universitetlar tomonidan qo‘llanilayotgan real muammolar ustida ishlashni talab qiladigan o‘rganish usuli. Talabalar hamkorlik qilish uchun kichik guruhlariga bo‘linadi muammolarni hal qilish o‘qituvchilar nazorati ostida.

**Haqiqiy muammolar**- Bu talabalarga real vaziyat yoki qiyinchiliklarni aks ettiruvchi muammolarni taqdim etadi, bu esa o‘rganish tajribasini yanada dolzarb va amaliy qiladi.

**Faol o‘rganish**- Passiv tinglash yoki yodlash o‘rniga, talabalar muammo bilan faol shug‘ullanadilar, bu esa tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi.

**O‘z-o‘zini boshqarish**- Bu talabalar o‘z ta‘lim jarayoni uchun mas‘uliyatni o‘z zimmlariga oladigan o‘z-o‘zini o‘rganishga yordam beradi. Ular tadqiqot o‘tkazadilar, ma‘lumot to‘playdilar va muammoni hal qilish uchun manbalarni qidiradilar.

**Hamkorlik-** Talabalar odatda kichik guruhlarda ishlaydi, ular birgalikda muhokama qilish va yechimlarni ishlab chiqishda hamkorlik, muloqot va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

**Fanlararo yondashuv-** Ko'pincha fanlararo fikrlashni rag'batlantiradi, chunki muammolar bir nechta mavzular yoki mutaxassislik sohalaridan bilim va ko'nikmalarni talab qilishi mumkin.

Muammoli o'qitish talabalar oldida muammoli vaziyatlarni yaratishda, talabalarning mustaqilligida va o'qituvchining umumiy rahbarligi ostida amalga oshiriladi.

Muammoli o'qitishning asosiy mohiyati hamda afzalligi shundaki, o'qituvchi ta'lim usullari (muammoli savollar qo'yish, gipotezalarni ilgari surish va ularni tasdiqlash yoki rad etish, talabalarga "yordam so'rab" murojaat etish va boshqalar) orqali ularni ijodiy fikrlashga hamda munozaraga chorlaydi. Muammoli metodlar – fandan muammoli vaziyatlar yaratishga, talabalarning maxsus fanlardan bilimlarini faollashtirishni talab etadi.

*Muammoli vaziyat* – muayyan qiyinchilik sabab yuzaga kelgan holat bo'lib, uni bartaraf etish yo'lini izlash kerak. Vazifa yengil hal etiladigan yoki aksincha hal etilishi mumkin bo'lmagan paytda muammoli vaziyat vujudga kelmaydi.

Muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni, eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining to'g'riligini tasdiqlaydi. Talabalar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo'llari to'g'risida o'ylaydilar hamda takliflar kiritadilar. Oldin olgan bilimlarini umumlashtirib, hodisalarning sabablarini aniqlagan holda, ularning kelib chiqishini tushuntiradi, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydilar. Bu metod ta'lim oluvchilarning bilim qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Muammoli vaziyatni o'rganish mavzuga oid materialni tahlil qilishda talaba shu vaziyatga o'zi kirishishi, uni tushunishi, baholay olishi kerak. Ushbu holatda u qanday muammo borligi va qo'yilayotgan muammoning mohiyati nimada ekanini aniqlashi lozim, muammoni hal etishdagi o'zining roli va bunda o'zini qanday tutishi kerakligini belgilashi kerak.

Muammoli vaziyatlar metodi tayyorlov, tanishuv, tahlil va yakuniy qaror qabul qilish bosqichlariga bo'linadi. Tayyorlov bosqichida o'qituvchi maqsadni belgilab, kerakli vaziyatni rejasini ishlab chiqadi, ya'ni:

a) beriladigan misol nazariy kursni mantiqan davom ettirishi va talabalarning kelgusidagi kasbiy ehtiyojlariga muvofiq bo'lishi kerak;

b) qo'yilayotgan muammo murakkabligi ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari darajasida bo'lishini hisobga olish kerak, ya'ni talaba bir

tomondan vazifani bajara olsin, ikkinchi tomondan uni bajarish ishtiyoqi hamda muvaffaqiyat hissi paydo bo'lsin;

v) talabalarga muammo ustida ishlash bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilishi kerak. Tanishuv bosqichida talabalar muammoni real, ya'ni jonli muhokama qilishga jalb etiladi. O'qituvchi ta'lim oluvchilarning ma'lum sohadagi bilim, ko'nikmalarini hisobga olgan holda bajariladigan, ishning umumiy izohini belgilaydi. Individual ravishda yoki butun guruhni qo'yilayotgan muammoning mazmuni bilan tanishtiradi. Tahlil va yakuniy qaror qabul qilish bosqichida muammoli vaziyatni tahlil etish guruhiy ish bo'lgani uchun muammo ochiq bahs-munozara shaklida hal etilgani ma'qul. Muhimi, talabalardagi faollikni rivojlantirish va muammoni hal etish bo'yicha boshqalar kiritgan taklifga xolis baho berish. Bu esa ishlab chiqarishda yuzaga keladigan vaziyatlarni tahlil etish ko'nikmasining takomillashuviga va mustaqil ravishda qaror qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi. Barcha tahlillardan so'ng yakuniy xulosa chiqaradilar.

Maqsadga yo'naltirilgan muammoli vaziyatlarni yaratishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Muammoli vaziyat ta'lim oluvchilarning ishlab chiqarish faoliyatiga asoslangan bo'lishi kerak.

2. Muammoli topshiriq talaba o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga mos bo'lishi lozim.

3. Muammoli vaziyat yangi mavzuni tushuntirishdan oldin qo'yilishi kerak. Agar mos muammoli vaziyatni hal etishga talabalar malakasi yetarli bo'lmasa, ularga ayrim amallarni bajarishdagi ish usullarini ko'rsatish, zarur bo'lgan bilimlarni eslatish lozim.

4. Bilim, ko'nikma va malakalar takomillashuv jarayoni bevosita o'qituvchi-pedagogning rahbarligi ostida muammoli vaziyatlarni hal etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Muammoli vaziyat yaratish bilan birga, xulosa chiqarishlariga yordam beradigan yo'llovchi savollar berib borishni ham nazarda tutish lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarini kasbiy rivojlantirishda avvalo:

- oliy ta'limining ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, yoshlarni mustaqillik g'oyalari sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash zarur;

- oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni keng jalb etish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

-ta'lim muassasalarini zimmasiga yuklangan vazifalarni yuqori professional darajada bajarishga qodir rahbar va pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni tizimli rag'batlantirish choralarini ko'rish;

- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uzluksiz tizimini tashkil etish va takomillashtirish, ularning kasbiy mahorati sifati va darajasini muntazam oshirib borishi uchun sharoitlar yaratish, xorijiy davlatlarda malaka oshirish va stajirovka o'tashni tashkil etish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning jahon ta'lim resurslari, ilmiy adabiyotlar elektron katalogi va ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, hamkorlikdagi qo'shma oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlarini amalga oshirish, sohada erishilgan yutuqlarni xalqaro miqyosda keng yoritish;

- ish beruvchilarning ehtiyojlari va takliflari, ilg'or xorijiy tajriba, iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda kasb-hunar kollejarida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv rejaları va dasturlar ishlab chiqilishini tashkil etish;

- o'quv va ilmiy laboratoriya bazalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, sport-sog'lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Muammoga qanday yechim izlash kerak:

Yangi islohotlar yaxshi asos bo'layotgan bir davrda sharoitlarga tezroq moslashish;

Professor-o'qituvchilar nima qilishlari mumkin:

1. Qiziqtirish;

2. To'g'ri yo'nalish berish;

3. Fikrni tarbiyalash va talabning mustaqil fikrlarini so'rab, qiziqib borish;

4. Motivatsiya uyg'otish;

5. Dars jarayonini tashkil etishda yangicha yondashuvlardan foydalanish;

6. Talabalarning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlash;

7. Mustaqil fikrlashni rag'batlantirish;

8. Individual maslahatlar va fikr-mulohazalar o'tkazish.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv faoliyatini samarali tashkil etishning hozirgi xolati ta'limda yoshlarni bilim, ko'nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste'dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash shuningdek, bilimlarni tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etgan holda, baholash ta'lim tizimida foydalanilayotgan metodlar qanchalik samarali ekanligini, talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlashga

yordam berdi. Ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun ta'lim muassasalarida samarali boshqaruv faoliyatini tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi hamda mamlakatimizda rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalaridan kelib chiqqan xolda o'quv dasturi va darsliklar yangilanmoqda, yangi metodlardan va ilg'or texnologiya-lardan keng foydalanish yo'lga qo'yilmoqda.

Yuqoridagilar asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim metodlari juda muhim rol o'ynaydi.

Chunki muammoli ta'lim talabalarni izlanishga, ijodkorlikka, erkin fikr yuritishga o'rgatadi. Talabalarda bunday sifatning shakllanishi, o'quv – biluv mas'uliyatini oshiradi, mustaqil bilim olish, izlanish uning kundalik odatiy ishiga aylanadi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim mazmunini, takomillashgan standartlar, moderinizatsiya qilingan dasturlarni to'la o'zlashtirib olishga kafolat bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. J.Yo'ldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva "Interfaol ta'lim sifat kafolati". Toshkent, "YUNSEF", 2008

2. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish". Toshkent, "Fan va texnologiya", 2008

3. Yo'ldoshev J. "Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishning asoslari" Xalq ta'limi jurnali, 1999 yil 6 – son, 4-6 betlar

### **PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING TALABALARDA SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.**

**Botirov Z.Z.**  
*QarshiDU magistri*

Bu holatni K.A. Abulkxanova-Slavskaya, B.G. Ananyev, L.I. Ansiferova, L.I. Bojovich, YE.I. Stepanova, Y.N. Kulyutkin V.A. Yakunin va h.k.) o'zlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida keng o'rganib chiqqanlar. N.I. Reynvaldning fikriga ko'ra, universitetda ta'lim boshida, talabalar situatsion sezuvchanlik davrini boshdan kechiradilar, ya'ni yangi talablar va ta'sirlarga bo'lgan yuqori sezuvchanlik aks ettiriladi. Bu yoshdagi davr boshqalar bilan o'zaro munosabat uslubining shakllanishi uchun katta ahamiyatga ega. V.I. Slobodchikov va G.A. Sukermanlar shaxsni voqealar qamrovida rivojlanishini kurib chiqib, talabalik davriga individual rivojlanishning o'ziga xos bosqichi sifatida baho berganlar. Rivojlanishning bu bosqichida yoshlarning sherigi insoniyatdir, ular qadriyatlar va ideallar tizimi vositasida faol munosabatlarga

kirishadilar. Bu rivojlanish bosqichining mohiyati ijtimoiy qadriyatlarni insonning shaxsiy pozitsiyasi o'lchovi bilan individuallashtirishdan iboratdir. Atrofdagilarning baholaridan ajralib, o'z avlodining kasbiy va siyosiy determinatsiyasini yengish orqali inson o'zi va o'zligi uchun javobgar bo'ladi. Berilgan xususiyatlarning shakllanish manbai yoshlarning yetakchi faoliyati: akademik va kasbiy tayyorgarligidir.

Universitet talabalarining kasbiy faoliyati tizimini shakllantirish tahlili Y.P. Povarenkov tadqiqotlarida ham o'rganilgan. Universitetdagi o'qish jarayonida kasbiy faoliyat tizimini shakllantirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Talaba kasbiy tayyorgarligining birinchi bosqichi natijasi sifatida yangi o'quv holati-o'quv faoliyatining maktab davridagi samarasizligini anglash bilan yuz beradi. Maktab tajribasini amalga oshirish davomida o'quvchi ma'lum qiyinchiliklarga duch keladi va ularning energetik imkoniyatlarini katta zo'riqtirish orqali ta'lim natijalariga erisha oladi. Ikkinchi kursda talabaning faolligi o'qish-o'rganish faoliyatining yangi shakl va usullarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, u keyingi kurslarda o'qitishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Uchinchi kursda ta'lim olish kasbiy rivojlanishning ijtimoiy vaziyati o'zgarishi bilan tavsiflanadi: akademik ta'limdan kasbni egallash ta'limiga aylanadi. Yangi holat pedagogik amaliyot jarayonida belgilanib, unda talabalar o'quv-bilish vazifalari bilan emas, balki kasbiy muammolarga duch keladilar. To'rtinchi kursda o'qitishning bosh vazifasi kasb-mahoratli shaxsni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Shunday qilib, talaba shaxsining malakasini oshirishda eng munozarali bo'lgan birinchi va uchinchi o'quv kurslari hisoblanadi. Birinchi o'quv yilining ziddiyati yangi sharoit va o'quv faoliyatining usullariga moslashish zaruriyatidan iborat.

Uchinchi kurs qiyinchiliklari o'quvchining shaxsiy tajribasi arsenalida mavjud bo'lgan o'quv harakatlarini o'quv-kasbiy faoliyatining o'zgargan holatiga o'tkazish zaruriyatidan kelib chiqadi. Shuning uchun birinchi va uchinchi kurs talabalarini uchun psixologik himoyaning konstruktiv usullarini o'zlashtirish eng dolzarb bo'lib bormoqda. Yuqoridagilar tajriba guruhlarini shakllantirishga asos bo'ldi.

Birinchi tajriba guruhi (TG-1) – psixologiya yo'nalishining 40 nafar birinchi kurs talabalarini (1-kursni yakunlayotgan talabalar). Birinchi guruhda shaxsning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirishga psixologik himoya haqidagi nazariy bilimlarning ta'siri sinovdan o'tkazildi. Ikkinchi tajriba guruhi (TG-2) – psixologiya yo'nalishining 36 nafar ikkinchi kursni yakunlayotgan talabalar. Ikkinchi guruhda shaxsning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirishga shaxs xususiyatlari haqidagi bilimlarning ta'siri sinab ko'rildi. Uchinchi tajriba guruhi (TG-3) – psixologiya yo'nalishining 54 nafar uchinchi kursni yakunlayotgan talabalardir. Ikkinchi guruhda shaxsning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirishda psixologik himoyadagi

nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning ta'siri sinab ko'rildi. 1, 2 nazorat guruhlarini psixologiya yo'nalishi birinchi va uchinchi kurs talabalaridan tashkil topgan.

Bo'lg'usi psixologlarning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirish bo'yicha tajriba-eksperiment ishlar dasturi maxsus kurs "Shaxsni psixologik himoya qilish muammolari" doirasida amalga oshirildi. Maxsus kurs psixologiya yo'nalishining 1-, 2-, va 3-kursni yakunlayotgan talabalarida o'tkazildi.

Maxsus kursning mazmuni uchta blokdan: diagnostik, nazariy va tashkil etilgan tajriba bloklaridan tashkil topgan.

Birinchi blok – diagnostika. Konstruktiv psixologik himoyaning muvaffaqiyatli shakllanishi ko'p tomonlama talaba-"Men" konsepsiyasining ijobiyligi va meyoriy shakllanganligiga bog'liqdir. Tuzilganlik rejasiga ko'ra diagnostika bloki shaxsning ayrim jihatlarini, yo'nalganligini va o'ziga xos xususiyatlaridan tashkil topgan-"Men" konsepsiyasini chuqurroq anglash orqali o'zligini takomillashtirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan o'zini-o'zi anglash jarayonidan iborat.

Diagnostika bloki mazmunan yo'nalganligiga ko'ra, maxsus kurs davomida ikki marta amalga oshirildi: psixologiya yo'nalishi talabalarining psixologik himoya tizimini o'rganishning kirish va chiqish nazorati usullarida.

Buning uchun quyidagi metodikalardan foydalandik:

-Plutchik-Kelerman-Konte so'rovnomasi-psixologik himoya tizimining umumiy kuchlanishini va uning alohida mexanizmlarini aniqlash, eng soddadan-yetuklikgacha bo'lgan himoya mexanizmlarini tahlil qilish meyorini;

-koping strategiyasining ko'rsatkichi-qiyinchilik va muammolarni bartaraf etish bo'yicha ularning konstruktivlik harakatlar darajasini baholash;

-shaxsiy differensiallik-o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish, psixologik faoliyatini himoya qilish ko'rsatkichlari sifatida.

Kirish va chiqish psixodiagnostika ko'rigidan so'ng, talabalar shaxsiy rivojlanishining umumiy tendensiyalari ko'rsatkichining natijalari bilan tanishadilar, o'zlarini boshqarish uchun konstruktiv psixologik himoya strategiyalarini tanlash bilan bog'liq tavsiya va yechimlar bilan qurollanadilar.

Ikkinchi, nazariy blokda psixologik himoya muammosiga ilmiy yondashuvlar ko'rib chiqildi, uning doirasida shaxsning psixologik himoya g'oyasi shaxsning yaxlitligini saqlab qolish va unga kiritilgan salohiyatni ro'yobga chiqarishga qaratilgan faol, ongli jarayon sifatida shakllandi. Talabalar bilan o'zaro aloqaning quyidagi shakllaridan foydalandik: ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari, shaxsga yo'naltirilgan individual va guruhviy maslahatlar.

"Psixologik himoya nazariyasiga kirish" mavzusini o'rganishdan maqsad- talabalarining psixologik himoya fenomeni haqidagi nazariy

tasavvurlarini o'rganishdan iborat edi. Mavzu doirasida psixologik himoyaning o'rganilish tarixi, mamlakatimiz va xorijiy psixologiyada psixologik himoya bo'yicha zamonaviy g'oyalari haqida ma'lumotlar berildi.

"Himoyalangan xulq-atvor psixologiyasi" mavzusi talabalarning xulq-atvorida psixologik himoyaning ko'rinishlari haqidagi fikrlarini shakllantirish maqsadida o'rganildi.

Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv usullarini shakllantirish bo'yicha eksperimental izlanish natijalarini statistik qayta ishlash Vilkokson T-mezone yordamida amalga oshirildi. Bu borada statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlar psixologik himoya mexanizmlaridan: repressiya, regressiya, rad etish, kompensatsiya, giperpensatsiyalarda aniqlandi. .

Birinchi kurs talabalarining "o'rnini egallash"ni himoya qilishning ibtidoiy mexanizmi keskinligi sezilarli darajada kamaydi (T-Vmea= 9,5 o'tish: saytda harakatlanish, qidiruv 6), bu ko'kalamzorlashtirish tendensiyasining pasayishiga ishora qiladi, ong sohasidan bezovta qiluvchi ma'lumotni olib tashlaydi.

"Orqaga qaytish" ibtidoiy mexanizmining ishlash kuchlanishini kamaytirish T-Vmea=8 da  $r < 0,01$  qiyinchiliklarni bartaraf etishda bolalarning xatti-harakatlarini tez-tez ishlatib turishi mumkin (1-jadval).

1-jadval

**Psixologik himoya mexanizmlarining 1-kurs talabalarida shakllantirish kuchlanishini o'zaro taqqoslashda Vilkokson mezonining empirik qiymatlari ifodasi**

Psixologlami himoya qilish mexanizmlari	O'rini egallash	Orqaga qaytish	O'rin almashirish	Rad etish	Loyihalashtirish	Kompensatsiya	Giperpensatsiya	Ratsionalizatsiya	PHUK
T-Vmea.	9,5*	8*	26	15,5	41,5	18	21	34,5	36,5

Eslatma: 1,11-0,05 darajasida muhim ahamiyatga ega  
 1,11\* - 0,01 muhim ahamiyatga ega  
 T-Vmea. - Vilkokson mezonining empirik ahamiyati  
 PHUK-psixologik himoyaning umumiy keskinligi

O'tish: saytda harakatlanish, qidiruv T-Vmea =41,5) statistik jihatdan sezilarli darajada o'zgaradi, ehtimol, bu talabalarining yoshi va ularning o'qitish profiliga bog'liq, tasdiqlangan adabiy manbalar va boshqa ilmiy tadqiqotlarda ham shunga yaqin holatlar kuzatilgan. "Rad etish" mexanizmining ishlash kuchlanishi (T-Vmea=15,5 da  $r < 0,05$ ) kamaydi va pasayishiga olib keldi, qiyinchiliklarga e'tibor bermaslik, qiyinchiliklarni

e'tiborsiz qoldirish kuzatildi. "Kompensatsiya" mexanizmlaridan foydalanish keskinligining oshishi. T-Vmea=18 da  $r < 0,05$ ), "giperkompensatsiya" (T-Vmea=21 da o'tish: saytda harakatlanish, qidiruv 6) mehnatning kognitiv tahlilini kuchaytirish, ularni yengish uchun mumkin bo'lgan variantlarni topishga intilish ifodalangan. Umumiy taranglikda statistik jihatdan psixologik himoyada ahamiyatli o'zgarishlar (T-Vmea=36,5) aniqlanmagan. Natijada, himoya mexanizmlari funksiyalarining o'rtacha intensivligi bir xil, yuqori darajada bo'lib qoldi. Ibtidoiy mexanizmlardan foydalanish chastotasini kamaytirish va yuksak kuchlanishning oshishi tadqiqot maqsadini tasdiqlash imkonini beradi. Tadqiqotda amalga oshirilgan ilmiy tarbiyaviy ta'sir talabalar shaxsining psixologik himoya tizimiga konstruktiv ta'siri aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга қураимиз. Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. -488 б.
2. Бассин Ф.В. Проблема психологической защиты // Психол. журнал. – 1988. - №9. – С.79-86.
3. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: дис. ... доктора психол. наук. – М., – 456 с.
4. Жабборов Х.Х. Ўсмирларда мафкуравий иммунитет шаклланишининг психологик омиллари. Пс.ф.б.фал.док. (PhD) дисс... – Т., 2019, -160 б.
5. М.Файзиёва Шахнинг психологик химоя механзмлари Монография.Қарши “Насаф” НМИУ-2021 йил.143 бет.
6. М.Файзиёва Шахс психологик химоя механзмларининг ижтимоий этник асослари. Пс.ф.д.(DSc) дисс...- Т.,2023,-201 б.

**HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGIGA OID KASBIY KOMPETENSIYALARNI BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA SHAKLLANTIRISH**

**Batirov Zafar Lutfullayevich**  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM,*  
**Maxmudov Yoqubjon Erkinovich**  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM assistenti,*  
**Lutfullayeva Marjona Zafar qizi**  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM talabasi*

Respublikamizda ilg'or ta'lim tizimini tadbqiq etishga yo'naltirilgan asosiy islohotlar natijasida yosh mutaxassislarni tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va axborot ta'minoti kengayib bormoqda. Shuningdek, mamlakatimizni yanada taraqqiy etishi bo'yicha harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim

xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifasi belgilangan. Shu nuqtai nazardan bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o'quv-uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o'zlashtirish natijalarini obyektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash lozimki, taqdim etilgan ilmiy ishlanmalarning ko'p qirrali bo'lishiga qaramay, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda hayot faoliyati xavfsizligi muammolari nuqtai nazaridan kasbiy tayyorlash muammolari ilmiy tadqiqotlar uchun yetarli darajada o'rganilmagan.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qish jarayonida “kompetensiya” va “kompetentlik” kabi tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganish va tahlil qilish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari respublikamiz olimlari N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, O.A.Quysinov va boshqalar, xorijiy mamlakatlarda V.I.Baydenko, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.I.Kuleshova, A.K.Markova, N.V.Skachkovalar tomonidan tadqiq etilgan.

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi holatlarning yetishmasligi aniqlandi:

- oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ularning hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha kasbiy tayyorgarligi yetarli emasligi;

- bo'lajak mutaxassislarning hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid kasbiy mahoratni shakllantirish jarayonining asosli tomonlarini asoslashda oliy ta'lim muassasalarida pedagogik nazariyaga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi;

- bo'lajak mutaxassislarning hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid kasbiy mahoratni ta'lim muassasalarida shakllantirish uchun ilmiy va uslubiy vositalarning yetishmasligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot yechimi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot ishi muammosiga oid ilmiy izlanishlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonlari samaradorligini oshirish, kasbiy kompetentligini

zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Olimlarning ta'kidlashicha, kompetensiya tushunchasi o'zining mantiqiy mohiyatiga ko'ra ko'p qirrali. Bundan tashqari, kompetensiyalar bir marta va butunlay berilgan yangi shakllar emasligi ta'kidlangan. Ular doimiy rivojlanish va yangilanishda, kengaytirilishi va boshqa kompetensiyalar bilan birlashishi mumkin, o'zini yangi sifatda namoyon qiladi, dialektik rivojlanish spiralini ifodalaydi. Ushbu rivojlanishning shartlari ishlab chiqarish sharoitlarining o'zgarishi, jamiyat ehtiyojlarining yangilanishi, qiymat yo'nalishlarining o'zgarishi bilan ifodalanadi [1, 87].

Oliy o'quv yurtlari ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarni belgilash muammolarini ko'rib chiqishda bugungi kunda nafaqat “kompetentlik”, balki “kasbiy kompetensiya” atamasi keng qo'llanilmoqda. Shu bois tadqiqotda kasbiy ta'lim sifati haqida gapirganda, kompetentlik-kompetensiyaning tarkibiy murakkabligi va talqinlarining xilma-xilligini aniqlab, masalaning holatini ta'rif bilan bog'liq holda tahlil qilish mantiqiy bo'ladi. “Kasbiy kompetensiya” tushunchasi, shuningdek, “kompetentlik-kompetensiya” tushunchasi juda noaniq talqin qilinadi.

Ko'pgina tadqiqotchilar, I.A.Zimnyaning fikricha, kasb-hunar ta'limi sohasida faoliyat yuritib, bu ta'rifning turli tomonlarini ajratib ko'rsatishadi. Shu sababli, mutaxassis faoliyati va shaxsiyatining “uch ustuni”ga asoslangan “bilmoq, bajarmoq, bo'lmoq” degan asosni hamma qo'llab-quvvatlasada, yo bilim va tajriba, yoki shaxsiy xususiyatlar yoki kasbiy jihat oldinga chiqadi [2, 14]. “Kasbiy kompetensiya” toifasi deganda mutaxassisning kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirish jarayonida samarali qarorlar qabul qilishga tayyorligi va qobiliyati tushuniladi. Umuman olganda, insonga tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatda professional faoliyatni samarali loyihalash va amalga oshirishga imkon beradigan birlashtirilgan bilim, ko'nikma va tajriba, shuningdek shaxsiy fazilatlar majmui bilan tavsiflanadi.

V.I.Baydenkoning ta'kidlashicha, subyektiv “kasbiy kompetensiya” ko'rsatkichlari mutaxassisning haqiqiy va potensial faoliyatining xususiyatlariga asoslanishi mumkin [3, 5; 4, 8].

Yuqorida tahlil qilinganlarni hisobga olgan holda, tadqiqot sharoitida biz kasbiy kompetensiya tushuncha sifatida fundamental bilimlar, ko'nikmalar va javoblarning adekvatligi bilan universitet bitiruvchisini tavsiflovchi ma'lum fazilatlar yig'indisi orqali aniqlanadi deb taxmin qilamiz. Biroq, tadqiqotda biz nafaqat kasbiy kompetensiyani, balki kasbiy tayyorgarlik tizimidan ajratilgan hayot xavfsizligini ta'minlashda kasbiy kompetensiya shaklida uning tarkibiy qismini shakllantirish imkoniyati bilan qiziqdik. Shunga ko'ra,

hayot xavfsizligini ta'minlashda professional kompetensiyani rivojlantirish uchun biz uning tarkibiy qismlarini aniqlashimiz kerak edi.

Oliy texnik ma'lumotli mutaxassis sifatida agroinjeneriya bo'yicha mutaxassisning hayotiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismini aniqlash uchun biz xavfsizlik, hayot xavfsizligi, qishloq xo'jaligi muhandisi va tahlil tushunchalarining terminologik tahlilini o'tkazdik. Shunday qilib, hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiya ijtimoiylashuv bosqichi bo'lib, uning doirasida subyekt mustaqil kasbiy faoliyatga tayyor bo'lib, o'zi va xodimlarining hayoti va sog'lig'ini saqlashni kafolatlaydi.

Shu munosabat bilan hayot xavfsizligini ta'minlashda professional kompetensiya tushunchasini aniqlashtirish haqida gapirish mumkin. Shunday qilib, "hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiya" tushunchasi insonning ajralmas mulki bo'lib, u o'zi va xodimlarining hayoti va sog'lig'ini saqlash uchun mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorligi namoyon bo'ladi, turli xil xavf-xatarlar taksonomiyasini bilishga asoslanadi. Bu ekologik xavflarni aniqlash va xavfsiz harakatlarni amalga oshirish usullarini o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy jihatdan muhim fazilatlar orqali amalga oshiriladigan o'z faoliyati natijalarini tahliliy va bashoratli baholash qobiliyatida ifodalaniadi. Hayot xavfsizligini ta'minlashda professional kompetensiyani rivojlantirish jarayonining yaxlitligini ifodalash uchun uni modelda aks ettirish taklif qilinadi.

Model (fransuzcha modele, lotincha modulus - o'lchov, namuna, meyor) - bu "mavjud yoki prognoz qilinayotgan o'rganish obyektini ko'rsatish yoki takrorlash orqali uni o'zgartirishga qodir bo'lgan aqliy ifodalangan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim.

"Model" haqiqiy jarayon yoki obyektning eng muhim xususiyatlari, oraliq modellarini qamrab oladi. Oraliq modellar (faoliyat modellari, kasbiy xususiyatlar modellari, rivojlanish modellari) umumlashtiruvchi kasbiy kompetensiyani shakllantirish, mutaxassisning maxsus qobiliyatlari mavjudligi va rivojlanishini ko'rsatadigan sifat jihatidan yangi modelni shakllantirishga imkon beradi. "Agroinjeneriya" yo'nalishi bo'yicha talabalarining hayotiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish modelini qurish, birinchi navbatda, uning tarkibiy tuzilishi, kasbiy vazifalar ro'yxati va mazmunini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, ushbu muammolarni hal qilishni ta'minlash uchun hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shartlari aniqlandi, ularga rioya qilish oliy ta'limning davlat ta'lim standartida belgilangan talablariga muvofiq amalga oshirilishi zarur. Tadqiqotda taklif etilgan model "Agroinjeneriya" yo'nalishi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik jarayonida hayot xavfsizligini ta'minlash

bo'yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonining asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ko'rib chiqilayotgan model maqsadli, tashkiliy, mazmunli va diagnostik bloklar ko'rinishidagi umumiy yaxlitligi bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiya rivojlanadi, bir darajadan ikkinchisiga o'tadi va uning holati har safar motivlar mazmuni, xavfsizlik bo'yicha bilim va ko'nikmalar, kasbiy jihatdan muhim fazilatlar ko'rinishidagi shaxsiy shakllanishlarning muvofiqligi asosida aniqlanishi mumkin [5, 128; 6, 849].

Diagnostika bloki tarkibidagi monitoring jarayon sifatida, bir tomondan, talabalarining "Agroinjeneriya" yo'nalishi bo'yicha erishgan yutuqlarini rejalashtirilgan natijalar bilan (mezon ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashni tashkil etish orqali) kuzatish va solishtirish, boshqa tomondan, xavfsizlikni ta'minlashda professional kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tuzatish tartibini amalga oshirish imkonini beradi. Oxir oqibat, ushbu blok hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining miqdoriy va sifat jihatlari haqida qisqacha ma'lumot berishga imkon beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Н.И.Анчукова. Психологическое сопровождение профессиональной деятельности: учебное пособие / Хабаровск: Изд-во ДВГУПС, 2010. – 124с.
2. И.А.Зимняя. Общая культура и социально-профессиональная компетентность человека // Высшее образование сегодня. –2005. – № 11. – С. 14-20.

## TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISH

**Abdusattorova Shaxzoda Obidxo'jayevna,**  
"Oriental Universiteti", Pedagogika fakulteti,  
Pedagogika va psixologiya yo'nalishi  
2-bosqich talabasi  
Ilmiy rahbar:  
**Kurbanova Zilola**

**Annatsiya.** Hayotning ijtimoiy zarurati, ta'limni boshqarishning nazariy va metodologik jihatlari maxsus ilmiy yo'nalish sifatida qabul qilib, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ta'lim boshqaruvining asosiy jihatlari nazariy va tadqiqot-tajriba nuktai nazaridan asoslash rahbarlari maxsus ilm va malaka bilan qurollantirish uchun kerak.

**Annotation.** The social need for life assumes the development of scientifically based methods of managing the educational process, taking the



*theoretical and methodological aspects of educational management as a special scientific direction. Justification of the main aspects of Educational Management from the point of view of theoretical and research-experimental nuktai is necessary in order to arm leaders with special knowledge and skills.*

**Аннотация.** Социальная необходимость жизни диктует необходимость разработки научно обоснованных методов управления учебно-воспитательным процессом, принимая в качестве специального научного направления теоретико-методологические аспекты управления образованием. Обоснование основных аспектов управления образованием с теоретической и научно-практической точек зрения необходимо для вооружения руководителей специальной наукой и квалификацией.

**Калит so'zlar:** iqtisod, falsafa, sotsiologiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya, kibernetika, ta'lim boshqaruvi.

**Keywords:** economics, philosophy, sociology, physiology, pedagogy, psychology, cybernetics, Educational Management.

**Ключевые слова:** экономика, философия, социология, физиология, педагогика, психология, кибернетика, управление образованием.

Hayotning ijtimoiy zarurati, ta'limni boshqarishning nazariy va metodologik jihatlarini maxsus ilmiy yo'nalish sifatida qabul qilib, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ta'lim boshqaruvining asosiy jihatlarini nazariy va tadqiqot-tajriba nuktai nazaridan asoslash rahbarlarni maxsus ilm va malaka bilan qurollantirish uchun kerak. Bu ularga boshqaruv jarayonida vujudga keladigan aniq muammolarni to'g'ri hal etish, ta'limga oid jumboqlarni holisona yechishga yordam beradi. Shu jihatdan ta'limning jiddiy nuksoni-ta'lim boshqaruviga oid tajribalarning deyarli utkazilmayotganligini diqqatdan chetda qoldirib bulmaydi. Chunki, bugungi kundagi eng asosiy muammo - boshqaruv tizimi sifatini tubdan o'zgartirishdan iborat. Buning uchun boshqaruv tizimini soddalashtirish, uning turdosh to'zilmalarini birlashtirish, oraliqdagi o'rinsiz bo'g'inlarni qisqartirish, har bir tizim darajasidagi vazifalar mohiyatidan imkon qadar oqilona foydalanish eng asosiy vazifalardandir. Hozirgi davrda ta'limni qayta qurishda boshqaruvning quyidagi jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi<sup>20</sup>:

-rejalashtirish; pedagoglar va o'quvchilar mehnatini tashkil etishning yangicha va foydali shakllarni izlab, tadbiiq etish; rahbarlik faoliyatida sharq mutafakkirlarining boshqaruv sohasidagi ta'limotlaridan foydalanish; quyidan nazorat; hisob va hisobot; boshqaruv darajasidagi o'zgarishlar, voqealarga e'tibor bilan qarash va tuzatish kiritish, ruhlantirish va undan keng foydalanish; pedagogik jamoa ijodiy faolligini oshirish;

<sup>20</sup> www.pedagog.uz

-pedagogik jamoa va uning har bir a'zosi faoliyatini chuqur tahlil etib o'rganish va boshqalar.

Ta'lim boshqaruvida boshqa turdagi faoliyatlar qatori eng muhimi boshqaruvning maqsadini belgilashdir. Boshqaruv maqsadi muammolarini ko'rib chiqish jarayonida birinchi galda shuni inobatga olish kerakki, maqsad eng avvalo umumiy tarzda yuqori tashkilotlar tomonidan (ijtimoiy-iqtisodiy buyurtma) belgilanib, ma'lum darajada har qanday quyi tashkilot ish faoliyatiga ta'sir qiladi hamda ularni tartibga soladi. Boshqa jihatdan, har bir jamoaning imkon darajasi va rezervlaridan kelib chiqib, umumiy maqsad aniq vazifalarga kuchadi hamda mazkur masalaga ijodiy yondoshgan taqdirda jamoa faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ichki boshqaruv jarayonida qabul qilinadigan yangi boshqaruv qarorlari (istikbolli, yillik va joriy rejalar, favqulotda qarorlar; buyruq, farmoyishlar, topshiriq va boshqalar) ham quyilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga qaratiladi.

Ta'lim muassasasi murakkab ijtimoiy tizim bo'lgani bois, boshqaruv ham murakkab jarayon sifatida tan olingan. Ma'lumki, ta'limning yagona maqsadi - har tomonlama rivojlangan, komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Ammo, shu bilan birga uning oldida juda ko'p turli vazifalar turganligi sababli xodimlar o'rtasida mehnatni to'g'ri va ilmiy jihatdan asoslangan holda tashkil etish zarurati bor. Hozirgi zamon boshqaruvi jarayonida bu jihatni hisobga olish lozim. Ta'lim tizimini ilmiy jihatdan boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

✓ boshqaruv mazmunida o'z aksini topgan davlat va ijtimoiy ta'lim manfaatlarining dialektik birligi;

✓ hozirgi zamon maktabi oldida turgan murakkab vazifalar bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv qirralarining kengayishi;

✓ ta'lim boshqaruvi qonuniyatlarining ob'ektiv va sub'ektiv jihatlarini idrok etib foydalanish va o'rganish orqali tizim rivojlanishini yangi, sifat jihatidan yanada mukammal holatga yetkazish;

✓ ta'lim boshqaruvi shakl va metodlarini milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda doimiy ravishda takomillashtirish;

✓ zamonaviy elektron-hisoblash mashinalaridan foydalangan holda boshqaruvning matematik, statistik hamda iqtisodiy metodlarini joriy etish hamda boshqaruv texnikasini rivojlantirish.

Ta'lim boshqaruvi nazariy asoslarining bundan keyingi jadal rivoji rahbarlarning hamda barcha pedagogik jamoa a'zolarining tashkiliy madaniy saviyalarini, maxsus va tashkilotchilik bilimi darajasini ko'taradi. Bu o'z navbatida eng muhim vazifalardan biri - boshqaruvni demokratiyalashtirish, keng ommani ta'lim boshqaruviga jalb qilish masalasini hal qiladi. Ta'lim boshqaruvi jarayoni bilan bevosita bog'liq ilmiy axborot texnologiyasining rivojlanishi boshqaruvning takomillashuviga yordam beradi. Ammo, ta'limni

talab darajasida boshqarish hamda ko'zlangan natijaga erishish uchun uning barcha bug'inlari faoliyati buyicha to'la axborotga ega bo'lish kerak bo'ladi. Boshqaruv muammolari keng qamrovli, fanlararo xususiyatlarga ega bo'lib, o'zida iqtisod, falsafa, sotsiologiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya, kibernetika va boshqa fanlar sintezini qamrab oladi.

Ta'limni boshqarish tizimi tashqi muhit bilan bog'liqligi tufayli ochiq tizim. Mazkur tizimning vazifasi bevosita o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadiga buysunadi. Boshqaruv jarayoni aslida barcha murakkab tizimlar qatoridan o'rin olganligi bois, bir butun tizim sifatida qarashga asos bo'ladi. Unga quyidagi jihatlar xos<sup>21</sup>:

- ✓ o'z xususiyatlariga ega bo'lgan ma'lum qismlarning mavjudligi;
- ✓ qismlarning o'zaro aloqadaliqli va bir-biri bilan bog'liqligi (umumiy birlikka egaligi);
- ✓ ichki tashkiliylikka egaligi;
- ✓ qismlar, elementlarning buysunishi va buysunuvchanligi;
- ✓ ma'lum tashqi muhitda mavjud bo'lib, bir birlikni tashkil qilishi hamda o'z navbatida tizim faoliyatini davom ettirishga asos bo'lishi;
- ✓ faoliyatning maqsadga qaratilganligi, maqsadga erishish uchun intilishi;
- ✓ dinamik harakat, rivojlanishi;
- ✓ barqaror holatni saklab qolish qobiliyati;
- ✓ tabiatida qarama-qarshilik mavjudligi;
- ✓ pedagogik jamoaning boshqaruv ishiga faol va o'z vaqtida qatnashishi.

Yuqoridagi jihatlari bor tizimda masalalar tahlil va sintez etilib, hal kilinadi. Ta'limni boshqarish tizimi ikkita quyi tizim, ya'ni boshqaruvchi va boshqa riluvchi tizimlarga bo'linadi. Shundan kelib chiqib boshqaruv ham to'zilma, ham jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Hozirgi paytda boshqaruv metodining ma'lum tasnifi mavjud. Bu tasnif ta'lim muassasasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib rahbar faoliyatida qo'llanilishi mumkin. Bu tasnifga iqtisodiy, tashkiliy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik metodlarni kiritish mumkin. Ularning har biriga xalq ta'limini boshqarishning aniq metodlari to'g'ri keladi. Maktab jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajara turib, o'z xususiyatiga ko'ra ijtimoiy tizim bo'lishiga qaramasdan, boshqaruv jarayoni iqtisodiy munosabatlariga suyanadi. Shu bois boshqaruvning iqtisodiy metodlari jamiyatni qayta qurish sharoitida yetakchi bo'lib, ularning mavkei doimo o'sib boradi. Tashkiliy-pedagogik metodlarni ikki qismga bo'lish mumkin. Birinchi qism - "tashkiliy metodlar" bo'lib, boshqaruvning statik xususiyatini, uning tashkiliy tuzilishi, doimiyligi, muhim kommunikativ aloqalarini belgilaydi. Bu aloqalar tizimida to'g'ri va teskari oqimlar

(yo'naltiruvchi topshriqlar, boshqaruv akti, hisobot xujjatlari va boshqalar) faoliyat ko'rsatadi. Ikkinchi qism - "tartibga keltiruvchi metodlar" - boshqaruv jarayoni dinamikasini o'zida aks ettiradi. Mazkur metodlar bevosita ijtimoiy qonunlar asosida xalq ta'limi tizimini boshqarishning xuquqiy tomonlarini yoritadi.

Ijtimoiy-psixologik metodlar ham ikki qismga bo'linadi: ijtimoiy va psixologik. Boshqaruvning ijtimoiy metodi har bir jamoa a'zolarida ob'ektiv va zarurat asosida vujudga keluvchi voqealarni ijtimoiy jarayon negizida boshqaradi. Ularning asl maqsadi ijtimoiy munosabatlarning to'g'ri shakllanishini ta'minlashdir. Boshqaruvning psixologik metodi jamoada zarur, yaxshi ruhiy muhitni shakllantirish uchun lozim. Bu shunday muhit bo'lmog'i lozimki, bir tomondan jamoa oldiga qo'yilgan ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirsa, ikkinchi tomondan jamoaning har bir a'zosining manfaati va qobiliyatini inobatga olgan holda ehtiyojlarni qondiradi. Boshqaruvda bundan tashqari "uyg'otuvchi" metoddan ham foydalaniladi (harakatga keltirish uchun o'tkaziladigan tazyik, odamni mehnat qilishga majbur etish). Bu o'ziga quyidagi usullarni qamrab olgan: moddiy rag'batlantirish, axloqiy-tarbiyaviy dalillar, majburiy ta'sir o'tkazish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Petroveskiy A.V. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. M. 1979.
2. Qarshiboyev M. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent 2010 y -120 b.
3. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixologiyai. T.: O'qituvchi, 1997. – 102 b.

<sup>21</sup> Nishonova Z.T. Ergashev P.S. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent 2012 y -67 b.

**IV SHO‘BA. TARBIYA FANI MUTAXASSISLARINI  
KASBIY FAOLIYATGA YO‘NALTIRISH  
TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING  
PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TA‘MINOTI**

---

---

**TARBIYA JARAYONING MOHIYATI**

**K.O.Matnazarova**

*Oriental Universiteti “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi”  
kafedrasi dosenti p.f.f.d (PhD)*

**F.Hakimxojayeva**

*Oriental Universiteti Pedagogika va psixologiya  
yo‘nalishi 1-kurs talabasi*

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada yosh avlod tarbiyasi, tarbiyaning asosiy g‘oyalari, xodimni farqlovchi belgilari, oilaparvarlikni farqlovchi belgilar, dunyoqarash, dunyoqarashni shakllantirish hamda tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari va o‘ziga xos jihatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g‘oyalarga tayanish haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *Tarbiya, dunyoqarash, tarbiya jarayoni, qonuniyat, halollik, rosgo‘yyilik, sezgirlik, mehr-shavqat, Vatan.*

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье приводятся сведения о воспитании молодого поколения, основных идеях воспитания, отличительных чертах работника, отличительных чертах семейной жизни, мировоззрении, формировании мировоззрения, а также опираясь на существующие теоретические и практические представления о природе, законах. и специфические аспекты образовательного процесса.*

**Ключевые слова:** *Воспитание, мировоззрение, воспитательный процесс, законность, честность, правдивость, чуткость, доброта, Родина.*

**ANNOTATION**

*This article provides information about the education of the younger generation, the main ideas of education, the distinctive features of an employee, the distinctive features of family life, worldview, the formation of a worldview, as well as based on existing theoretical and practical ideas about nature and laws. and specific aspects of the educational process.*

**Key words:** *Education, worldview, educational process, legality, honesty, truthfulness, sensitivity, kindness, Motherland.*

Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o‘z ma’ruzalarida, “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deb ta’kidlaydi.

Sunday ekan tarbiya mukammal bo‘lishi uchun bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Tarbiya jarayonining mazmuni—bu bilimlar, e’tiqodlar, ko‘nikmalar, sifatlar, shaxs qiyofasi, axloqning barqaror odatlari tizimi bo‘lib, tarbiyalanuvchilar qo‘yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq ularni egallab olishlari zarur.

Tarbiyaning asosiy g‘oyalari:

1. Tarbiya maqsadlari aniqligi;
2. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati;
3. O‘z yo‘lini belgilab olishi;
4. Tarbiyachining shaxsiy yo‘nalganligi;
5. Ixtiyoriylik;
6. Jamoaviylikka yo‘nalganlik.

Uyushgan tarbiya insonni hayotdagi uchta asosiy rolga — fuqarolikga, xodimlikga va oilaparvarlikga tayyorlashi lozim.

**Fuqarolikni shakllantirish chog‘ida aniq mo‘ljalga asoslanish:**

- fuqarolik majburiyatlari — Vatan, jamiyat, ota-ona oldidagi majburiyat hissi, milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘usi;
  - davlat Konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti, davlat ramzlari (gerb, bayroq, madhiya)ga hurmat;
  - mamlakat taqdiriga javobgarlik;
  - jamoat tartibi va yashash madaniyati;
  - mamlakatning milliy boyligi, tili, madaniyati, an’analarini asrab-avaylash;
  - ijtimoiy faollik;
  - demokratik tamoyillarga rioya etish;
  - tabiatni asrab-avaylash;
  - o‘zgalarning huquq va erkini hurmat qilish;
  - faol hayotiy jarayon;
  - o‘z huquqini anglash va fuqarolik mas’uliyati;
  - halollik, rosgo‘yyilik, sezgirlik, mehr-shavqat;
  - o‘z ishi va qilmishlariga javobgarlik;
  - xalqaro hamkorlik, boshqa mamlakatlar xalqiga hurmat va hokazo.
- Xodimni farqlovchi belgilar:**
- intizomlilik va mas’uliyatlilik;
  - ishchanlik va tashkilotchilik;
  - umumiy, maxsus va iqtisodiy bilimlar;

- siyosiy bilimlar;
- mehnatga ijodiy yondashish;
- qat’iyat, topshirilgan vazifani tez va sifatli bajarishga intilish;
- kasbiy g’urur, mahoratga hurmat ko’rsatish;
- onglilik, xushmuomalalik, tartiblilik;
- mehnat faoliyati tajribasi;
- mehnatga, hayotga, faoliyatga estetik munosabat;
- jamoaviy, birlashib mehnat qilish layoqati;
- tashabbuskorlik, mustaqillik, Vatan, jamiyat ravnaqi uchun ko’p va samarali mehnat qilishga tayyorlik;
- ishchanlik va uddaburonlik va boshqalar.

**Oilaparvarlikni farqlovchi belgilar:**

- mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik;
- xushmuomalalilik, muloyimlik, aloqa madaniyati;
- o’zini jamoada tuta bilishi;
- pokizalik, ozodalik, gigienik ko’nikmalari;
- salomatlik, faol turmush tarziga ko’nikishi;
- dam olishni tashkil etish, o’tkazish omilkorligi;
- har tomonlama bilimdonlik;
- huquqiy normalar va qonunlarni bilishi;
- bolalarni tarbiyalash layoqati;
- o’z ota-onalari, yoshi ulug’ kishilarga hurmat va boshqalar.

**Yosh avlod tarbiyasida dunyoqarashni shakllantirish.**

Dunyoqarash — bu kishi ongining bilimlar, qarashlar, maslak va oliy maqsadlarni qamragan, tabiat va jamiyatning rivojlanishiga uning munosabatini ko’rsatadigan, uning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-estetik mavqei va xulqini hayotning turli sohalarida belgilaydigan o’ziga xos sohadir.

Bilimlar — dunyoqarashning ob’ektiv komponenti sifatida, shaxsning tavsifiy, tasdiqlanuvchi mulohazasi shakliga ega bo’lib, ilmiy haqiqat tarzida tasavvur etiladi.

**Qarashlar** — bu hikmatning tabiat va jamiyatda uchrovchi u yoki bu hodisalarini tushuntirish, bu hodisalarga o’zining munosabatini ko’rsatish bilan bog’liq bo’lgan hukmlar, sub’ektiv xulosalardir.

**Ishonch** — bu chuqur anglangan va hayajon bilan boshdan kechirgan g’oyalarga majmui bo’lib, ular mafkura, siyosat, axloq va san’atga daxldor bo’lgan shaxsning hayotiy mavqeyi hamda faoliyati va axloqi xarakterining barqaror ekanligini bildiradi.

**Oliy maqsad** — anglab yetilgan va ta’sirchan idrok etishning oliy kamoloti bo’lib, shaxsning faoliyat maqsadi va hayotiy maslagidir.

**Dunyoqarash vazifalari:**

- axborot in’ikosi;

- boshqaruvchi;
- baholovchi;

**Dunyoqarashning asosiy ko’rinishlari:**

- ilmiy;
- diniy;
- kundalik (hayotiy).

**Ilmiy bilimlarning maslakka aylanishiga yordam beruvchi ruhiy-pedagogik mexanizmlar va pedagogik shart-sharoitlar:**

- bilimlarni chuqur va mustahkam o’zlashtirish;
- dunyoqarash xarakteridagi barcha dalil va asoslarning mantiqan isbot etiluvchi va o’zaro zid emasligini chuqur ilmiy asoslash;
- ta’lim va tarbiyaning fuqarolikga yo’nalishi;
- tarixiylik tamoyilini amalga oshirish;
- bilish faolligi va mustaqilligini rivojlantirish;
- o’rganayotganlarning o’rganilayotgan materialga nisbatan hissiy munosabatini uyg’otish;
- o’qituvchi shaxsining ijobiy ta’siri.

**Fuqaro** — bu muayyan davlatda doimo yashaydigan, uning himoyasidan foydalanadigan, huquq va burchlar majmuiga ega bo’lgan shaxsdir.

**Vatanparvarlik** — o’z vataniga, xalqiga sadoqat va mehr-muhabbatdir.

Kishining tug’ilib o’sgan joyiga bog’liqlik, ona tiliga bo’lgan hurmat, vatan manfaatlariga sodiqlik va g’amxo’rlik, uning erkin va mustaqilligini himoyalash;

- ijtimoiy va madaniy yutuqlaridan faxrlanish;
- tarixiy o’tmish va axloqiy an’analarga hurmat munosabati;

O’zining mehnati, kuchi va qobiliyatini vatan ravnaqiga bag’ishlash hissi vatanparvarlikda namoyon bo’ladi.

Xalqaro munosabatlar madaniyati turli xalqlarning xalqaro iqtisodiy, ma’naviy axloqlari, turli millat vakillarining o’zaro hurmat qilishlari, muayyan axloqiy xushmuomalalikni saqlashning, boshqa xalqlarning tili, odatlari va an’alarini mensimaslikka yo’l qo’ymaslikda ko’rinadi, bu munosabatlarning yuqori darajadagi takomili va rivojlanishini ko’zda tutadi.

Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari va o’ziga xos jihatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g’oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilaydi:

1. Tarbiya jarayonining umumiy loyihasi;
2. Tarbiyani tashkil etishga bo’lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag’bat);
3. Tarbiya maqsadi.
4. Tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);
5. O’qituvchi (tarbiyachi) faoliyati;

6. O'quvchi (tarbiyalanuvchi faoliyati);

7. Tarbiya samarasi (natija).

Tarbiya nazariyasi — pedagogikaning bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarni aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida tahkidlanadi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan insonni emas, balki ijodkor, o'z iste'dodi bilan ajralib turuvchi ishbilarmon insonni tarbiyalash zamon taqozosidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmankulova, K.O.Matnazarova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". Darslik. Nizomiy nomidagi TDPU, 2014 yil

2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmankulova, K.O.Matnazarova, S.Xafizov, M.K.Shirinov, "Umumiy pedagogika" Darslik. - T.: "Fan va texnologiya", 2018.

## **BOLALARGA MA'NAVIY TARBIYA BERISHDA OILANING O'RNI**

**K.O.Matnazarova**

*Oriental Universiteti "Uzluksiz ta'lim pedagogikasi"  
kafedrasi dosenti p.f.f.d (PhD)*

**Z.X.Nosirova**

*Oriental Universiteti Pedagogika va psixologiya  
yo'nalishi I-kurs talabasi*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada inson shaxsini shakllantirishda oila va ijtimoiy jamiyatning o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, ahloqiy mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi bo'lib, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir.*

**Tayanch so'zlar:** *Bola, jamiyat, shaxs, ijtimoiy, oila, inson, tarbiya, ota-ona, ma'naviyat, farzand.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье представлена информация о роли семьи и социального общества в формировании личности человека. Семья – сложная социальная группа, которая формируется в результате*

*сочетания биологических, социальных, нравственных, идеологических и духовных отношений. Семья является главной опорой государства и общества, и общество заинтересовано в ее силе, мире, благополучии и стабильности.*

**Ключевые слова:** *Человек, общество, личность, социальное, семья, воспитание, родитель, духовность, ребенок.*

### **ANNOTATION**

*This article provides information about the role of family and social society in the formation of a person's personality. A family is a complex social group that is formed as a result of a combination of biological, social, moral, ideological and spiritual relationships. The family is the main support of the state and society, and society is interested in its strength, peace, prosperity and stability.*

**Key words:** *Man, society, personality, social, family, education, child, parent, spirituality, child.*

Ma'naviyat insonning asosiy mohiyatini ifodalovchi, uning faoliyatiga ijobiy mazmun va yo'nalish beruvchi ichki ruhiy omilidir. Fan texnika taraqqiyoti jadal suratlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan eng asosiy va dolzarb vazifalardan biridir. Insonning ma'naviyatli shaxs sifatida shakllanishida oila ilk zamin hisoblanadi. Jamiyat rivojlanib, ma'naviy omillarning ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati ortgani sari oiladagi tarbiyaga e'tibor ham kuchaya boradi. Bu borada oiladagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ota-onalarda farzandlar oldidagi, farzandlarda ota-ona va jamiyat oldidagi, burch va mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Oila jamiyatning bir bo'laki. Shunday ekan, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, ahloqiy mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila tor maishiy tushuncha emas, balki u ijtimoiy jamoa. Shu sababli oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi.

Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazadi. Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir. Oilada ma'naviy va jismoniy yetuk avlodni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozim.

Shuni unutmash lozimki, farzandlarimizning har tamonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina, oila tarbiyasi muvaffaqiyatli

bo'lishi mumkin. Yosh avlod hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar.

Oiladagi mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bolalar kamol torib boradilar. An'ana va marosim tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi.

Kelajagimizning bunday bo'lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq. Bu qonuniyat oilaning tarbiya borasidagi faoliyatiga ham bog'liq. Oilaviy tarbiyaning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos bir olam, u tarbiya ishida ham o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlashi mumkin. Oila tarbiyasi ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha yutuqlar, tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona o'z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlariga bog'liqdir. Bundan tashqari normal oilaviy muhit, ota-onaning obro'si, to'g'ri kundalik reja, bolaning kitob o'qishiga, mehnat qilishiga o'z vaqtida jalb qilishlari ham muhim muvaffaqiyat garovidir.

Oilada ota yoki onaning yo'qligi yoki ketib qolishi tarbiyaga juda katta zarar ko'rsatadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'siri kuchi yo'qoladi. Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarahotlanadi. U tajang, serjahl, qopol, dag'al bo'lib qoladi, kattalarga ishonmay qo'yadi. O'qishi ham pasayib ketadi.

Oila tarbiyasidagi muammolardan biri yolg'iz farzandni tarbiyalashdir. Bunday sharoitda bola faqat kattalar davrasida bo'ladi. O'ziga yaqin yoshdagi bolalar bilan muomala qilish imkoniyati bo'lmaydi. Oilada ko'p bola bo'lsa, ular bir-birini tarbiyalaydi. Bundan tashqari oiladagi kelishmovchiliklar, ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi tengsizlikka asoslangan munosabatlar, ayrim ota-onalarning madaniyat va ma'lumotining nisbatan past saviyada ekanligi tarbiyaga xalaqit beradi, oilaviy muhitda qarama-qarshiliklar, o'zaro kelishmovchiliklarni vujudga keltiradi.

Oila tarbiyasi uydagi omillarga diqqatini qaratmog'i lozim. Jumladan, oilada ruhiy xotirjamlik, samimiyluk munosabatlari shakllangan bo'lishi, ota-ona obro'si yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oiladagi kattalar o'rtasidagi birlikni saqlanishi, bola shaxsini mehnatda tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevis va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rganish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, boladagi mustaqillikka intilishni va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash kabilardir.

Oila tarbiyasida ota-ona obro'si muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bu obro'ni esa ibratli hulqi, ahloqi, intizomi, kamtarligi, ishbilarmonligi bilan

qo'lga kiritadilar. Obro' orttirishda eng avvalo, ibrat-namuna muhim rol o'ynaydi. Oilada ota-onalarning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim ahamiyatga egadir. Ularning odilona me'yorli talabchanligi obro' orttirishning muhim yo'llaridan biridir. Tarbiya jarayoni zerikarli, quruq haqiqatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim.

O'zbek oilasi tarbiyasida, ayniqsa, otaning obro'si katta ahamiyatga egadir. Ayoli, bolalari oldida obro'ga ega bo'lgan ota, jamoat orasida ham obro' topadi. Oilada obro'si yo'q otadan tarbiya olgan bola, ko'pincha, o'g'ri, muttaham, yolg'onchi bo'lib yetishishi shubhasizdir. Ota-ona farzandlari nigohida eng buyuk kishilardir. Shuning uchun eng yaxshi sifatleri bilangina obro' qozonishlari kerak. Insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan ota-ona o'z farzandlari tamonidan bir umr e'zozlanadi.

4. Kommunikatsiya vositalari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilar o'rtasidagi kommunikatsiya (aloqa) ni oshiradi. Elektron chat yoki video darslar va konferensiyalar orqali o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirish imkoni ochiladi. Bu o'quvchilarni hamkorlik qilish, guruh ishlarini bajarish va masalalar yechishda bir-biriga ko'maklashishiga imkon beradi.

AKT vositalaridan foydalanishning boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishga ta'siri haqida gaplashsak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish traditsionallikdan uzoqda turli-tuman usullar bilan o'rganish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni o'zaro aloqalar o'rnatish, ma'lumot almashish va bilimlarni amalda sinash jarayonlarini yanada qulaylashtirishi mumkin. Quyidagi texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda yordam berishi mumkin:

1. Elektron pochta. Bu dastur garchi bizda unchalik mashhur bo'lmasada, boshqa chet el davlatlarda juda keng ommalashgan. O'quvchilarga elektron pochtdan xabar yuborish orqali ular bilan xabarlashish mumkin. Bu dars belgilari, vazifalar, o'quv materiallari va boshqa xabarlar uchun yaxshi bir vosita bo'lishi mumkin.

2. Veb-saytlar va veb-platfomalari. O'quvchilarni bilimlarini oshirish, vazifalar berish va ma'lumot almashish uchun veb-saytlar va veb-platfomalardan foydalanish mumkin. Bu platfomalari orqali elektron darslar o'tkazish, vazifalarni yuklash va baholash, forumlar orqali o'quvchilar bilan muloqot qilish va boshqa vazifalarni amalga oshirish mumkin.

3. Videodarslar va onlayn ta'limlar. Videodarslar va onlayn ta'limlar o'quvchilarga o'qish jarayonida qo'llanilishi mumkin. Darslarni videodarslar orqali o'tkazish, onlayn ta'lim resurslaridan foydalanish yoki mavjud videodarslarni o'quvchilarga taqdim qilish mumkin.

4. Video-konferensiyalar. O'quvchilar masofaviy darslarda qatnashishlari uchun video-konferensiyalar orqali aloqaga o'tish mumkin. Bu Zoom, Google Meet, Microsoft Teams va boshqa onlayn konferensiya platfomalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

5. Mobil ilovalar. Mobil ilovalar orqali ham o'quvchilarga dars materiallarini taqdim etish va ular bilan o'zaro aloqada bo'lish mumkin.

6. Ijtimoiy tarmoqlar: Ijtimoiy tarmoqlar, masalan, Telegram, WhatsApp, va boshqa platfomalari, o'quvchilar bilan o'zaro aloqada bo'lishingiz uchun qulay vositalardir. O'quvchilarga dars materiallarini, maqolalarini, videolarini va boshqalarini ijtimoiy tarmoqlar orqali yuborish mumkin.

7. Interaktiv proektorlar va smart doskalar. Bugungi kunda deyarli barcha zamonaviy maktab, kollej va universitetlarda smart doskalar mavjud. O'quvchilarni qiziqtirish va o'qish jarayonini qiziqarliroq qilish uchun interaktiv proektorlar va smart doskalarni qo'llash mumkin. Bu dars materiallarini vizual ko'rinishda namoyish etish va o'quvchilarning qatnashishini oshirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'qitishning innovatsion AKT vositalari va integratsiyasi O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq, ushbu AKT texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq muammolarni hal qilish infratuzilmani rivojlantirish, o'qituvchilar malakasini oshirish, kontentni rivojlantirish va xususiy sektor bilan hamkorlikni o'z ichiga olgan bir qancha qirrali yondashuvni talab qiladi. O'zbekistonda AKT vositalaridan foydalanib o'qitishning innovatsion usullarini o'zlashtirish uchun yanada qulay muhit yaratish bu yosh o'quvchilar uchun AKT vositalaridan foydalanish ta'lim natijalarini yaxshilaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdullaev M. Madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat. // J. Muloqot. 1999. №3. 11-13 b.
2. Aliev A. Pedagogik madaniyat: Metod va mahorat qirralari. // J.Xalq ta'limi. 1992. №5 10-12 b.
3. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari.: Ps. fan. nom. diss. avtoref.–T.: 2002.–22 b.
4. Aripov M., Xaydarov A. «Informatika asoslari» O'quv qo'llanma, Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 2002 y.
5. Aripov M «Informatika. Axborot texnologiyalari» 1-2 qism. «O'quv qo'llanma» Toshkent-2003 y.
6. Sattorov A., Qurmanboev B. «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari».Toshkent. «O'qituvchi»,1996 y.
7. Tishlikov A.P. O'sarov R.U., Isoqov I.I. «Pedagogika institutlarida o'quv jarayonini EXM yordamida boshqarish» O'quv qo'llanma, Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti, 1995 y.
8. <https://www.edu.uz>



## TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI METODIKALAR

*Rustamiy Moxichexra*  
*Oriental universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada olimlarning tanqidiy fikrlashga oid nazariy yondashuvlari, mazkur yondashuvlar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar, ulardan samarali foydalanishning qator imkoniyatlari haqida bilimlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada til o'qitishning samaradorligiga erishishga xizmat qiladigan usullar, ta'lim jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar haqida fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tanqidiy fikrlash, ratsionallik, konsepsiya, skeptitsizm, baholash, tanqid, aniqlash, Platon, g'oyalar, eksklyuziv, metod, spektizm.

Tanqidiy fikrlash — fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta'riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu — o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, o'zini o'zi nazorat qiladigan va o'zini o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib, kamolga yetishi bilan bog'liqdir. Odamlar, eng avvalo, yoshlarning ong – u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir"<sup>22</sup>.

Bugungi kunda yosh avlodni ma'nan va jismonan sog'lom, aqliy-intellektual salohiyatga ega, har tomonlama teran fikrlay oladigan inson qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish alohida ahamiyatga ega. O'quvchi yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, ularda eng avvalo tanqidiy fikrlash bo'yicha ko'nikmalarni to'g'ri shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz tanqidiy fikrlash deganda kimningdir qilgan ishini qoralash yoki uning salbiy tomonlarini ko'rsatishni nazarda tutadi. Aslini olganda esa tanqidiy fikrlash tushunchasi quyidagi mazmun mohiyatga ega:

Tanqidiy fikrlash — fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta'riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu — o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, o'zini o'zi nazorat qiladigan va o'zini o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm va sotsosentrizmni yengib o'tishni talab qiladi.

Tanqidiy fikrlashning intellektual asoslari, shuningdek, etimologiyasi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi, ya'ni bundan 2500 yil avval Suqrotning o'qitish amaliyoti va fikrlarida bu tushunchaga yaqin mazmuni uchratish mumkin; Suqrot savollarni tekshirishning yangi usulini ixtiro qildi, bu odamlarning bilimiga bo'lgan ishonchini oqilona aniqlashga qodir emasligining zaifligini ko'rsatdi va bunda Sokratik kinoya ham bor edi.

Tanqidiy fikrlash bilan bog'liq eng qadimgi yozuvlar Platon tomonidan yozilgan Suqrot ta'limotini taqdim etgan dialoglardir. Ular Platonning birinchi dialoglari bo'lib, Suqrot bir yoki bir nechta suhbatdoshlari bilan axloqiy masalalar, masalan, Suqrotning qamoqdan qochishi to'g'ri bo'ladimi, degan mavzuda gaplashadi.

Faylasuf bu masalani o'ylab, mulohaza yuritadi va shunday xulosaga keladi: qochish uning ustida tutgan barcha narsalarni (qadriyatlarini) buzadi, masalan, Afina qonunlari va Suqrot tinglayman, degan ichki rahbar ovoz. Suqrot tanqidiy haqiqatni aniqlab berdiki, inson bilim va aqlga „hokimiyat“ (obro') asosida bog'liq bo'lmaydi.

U hokimiyat va yuqori lavozim egalari juda sarosimali va mantiqsiz bo'lishi mumkinligini isbotladi. Suqrotning fikricha, yaxshi hayot kechirish va hayotning qadriga yetish uchun inson tanqidiy savol beruvchi, „surishtiruvchi ruh“ga ega bo'lishi kerak. U g'oyalarni e'tiqodga loyiq deb qabul qilishdan oldin, uni chuqur o'ylashga undaydigan chuqur savollar berish kerakligini anglatadi.

Tanqidiy fikrlash Richard V.Pol tomonidan ikki to'liqinli harakat sifatida tasvirlangan (1994). Tanqidiy fikrlashning „birinchi to'liqini“ ko'pincha „tanqidiy tahlil“, tanqidni o'z ichiga olgan sof, oqilona fikrlash deb ataladi.

Uning tafsilotlari unga murojaat qilganlar orasida farq qiladi. Barri K.Beyer (1995) fikriga ko'ra, tanqidiy fikrlash aniq, asosli hukm chiqarishni anglatadi. Tanqidiy fikrlash jarayonida g'oyalar isbotlanishi, to'liq ko'rib chiqilishi va baholanishi kerak.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bo'yicha AQSh Milliy kengashi tanqidiy fikrlashni quyidagicha ta'riflaydi: " kuzatish, tajriba, mulohaza yuritish,

<sup>22</sup> Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'quza 2017-yil 14-yanvar Toshkent "O'zbekiston" 2017-104 b

mulo hazalar yoki muloqot orqali to'plangan yoki hosil qilingan ma'lumotlarni e'tiqod va harakatni (kontseptuallashtirish) boshqaradigan tushunchalarga faol va mohirona aylantirish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish yoki baholashning intellektual, ilg'or jarayoni sifatida aniqlanadi.

Loik tafakkurining „birinchi to'liqini“da mutafakkir o'z tafakkur yo'nalishidan tashqariga chiqib, tushuncha yoki g'oyalar o'rtasidagi bog'lanishlarni tarfkashlikdan xoli tahlil qiladi.

"Tanqidiy fikrlashda mantiqdan tashqari" inshosida Kerri S.Uolters ushbu mafkurani quyidagicha ta'riflaydi: „Tanqidiy fikrlashning mantiqiy izlanishlari talabalarga quyidagilarni ma'lum qiladi: [[Norasmiy mantiq]Fikrlash faqat norasmiy (va ozroq darajada rasmiy) tartiblarga mos kelgandagina qonuniydir va tanlangan fikrlovchi tahliliy, tekshirish va baholashda mavhum, universal va obyektiv.uslubga qaratilgan.Ushbu fikrlash modeli an'anaviy akademik donolikka shunchalik singib ketganki, ko'plab o'qituvchilar buni qonun sifatida qabul qilishadi.“ Bunday tamoyillar koinotning miqdoriy tushunchasiga tobora ko'proq bog'liqlik bilan paydo bo'ldi.

Tanqidiy fikrlashning „ikkinchi to'liqini“ mualliflari „birinchi to'liqin“ga xos bo'lgan tanqidiy fikrlashning logosentrik modelidan ongli ravishda uzoqlashdilar.Garchi ko'pgina olimlar tanqidiy fikrlashni tashkil etuvchi narsaga nisbatan kamroq ekslyuziv nuqtai nazarni qabul qila boshlagan bo'lsalar ham, ratsionallik va mantiq tanqidiy fikrlashning asosiy asoslari sifatida qabul qilindi.

Valtersning fikriga ko'ra, „birinchi to'liqin“ ning ekslyuziv logosentrizmi „yaxshi fikrlash mantiqiy fikrlash uchun soddalashtirilgan fikrlash degan asossiz taxmin“ bilan boshqarilgan. Shuni alohida e'tirof etmoq lozimki, xorijiy tillarning o'qitilish jarayonida pedagoglar, tilshunoslar, metodistlar, filologlar, faylasuflar, professorlar, adabiyotshunoslarning o'ziga xos va bir-birini takrorlamaydigan o'qitish metodlari, eng yuqori samaraga ega bo'lgan tajribalari ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlamq joizki, Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillar, masalan, ingliz tili, fransuz tili, xitoy tili, nemis tili, ispan va boshqa shu kabi tillarning maxsus metodlar orqali talabalarga mukammal qilib yetkazilishi til o'rganuvchilarning ishtiyoqi hamda qiziqishini nihoyatda oshiradi.

“Miya hujumi”- Hozirgi paytda biz pedagoglarning asosiy vazifamizdan biri talabada mustaqil shug'ullanish malakasini hosil qilishidir. Interaktiv usullardan foydalanilganda, talabaning barcha psixik jarayonlari idrok ong, diqqat, xotira, sezgi, aql, tasavvur, tafakkuri ishga tushib, muammoni yechish uchun izlashga, qidirishga, fikrini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

“Dumaloq stol metodi”- Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varag'i davra bo'ylab o'tkaziladi. Har bir talaba o'zining javob variantini yozib qo'yadi va

vara qni boshqa talabaga uzatadi. Javoblar tugagach, muhokama bo'ladi. Noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblar soniga qarab talabalar baholanadi.

Masalan:1- Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini ko'rsating. 2- Pedagog mahoratlarini aytib bering. Yoki 1-Shaxs komponentlarini belgilab bering. 2-Leongard bo'yicha xarakter xususiyatlarini sanab bering va h. k.

“Uch bosqichli intervyu”- Guruh 3 ga bo'linadi pedagog – talaba - ekspert. Har bir guruh shu rollarni egallaydi. “Pedagog” guruhi mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar berishi, “talaba” guruhi javob berishi, “Ekspert” guruhi ularni baholashi zarur. Ekspert 3 bo'limga bo'lib baholaydi:

Nimalar to'g'ri qilindi. Nimalar noto'g'ri qilindi. Qanday qilish kerak edi. Bu metod talabalarga so'rab-surishtirish, pedagogik muloqot olib borish, bilim va malakalarni tekshirish va baholashni o'rgatadi.

Zamonaviy til texnologiyalarining xususiyatlari quyidagicha:

- Tabiatga asoslangan;
- Amaliyotga asoslangan;
- Rang-barangligi;
- Mashqlar orqali muammoli masalalarni oson va aniqlik bilan bajarish uchun tizimlashtirilganligi;
- Uzoq natijaviylikka ega ekanligi;
- Psixologik hamda pedagogik rag'batlantiruvchi kuchga asoslanganligi;
- Dunyoqarash va ilmiylik tushunchalari bilan hamohangligi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday yaratuvchanlik zamirida o'ziga xos kamolot va intellektual salohiyatning mahsuli yotadi. Ya'ni talabalarga tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ularni amaliy tarzda qo'llay olish imkoniyatining o'ziga xosligi nafaqat tilshunoslar, balki jamiki pedagog jamoasi tomonidan amaliyotga tatbiq etilayotgan zamonaviy metodlar hamda strategiyalarning keng ravishda qo'llanilishidan iboratdir. Zero, aql va tafakkur hamisha bir tan-u, bir jon bo'lib xizmat qilishini unutmasligimiz lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev “Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assambleyasining 72 –sessiyasidagi nutqini o'rganish bo'yicha ”illmiy – ommabop risola. Toshkent -2017, “Ma'naviyat ” nashriyoti, 130 –bet.
2. Andreyeva G. M. “ Sotsialnaya psixologiya”– M, 1998, 376-bet.
- 3.V. Qo'chqorov, O. Mahmudov. Z. Zamonov 10 -11- sinflar uchun darslik. Toshkent “Yangiyo'l poligraf servis” 2017. 38-bet.
3. A. Xoliqov “ Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Toshkent -2017 312 –bet.

4. Albrint A ‘‘ Teachers attitudes toward information and communication technologies: The case of Syrian EFL teachers. Computers & Education’’.

England–2006, pages–455-435.

5. Campbell A. P Using Live Journal for Authentic Communication in EFL

Classes’’. The Internet TESL Journal 10(9), retrieved, Novemeber-18, pages– 155-200

## V SHO‘BA. UZLUKSIZ TA‘LIMDA PSIXOLOGIK XIZMAT: ZAMONAVIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

---

### CBT AS AN EVIDENCE BASED TREATMENT FOR ATTENTION DEFICIT AND HYPERACTIVITY DISORDER

*Aghayeva Kamala Sardar*  
PhD in clinical psychology student  
at Baku State University, Azerbaijan

**Abstract:** Attention deficit and hyperactivity disorder (ADHD) is a neurodevelopmental disorder of children. Adults do not grow out of symptoms of ADHD, but learn to manage some of them. They still experience impairment due to the deficits in executive functioning. The prevalence of ADHD among children is about 5-10 percent and among adults is about 3-5 percent. Cognitive behavioral therapy (CBT) is one of the evidence based treatment methods for ADHD along with medication. According to several research papers, CBT can be as effective as medication and in some cases even show better results. CBT applied together with medication has longer lasting effect.

**Key phrases:** inattention, hyperactivity, impulsiveness, cognitive therapy

**Аннотация:** Синдром дефицита внимания и гиперактивности (СДВГ) – нарушение нервно-психического развития детей. Взрослые не перерастают симптомы СДВГ, а учатся справляться с некоторыми из них. Они по-прежнему испытывают нарушения из-за дефицита исполнительных функций. Распространенность СДВГ среди детей составляет около 5–10 процентов, а среди взрослых – около 3–5 процентов. Когнитивно-поведенческая терапия (КПТ) является одним из научно обоснованных методов лечения СДВГ наряду с медикаментозным лечением. Согласно нескольким исследовательским работам, КПТ может быть столь же эффективной, как и лекарства, а в некоторых случаях даже показывать лучшие результаты. КПТ, применяемая вместе с лекарствами, имеет более длительный эффект.

**Ключевые фразы:** невнимательность, гиперактивность, импульсивность, когнитивная терапия

**Annotatsiya:** *Diqqat etishmasligi va giperaktivlik buzilishi (DEHB) bolalarning neyro-rivojlanish buzilishidir. Kattalar DEHB belgilaridan o'smaydi, lekin ularning ba'zilarini boshqarishni o'rganadilar. Ijroiya faoliyatidagi kamchiliklar tufayli ular hali ham buzilishlarni boshdan kechirmoqda. Bolalarda DEHB tarqalishi taxminan 5-10 foizni, kattalarda esa 3-5 foizni tashkil qiladi. Kognitiv xulq-atvor terapiyasi (CBT) dori bilan birga DEHB uchun dalillarga asoslangan davolash usullaridan biridir. Bir nechta tadqiqot hujjatlariga ko'ra, CBT dori kabi samarali bo'lishi mumkin va ba'zi hollarda hatto yaxshi natijalarni ko'rsatadi. Dori-darmonlar bilan birgalikda qo'llaniladigan CBT uzoq muddatli ta'sirga ega.*

**Tayanch iboralar:** *e'tiborsizlik, giperaktivlik, impulsivlik, kognitiv terapiya*

Attention deficit hyperactivity disorder (ADHD) is a childhood neurodevelopmental disorder marked by inappropriate levels of inattention, hyperactivity, and impulsivity. It is observed that parents or teachers do not typically raise concerns about these symptoms directly. Instead, they may express concerns about the child's behavior, which is often rooted in these primary symptoms. For instance, a child may struggle to stay seated in class or pay attention to the teacher, disrupting lessons and causing disturbances among peers, prompting complaints from teachers. Similarly, at home, difficulties with studying, time management, and maintaining orderliness with belongings can create challenges for parents, leading them to seek assistance [1].

The prevalence of ADHD among children is approximately 5-10%, and among adults, it's around 3-5% [2]. While doctors have described symptoms of this disorder for years, its widespread nature has only recently been fully recognized. ADHD often coexists with learning difficulties, emotional, and behavioral disorders, with a higher occurrence among boys, although it's not rare in girls. Previous beliefs that symptoms fade with age or are solely a result of upbringing have been replaced by the understanding that ADHD persists into adulthood and requires treatment.

ADHD is typically diagnosed during elementary school years, but it can also be identified in adults. The disorder is categorized into three main types such as, predominantly inattentive type, predominantly hyperactive-impulsive type, and combined ADHD, as outlined in the DSM-5. Since the 1990s, ADHD diagnosis has become more prevalent, not necessarily due to an increase in cases but because of improved diagnostic methods and increased awareness among parents, leading them to seek medical advice when noticing symptoms. Symptoms of ADHD manifest consistently across different

settings, indicating chronicity and typically present by age 12. Onset of such symptoms later in life suggests alternative diagnoses should be considered [3].

Individuals with ADHD often contend with persistent unwanted thoughts and beliefs that disrupt their ability to concentrate, stay motivated, and pursue their goals. Cognitive Behavioral Therapy (CBT) provides tailored strategies to counter these unhelpful cognitive patterns, fostering positive behavioral changes. CBT, rooted in the premise that distorted thoughts and emotions influence behavior, equips individuals with techniques to tackle automatic negative thoughts that fuel emotional distress and exacerbate symptoms of mental health conditions like anxiety and depression [4, 5, 6]. Beyond addressing distorted thoughts, CBT imparts relaxation methods, problem-solving skills, and emotional regulation techniques, enhancing interpersonal understanding.

CBT does not affect core symptoms as much, they rather teach children how to manage them. The psychotherapist can work on skills to help children to be organized and focused. Also it is important to work with children to help them to manage the disruptive behaviors, prevent problems at school, among their peers or family life. Children with severe ADHD symptoms benefit from medication and CBT applied at the same time. For some children CBT may help to manage symptoms without medication. Since medication only works when children take them and stop working when they do not take them, it would be beneficial for children to participate in behavioral therapy. Because skills they learn through behavioral therapy will continue to benefit them.

Numerous studies indicate that CBT can significantly improve ADHD symptoms, even among individuals already receiving medication. Furthermore, CBT interventions demonstrate lasting benefits, including improvements in executive function and reductions in anxiety and depression symptoms. Combined with medication, CBT appears particularly effective in enhancing day-to-day functioning and overall well-being. While effective interventions primarily involve educating teachers and parents on interacting with these children, incorporating CBT and social skills training can significantly enhance the child's behavior regulation and functionality. This approach fosters better relationships with authority figures and peers alike. Sessions equip the child with techniques to improve communication, manage emotions and thoughts, and organize activities effectively.

Roughly half of children with ADHD contend with social isolation due to their core symptoms of inattention, impulsivity, and hyperactivity. Negative attention from caregivers and educators can compound these issues, leading to feelings of rejection and self-perception issues. Social withdrawal hampers the development of crucial skills like attention and self-control, potentially exacerbating primary symptoms and giving rise to secondary problems such

as depression and aggression, further isolating the child. Breaking this detrimental cycle is imperative to prevent long-term consequences like antisocial behavior and personality disorders. Addressing it requires a multifaceted approach involving medication when necessary, cultivating supportive environments at home and school, and engaging in targeted training with the child. Group-based cognitive behavioral sessions provide a platform for learning and practicing new behaviors in a setting mirroring real-life contexts, aiding in the transfer of skills to everyday situations. Collaboration with parents and teachers is key, ensuring they understand the training process and can reinforce learned skills. Sustained and intensive training over time is crucial for skill mastery and application in real-world settings. Initially, weekly sessions of 20-25 lessons lasting 25-30 minutes are recommended, gradually tapering off to less frequent intervals as skills are internalized. Periodic reassessment and adjustment, particularly during developmental transitions, are vital to accommodate evolving needs. Keeping group sizes small, ideally no more than eight participants, ensures effective management and individual attention during sessions. The session should adhere to the structured approach of cognitive behavioral therapy, ensuring interactivity and engaging presentation for children. The primary objective is to cultivate a sense of group participation, allowing children to grasp behavioral norms and develop self-regulation and respect for boundaries. Classes progressively introduce various skills through role-playing, discussions, creative tasks, and games. Many activities foster teamwork, emphasizing solidarity and mutual assistance. Relationship-building skills involve discussions on friendship, communication nuances, and conflict resolution. Through role-playing and discussions, children learn to tactfully defend their interests while considering others'.

Children with ADHD frequently exhibit impulsive behavior, thus structured sessions focus on pausing, contemplating, and considering multiple responses to a given situation. By exploring diverse problem scenarios through role-play or skits, children experiment with different approaches, receive feedback, and engage in group discussions to evaluate outcomes. Addressing anger and aggression, prevalent in ADHD, involves psychoeducation on understanding triggers and consequences [6, 7]. Techniques such as identifying irrational beliefs, relaxation methods, and emotion regulation strategies are practiced. Cognitive therapy aids in realistic appraisal of situations, discerning others' motivations, and interpreting actions more thoughtfully. Recognizing the susceptibility to peer influence, particularly in those with ADHD, training emphasizes the importance of assertiveness in expressing personal opinions and interests despite group dynamics. Encouraging self-evaluation devoid of harsh judgment, children

learn to embrace themselves without extremes of idealization or devaluation, separating actions from self-worth. Children learn to differentiate between emotions and thoughts, assessing their intensity and relevance to the situation. Recognizing difficulties in self-organization, children adopt cognitive strategies to combat procrastination and avoidance, employing tools like notebooks, timers, and reminders to enhance productivity and task management.

#### LIST OF REFERENCES:

1. American Psychiatric Association: Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders, Fifth Edition. Arlington, VA, American Psychiatric Association, 2013.
2. Polanczyk G, de Lima MS, Horta BL, Biederman J, Rohde LA (2007) The worldwide prevalence of ADHD: a systematic review and metaregression analysis. *Am J Psychiatry* 164(6):942–948
3. Dillon, D. G., & Pizzagalli, D. A. (2007, December 1). Inhibition of action, thought, and emotion: A selective neurobiological review. *Applied & Preventive Psychology*; Elsevier BV. <https://doi.org/10.1016/j.appsy.2007.09.004>
4. Barkley, R. A. (1997). Behavioral inhibition, sustained attention, and executive functions: Constructing a unifying theory of ADHD. *Psychological Bulletin*, 121, 65–94.
5. Johnstone, Stuart J., et al. "A Pilot Study of Combined Working Memory and Inhibition Training for Children With AD/HD." *Adhd Attention Deficit and Hyperactivity Disorders*, vol. 31–42, no. 1, 28 Jan. 2010, <https://doi.org/10.1007/s12402-009-0017-z>.
6. Lopez, P. L., Torrente, F. M., Ciapponi, A., Lischinsky, A. G., Cetkovich-Bakmas, M., Rojas, J. I., Romano, M., & Manes, F. F. (2018). Cognitive-behavioural interventions for attention deficit hyperactivity disorder (ADHD) in adults. *The Cochrane database of systematic reviews*, 3(3), CD010840. <https://doi.org/10.1002/14651858.CD010840.pub2>
7. Ojina, B. T., Parisapogu, A., Sherpa, M. L., Choday, S., Ravi, N., Giva, S., Shantha Kumar, V., Shrestha, N., Tran, H. H., & Penumetcha, S. S. (2022). Efficacy of Cognitive Behavioral Therapy and Methylphenidate in the Treatment of Attention Deficit Hyperactivity Disorder in Children and Adolescents: A Systematic Review. *Cureus*, 14(12), e32647. <https://doi.org/10.7759/cureus.32647>

**TALABALARNING TIL SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA  
SAMARALI METODLAR (BOSHLANG'ICH TA'LIM  
YO'NALISHI MISOLIDA)**

**Karimova Shaxloxon,**  
*Oriental universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishida ona tilini o'qitishda mavjud muammo va yechimlar, nutqiy ko'nikmalarni takomillashtirish va uning ilmiy-nazariy asoslari to'g'risida to'xtab o'tilgan. Til ta'limida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun grammatik mashqlar interfaol metodlar va samarali usullar asosida bajarilishi talabalarning lisoniy bilim va malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** yozma nutq, og'zaki nutq, nutqiy ko'nikma, til nazariyasi, qonuniyatlari, grammatika, morfologiya, interfaol metod, nutqiy kompetensiya, so'z turkumlari, sintaktik qurilma, matn.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются существующие проблемы и решения в обучении родному языку по направлению начального образования, совершенствование речевых навыков и его научно-теоретические основы. Для использования на практических занятиях, направленных на развитие речевых навыков в языковом образовании, даны методические рекомендации о том, что выполнение грамматических упражнений на основе интерактивных методов и эффективных приемов приобретает важное значение для развития языковых знаний и навыков учащихся.

**Ключевые слова:** письменная речь, устная речь, речевые навыки, теория языка, законы, грамматика, морфология, интерактивный метод, речевая компетентность, категории слов, синтаксический прием, текст.

**Annotation:** this article stops on the existing problems and solutions in teaching the native language in the direction of primary education, the improvement of speech skills and its scientific and theoretical foundations. Methodological recommendations are given on the importance of the implementation of grammatical exercises on the basis of interactive methods and effective methods for use in practical exercises aimed at the development of speech skills in language education in the development of linguistic knowledge and skills of students.

**Keywords:** written speech, oral speech, nutqiy skill, language theory, laws, grammar, morphology, interactive method, speech competence, word categories, syntactic device, text.

**KIRISH**

Nutq madaniyatga erishish, namunali nutq (og'zaki va yozma) tuzish malakasiga ega bo'lish har bir shaxs umummadaniyatining ajralmas va tarkibiy qismi ekanligi ma'lum. Til ta'limida asosiy diqqat e'tibor o'zbek tili birliklarining butun imkoniyatlarini talabalarga tanishtirish orqali ona tilining naqadar boy, serjilo va qadimiy ekanligini yanada teran anglashga, ulardan ijtimoiy sharoitda nutqiy vaziyatga mos foydalana olish malakasini rivojlantirishga qaratish muhimdir.

Talabalarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko'pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analarimiz ruhida tarbiyalashda ona til fanining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi har ikki nutq ko'rinishi: ham og'zaki, ham yozma shaklida bemalol xatosiz fikr ifoda eta olishi zarurdir. Savodxonlikka qadam qo'yayotgan bolajonlar uchun namunali nutq egasi, albatta bu – birinchi muallimdir.

Bundan ko'rinadiki, mazkur yo'nalishda tehsil oluvchi talabalarning grammatik qonuniyatlarga amal qilgan holda va ayniqsa, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda, fikrlarini ham og'zaki, ham yozma tarzda namunali nutq tuzishga erishuvini ta'minlash asosiy burchimiz hisoblanadi. Shunday ekan, "Ona tili nazariyasi" va "O'qituvchi nutq madaniyati" kabi majburiy va tanlov fanlari dasturida ayni ta'limiy maqsadlar ko'zda tutilgan.<sup>23</sup> Talabalarda ijodkorlikni, mustaqil fikrlashni tarbiyalash, o'z shaxsiy fikrini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish uchun ona tili ta'limining mazmunini tubdan yangilash, ta'lim jarayoniga o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Ta'lim bosqichlarida ona tili o'qitilishining talab darajasida emasligining bosh sabablaridan biri shundaki, ong va tafakkurni rivojlantirishda ona tilining tutgan o'rniga noto'g'ri baho berishimizdir. Ongni, tafakkurni shakllantirish asosan ijtimoiy fanlarga rtegishli deb deb bilib, ona tilidan ta'lim mazmunini ona tili qurilishining ilmiy talqini, grammatikani o'rganishdan iborat deb hisobladi. Natijada talaba-o'quvchi grammatik qoidalarni quruq yodlash bilan kifoyalanib, qoidalar asosida turli hajm va murakkablikdagi ko'plab topshiriqlarni bajarsa-da, og'zaki va yozma savodxonligi sezilarli sifat darajasiga ko'tarilmadi. Bir so'z bilan aytganda, savodxonlik "oqsadi".

<sup>23</sup> Bu haqda qarang: Karimova Sh. Ona tili nazariyasi. Darslik. Toshkent, 2023.

Talabalarning ko'pchilik qismida ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalari hamon past saviyada qolib kelmoqda. Bu holning asosiy sabablarini faqat o'qituvchiga to'nkash yoki ta'lim jarayoniga moddiy-texnikaviy kamchilikni ro'kach qilish adolatsizlikdir. Mavjud holat ko'p jihatdan ona tili ta'limining maqsadi mazmuni va usuliga aloqador bo'lib, uni yangilash hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiyaning zamon talablari darajasida takomillashtirilishi, yoshlarning ma'naviy barkamol shaxslar bo'lib yetishida asosiy omillardan hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni ilmiy jihatdan takomillashtirish, ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga to'liq joriy qilish to'grisida ko'plab fikrlar bayon etilmoqda. Zero, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning ham ta'limiy ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi dars maqsadiga erishishda o'quvchilarning imloviy savodxonligi, uni yanada takomillashtirish usullaridan foydalanish va darslarni tashkil qilish o'ziga xos ahamiyat kasb etar ekan, o'qituvchining o'zi birinchi galdasavodxonlikka erishganbo'lishi lozim.

Ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan qator vazifalarga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish va amaliyotga joriy etish ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida talabalalarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Ona tili kursidan hosil qilingan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi.

Darsda talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etishga, foydalaniladigan til materialining g'oyaviy-siyosiy, estetik va badiiy qimmatli bo'lishiga, tilni o'rganish jarayonida ularning dunyoqarash elementlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berish zarur. Deylik, "Ot va uning leksik-grammatik xususiyatlari" mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlovchi amaliy mashg'ulotda quyida matn va shu asosda bajariladigan toshiriqlardan foydalanishni tavsiya etamiz:

#### HALOLLIK GIGIYENASI

*Dasturxonimizga tortiladigan taom masalliqalarini xarid qilishdan to uni tayyorlab, pishirib, suzib keltirguncha ularning ozodaligiga e'tibor qilamiz. Muxxonada saqlaymiz, chang-g'ubordan muhofazalash uchun doka-sochiqlar*

*yopib qo'yamiz. Nihoyat, ovqatlanishga o'tirishdan avval qo'llarimizni yuvamiz; qoshiq va sanchqilarni qayta-qayta artishdan erinmaymiz.*

*Uncha-buncha ozodalik gigiyenasiga odatlanganimiz bois, mikrobdan qo'rqamiz, biroq ozodalik gigiyenasidan ilgariroq keladigan, ehtimol mikrobdan dahshatliroq bo'lgan halollik gigiyenasini xayolimizga keltirmaymiz.*

*Dasturxonimizga tortilayotgan masalliqalarni, tanovul qilayotgan noz-ne'matlarni halollab topdikmi? Qayerdan keldi ular ro'zg'orimizga? Qaysi mehnatlarimiz evaziga qozonimizga solyapmiz ularni? Birovlarning haqidan urib qolganimiz hisobiga emasmi? Kimlarnidir qon qaqshatish hisobiga orttirmagan edikmi ularni? Boshiga og'ir musibat tushgan bechoradan tama yo'li bilan undirib olgan poralarimiz hisobiga emasmi?..*

*Nopok va harom yo'llar bilan topilgan taomni jig'ildonga tiqishtirayotib ozodalik gigiyenasiga har qancha rioya qilmaylik, bu bilan luqmamiz poklanib qoladimi?*

*Bozor munosabatlarining tinimsiz toblanishi, o'tish davrining shiddati va behalovat turmush tarzi odamlarni shu qadar komiga tortib ketdiki, bunday nozik savollar haqida o'ylashga, mulohaza yuritishga fursat yetmayapti. Eng dahshatlisi shundaki, mana shunday taqchilikka ko'nika borganimiz sayin o'zimizni savolga tutish, o'zimizni o'zimiz tergash odati ham unutilib ketmoqda.*

*Yaxshiyam, jamiyatimizda ijtimoiy muhofaza siyosati barqaror, aks holda shataloq otayotgan, imoniy nafsini bozoriy nafsiga ikki qo'llab almashlab yuborayotganlar yana qanaqangi «karomatlar» ko'rsatmas edi! Shuning uchun ham barchamiz «Halollik gigiyenasi»ga rioya qilaylik!*

Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, ijodiy izlanish muhiti yaratilgan darslardagina zarur axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Ona tili darslarida o'zbek tiliga muhabbat va so'zga ehtiyotlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o'rganish jarayonida leksik-uslubiy ishlarga katta o'rin beriladi. Har bir talaba individual yoki kichik guruhlarda ishlashi ham mumkin. *Topshiriq:*

#### 1. Tinglab tushunish mashqi.

*Yuqoridagi matn o'qib bo'lingach, quyidagi savollar beriladi:*

1. Matnda qaysi insoniy xislatlar haqida so'z yuritilgan?
2. Ozodalik va halollik gigiyenasi o'rtasida qanday o'xshashlik bor?
3. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli qanday ekan? Va uni asosan kimlar amalga oshiruvchi shaxslar kim?
4. Bozor munosabatlari avj olgan zamonda har kim ham halollik tushunchasiga to'g'ri yondashyaptimi?
5. Halol kasb orqali mashhurlikka erishgan va xayrli ishlarga qo'l urgan

## 2. Og`zaki nutqni o`stirish mashqi

1. Siz matnga qanday nom topgan bo`lar edingiz?
  2. Halollik tushunchasini qanday izohlaysiz?
  3. Halollik haqida qanday o`zbek maqollarini bilasiz?
  4. Halol insonlar jasorati haqida, halollikning foydalari to`grisida yozilgan qaysi badiiy asarlarni esladingsiz?
  5. Bu asarlardan siz qanday xulosa chiqargansiz?
3. Yozma nutqni rivojlantiruvchi mashq
1. Matnda aytilishi va yozilishi farqlanadigan so`zlarni ajrating va ikki ustunga ajratib yozing.

Talafuziga ko`ra	Yozilishiga ko`ra
Unchamuncha	Uncha-buncha
Mikrop	Mikrob
Dastirxon	Dasturxon
Erimmaymiz	Erinmaymiz
Taxchillikka	Taqchillikka
Pursat	Fursat

2. Lug`at ustida ishlash. Xorijiy tajribada ham til egalarining muayyan til malakalarini egallashda asosiy yordamchi vosita lug`atlar ekanligi e`tirof etilib, savodxonlik borasida amaliy foydalari ko`p qayd etilgan.<sup>24</sup>

### 6. Grammatik bilimni mustahkamlovchi mashq

1. Matndan so`zlarning tuzilishiga ko`ra faqat juft so`zlarni ajratib yozing. Hosil bo`lishiga qiqqat qiling va so`z turkumini aniqlang. Juft so`z bog`lanib kelgan so`z bilan birga ko`chiring.

Masalan, ota-ona (ot so`z turkumi, bir-biriga mazmunan yaqin so`zlardan tuzilgan), alang-jalang qaraydilar (Ravish so`z turkumi, har ikki qismi atash ma`nosiga ega bo`lmagan so`zlardan hosil bo`lgan).

### 2. Matn tarkibidagi otlarni quyidagicha turkumlarga ajrating:

Shaxs otlari	Narsa-buyum	Faoliyat-jarayon oti	Mavhum ot	Orin-joy nomi	Sanalmaydigan ot	Aniq ot
inson	dasturxon	savdo-sotiq	jasorat	bozor	ozodalik	jig`ildon
...	...	...	...	...	...	...

### 3. Ot so`z turkumiga oid so`z bog`lanib kelgan birikmalarni jadval bo`yicha to`ldiring:

Ot+ot	Sifat + ot	Ot+fe`l	Ravish+ot	Harakatno mi +ot	Fe`l + ot	ot
Bozor munosabatlar i	ijtimoiy muhofaza	fursat yetmayapt i	Uncha-buncha odamlar	Yashash zavqi	tortiladiga n taom	jig`ildonga urmoq
...	...	...	...	...	...	...

Darsda she`r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi. Ona tili o`qitish jarayoni o`quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi.

### 7. Xotirani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.

Ona tili darslari har bir inson uchun zarur bo`lgan xotira va diqqat ustida tinimsiz ishlashni taqazo etadi, til egasining so`z boyligi kengligi yaratilajak matn va nutqning rang-barangligiga xizmat qiladi. Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko`nikmalarni shakllantirish maqsadini o`z oldiga qo`ysa, darsning mantiqiy shartlari asta murakkablashtirib borilgan mashqlar tizimini aks ettiradi. O`qituvchi slaydga yozilishi qiyin so`zlardan 20 tasini yozib, bir marta o`qib olish imkonini beradi va ekran o`chgach, talabalar yodda qolgan so`zlarni qog`ozga tushiradilar. 18-20 ta so`z uchun 5 ball, 15-17 ta so`z uchun 4 ball, 12-14 ta so`z uchun 3 ball beriladi:

## TAHLIL VA NATIJLAR

Talabalar bunday topshiriqni imloviy va grammatik vazifalardan so`zng bajarilishi samaraliroq, biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o`rganib olishlari uchun bir-ikki mashq jamoaviy ravishda bajartiriladi. Talabalar mustaqilligi oshgach, mashqni mustaqil ishlaydilar. Darsda bajarilgan mashqlar o`rtasidagi bog`lanishni shakllantiradigan ko`nikmaning xususiyati ham sabab bo`ladi. O`quv materialining mavzuga darsning maqsadiga mos bo`lishi uning maqsadga yo`naltirilishini ta`minlaydi. Darsda foydalaniladigan barcha o`quv materiallari (shu jumladan, til dalillarini kuzatish, imlo va nutqqa oid mashqlarni bajarish uchun tanlanadigan materiallar ham) darsning maqsadiga juda mos bo`lishi zarur.

Ona tili darslari ijtimoiy-ma`rifiy foydali bo`lishi uchun talabalarda o`z fikrini grammatik to`g`ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va ravon fikrini bera olish ko`nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o`stirish ko`rsatmasi grammatik materialni o`rgatishda talabalarining tilimizdagi har bir so`z turkumi yoki gap bo`lagining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo`llashni talab etadi, ya`ni grammatik nazariya grammatik to`g`ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab,

<sup>24</sup>Isabel Beck, Charles Perfetti, Margaret G.Mckewon. Effects of long-term vocabulary instruction on lexical access and reading comprehension. August 1982. Journal of Educational Psychology DOI:10.1037/0022-0663.74.4.506 August, D., Carlo, M., Dressler, C., & Snow, C. (2005). The critical role of vocabulary development for English language learners. Learning Disabilities Research and Practice, 20, 50-57



tushunib yozish malakalarini rivojlantirishga amalda tatbiq etish uchun o'rgatiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar nutqini o'stirish darsning mazmunida va qo'llaniladigan vazifalar turlarida o'z aksini topadi. Ularning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish jarayoni ularning tafakkurini o'stirish bilan bog'liq. Tafakkurni o'stirish ustida ishlash maqsadiga yo'naltirilganligiga qarab bunda muayyan grammatik va imloviy materialni o'rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o'zlashtirishni taminlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan topshiriqlarni bajarishish tushuniladi.

Ona tili darslarida ta'limiy maqsadlarga erishishning foydali bo'lishiga darsda og'zaki va yozma ishlarni maqsadga muvofiq o'tkazish, talabalarining o'quv ishlarini tekshirib, nazorat qilib borish, o'z vaqtida xatolarning oldini olish va to'g'rilash, texnika vositalaridan foydalanish kabi omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir mashg'ulot o'qituvchining sa'y-harakati bilan san'at darajasiga ko'tariladi. Dars jarayonida qat'iy andoza bo'lishi mumkin emas. Biroq darsning bosqichlari: vazifalarni tekshirish, takrorlash, yangi materialni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish bosqichlariga rioya qilish tajribada o'zini oqlayapti. Har bir bosqichni mavzuga muvofiq didaktik jihatdan boyitish esa o'qituvchining pedagogic mahoratiga bog'liq. Shunga qaramay, bularga ijobiy yondashish, darsning maqsadi va foydalaniladigan metodik usullariga asoslangan holda bosqichlar orasidagi ichki bog'lanish, belgilangan ishlarning mazmunini aniq belgilab olish katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligi kerak.

### XULOSA

